O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON PSIXOLOGLARI ILMIY-AMALIY JAMIYATI
SURXONDARYO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI
“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI” ILMIY JURNALI

“PSIXOLOGIK XIZMAT TIZIMINING ZAMONAVIY MODELLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI” MAVZUSIDAGI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI

TERMIZ - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

SURXONDARYO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON PSIXOLOGLARI ILMIY-AMALIY JAMIYATI

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI” ILMIY JURNALI

“PSIXOLOGIK XIZMAT TIZIMINING ZAMONAVIY MODELLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI”

MAVZUSIDAGI
XALQARO ILMIY–AMALIY KONFERENSIYA
(2026-yil 22-sentabr)

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE ON “MODERN MODELS AND DEVELOPMENT TRENDS OF THE PSYCHOLOGICAL SUPPORT SYSTEM”
(SEPTEMBER 22, 2026)

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ НА ТЕМУ «СОВРЕМЕННЫЕ МОДЕЛИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ»
(22 СЕНТЯБРЯ 2026 Г.)

Termiz-2026

Mazkur to‘plam zamonaviy jamiyatda psixologik xizmatni takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etishning dolzarb masalalariga bag‘ishlangan. To‘plamdan psixologik xizmatning zamonaviy modellari, raqamli psixologiya, sun’iy intellekt imkoniyatlari, krizis holatlaridagi yordam hamda psixodiagnostika va psixokorreksiyaning ilg‘or metodlariga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘rin olgan.

Anjumanning asosiy maqsadi — sohadagi ilmiy va amaliy tajribalarni birlashtirish hamda psixologik xizmat samaradorligini oshirishga qaratilgan hamkorlikni rivojlantirishdir. Nashr professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va amaliyotchi psixologlar uchun o‘zaro fikr va tajriba almashish, shuningdek, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga tatbiq etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

***

Настоящий сборник посвящён актуальным вопросам совершенствования психологической службы в современном обществе и внедрения инновационных подходов в практику. В сборник вошли научно-практические исследования, посвящённые современным моделям психологической службы, цифровой психологии, возможностям искусственного интеллекта, оказанию психологической помощи в кризисных ситуациях, а также передовым методам психодиагностики и психокоррекции.

Основная цель конференции — объединение научного и практического опыта в данной сфере, а также развитие сотрудничества, направленного на повышение эффективности психологической службы. Издание представляет собой важный источник для профессорско-преподавательского состава, исследователей и практикующих психологов, способствуя обмену мнениями и профессиональным опытом, а также внедрению результатов научных исследований в практическую деятельность.

***

This collection is devoted to current issues in improving psychological services in modern society and implementing innovative approaches in practice. It includes scientific and practical studies on contemporary models of psychological services, digital psychology, the potential of artificial intelligence, psychological support in crisis situations, as well as advanced methods of psychodiagnostics and psychocorrection.

The main objective of the conference is to bring together scientific and practical experience in the field and to foster collaboration aimed at enhancing the effectiveness of psychological services. The publication serves as an important resource for faculty members, researchers, and practicing psychologists, providing opportunities for the exchange of ideas and professional experience, as well as facilitating the practical implementation of research findings.

Mas’ul muharrir:
Murod Isoqov *– Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi direktori*

Taqrizchilar:
G‘ayrat Shoumarov – *psixologiya fanlari doktori, akademik*
Sharif Barotov *– psixologiya fanlari doktori, professor*

Tahrir hay’ati:
Umarali Qodirov *– psixologiya fanlari doktori, professor*
Akmal Bayturayev *– akademik faoliyat bo‘yicha direktor o‘rinbosari*
Sanjar Sattorov *– iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori*
Abdunazar Salomov *– pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
Bahrom Umarov *– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*
Oygul Berdiyeva *– pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
Avazov Komil *– siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
Hanifa Berdiyeva *– pedagogika fanlari nomzodi*
Ruxsara Asadova *– “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi*
To‘ychibek Bolliyev *– “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi*
Lobar Sobirova *– “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi*
Abdukarim Turaxonov *– “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi*
Bahrom Boymatov *– “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi*
Gulchehra Durmanova *– “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi*
Marhabo Mamadaliyeva *– “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi*
Nazokat Bozorova *– “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi*
Nilufar Tursunova *– “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi*

Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi ilmiy-metodik kengashining 2026-yil 10-sentabrda o‘tkazilgan 10.5.1-sonli yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalar sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldir.

© Surxondaryo VPMM, 2026

MUNDARIJA

Shoumarov G‘.B. O‘zbekistonda psixologik xizmat muammolari, sabablari, imkoniyatlari va yechimlari…….. 12
Baratov Sh.R. O‘zbekistonda psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari……. 16
Saidov B.O. Mehnat migrantlarining psixologik moslashuvini qo‘llab-quvvatlashning bosqichli modeli……. 28
Qodirov U.D. O‘zbekistonda psixologik xizmatning bugungi holati va asosiy yo‘nalishlari…… 32
Мухамедова Д.Г., Туракулова А.С. Мультимедийный психологический комплекс для девочек и девушек 9–19 лет: научно-психологические основания, структура и результаты апробации…… 35
Бобоева С.Б. Взаимосвязь креативности и эмоционального интеллекта как фактор успеха будущих специалистов…… 41
Самсонова Е.В., Шеманов А.Ю., Быстрова Ю.А. Развитие социальных навыков у подростков в инклюзивных школах: зоны риска и приоритеты психологической службы…….. 46
Утепбергенов М.А. Классификация семьи и её социально-психологические особенности……... 50
Нарзикулова Ф.Б. Психологическое обеспечение цифрового благополучия обучающихся: саморегуляция, здоровьесбережение и педагогический дизайн…….. 55
Абдурасулов Р.А. Свойства типов темперамента учащихся-спортсменов…… 59
Mirqosimova M. Zamonaviy jamiyatda ta’lim va tarbiya uyg‘unligi…… 63
Сулетбаева Э.С. Психология брачных традиций: межпоколенческий анализ..... 67
Djumayev M. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishni takomillashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari……. 73
Sog‘inov N.A., Beknazarov A.A. Oila, oila a’zolari va shaxsga psixologik xizmat ko‘rsatish insoniyat taraqqiyoti va farovonligi asosidir…….. 78
Kosimov U.A. Emotsional intellektning bola shaxsi rivojlanishidagi roli…… 82
Salomov A.A. Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali ta’lim tizimini rivojlantirishning imkoniyatlari va muammolari…….. 86
Tursunov L.S. Xalq ta’limi tizimida psixologik xizmatning dolzarb masalalaridan biri…….. 89
Алимова Е.Г. Психологическая саморегуляция подростков в цифровой среде: диагностические критерии и направления коррекционной работы 93
Pardayev B. Konseptual yondashuv asosida ona tili fanini o‘qitishning dolzarb masalalari: o‘zbekiston va xorij tajribasi qiyosiy tahlili…….. 96

Xudoyberdiyev Sh.M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida valeologik madaniyatni shakllantirishda harakatli o‘yinlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari…….. 101
Aytbayev D.T. “Aqliy hujum” metodining ta’lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari va samarali qo‘llash mexanizmlari……. 105
Narbasheva M.A., **Shaydullayeva M.** Inklyuziv ta’limda psixologik xizmat: nazariy-amaliy tahlil……. 109
Kenjaboyeva N.M. Ta’lim va tarbiyaning uzviyligi: zamonaviy talablar…. 113
Xasanov A.X., Yusupxanova F.A. O‘quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari……. 118
Jalilova S.X. Amaliyotchi psixolog faoliyatining o‘ziga xos jihatlari…… 122
Turaxonov A.E. Maktab ta’limi tashkilotlari rahbarlarida boshqaruv kompetensiyalarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar**……** 126
Turaxonov A.E. Maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatida psixologik omillar va kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalari……. 131
Rasulov Z. P. Kasbiy kompetentlik — bo‘lajak sport psixologlari kasbiy kamolotini belgilovchi omil sifatida……. 135
Agzamova M.M. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar xususiyatlarining o‘smirlardagi hissiy beqarorlikka ta’siri…….. 139
Raximova D.M. Ta’limning psixologik modeli: bilim, tarbiya, oila va fanlararo integratsiya uyg‘unligi asosida zamonaviy shaxsni shakllantirish mexanizmlari…….. 143
Jabborova M.A. Samarali o‘quv strategiyalarini rivojlantirishning integrativ psixologik omillari……. 148
Berdiyeva H.M. Zamonaviy ta’lim jarayonida texnologiya fanini o‘qitishda fanlararo integratsiyaning pedagogik imkoniyatlari……. 152
Mirzayev O.S. Maktab amaliyotchi psixologlari faoliyatida proyektiv metodikalardan foydalanish…….. 156
Samatova D. Ayollar jinoyatchiligini oldini olish: muammolar va yechimlar.. 159
Abduraimov Sh.N. Tarbiya fanini o‘qitishda fanlararo integratsiyaning ahamiyati…… 162
Сандул А.М. Психологические аспекты коммуникативной компетенции в рамках междисциплинарной интеграции в современной системе образования и воспитания…….. 167
Адилова Д.Ж. Педагогические проблемы обучения русскому речевому этикету узбекских школьников……..... 170
Примкулова Ш.Н., Ағабекова С.С., Естемкулов С.А., Елгонова С.Д., Арипбаева Л.Ш. Фортепиано оқытуда цифрлық технологияларды қолдану: болашақ музыка мұғалімінің цифрлық құзыреттілігін дамыту… 174

Елгонова С.Д., Ағабекова С.С., Естемкулов С.А., Сыралиева Р. Арипбаева Л.Ш. Музыкалық білім беруде цифрлық педагогиканы қолданудың тиімді стратегиялары……. 180
Axmedov X.P. Ta’lim sohasida davlat siyosati: maktab ta’limi misolida…… 186
Odilbekov M.M. Oliy ta’limda akademik prokrastinatsiyani pass metodikasi asosida psixologik diagnostika qilish imkoniyatlari..... 192
Usmonova A.T. Oila, maktab va jamiyat ta’sirida bola shaxsining psixologik farovonligini ta’minlashning pedagogik-psixologik asoslari……. 196
Xolmirzayeva G. Bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatida psixologik xizmatni takomillashtirish……. 200
Xidoyatova L.T. Ta’lim muhitida psixologik xizmatning raqamli transformatsiyasi va psixologik xavfsizlik..... 206
Bayturayev A. F. Urbanizatsiya sharoitida ta’lim subyektlariga psixologik xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirish va innovatsion yondashuvlar**……** 210
Сафарова З.М. Развитие лингвокультурной компетенции учащихся старших классов на уроках русского языка как иностранного……. 214
Narmatova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida hissiy intellektni rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar…….. 218
Maxmatraimov Ch.E. STEAM loyihalari orqali maktab o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik modeli..... 222
Tursunova N.S. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy merosidagi tarbiyaviy g‘oyalarning zamonaviy pedagogik psixologiyaga tatbiqi..... 226
Soibjonov J.B. Emotsional intellekt kasbiy o‘zini-o‘zi anglashning muhim omili sifatida…….. 231
Asadova R.E. Yangi milliy ta’lim dasturini yaratish va joriy etishda pedagogik mahorat mezonlari tizimini takomillashtirishning amaliy ahamiyati……. 234
Bolliyev T.R. O‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik aspektlari……. 238
Yo‘ldosheva H. M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish…… 240
Yo‘ldosheva H.M. Oila muhitining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixologik farovonligiga ta’siri…… 246
Ne’matilloyeva M.A. Yoshlarda psixologik rezilyentlikning nazariy asoslari 249
Qulmamatova F.Q. Shaxs destruktiv xulqini bartaraf etish va psixologik farovonligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari..... 252
Rasulov Z.P., Kazakbayeva G.U. Gandbolchilarda jamoa jipsligini baholashning gender xususiyatlari…… 257
Daminova Sh.K. Maktab direktorlarining o‘zini-o‘zi anglashi va kasbiy diagnostikasi: o‘zini-o‘zi rivojlantirishning boshlang‘ich mexanizmi……. 260

Umarov B.A. Umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarida pedagogik monitoring va qayta aloqa asosida boshqaruv qarorlarini takomillashtirish..... 266
Arzumetova Z.S. Arab oilalarida gender rollari va qadriyatlar tizimi……. 271
Qodirov G‘.U. Giyohvandlikka chalingan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatish…….. 275
Alibekov Sh.A. Integrativ yondashuv asosida 9-sinf o‘quvchilarini kasbga tayyorlashda nizoli vaziyatlarga psixologik yondashuvni rivojlantirishning metodik omillari……. 279
Qodirqulov N.H. Zamonaviy ta’lim muhitida psixologik xizmatni tashkil etishning innovatsion yondashuvlari…….. 284
Salimov S.A. Talabalarda huquqiy ong shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari…….. 289
Cho‘liyev I.I. Sun’iy intellektli ta’lim muhiti sharoitida yuqori sinf o‘quvchilarining ingliz tili bo‘yicha o‘quv motivatsiyasini rivojlantirish……. 293
Abdullayeva M.S. Cooperation between the school psychological service and subject teachers: an innovative methodology for developing the student’s personality……. 298
Abdullayeva M.S. Psychological and methodological foundations of developing students’ learning motivation in digital educational environments.. 300
To‘xtayev U.Q. Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xodimi imijining tarkibiy komponentlari: kognitiv, emotsional, kommunikativ va xulqiy jihatlar…… 303
Ermetov D.N. Bo‘lajak sport murabbiylarida kasbiy yo‘nalganlik tushunchasini yondosh konstruktlardan farqlash masalasi…… 307
Davronova R. K. Mustaqillik yillarida andijon yoshlari ijtimoiy faolligining yuksalishi: yutuqlar va imkoniyatlar…….. 311
Ismoiljonov R.B. Noto‘liq oilalardagi onalarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimining psixologik tahlili (L.A. Gritsay konsepsiyasi asosida)…… 315
Mamatrayimov J.M. O‘zbekiston sharoitida o‘smir yoshlarni diniy ekstremizmdan ijtimoiy-psixologik himoyalashning milliy-madaniy xususiyatlari……. 318
Eshmurodova D.O‘. Bola shaxsini shakllantirishda nutq o‘stirish muammosining pedagogik-psixologik jihatlari…… 321
Темиров А.О. Мотивационно-волевые факторы развития саморегуляции студентов…… 325
Раджабова У.У. Социально-психологическая адаптация при ВИЧ-инфекции: проблемы и возможности психологической коррекции…… 329
Pardayeva U.M. Internal locus of control as a psychological factor of academic motivation in school students……. 335
Sharipova M.T. Anxiety and social-psychological adaptation of adolescents in the educational environment…….. 340

Khasanbekova A.R. Emotional alienation and readiness for marital dialogue as psychological factors of divorce risk in young families…… 344
Shomurodova M.A. Parental attachment anxiety and emotional closeness in parent–child relationships…….. 348
Шомуродова М.А. Психологические механизмы влияния стилей привязанности родителей на эмоциональное благополучие детей в современных семьях……. 352
Badalov J.J. Makro va mikro darajadagi investitsion jozibadorlik va unga ta’sir etuvchi omillar tahlili…… 356
Туракулова Д.Б. Гендерные и этнопсихологические особенности стрессоустойчивости женщин-спортсменок…… 360
Туракулова Д.Б. Соревновательный стресс в каратэ (WKF)…… 366
Abduvoxidova U.Sh. Ta’lim jarayonida attraktor tushunchasi va uning pedagogik talqini…… 370
Jumabekov Z.X. Oilada turli yoshdagi farzandlarda siblinglararo hasad hissi namoyon bo‘lishidagi jins farqlari…….. 374
Asadullayeva G.A. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini xalqaro baholash timss tadqiqotiga tayyorlashda tabiiy fanlarga oid kontekst topshiriqlardan foydalanish…….. 379
Ummatkulova N.U. O‘smirlar aqliy taraqqiyoti va qobiliyatini rivojlantirish…… 385
To‘rayeva N.B. Inqirozli vaziyatlarda o‘smirlarning yashirin emotsional kechinmalarini proyektiv metodikalar yordamida aniqlash…….. 389
Xo‘jamova Sh.A. Oila mustahkamligining ijtimoiy-psixologik omillari…. 393
Nuriddinova M.Sh. Raqamli gamifikatsion muhit orqali bo‘lajak pedagoglarning innovatsion ta’lim ko‘nikmalarini takomillashtirish…… 398
Erimmetova N.B. Yosh ota-onalarda yolg‘izlik hissini belgilovchi psixologik indikatorlar…… 402
Soxibov B.O. Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar: muammo va yechimlar…… 406
Anarboyev H.E. Talabalar akademik o‘zlashtirishidagi qoniqarli o‘zlashtirishning psixologik determinantlari…… 411
Kuchimova Ch.A. Psixoorganik sindrom bilan komorbid kechuvchi depressiv buzilishli keksa yoshdagi bemorlarda takroriy suitsidal xulq-atvorning xavf omillari..... 417
Normamatova S.A. Flipped classroom texnologiyasi asosida talabalarning mustaqil ta’lim olish motivatsiyasini rivojlantirish…….. 421
Karimova G.Sh. Kasbiy yo‘naltirish jarayonida o‘spirinlarning mustaqil qaror qabul qilishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar…….. 426
Murodilloyev N. Raqamli ta’lim muhitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-etik asoslarini takomillashtirish…… 430

Ismoilov B.I. Raqamli psixologik xizmat sharoitida yoshlar vatanparvarligini rivojlantirish imkoniyatlari…… 435
Urokova R.Y. Artificial intelligence in efl teaching: new opportunities for language teaching methodology……. 441
Urokova R.Y. Interdisciplinary approaches in efl teaching: connecting english with other subject areas……. 444
Boymurotova M.G‘. O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlariga oid normalarning shakllanishi: tarixiy bosqichlar va huquqiy rivojlanish tendensiyalari……. 447
Turaxonova Z.A. Muzey etnografiya bo‘limi materiallari asosida yosh avlod tarbiyasida fanlararo integratsiya: tarix, san’at va mahalliy urf-odatlarni uyg‘unlashtirish tajribasi…… 451
Zoirova Y.M. Etnografik ko‘rgazmalar tashkil etishda interaktiv usullar: ta’lim-tarbiya jarayonini boyitish va fanlararo integratsiya imkoniyatlari…… 456
Karimova M. Oilaviy hayotga tayyorgarlik jarayonida muloqot ko‘nikmalari dinamikasi…….. 461
Jo‘raqo‘ziyeva D.X. Ta’lim jarayonida savol-topshiriqlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirish……. 465
Obidova D.M. O‘zbekistonda refleksiv tafakkur va shaxsning hayotiy strategiyasi: konseptual muammolar va rivojlanish istiqbollari…… 470
Sidiqova B.M. Ijtimoiy munosabatlarda emotsional holatlarning regulyativ asoslari……. 473
Raimdjanova G.B. Talabalarda prokrastinatsiya hodisasining o‘z-o‘zini nazorat qilish tizimidagi nazariy o‘rni: konseptual-metodologik tahlil…… 478
Choriyeva S.A. Oilalarda rolli munosabatlarning ijtimoiy tushunchalari: surxondaryo aholisi misolida……. 483
Toshqo‘ziyeva D.Sh. Masofaviy ta’lim sharoitida o‘quv motivlarining ijtimoiy-psixologik asoslari…… 488
Mo‘minova A.S. O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari…… 491
O‘skanov M.A. O‘smirlik davrida abyuz xulq-atvorning namoyon bo‘lish omillari……. 494
Юнусзода Ш.Ж. Роль психологической службы в развитии инклюзивной культуры в образовательном пространстве вуза…… 497
Джамашова Г.А. Психологические особенности адаптации студентов к цифровой образовательной среде……... 501
Джамашова Г.А. Адаптивные технологии обучения в системе высшего образования: педагогические возможности и перспективы применения… 507
Жайлымысова Г.А. Музика мұғалімдерін даярлауда генеративті жасанды интеллектті қолданудың педагогикалық мүмкіндіктері……. 513

Alisherova M.A. Shaxsning ichki inqirozlarini bartaraf etishda o‘z-o‘zini anglashning roli……. 520
O‘sarova Q.N. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarda “men-konsepsiya” va uning ijtimoiylashuvga ta’siri…… 524
Orifjonova L.A. Zamonaviy ta’lim sharoitida o‘qituvchi pedagogik mahoratini oshirishning psixologik xususiyatlari……. 528
Орифжонова Ш.Ж. Семейные факторы формирования суеверности личности……. 532
Ergasheva J.A.O‘zbek tilidagi qasamyod matnlarining shakliy-uslubiy va psixolingvistik xususiyatlari…….. 538
Одилова У.У. Роль спортивного психолога в формировании психологической устойчивости у спортсменов легкоатлетов..... 541
Umrzaqova G.A. Qisqa videolar, diqqat va impulsivlik: raqamli kontentning o‘smirlar psixologiyasiga ta’siri..... 544
Umrzaqova G.A. Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal oilaviy obrazlar, nikohdan kutilmalar va oilaviy qoniqish o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik..... 550
Shomuratov U.A., O‘rinbadalova D.B. Shaxsdagi agressiyaning namoyishini namoyon bo’lishini bartaraf qilish yoki oldini olish choralari ……..…….. 556
Qurdoshev B.F. O‘smir sportchilarda mas’uliyat hissining shakllanishida shaxsiy faollik va maqsadga intiluvchanlikning ahamiyati ……. 558
Safoyev H.A. Sportchilarda qaror qabul qilish jarayonlarining ijtimoiy-psixologik aspektlari ……. 561
Sobirova L.R. Raqamli ta’lim muhitida psixologik xizmat ko‘rsatishning innovatsion usullari va psixodiagnostik interfaol texnologiyalar …… 563

UDK 159.9:37.018.4

O‘ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK XIZMAT MUAMMOLARI, SABABLARI, IMKONIYATLARI VA YECHIMLARI

Shoumarov G‘ayrat Baxromovich,
psixologiya fanlari doktori, akademik

Aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish va aholining turli qatlamlariga psixologik yordam berish bugungi kunda ijtimoiy ahamiyatga ega masalalardan biridir. Insonning ruhiy va psixologik salomatligi, bolalar va yoshlar shaxsining shakllanishi, oilaviy munosabatlarning barqarorligi, ta’lim va mehnat jamoalarida sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar global miqyosda katta ijtimoiy yukni yuzaga keltiradi va ko‘plab mamlakatlarda aholining tegishli psixologik hamda ruhiy salomatlik xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati saqlanib qolmoqda.

O‘zbekistonda ham aholining psixologik savodxonligini oshirish, psixologik yordamning ommabopligini ta’minlash va ta’lim tizimida psixologik xizmatni takomillashtirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishning huquqiy asoslari Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori bilan belgilangan.

Aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish zarurati bir qator ijtimoiy va psixologik omillar bilan belgilanadi.

Birinchidan, aholining ruhiy va psixologik salomatligini muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega. Stress, xavotir, oilaviy va kasbiy nizolar, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar shaxsning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, bolalar va yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida psixologik yordam va psixologik savodxonlik muhim o‘rin tutadi. Bolaning o‘ziga bo‘lgan munosabati, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlari, o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish ko‘nikmalari uning keyingi ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Uchinchidan, oilaviy nizolarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda psixologik xizmatning imkoniyatlari katta. Ota-ona va farzandlar, er-xotin hamda boshqa oila a’zolari o‘rtasidagi nizolarning oldini olishda psixologik maslahat va vositachilik xizmatlaridan foydalanish mumkin.

To‘rtinchidan, oiladagi zo‘ravonliklarning oldini olishda psixologik profilaktika va psixologik yordam muhim yo‘nalish hisoblanadi. Jismoniy, psixologik, jinsiy yoki iqtisodiy zo‘ravonlik shaxsning ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Beshinchidan, suitsidal xatti-harakatlarning oldini olishda psixologik xizmatning profilaktik imkoniyatlaridan foydalanish zarur. Bunda xavf omillarini erta aniqlash,

shaxsni qo‘llab-quvvatlash va zarur hollarda tegishli mutaxassislarga yo‘naltirish muhimdir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti suitsidning oldini olishda psixologik, ijtimoiy va boshqa omillarni kompleks hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, mehnat jamoalari va ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, shaxsning psixofiziologik imkoniyatlaridan samarali foydalanish ham psixologik xizmatning muhim vazifalaridan biridir.

O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etish uchun muayyan tashkiliy imkoniyatlar mavjud. Rasmiy ma’lumotlarda mamlakat maktablarida 10 mingdan ortiq psixolog faoliyat yuritishi qayd etilgan; 2025-yilda e’lon qilingan ma’lumotlarda 10 812 nafar maktab psixologi ko‘rsatilgan.

Biroq psixologlarning mavjudligi bilan ularning xizmatidan kutilayotgan natijani olish o‘rtasida farq bo‘lishi mumkin. Bunga bir qator omillar sabab bo‘ladi.

Avvalo, ayrim ta’lim muassasalarida psixologlarning kasbiy tayyorgarligi va amaliy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Psixologik xizmat samaradorligi mutaxassisning nazariy bilimlari bilan bir qatorda uning diagnostika, maslahat, profilaktika, korreksiya va psixologik ma’rifat yo‘nalishlaridagi amaliy ko‘nikmalariga ham bog‘liq.

Ikkinchi muammo psixologning o‘quvchilar bilan bevosita va muntazam muloqot qilish imkoniyati bilan bog‘liq. Maktabdagi o‘quv jarayonining qat’iy jadvali sababli psixologning barcha o‘quvchilar bilan tizimli ravishda individual va guruhiy ishlashini tashkil etish murakkablashishi mumkin.

Natijada psixologning faoliyati ayrim hollarda muammo yuzaga kelgandan keyingi yordam ko‘rsatish bilan chegaralanib qolishi, profilaktik va ma’rifiy faoliyat esa yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmasligi mumkin.

Uchinchi muammo — psixologik xizmatning moddiy va tashkiliy ta’minoti. Psixologning alohida ish xonasiga ega bo‘lishi, maxfiy suhbatlar o‘tkazish sharoitining mavjudligi, zarur psixodiagnostik vositalar va metodik materiallar bilan ta’minlanishi psixologik xizmat sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda maktab psixologik xizmatining huquqiy va tashkiliy asoslari mavjud. Amaldagi nizom umumiy o‘rta va o‘rta maxsus davlat ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Shuningdek, ta’lim tizimida o‘quvchilar bilan ma’rifiy va tarbiyaviy mazmundagi muntazam mashg‘ulotlar uchun tashkiliy imkoniyatlar kengaymoqda. 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab maktab va boshqa ta’lim tashkilotlarida haftaning har dushanba kuni “Kelajak soati” mashg‘ulotlari o‘tkazilishi rasmiy manbalarda qayd etilgan.

Mazkur imkoniyatdan psixologik savodxonlikni oshirish maqsadida foydalanish mumkin. Jumladan, o‘quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib quyidagi mavzularda psixologik-ma’rifiy mashg‘ulotlar tashkil etish maqsadga muvofiq:

emotsiyalarni anglash va boshqarish;

stress va xavotirni boshqarish;

sog‘lom muloqot madaniyati;

nizolarni konstruktiv hal qilish;
tengdoshlar bilan munosabat;
kiberxavfsizlik va internetdan xavfsiz foydalanish;
zo‘ravonlikning oldini olish;
zararli odatlarning profilaktikasi;
kasb tanlash va kasbiy o‘zini anglash;
o‘z-o‘zini baholash va shaxsiy rivojlanish.

Bunday mashg‘ulotlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular psixolog va o‘quvchi o‘rtasida tabiiy, ishonchli va muntazam muloqot shakllanishiga xizmat qilishi mumkin.

Maktab psixologik xizmatini yanada samarali tashkil etish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

Birinchidan**,** maktab psixologlarining mehnatini moddiy va kasbiy jihatdan rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish zarur. Psixologning mas’uliyati va kasbiy kompetensiyasiga mos mehnat sharoitlarini yaratish uning kasbiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ikkinchidan**,** psixolog uchun o‘quvchilar bilan muntazam guruhiy va individual ishlashga mo‘ljallangan vaqtni ta’lim jarayonida aniq belgilash lozim. Bu psixolog faoliyatini faqat muammoli vaziyatlardan keyingi yordam bilan cheklanib qolishining oldini olishga yordam beradi.

Uchinchidan**,** “Kelajak soati” kabi mavjud ma’rifiy mashg‘ulotlar doirasida o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos psixologik mavzularni tizimli ravishda joriy etish mumkin. Bunda mashg‘ulotlar psixologik savodxonlikni oshirishga, o‘quvchilarning o‘z xatti-harakatlarini anglashiga va muammoli vaziyatlarda yordam so‘rash ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirilishi kerak.

To‘rtinchidan**,** maktab psixologlarining psixodiagnostik imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy va ilmiy asoslangan diagnostika metodikalari bilan ta’minlash hamda ularni qo‘llash bo‘yicha muntazam malaka oshirish tizimini kuchaytirish zarur.

Beshinchidan**,** psixologik xizmat samaradorligini baholashda faqat o‘tkazilgan tadbirlar yoki suhbatlar soniga emas, balki xizmatning natijalariga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchilarning psixologik savodxonligi, murojaat qilish imkoniyati, profilaktik tadbirlarning qamrovi va qayta murojaatlar kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin.

O‘zbekistonda psixologik xizmatni rivojlantirish uchun zarur tashkiliy imkoniyatlar mavjud. Xususan, ta’lim tizimida psixologik xizmatning huquqiy asoslari shakllangan va maktablarda psixologlar faoliyat yuritmoqda.

Shu bilan birga, mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun psixologlarning kasbiy tayyorgarligi, moddiy rag‘batlantirilishi, ish sharoitlari, o‘quvchilar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyati va psixologik-ma’rifiy faoliyatini tizimli tashkil etish masalalariga e’tibor qaratish zarur.

Maktab psixologining faoliyatini faqat muammoli vaziyatlarga aralashish bilan cheklamasdan, profilaktika, psixologik ma’rifat, maslahat, diagnostika va rivojlantirish yo‘nalishlarini birlashtirgan yaxlit xizmat sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. “Kelajak soati” kabi muntazam mashg‘ulotlardan psixologik savodxonlikni oshirish uchun foydalanish esa psixolog va o‘quvchi o‘rtasidagi bevosita muloqotni kengaytirish imkonini berishi mumkin.

Natijada psixologik xizmatning profilaktik yo‘nalishini kuchaytirish, aholining psixologik savodxonligini oshirish hamda bolalar va yoshlarning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlash uchun yanada samarali mexanizm shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi 577-son qarori. O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturi, 2026-yil.
3. World Health Organization. World Mental Health Today: Latest estimates and evidence. Geneva: WHO, 2025.
4. World Health Organization. Suicide mortality rate (per 100 000 population). WHO Data, 2024.
5. World Health Organization. Suicide. Fact sheet, 28 August 2026.
6. Shaumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2000.
7. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010.
8. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
9. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.
10. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.
11. У.Д.Кадыров, К.Х. Авазов. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества. Интернаука, 53-54.
12. Nemov R.S. Psixologiya. – Moskva: Vlados, 2003.
13. Bodalev A.A., Stolin V.V. Umumiy psixodiagnostika. – Moskva: Rech, 2000.

UDK 159.9:37.015.3(575.1)

O‘ZBEKISTONDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Baratov Sharif Ramazonovich,
Buxoro xalqaro universiteti rektori,
psixologiya fanlari doktori, professor

Kirish

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida insonning psixologik holati nafaqat shaxsiy farovonlik, balki mehnat unumdorligi, ta’lim sifati, oilaviy barqarorlik va ijtimoiy farovonlik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim resurs sifatida qaralmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ruhiy salomatlik bo‘yicha hisobotida ruhiy salomatlik muammolari bilan bog‘liq iqtisodiy yo‘qotishlar global miqyosda katta miqdorni tashkil etishi, ularning oldini olish va muammolarni erta aniqlash esa muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega ekani ta’kidlangan [1]. Mazkur holat ko‘plab mamlakatlarda psixologik yordamni tor klinik doiradan chiqarib, keng qamrovli ijtimoiy xizmat sifatida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirdi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda psixologik xizmat sohasida sezilarli institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi. Agar ilgari psixolog faoliyati asosan ta’lim muassasalari va ayrim tibbiyot tashkilotlari bilan cheklangan bo‘lsa, bugungi kunda psixologik yordam huquqiy jihatdan mustaqil faoliyat turi sifatida e’tirof etilib, uning turlari, tamoyillari va subyektlari qonunchilik darajasida belgilangan. 2024-yil 5-noyabrda qabul qilingan va 2025-yil 6-fevraldan kuchga kirgan “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni [2] ushbu sohaning rivojlanishida yangi huquqiy bosqichni boshlab berdi.

Shu bilan birga, huquqiy asosning yaratilishi psixologik xizmat bilan bog‘liq barcha muammolarni avtomatik ravishda hal qilmaydi. Amaliyotda yo‘nalishlar o‘rtasida sezilarli nomutanosiblik saqlanib qolmoqda: ayrim sohalarda psixolog lavozimi va uning vazifalari batafsil tartibga solingan bo‘lsa, boshqa sohalarda mutaxassisning maqomi, ish yuklamasi va samaradorlik mezonlari yetarlicha aniqlashtirilmagan. Metodik ta’minot masalasi ham dolzarb bo‘lib qolmoqda: qo‘llanilayotgan psixodiagnostik vositalarning muayyan qismi milliy tanlanmada standartlashtirilmagan, ularning ishonchliligi va validligi O‘zbekiston sharoitida yetarlicha qayta tekshirilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi — O‘zbekistonda psixologik xizmatning asosiy yo‘nalishlarini yagona metodologik asosda tizimlashtirish, ularning institutsional-huquqiy ta’minlanganligi, metodik jihozlanishi va samaradorlik mezonlarini qiyosiy tahlil qilish hamda sohaning o‘rta muddatli rivojlanish istiqbollarini belgilashdan

iborat. Bunday tahlil mavjud holatni tavsiflash bilan birga, soha rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi. Mavzuning dolzarbligi bir necha o‘zaro bog‘liq omillar bilan belgilanadi.

Birinchidan, **demografik omil**. O‘zbekiston aholisining yosh tarkibida yosh avlod ulushining yuqoriligi ta’lim tizimida psixologik xizmatga bo‘lgan talabning barqarorligini ta’minlaydi. Yoshlar bilan ishlash faqat diagnostika bilan cheklanmay, kasb tanlash, ijtimoiy moslashuv, oilaviy munosabatlarga tayyorgarlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi kabi vazifalarni ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, **ijtimoiy-iqtisodiy omil**. Urbanizatsiya, mehnat migratsiyasi, oila tuzilmasidagi o‘zgarishlar va kasbiy raqobatning kuchayishi shaxs oldiga yangi moslashuv talablarini qo‘ymoqda. Migratsiya sharoitida uzoq muddat ajralib yashayotgan oilalarda bolalarning emotsional rivojlanishi va ota-onalik funksiyalarining qisman o‘zgarishi psixologik yordamning alohida yo‘nalishlarini rivojlantirishni talab etadi.

Uchinchidan, **axborot-texnologik omil**. Raqamli muhitning kengayishi, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasiga ta’siri, kiberbulling, raqamli muhitdan ortiqcha foydalanish va boshqa yangi xulq-atvor shakllari an’anaviy psixologik xizmat vositalarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

To‘rtinchidan, **huquqiy omil**. “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan psixologik yordam ko‘rsatishning huquqiy asoslari, mutaxassislarga qo‘yiladigan malaka talablari, kasbiy sir va davlat kafolatlari bilan bog‘liq masalalar qonunchilik darajasida tartibga solindi [2]. Bu holat psixologik xizmatning mazmunini qayta ko‘rib chiqish va kasbiy standartlarni ishlab chiqish zaruratini kuchaytirdi.

Beshinchidan, **ilmiy-metodik omil**. Milliy psixologiya fanida psixologik xizmatning yaxlit nazariy modeli, uning samaradorligini baholash mezonlari va turli sohalardagi faoliyat mazmunini belgilovchi yagona metodologik asos hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Mavjud tadqiqotlarning katta qismi alohida yo‘nalishlarga, xususan, ta’lim tizimidagi psixologik xizmatga bag‘ishlangan bo‘lib, psixologik xizmatni yaxlit institutsional tizim sifatida tahlil qiluvchi tadqiqotlar nisbatan kam.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi

Psixologik xizmat muammosining ilmiy o‘rganilishini shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga psixologik xizmatning umumiy nazariyasi va tashkiliy modellariga bag‘ishlangan tadqiqotlar kiradi. Post-sovet makonida ushbu yo‘nalishning muhim vakillaridan biri I.V. Dubrovina bo‘lib, u ta’lim tizimidagi psixologik xizmatning asosiy maqsadini bolaning psixologik salomatligini ta’minlash bilan bog‘laydi hamda psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixokorreksiya va maslahat berishni xizmatning asosiy tarkibiy qismlari sifatida ajratadi [3]. M.R.

Bityanova maktab psixologining faoliyatini psixologik-pedagogik hamrohlik modeli doirasida tizimlashtirib, psixolog faoliyatini muammo yuzaga kelgandan keyingi aralashuv bilangina cheklamaslik zarurligini asoslaydi [4].

Ikkinchi guruhni xalqaro miqyosdagi qiyosiy tadqiqotlar tashkil etadi. S.R. Jimerson, T. Oakland va P. Farrell tahriri ostidagi xalqaro maktab psixologiyasi bo‘yicha qo‘llanmada turli mamlakatlardagi psixologik xizmat modellari qiyoslangan hamda xizmatning rivojlanish darajasi mutaxassis va o‘quvchi nisbati, kasbiy tayyorgarlik standartlari va qonunchilik ta’minoti bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan [5]. P. Farrell maktab psixologiyasining tarixiy rivojlanishini tahlil qilib, ko‘plab mamlakatlarda xizmatning diagnostik-saralash modelidan konsultativ-tizimli modelga o‘tganini ko‘rsatadi [6].

Uchinchi guruhga psixologik yordam samaradorligi va dalillarga asoslangan amaliyotga oid tadqiqotlar kiradi. B. Wampold va Z. Imel tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar psixologik yordam samaradorligida terapevtik texnikalar bilan bir qatorda ishchi ittifoq, mijozning kutilmalari va mutaxassisning kasbiy xususiyatlari muhim ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi [7]. A. Kazdin esa psixologik dasturlar va aralashuvlarning empirik asoslanganligini baholash mezonlarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan [8].

O‘zbekiston psixologiya fanida psixologik xizmatning turli jihatlari M.G. Davletshin, E.G‘. G‘oziyev, V.M. Karimova, G‘.B. Shoumarov, Z.T. Nishonova, B.R. Qodirov, N.S. Safayev, D.G‘. Muxamedova va boshqa olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan [9; 10; 11; 12]. Ushbu ishlarda shaxs rivojlanishining yosh davrlari, oilaviy munosabatlar psixologiyasi, kasb tanlash va psixodiagnostika masalalari nazariy jihatdan asoslangan. Shu bilan birga, mazkur tadqiqotlarning ko‘pchiligi psixologik xizmatni alohida sohalar doirasida ko‘rib chiqadi. Uni yaxlit institutsional tizim sifatida, turli yo‘nalishlarni yagona metodologik mezonlar asosida qiyoslash masalasi esa nisbatan kam o‘rganilgan.

Adabiyotlar tahlili

Adabiyotlar tahlili psixologik xizmat tushunchasining ilmiy talqinida uchta asosiy yondashuv mavjudligini ko‘rsatadi.

Funksional yondashuv psixologik xizmatni mutaxassis bajaradigan funksiyalar majmui sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvda diagnostika, korreksiya, profilaktika, maslahat va ma’rifiy ishlar asosiy funksiyalar sifatida ajratiladi [3; 4]. Yondashuvning afzalligi mutaxassis faoliyatining mazmunini aniq belgilash imkonini berishida, cheklovi esa xizmatning tashkiliy-huquqiy jihatlarini ikkilamchi darajaga tushirishidadir.

Institutsional yondashuv psixologik xizmatni muayyan huquqiy maqom, moliyalashtirish manbalari, boshqaruv mexanizmlari va kadrlar tayyorlash tizimiga ega ijtimoiy institut sifatida qaraydi [5; 6]. Mazkur yondashuv xalqaro qiyosiy tadqiqotlarda keng qo‘llanadi. Biroq institutsional shakllarning mavjudligi amaliy faoliyat sifatini o‘z-o‘zidan kafolatlamaydi.

Natijaga yo‘naltirilgan, dalillarga asoslangan yondashuv psixologik xizmatni uning yakuniy natijalari, ya’ni mijoz holatidagi o‘lchanadigan o‘zgarishlar orqali baholashni nazarda tutadi [7; 8]. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ruhiy salomatlik bo‘yicha harakatlar rejasida ham xizmatlarni baholashda jarayon ko‘rsatkichlaridan natija ko‘rsatkichlariga bosqichma-bosqich o‘tish zarurligi ta’kidlangan [13].

Mazkur maqolada ushbu uch yondashuv o‘zaro integratsiya qilinadi: psixologik xizmatning har bir yo‘nalishi institutsional asosi, funksional mazmuni va natijaviy indikatorlari bo‘yicha bir vaqtning o‘zida tahlil qilinadi. Bunday uch o‘lchovli yondashuv sohaning mavjud imkoniyatlari va muammolarini yaxlitroq baholash imkonini beradi.

Me’yoriy-huquqiy manbalar tahlili ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda psixologik xizmatning huquqiy asoslari bosqichma-bosqich shakllangan. 2019-yilda aholi ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi [14]. Shu davrda psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilandi [15]. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatiga oid nizomda psixologlarning faoliyati, lavozimlari va attestatsiyasi bilan bog‘liq masalalar tartibga solindi [16]. 2024-yildagi Qonun esa psixologik yordamning oltita turini — psixologik profilaktika, psixologik ekspress-tekshiruv, psixologik reabilitatsiya, psixologik korreksiya, psixologik maslahat va psixologik treningni belgiladi [2].

O‘zbekistonda psixologik xizmatning shakllanish bosqichlari

Mavjud me’yoriy hujjatlar va ilmiy manbalar tahlili O‘zbekistonda psixologik xizmatning shakllanish jarayonini shartli ravishda to‘rt bosqichga ajratish imkonini beradi.

Birinchi bosqich — kasbiy asoslarning shakllanishi (XX asrning 70–80-yillari). Ushbu davrda oliy ta’lim muassasalarida psixologiya yo‘nalishida kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi va psixologiya fanining milliy maktabi shakllana boshladi. Amaliy psixologik xizmat esa hali alohida institutsional tizim sifatida to‘liq shakllanmagan edi.

Ikkinchi bosqich — tarqoq amaliyot bosqichi (1991–2018-yillar). Mustaqillik yillarida ta’lim muassasalarida psixolog lavozimlari joriy etildi, oilaviy maslahat markazlari va ishonch telefonlari kabi xizmat shakllari rivojlandi. Biroq ushbu tuzilmalarning faoliyati yagona metodik va huquqiy asos bilan to‘liq birlashtirilmagan edi.

Uchinchi bosqich — institutsionallashuv bosqichi (2019–2024-yillar). Ushbu davrda ruhiy salomatlikni muhofaza qilish, psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash va ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etish bo‘yicha qator tizimli hujjatlar qabul qilindi [14; 15; 16]. Natijada psixologik xizmatning tashkiliy asoslari mustahkamlandi.

To‘rtinchi bosqich — huquqiy tartibga solish va standartlashtirish bosqichi (2024-yildan boshlab). “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi bilan psixologik yordam mustaqil faoliyat turi sifatida qonunchilikda mustahkamlandi, uning turlari, tamoyillari va mutaxassislarga qo‘yiladigan malaka talablari belgilandi [2]. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi huquqiy normalarni amaliy standartlarga aylantirish, ya’ni turli yo‘nalishlarda xizmat mazmuni, hajmi va sifat mezonlarini aniqlashtirishdan iborat.

Bosqichlar ketma-ketligi mamlakatda psixologik xizmat rivojlanishining tashkiliy shakldan mazmuniy standartlashtirish tomon yo‘nalganini ko‘rsatadi. Dastlab lavozim va tuzilmalar shakllantirilgan bo‘lsa, keyinchalik ularning huquqiy maqomi mustahkamlandi. Hozirgi bosqichda esa asosiy vazifa metodik va kasbiy standartlarni takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot sifat metodologiyasi doirasida hujjatlarni tahlil qilish va qiyosiy-institutsional tahlil usullariga tayangan holda amalga oshirildi. Empirik material sifatida O‘zbekiston Respublikasining psixologik yordam va psixologik xizmatga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlari, ilmiy adabiyotlar hamda xalqaro tashkilotlarning tahliliy materiallaridan foydalanildi.

Tahlil vositasi sifatida mualliflik metodologik matritsasi ishlab chiqildi. Matritsani shakllantirishda quyidagi mantiqqa amal qilindi: psixologik xizmatning har bir yo‘nalishi, birinchidan, muayyan institutsional-huquqiy asosga tayanadi; ikkinchidan, o‘ziga xos ustuvor vazifalarni bajaradi; uchinchidan, ushbu vazifalarga mos metod va texnologiyalardan foydalanadi; to‘rtinchidan, faoliyat natijalari muayyan indikatorlar orqali baholanadi. Beshinchi mezon sifatida aniqlangan muammolar va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqadigan rivojlanish istiqbollari belgilandi.

Yo‘nalishlarni ajratishda faoliyat obyekti va institutsional mansublik mezonlaridan foydalanildi. Ushbu mezonlarning birgalikda qo‘llanilishi yo‘nalishlar chegaralarini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Matritsaning har bir katagini to‘ldirishda manbalar quyidagi ketma-ketlikda tahlil qilindi: tegishli me’yoriy hujjat, ilmiy adabiyot va ekspert bahosi. Agar muayyan mezon bo‘yicha normativ talab mavjud bo‘lmasa, bu holat alohida qayd etildi va institutsional yoki metodik bo‘shliq sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotning ishonchliligini oshirish maqsadida uchta cheklov belgilandi. Birinchidan, matritsaga faqat hujjat yoki nashr etilgan manba bilan asoslanadigan ma’lumotlar kiritildi. Ikkinchidan, miqdoriy ko‘rsatkichlar rasmiy statistik manbaga ega bo‘lmagan holatlarda keltirilmadi. Uchinchidan, istiqbollar ustuni tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lib, empirik prognoz sifatida talqin qilinmaydi.

1-jadval

O‘zbekistonda psixologik xizmat yo‘nalishlarining metodologik matritsasi

Yo‘nalish	Institutsional-huquqiy asos	Ustuvor vazifalar	Asosiy metod va texnologiyalar	Samaradorlik indikatorlari va istiqbol
1. Umumiy o‘rta ta’limda psixologik xizmat	Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat to‘g‘risidagi nizom; psixolog lavozimi va attestatsiya tartibi [16]	Moslashuv qiyinchiliklarini erta aniqlash; kasb tanlashga yo‘naltirish; nizolar va zo‘ravonlik profilaktikasi; ota-onalar bilan ishlash	Kuzatuv, suhbat, skrining so‘rovnomalari, sinf jamoasi bilan trening, individual maslahat, pedagoglar bilan konsilium	Hozircha asosan o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan baholanadi. Istiqbol: o‘quvchi holatidagi o‘zgarishni o‘lchaydigan natijaviy indikatorlarga o‘tish
2. Maktabgacha ta’limda psixologik qo‘llab-quvvatlash	Maktabgacha ta’lim tizimiga oid me’yoriy hujjatlar; psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tartibi [15; 16]	Rivojlanishdagi chetlanishlarni erta aniqlash; bog‘chaga moslashuv; ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish	Rivojlanish kartalari, o‘yin terapiyasi elementlari, kuzatuv protokollari, ota-onalar uchun seminarlar	Erta aniqlangan holatlar ulushi. Istiqbol: erta aralashuv (early intervention) xizmatini alohida bo‘g‘in sifatida shakllantirish
3. Oliy ta’limda psixologik xizmat	Oliy ta’lim muassasalarining ichki hujjatlari; yoshlarga oid davlat siyosati normalari	Talabalarning moslashuvi; imtihon stressini boshqarish; kasbiy o‘zlikni anglash; akademik nomuvaffaqiyat va tark etish profilaktikasi	Kirish diagnostikasi, guruhiy treninglar, individual maslahat, tengdosh-maslahatchi (peer counselling) dasturlari	Talabalarni saqlab qolish ko‘rsatkichi. Istiqbol: har bir oliy ta’lim muassasasida psixologik xizmat markazining yagona standarti
4. Sog‘liqni saqlash va ruhiy salomatlik	Ruhiy salomatlikni muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasi [14]; psixologik yordam standartlari [2]	Ruhiy buzilishlarning erta aniqlanishi; davolanishga rioya qilishni qo‘llab-quvvatlash; bemor va oila bilan ishlash; stigmani kamaytirish	Klinik suhbat, standartlashtirilgan skrining shkalalari, psixokorreksiya, reabilitatsiya dasturlari	Erta murojaat ulushi, qayta kasallanish darajasi. Istiqbol: birlamchi tibbiy yordam bo‘g‘iniga klinik psixologni integratsiya qilish

Yo‘nalish	Institutsional-huquqiy asos	Ustuvor vazifalar	Asosiy metod va texnologiyalar	Samaradorlik indikatorlari va istiqbol
5. Oila, mahalla va ijtimoiy himoya	Ijtimoiy himoya sohasidagi hujjatlar; davlat kafolati doirasida bepul psixologik yordam normalari [2]	Nikohga tayyorgarlik; ajralishlar profilaktikasi; oiladagi zo‘ravonlik holatlarida yordam; kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash	Oilaviy maslahat, mediatsiya elementlari, guruhiy ishlar, mahalla darajasidagi ma’rifiy tadbirlar	Takroriy murojaatlar soni, nizolarning hal etilishi. Istiqbol: mahalla darajasida doimiy psixolog shtati va yagona metodik dastur
6. Huquqni muhofaza qilish va penitensiar tizim	Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlar [15]; idoraviy normativ hujjatlar	Huquqbuzarlikka moyillikni erta aniqlash; mahkumlarni reabilitatsiya qilish; jamiyatga qayta moslashuvga ko‘maklashish; xodimlar bilan ishlash	Kasbiy saralash metodikalari, xulq-atvor korreksiyasi dasturlari, individual va guruhiy ish, kasbiy deformatsiya profilaktikasi	Takroriy huquqbuzarlik darajasi. Istiqbol: reabilitatsiya dasturlari samaradorligini empirik baholash tizimini joriy etish
7. Harbiy va maxsus xizmat psixologiyasi	Harbiy xizmatga oid idoraviy hujjatlar	Xizmatga psixologik saralash; jangovar va ekstremal sharoitlarga tayyorlash; jamoadagi ijtimoiy-psixologik iqlimni boshqarish	Kasbiy psixologik saralash batareyalari, stressga chidamlilik treningi, jamoaviy diagnostika	Xizmat davridagi moslashuv ko‘rsatkichlari. Istiqbol: xizmatdan keyingi reabilitatsiya bo‘g‘inini rivojlantirish
8. Mehnat va tashkilot psixologiyasi	Mehnat qonunchiligi normalari; tashkilotlarning ichki hujjatlari	Kasbiy saralash va kadrlar tanlovi; kasbiy kuyish profilaktikasi; mehnat xavfsizligining inson omili; korporativ madaniyat	Kasbiy psixodiagnostika, ijtimoiy-psixologik iqlimni o‘rganish, kouching, tashkiliy trening	Kadrlar qo‘nimsizligi, mehnat unumdorligi. Istiqbol: yirik korxonalarda psixologik xizmat bo‘limlarini tashkil etish

Mazkur shartlarning tizimli ravishda amalga oshirilishi ta’lim sifatini oshirish bilan bir qatorda, ijtimoiy jihatdan faol, mustaqil fikrlaydigan va ma’naviy yetuk shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Zamonaviy jamiyatda ta’lim va tarbiyani bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Ta’lim shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirsa, tarbiya uning ma’naviy-axloqiy qiyofasi, ijtimoiy mas’uliyati va hayotiy pozitsiyasini shakllantiradi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida bilim berish va tarbiyaviy ta’sirni yagona pedagogik jarayon sifatida tashkil etish muhim vazifa hisoblanadi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, oila va ta’lim tashkilotlari hamkorligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiya hamda raqamli madaniyatni shakllantirish ta’lim va tarbiya uyg‘unligini ta’minlovchi muhim omillardir.

Demak, ta’lim sifatini oshirishning asosiy mezonlaridan biri faqat o‘quvchilarning akademik natijalari emas, balki ularning mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy mas’uliyatli, ma’naviy yetuk va jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo‘sha oladigan shaxs sifatida shakllanishidir. Bunga esa ta’lim va tarbiyaning uzviyligi, oila–mahalla–ta’lim tashkiloti hamkorligi hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 b.
3. Putnam R.D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon and Schuster, 2000.
4. Mirqosimova M. Umumiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021. – B. 99–100.
5. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

УДК 316.356.2:159.9:392.5(575.172)

ПСИХОЛОГИЯ БРАЧНЫХ ТРАДИЦИЙ: МЕЖПОКОЛЕНЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Сулетбаева Элла Серикбаевна,
доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры «Педагогика и психология», Каракалпакский государственный университет имени Бердаха

В современном обществе проблема совершенствования социально-психологической подготовки молодежи к семейной жизни приобретает особую актуальность в связи с изменением брачно-семейных установок, трансформацией социальных ролей и изменением характера межпоколенных отношений. Современная семья развивается в условиях одновременного воздействия традиционных культурных норм и новых социальных ориентиров, связанных с индивидуализацией, цифровизацией, образовательной и профессиональной мобильностью молодежи.

Изменения затрагивают не только структуру семейных отношений, но и представления молодых людей о браке, семейных ролях, родительстве, взаимной ответственности и допустимых формах взаимодействия между супругами. В связи с этим подготовка молодежи к семейной жизни требует учета не только общих социально-психологических закономерностей, но и этнокультурной специфики конкретного региона.

Особое значение в данном контексте приобретают брачные традиции, которые выступают одним из механизмов передачи культурного опыта от поколения к поколению. Традиции закрепляют определенные представления о семейных ролях, нормах поведения, уважении к старшим, взаимоотношениях между родственниками и способах организации семейной жизни. Вместе с тем изменение социального контекста приводит к переосмыслению отдельных традиционных норм молодежью.

В культуре Каракалпакстана традиции исторически выполняли не только обрядовую, но и воспитательную, регулятивную и интегративную функции [1; 3; 4]. Поэтому изучение их психологического содержания позволяет глубже понять особенности формирования брачно-семейных установок представителей разных поколений.

Брачные традиции можно рассматривать как систему устойчивых культурно обусловленных норм, ценностей и моделей поведения, которые регулируют взаимодействие членов семьи. Они задают определенные ориентиры относительно супружеских обязанностей, отношения к старшим членам семьи,

воспитания детей, участия родственников в семейной жизни и организации значимых семейных событий.

В этом отношении традиция может выполнять функцию своеобразного психологического ориентира. Когда супруги придерживаются сходных представлений о семейных ролях и обязанностях, это способно облегчать взаимопонимание и снижать неопределенность в повседневном взаимодействии. Общие культурные нормы могут выступать основанием для формирования согласованных ожиданий относительно поведения супругов.

Особенно значимыми для каракалпакской семьи являются уважение к старшим, сохранение родственных связей, участие родственников в значимых семейных событиях, соблюдение свадебных и других семейных обрядов. Эти элементы традиционной культуры могут способствовать сохранению чувства принадлежности к определенной социальной и культурной общности.

Вместе с тем влияние традиций не следует рассматривать как однозначно положительное или отрицательное. Психологическое значение традиционной нормы определяется тем, каким образом она воспринимается и интерпретируется членами семьи. Если традиция осознается как ценность и адаптируется к конкретным условиям жизни, она может выполнять интегрирующую функцию. Если же определенная норма воспринимается как неизменное требование, не учитывающее индивидуальные особенности членов семьи и реальные жизненные обстоятельства, она может становиться источником напряжения.

Таким образом, психологическая роль традиции определяется не только ее содержанием, но и характером ее усвоения, интерпретации и практического применения.

Особый интерес представляет вопрос о различиях в отношении к традициям у представителей молодого и взрослого поколений. Эти различия связаны прежде всего с особенностями социализации и изменением социально-культурной среды.

Взрослое поколение Каракалпакстана в значительной степени формировалось в условиях, когда традиционные нормы и родственные связи занимали заметное место в организации социальной и семейной жизни. Для представителей этого поколения соблюдение традиций может выступать не только как следование определенному обычаю, но и как выражение принадлежности к семье, роду и культурной общности.

Молодое поколение формируется в условиях значительно более разнообразного информационного и социального пространства. Цифровизация, расширение образовательных и профессиональных возможностей, мобильность и доступ к различным культурным моделям создают условия для более вариативного отношения к традициям. В результате молодые люди могут избирательно принимать отдельные элементы традиционной культуры,

одновременно переосмысливая те нормы, которые воспринимаются ими как недостаточно соответствующие современным условиям жизни.

Такое различие не следует интерпретировать исключительно как противопоставление традиции и современности. Более корректно рассматривать его как процесс культурной адаптации, в ходе которого содержание традиционных норм получает новое значение.

С точки зрения теории социализации, различия между поколениями могут быть связаны с тем, что представители разных возрастных групп проходили социализацию в неодинаковых социально-культурных условиях. В результате одна и та же семейная норма может обладать для них различной субъективной значимостью.

Важным объяснительным подходом является также теория когнитивного диссонанса Л. Фестингера. В ситуации, когда традиционная норма вступает в противоречие с личными ценностями или жизненными целями человека, может возникать психологическое напряжение, связанное с необходимостью выбора или согласования различных установок.

С позиций теории идентичности Э. Эриксона отношение молодого человека к традициям может рассматриваться в контексте формирования и утверждения собственной идентичности. На этапе становления личности происходит соотнесение семейных и культурных установок с индивидуальными ценностями и жизненными планами. Поэтому избирательное отношение к отдельным традициям может быть частью процесса формирования самостоятельной системы ценностей.

Одним из важнейших аспектов брачных традиций является их связь с представлениями о семейных ролях. Традиционная культура формирует определенные ожидания относительно обязанностей мужчины и женщины, участия старшего поколения в жизни молодой семьи, воспитания детей и принятия семейных решений.

При этом современные социальные условия требуют большей гибкости семейных ролей. Изменение характера трудовой деятельности, повышение образовательной и профессиональной активности женщин, изменение экономических условий и характера родительских обязанностей могут обусловливать необходимость перераспределения функций между супругами.

Поэтому устойчивость семьи целесообразно связывать не с неизменностью традиционной модели, а со способностью супругов согласовывать свои роли с учетом конкретных обстоятельств. Традиционные представления могут сохранять свое значение, если они не препятствуют взаимному уважению, сотрудничеству и учету индивидуальных потребностей членов семьи.

В этом отношении особую роль приобретает семейная коммуникация. Именно посредством общения супруги и представители разных поколений

согласовывают ожидания, обсуждают обязанности и определяют приемлемые для конкретной семьи формы поведения.

Исследования межпоколенческих отношений показывают, что коммуникация может выступать механизмом согласования культурных различий. В частности, в исследовании семей Java B. P. Wahyuningtyas, D. Asteria и Sunarto показана роль коммуникативной адаптации в согласовании различий между поколениями [5]. Данный результат позволяет рассматривать межпоколенческий диалог как один из механизмов адаптации культурных ценностей к изменяющимся социальным условиям.

При этом результаты зарубежных исследований не следует непосредственно переносить на каракалпакскую семью. Они могут быть использованы преимущественно для выявления общих механизмов взаимодействия поколений и последующего сопоставления с особенностями конкретного этнокультурного контекста.

Выявленные особенности имеют непосредственное значение для организации социально-психологической подготовки молодежи к семейной жизни. Такая подготовка не должна сводиться только к передаче знаний о семейных обязанностях и традиционных нормах. Она должна включать развитие навыков конструктивного общения, эмоциональной саморегуляции, разрешения конфликтов, согласования ожиданий и принятия совместных решений.

Особое значение имеет формирование у молодежи способности различать ценность традиции и конкретную форму ее реализации. Сохранение культурной идентичности не обязательно предполагает буквальное воспроизведение всех моделей прошлого. Напротив, устойчивость культурной традиции может обеспечиваться посредством ее адаптации к изменяющимся условиям.

В данном контексте подготовка к семейной жизни должна включать обсуждение реальных проблем семейного взаимодействия: распределения обязанностей, финансовой ответственности, взаимоотношений с родителями супругов, воспитания детей, личных границ, профессиональной занятости и разрешения разногласий.

Важным направлением является также организация межпоколенческого диалога. Представители старшего поколения обладают значительным опытом семейной жизни, тогда как молодежь сталкивается с новыми социальными и профессиональными условиями. Их взаимодействие может быть продуктивным при условии взаимного уважения и признания права каждой стороны на собственный жизненный опыт.

Следовательно, социально-психологическая подготовка молодежи к семейной жизни должна учитывать одновременно культурную преемственность и необходимость адаптации традиционных норм к современным условиям.

Проведенный анализ показывает, что брачные традиции являются значимым элементом социально-психологического пространства семьи. Они участвуют в

формировании представлений о семейных ролях, взаимных обязанностях, способах взаимодействия и культурной принадлежности. Их психологическое значение определяется не только содержанием традиционных норм, но и тем, каким образом они воспринимаются, интерпретируются и реализуются членами семьи.

Межпоколенческие различия в отношении к брачным традициям могут быть связаны с неодинаковыми условиями социализации, изменением социальных ценностей, расширением информационного пространства и усилением индивидуализационных тенденций. Молодое поколение демонстрирует более вариативное отношение к традициям, что не обязательно означает отказ от культурной преемственности. В ряде случаев это может отражать стремление адаптировать традиционные ценности к современным условиям.

Устойчивость семейных отношений целесообразно рассматривать не как результат полного соответствия традиционным нормам, а как способность членов семьи согласовывать культурные ценности, индивидуальные потребности и реальные жизненные обстоятельства. В этом процессе особое значение приобретают семейная коммуникация, взаимное уважение, гибкость ролевых установок и конструктивный межпоколенческий диалог.

Таким образом, при социально-психологической подготовке молодежи к семейной жизни необходимо учитывать этнопсихологическую специфику каракалпакской семьи, обеспечивать осмысленное отношение к брачным традициям и создавать условия для их конструктивного сочетания с современными социальными реалиями. Такой подход позволяет рассматривать традицию не как неизменный набор предписаний, а как динамичный ресурс культурной преемственности и семейной идентичности.

Литература:

1. Атамуратов Т. Ж. Народные традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков: автореф. дис. … канд. ист. наук. — М., 1976. — 15 с.

2. Давлетияров М. М. Родоплеменные отношения — пережиток или реальность? // Историческая этнология. — 2022. — Т. 7, № 3. — С. 359–370.

3. Баҳадырова С. Қарақалпақ — қандай халық. — Ташкент: Наврўз, 2017. — С. 14–15.

4. Утепбергенов М. А. Социальные и этнопсихологические проблемы каракалпакской семьи: автореф. дис. … д-ра психол. наук. — Ташкент, 2019. — 216 с.

5. Шоумаров Г. Б., Сулетбаева Э. С. Этнопсихологическая функция каракалпакской семьи в подготовке молодёжи к семейной жизни // Человеческий фактор: социальный психолог. — 2025. — № 2 (54). — С. 535–542.

6. Wahyuningtyas B. P., Asteria D., Sunarto. The Accommodation of Communication in the Family as an Adjustment of Cultural Values between Generations // Social Sciences. — 2023. — Vol. 12, No. 12.

7. Shoumarov G. B., Kodirov U. D. Osiyo xalqlari oilasi. — Termiz: Surxon-nashr, 2024. — 168 b.

8. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.

9. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

10. У.Д.Кадыров, К.Х. Авазов. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества. Интернаука, 53-54.

UDK: 373.3:51:37.091.3

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA O‘QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Djumayev Mamanazar,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
pedagogika fanlari nomzodi, professor,

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berish bilan cheklanib qolmasdan, ularning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi, o‘z bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olishi va amaliy faoliyatga tayyorligini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar bolaning keyingi ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Matematika fani o‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, hodisalar o‘rtasidagi sababiy bog‘lanishlarni anglash, muammolarga turli nuqtayi nazardan yondashish hamda aniq xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan matematik savodxonlikni rivojlantirish nafaqat matematik bilimlarni o‘zlashtirish, balki ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash bilan ham bog‘liq.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi yosh avloddan zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallashni talab etmoqda. Shu sababli umumiy o‘rta ta’lim, xususan, boshlang‘ich ta’lim mazmunini xalqaro tajriba va zamonaviy ta’lim talablari asosida takomillashtirish dolzarb masalaga aylandi.

Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarda kundalik faoliyatda, boshqa fanlarni o‘rganishda va keyingi ta’lim bosqichlarida zarur bo‘ladigan matematik bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Bunda o‘quvchilarning matematik tushunchalarni anglashlari, hisoblash amallarini to‘g‘ri bajarishlari bilan bir qatorda, matematik bilimlardan amaliy vaziyatlarda foydalanishlariga alohida e’tibor qaratish lozim. Matematika darslari orqali o‘quvchilarda aniq va ravshan fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil qaror qabul qilish va o‘z fikrini matematik dalillar asosida ifodalash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Zamonaviy matematika ta’limida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchilarga singdirish, tabiiy va moddiy resurslardan oqilona foydalanish, tejamkorlik, aniqlik va tartiblilik kabi sifatlarni shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchining egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishiga asoslanadi. Bunday yondashuvda matematika ta’limining mazmuni nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan chegaralanmay, ularni amaliy faoliyatga tatbiq etishga yo‘naltiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida mulohaza yuritish, modellashtirish, muammoni yechish, matematik muloqot hamda ma’lumotlar bilan ishlash kabi faoliyat turlariga e’tibor berish maqsadga muvofiq.

Mulohaza yuritish jarayonida o‘quvchi matematik fikrni asoslash, o‘z javobini izohlash va boshqa o‘quvchining fikriga munosabat bildirishni o‘rganadi. Modellashtirish orqali hayotiy vaziyatlarni matematik ifoda, chizma, jadval yoki boshqa model yordamida tasvirlash ko‘nikmasi shakllanadi. Muammoni yechish faoliyati o‘quvchini berilgan shartni tahlil qilish, yechim yo‘lini izlash va natijani tekshirishga o‘rgatadi. Matematik muloqot esa matematik tushunchalar, belgilar va ifodalar orqali o‘z fikrini aniq bayon qilish imkonini beradi. Ma’lumotlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar ma’lumotlarni yig‘ish, taqqoslash, tahlil qilish va ularni diagramma, jadval yoki boshqa ko‘rinishlarda ifodalashni o‘zlashtiradilar.

O‘zbekistonda ta’lim sifatini xalqaro mezonlar asosida takomillashtirish jarayonida PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarining mazmuni va talablari muhim metodik manba sifatida namoyon bo‘lmoqda.

PISA dasturida matematik savodxonlik o‘quvchining matematik bilim va ko‘nikmalaridan real hayotiy vaziyatlarda foydalana olish qobiliyati bilan bog‘liq holda baholanadi. Mazkur yondashuv boshlang‘ich ta’limda ham matematik bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi.

TIMSS tadqiqotlarida esa o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlari hamda ularni qo‘llash ko‘nikmalari baholanadi. Mazkur xalqaro tajriba matematika ta’limida bilimni eslab qolishdan ko‘ra uni tushunish, qo‘llash va mulohaza yuritish bilan bog‘liq topshiriqlarga kengroq o‘rin berish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan boshlang‘ich sinf matematika darslarida hayotiy vaziyatlarga asoslangan masalalar, mantiqiy topshiriqlar, diagramma va jadvallar bilan ishlash, o‘lchash, taqqoslash, modellashtirish va sodda tadqiqot topshiriqlaridan foydalanish samarali natija beradi.

Bugungi ta’lim jarayonida STEAM yondashuvidan foydalanish o‘quvchilarning matematika faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish va matematik bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lash imkonini beradi. Mazkur yondashuv tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikaning o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi.

Boshlang‘ich sinflarda STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar oddiy o‘lchash, hisoblash, loyihalash, kuzatish va modellashtirish faoliyatlarini bajarishlari mumkin. Masalan, maktab hududidagi daraxtlar soni va ularning balandligini aniqlash, olingan ma’lumotlarni jadval va

diagrammada ifodalash, geometrik shakllardan foydalanib oddiy maket yaratish kabi topshiriqlar matematikaning amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning nafaqat matematik bilimlarini, balki ijodkorlik, kuzatuvchanlik, hamkorlikda ishlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Boshlang‘ich ta’lim matematika kursida sonlar va amallar, kattaliklar, geometrik shakllar, ma’lumotlar bilan ishlash, kasrlar va sodda kombinatorik masalalar kabi yo‘nalishlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich o‘zlashtiriladi.

Masalan, oddiy kasrlarni o‘rganishda kasrni butunning qismi sifatida anglash, uni sonlar yoki modellar yordamida ifodalash, sodda kasrlarni taqqoslash va tartiblashga oid topshiriqlardan foydalanish mumkin. O‘nli kasrlarni o‘rganishda esa ularni son, so‘z va model yordamida ifodalash, taqqoslash va amaliy vaziyatlarda qo‘llashga e’tibor qaratiladi.

Ma’lumotlar bilan ishlash jarayonida o‘quvchilar sodda ustunli va chiziqli diagrammalarni tuzish, ulardagi ma’lumotlarni o‘qish, taqqoslash va ular asosida masalalar yechishni o‘rganadilar. Bunday topshiriqlar matematikaning kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatish bilan birga, o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Sodda kombinatorik masalalar esa o‘quvchilarning turli imkoniyatlarni tizimli ravishda sanash, muayyan qoida asosida variantlarni ajratish va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Matematika o‘qitish metodikasi amaliy tajriba va pedagogik kuzatuvlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan sohadir. Muayyan mavzuni o‘qitishning samaradorligi o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, ta’lim vositalari hamda qo‘llanilayotgan metodlarga bevosita bog‘liq.

Shuning uchun matematika darslarida faqat tayyor o‘quv materiallarini o‘zlashtirishga asoslangan yondashuvdan bosqichma-bosqich voz kechib, o‘quvchini faol fikrlashga undaydigan metodlardan foydalanish zarur. Keys, kichik tadqiqot, loyiha, muammoli vaziyat, amaliy topshiriq va o‘quv kashfiyotlari kabi usullar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda kuzatish, o‘lchash, taqqoslash, tahlil va umumlashtirish kabi faoliyat turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday faoliyatlar o‘quvchilarning matematik bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularni kundalik hayotda qo‘llashga tayyorlaydi.

Ta’lim mazmunini yangilash jarayonida fan dasturlarining uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Matematika fanini o‘qitishda ham bilim va ko‘nikmalarning bosqichma-bosqich murakkablashib borishi, avval o‘zlashtirilgan tushunchalarning yangi bilimlar bilan bog‘lanishi ta’lim samaradorligini oshiradi.

Bunda ta’lim mazmunining spiralsimon rivojlanish tamoyili muhim o‘rin tutadi. O‘quvchi avval sodda shaklda o‘zlashtirgan matematik tushunchalarni keyingi bosqichlarda kengaytirilgan va murakkablashtirilgan ko‘rinishda qayta o‘rganadi. Mazkur jarayon bilimlarning mustahkamlanishi va amaliy faoliyatda qo‘llanishiga imkon yaratadi.

Ta’lim mazmunini takomillashtirishda ilg‘or xorijiy tajriba, xalqaro baholash dasturlari va milliy ta’lim tizimining amaliy ehtiyojlarini uyg‘unlashtirish muhimdir. Ayniqsa, o‘quvchilarning matematik savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni darslik va o‘quv-metodik majmualarga izchil kiritish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda matematika fanini o‘qitishni takomillashtirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bugungi sharoitda matematik ta’limning mazmuni o‘quvchiga faqat hisoblash ko‘nikmalarini berish bilan cheklanmasdan, uning mantiqiy, tanqidiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yo‘naltirilishi zarur.

PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarida ilgari surilgan yondashuvlar matematika ta’limida bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, modellashtirish, muammoni hal qilish va ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bois boshlang‘ich sinf matematika darslarida amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, kichik tadqiqotlar, loyiha ishlari va fanlararo bog‘liqlikka asoslangan mashg‘ulotlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Matematika ta’limining samaradorligi, avvalo, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi, metodik mahorati va zamonaviy pedagogik yondashuvlardan oqilona foydalana olishiga bog‘liq. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematik va metodik kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, xalqaro baholash mezonlari bilan tanishtirish hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. *Science and Innovation International Scientific Journal*. Volume 2, Issue 1, January 2023. – B. 424–434.

3. Djumayev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics in Uzbek Primary School. *Journal of Mathematical & Computer Applications*. 2023. Volume 2(2). – B. 1–5.

4. Djumayev M.I. Перспективы совершенствования преподавания математики в школе, колледже и вузе Республики Узбекистан. *Профессиональное образование арктических регионов*. 2023. № 6(147). – С. 3–6.

5. Djumayev M.I. Формирование элементарных математических представлений у детей в дошкольном возрасте с использованием и без наглядных материалов. *Глобальный научный потенциал*. 2023. № 6(147).

6. Djumayev M.I. Matematika o‘qitishda kombinatorika masalalarini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari. *Fizika, matematika va informatika jurnali*. 2023. № 2/1. – B. 19–27.

7. Djumayev M.I. Matematika o‘qitishda milliy o‘quv dasturining uzviyligi va uzluksizligining o‘ziga xos xususiyatlari. *Muallim həm uzliksiz bilimlendiriw*. 2023. № 1. – B. 314–324.

8. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science. OECD, 2012.

9. TIMSS 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA), 2015.

10. PISA 2021 Mathematics Framework. OECD, 2018.

UDK 159.922.1:316.356.2

OILA, OILA A’ZOLARI VA SHAXSGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISH INSONIYAT TARAQQIYOTI VA FAROVONLIGI ASOSIDIR

Sog‘inov Nurmat Abdusamatovich,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Beknazarov Ahmadjon Asamiddinovich,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi professori

Sobiq ittifoq davrida, kommunistik g‘oyalar ustuvor bo‘lgan vaqtlarda, biz “kommunizm sari” borayotgan avlodning uchta dohiylaridan biri sifatida nemis iqtisodchi olimi Fridrix Engels nomini yaxshi bilardik. U yozgan asarlardan biri, bundan yarim asr muqaddam ilmiy izlanish olib boruvchilar uchun o‘zlashtirilishi shart bo‘lgan asarlardan biri “Oila, xususiy mulkchilik va davlatning kelib chiqishi” deb nomlangan.

Maqolamizning boshidayoq bu asarga murojaat qilishimizning boisi shundaki, u, darhaqiqat, fundamental asarlardan biridir. Asar yaratilgan davrlarda kommunistlar ham, bolsheviklar ham, sovetlar ham, o‘z vaqtida davrini surib, so‘ng yo‘qolib ketgan qancha-qancha “...izm”lar ham mavjud emas edi. Biz uchun uning ahamiyatli jihati, avvalo, uning nomlanishida, ya’ni “Oila, xususiy mulkchilik va davlatning kelib chiqishi” nomida mujassam. Ya’ni, OILA**.**

Bizga yaxshi tanishki, arxeologiya, tarix va psixologiya tarixining asosiy tamoyillari, qoidalari qatorida tarixiylik, bayoniylik, o‘tmish mutafakkirlari fikrlarini, aforizmlarni, iqtiboslarni sharhlash kabi yondashuvlar qayd etiladi. Chunki bundan 3–4 million yil oldin ro‘y bergan voqealarni biz faqat ilmiy bilish, u yoki bu fanda mavjud tamoyillar orqaligina qayta tiklashimiz mumkin.

Demak, ilk odam (Homo sapiens) paydo bo‘lgan davrlardan shakllanib, rivojlanib kelgan ilk ibtidoiy jamoa – bu oila bo‘lgan. O‘tgan million yillar davomida insoniyat, odamzod rivojlanib borar ekan, unda oila bo‘g‘ini muhim vazifani o‘tab kelgan. Hech kimga sir emaski, shu uzoq muddat davom etgan evolyutsion taraqqiyot jarayonida odamzod ruhiyatida nimaiki o‘zgarish va rivojlanish bo‘lgan bo‘lsa, u asosan oila va oilaviy munosabatlar orqali avloddan-avlodga uzatilib turgan.

Bu borada oila ibtidoiy jamoa tuzumidan keyingi uzoq asrlar davomida taraqqiy etgan: quldorlik, feodalistik va boshqa tuzumlarda ham oila instituti jamiyat oldidagi asosiy funksiyalarini bajarib kelgan. Shuning uchun ham nafaqat bizning

respublikamizda, balki deyarli butun dunyoda oila masalasiga alohida e’tibor berib kelinadi. Bu shunday qadriyatki, uni haqli ravishda umuminsoniy qadriyat deb hisoblash mumkin.

Demak, amaliyotchi psixologlar, oilalar bilan ish olib boruvchi psixologlar o‘z mehnat faoliyatida oila bilan ishlash jarayoniga uch karra ehtiyotkorlik bilan, oqilona va ilmiy ma’lumotlarga asoslangan holda yondashishlari kerak. Oilaning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni, evolyutsion taraqqiyot jarayonida u bajargan funksiyalar, oila a’zolarining rollar taqsimoti, xullas, uning tarixiy bosib o‘tgan yo‘li va arxetiplariga jiddiy e’tibor berish zarur.

Qahramon shoirimiz Abdulla Oripov yozganlaridek:

“Inson qalbi bilan hazillashmang Siz, Unda ona yashar, yashaydi Vatan... Unda istiqomat qiladi bashar...”.

Shunday ekan, u yoki bu oila muammosi, oilaviy ish, avvalo, shu oila a’zolarining o‘z ishi, uning ichki olamidir. Uning ichki hayotiga tashqaridan ko‘rsatilgan har qanday ta’sir hamma vaqt ham kutilgan natijaga olib kelmasligi mumkin. Shuning uchun ham amaliyotchi psixolog o‘z mehnat faoliyati jarayonida oilalar bilan ishlashga, oilaga psixologik xizmat ko‘rsatishda kuchli bilim va tajribaga, mahoratga ega bo‘lishi kerak.

Bunda oilaviy munosabatlar borasida hozirgi zamon psixologiyasi erishgan yutuqlardan boxabarlik, amaliy psixologiyaning ilg‘or yutuqlaridan oqilona foydalana bilish lozim. Agar u moda deb, bugungi kunlarimizda ko‘proq kuzatilayotgan “chet el tajribasi”, “G‘arb psixologiyasi” kabi yondashuvlar doirasidagina cheklanib qolsa, uning faoliyati kutilgan samarani bermasligi ehtimol.

Psixologiya bo‘yicha yaratilgan maxsus adabiyotlarda qayd etilishicha:

“Professional psixolog hech qachon u yoki bu ishni qilish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri, aniq maslahat, ko‘rsatmalar bermaydi. U ruhiy xastaliklar uchun tabletkalar yozib beradigan doktor ham emas, kishilarni barcha baxtsizliklardan qutilishining magik formulasini aytib beradigan folbin ham emas. Uning maqsadi – shaxsda o‘zini anglashi uchun sharoit yaratib berishdan iborat. U sizga hissiy stresslarni bartaraf etishda, sizni va yaqinlaringiz xatti-harakatlari va xulqining yashirin motivlarini tushunishga, eng muhimi – o‘z muammolaringizni o‘zingiz mustaqil hal qila olish qobiliyatingizni qayta tiklashga yordam beradi. Shuni yodda tutingki, o‘z hayotingizni faqat Sizning o‘zingizgina o‘zgartira olishingiz mumkin!”

Amaliyotchi psixolog oilaga va shaxsga psixologik xizmat ko‘rsatish, uning farovonligini ta’minlash, unga konsultatsiya berishda, avvalo, maslahat oluvchi, respondentning o‘zini yuzaga kelgan muammoni hal qilishga jalb etishga erishishi, yuzaga kelgan muammoni o‘zi hal qila olish imkoniyatlarini topishga bo‘lgan ishonchini yuzaga keltirishi, bu borada unda adekvat o‘zini-o‘zi baholashning namoyon bo‘lishiga erishishi lozim.

Agar odam o‘z oldida turgan muammoni hal qilishda o‘z o‘rnini anglay olsa – bu har qanday muammoning muvaffaqiyatli yechimiga erishishdagi ilk qadamdir. Shu

qadamni suhbatdoshning o‘zi bosishiga erishish professional psixologning eng katta yutug‘idir.

Bu yutuqqa faqat G‘arb psixologiyasi imkoniyatlari bilangina emas, balki Sharq psixologiyasi, islom psixologiyasi, har bir xalq, har bir elat, yurt, mahalla, oila tajribasidan, mavjud bilim, o‘tmishdoshlar qoldirgan boy ma’naviy meros, o‘tmish ajdodlarimiz tajribalari, xalqimiz asotirlari va arxetiplaridan oqilona foydalana bilish orqali erishish mumkin.

Shunday qilib, oilaga psixologik xizmat ko‘rsatish amaliyotchi psixologdan nafaqat maxsus psixologik bilim va amaliy ko‘nikmalarni, balki oilaning tarixiy, ijtimoiy-madaniy va ma’naviy xususiyatlarini anglashni ham talab qiladi. Oila inson shaxsining shakllanishi, uning ruhiy rivojlanishi va ijtimoiylashuvida muhim muhit bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli oilaviy muammolarni o‘rganish va psixologik yordam ko‘rsatish jarayonida individual yondashuv, ehtiyotkorlik, kasbiy mas’uliyat va ilmiy asoslangan metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyotchi psixologning asosiy vazifalaridan biri oiladagi mavjud muammolarni faqat tashqi tomondan baholash emas, balki uning ichki psixologik mexanizmlarini anglash, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlarini tahlil qilish va ularning muammoni mustaqil ravishda hal qilish imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Bunday yondashuv oila a’zolarining o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, o‘zaro tushunish va mas’uliyat hissini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, oilaga psixologik xizmat ko‘rsatish jarayonida zamonaviy psixologik bilimlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish muhimdir. Har bir oila o‘zining hayotiy tajribasi, qadriyatlari, an’analari va o‘zaro munosabatlar tizimiga ega. Psixolog ana shu xususiyatlarni hisobga olgan holda faoliyat olib borgan taqdirdagina psixologik yordamning samaradorligini ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулла Орипов. Йиллар армони. – Тошкент, 1987. – 432 б.

2. Резников Е.Н. Теоретические и методологические проблемы этнической психологии: монография / Е.Н. Резников. – Минск: Изд. центр БГУ, 2006. – 440 с.

3. Psixologik atamalar ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati / Psixol. fan. dokt., prof. G‘.B. Shoumarov tahriri ostida. Tuzuvchilar: N.A. Sog‘inov, Z.T. Nishonova, X.K. Karimov, B.M. Umarov, E.Sh. Usmonov. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2019. – 400 b.

4. Sog‘inov N.A., Qodirov U.D. Psixologiya fani: mamlakat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi // “Ma’rifat” gazetasi. – 2018-yil 20-yanvar. – № 6. – B. 8–9.

5. Sog‘inov N.A., Norimbetov T.B. Amaliyotchi psixolog faoliyatida psixodiagnostika masalalari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2026. – 184 b.

6. Sog‘inov N.A. Psixologiya sxemalarda: ko‘rgazmali qo‘llanma. – Olmaliq: Ipak yo‘li innovatsiyalar universiteti, 2026. – 186 b.

7. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.

8. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

9. У.Д.Кадыров, К.Х. Авазов. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества. Интернаука, 53-54.

10. Temur tuzuklari / Forschadan A. Sog‘uniy va H. Karamatov tarj.; B. Ahmedov tahr. ostida. – Toshkent, 1996. – 344 b.

UDK: 159.922.7:159.942

EMOTSIONAL INTELLEKTNING BOLA SHAXSI RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Kosimov Ubaydulla Axrorovich,
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Bugungi kunda jahon ta’lim tizimida yuqori malakali, raqobatbardosh va ijtimoiy jihatdan faol shaxsni tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Globallashuv, urbanizatsiya, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va axborot oqimining keskin ortishi insonning psixologik holatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Mazkur jarayonlar shaxsning o‘z xatti-harakatlari va ruhiy holatlarini boshqarishi, emotsional reaksiyalarini nazorat qilishi hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda muvozanatni saqlashiga bo‘lgan talabni kuchaytirmoqda.

Ayniqsa, bolalik va o‘smirlik davrida emotsional jarayonlarni boshqarish masalasi alohida ahamiyatga ega. Ayrim o‘smirlarning qo‘zg‘aluvchanligi, impulsivligi, o‘z xatti-harakatlari va ruhiy holatlarini yetarli darajada idora qila olmasligi turli nizoli va tajovuzkor xatti-harakatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, o‘smirlarning o‘zini o‘zi idora qilishi, o‘z va boshqalarning emotsiyalarini tushunishi hamda ularni boshqarishi bilan bog‘liq psixologik mexanizmlarni o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Insonning o‘z hissiy holatini anglay olishi, uni nazorat qilishi, boshqa insonlarning emotsiyalarini tushunishi va ularga mos ravishda munosabat bildira olishi uning shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiy moslashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qobiliyatlar majmui zamonaviy psixologiyada “emotsional intellekt” tushunchasi orqali ifodalanadi.

Emotsional holatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning qonuniyatlari, xatti-harakat motivlarida namoyon bo‘lishi va yuzaga kelish mexanizmlari psixologiyaning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biridir. Shaxsning o‘zini o‘zi psixoemotsional boshqarishi bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish esa emotsional jarayonlarning ijtimoiy xulq-atvorga ta’sirini tushunishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur muammoning ayrim jihatlari rus psixologiya maktabi vakillari tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, psixik holatlarni o‘zini o‘zi boshqarishning nazariy-metodologik jihatlari V.S. Agavelyan, G.Sh. Gabdreeva, V.A. Ganzen, B.V. Zeygarnik, O.A. Konopkin, N.D. Levitov, G.S. Nikiforov, N.M. Peysaxov, A.O. Proxorov, Yu.E. Sosnovikova, Yu.I. Filimonenko va I.I. Chesnokova kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z aksini topgan.

O‘quv jarayonida o‘smirlar va pedagoglarning psixik holatlari G.N. Gening, A.V. Plexanov va A.F. Safarova tadqiqotlarida, kasbiy faoliyat va ekstremal vaziyatlarda subyektning o‘zini o‘zi boshqarishi bilan bog‘liq jihatlar esa B.A. Vyatkin, Yu.A. Golikov, L.G. Dikaya, A.N. Kostin, A.B. Leonova, V.I. Melnikov va I.X. Mirziev kabi tadqiqotchilarning ishlarida o‘rganilgan.

O‘zbek psixologiyasida ham shaxsning o‘zini o‘zi idora qilishi, hissiy holatlari, o‘z-o‘zini anglash va shaxslararo munosabatlari bilan bog‘liq masalalar E.G‘. G‘oziyev, G‘.B. Shoumarov, Sh.R. Baratov, Z.R. Ibodullayev, V.M. Karimova, A.M. Jabborov, Z.T. Nishonova, N.S. Safoyev, D.G‘. Muxamedova, R.S. Samarov, U.A. Kosimov, E.M. Muxtorov, N.I. Xalilova, R.I. Sunnatova, X.A. Ruxiyeva va F.I. Haydarov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida turli jihatlarda yoritilgan.

“Emotsional intellekt” (Emotional Intelligence — EI yoki EQ) tushunchasi psixologiya fanida P. Salovey va J. Mayer tomonidan 1990-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. Mualliflar emotsional intellektni shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini va boshqa insonlarning emotsional holatlarini anglash, tushunish hamda ulardan fikrlash va xatti-harakatlarni boshqarishda foydalanish imkonini beruvchi qobiliyatlar majmui sifatida talqin qilganlar [1].

Emotsional intellekt konsepsiyasining rivojlanishida D. Goulmanning tadqiqotlari ham muhim o‘rin tutadi. U emotsional intellektni o‘z-o‘zini anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, ijtimoiy anglash va munosabatlarni boshqarish kabi kompetensiyalar bilan bog‘laydi. Mazkur yondashuv emotsional ko‘nikmalarni ta’lim va tarbiya jarayonida rivojlantirish mumkinligi haqidagi qarashlarning keng tarqalishiga xizmat qildi.

P. Salovey va J. Mayerning modelida emotsional intellektning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1. **Emotsiyalarni idrok etish va ifodalash** — o‘zining hamda boshqalarning hissiy holatini aniqlash, farqlash va tegishli tarzda ifodalash qobiliyati.
2. **Emotsiyalardan fikrlash jarayonida foydalanish** — hissiy holatlarning tafakkur va qaror qabul qilish jarayonlariga ta’sirini anglash hamda ulardan samarali foydalanish.
3. **Emotsiyalarni tushunish** — hissiy holatlarning sabablarini, o‘zgarishlarini va ular o‘rtasidagi munosabatlarni anglash.
4. **Emotsiyalarni boshqarish** — o‘z va boshqalarning emotsiyalarini ongli ravishda tartibga solish, vaziyatga mos ravishda boshqarish qobiliyati [1].

Shu jihatdan emotsional intellekt faqat his-tuyg‘ularni boshqarish bilangina cheklanmaydi. U emotsiyalarni aniqlash, tushunish, ulardan kognitiv faoliyatda foydalanish va ularni boshqarishning o‘zaro bog‘liq jarayonlarini qamrab oladi.

Bolalik va o‘smirlik davri shaxsning emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida bolalikdan kattalik holatiga o‘tish jarayoni sodir bo‘lib, unda kognitiv jarayonlar bilan bir qatorda emotsional sohada ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi.

O‘smirning o‘ziga, tengdoshlariga va kattalarga bo‘lgan munosabati o‘zgaradi. O‘z qadr-qimmati haqidagi tasavvurlarning qayta shakllanishi, mustaqillikka intilish, tengdoshlar tomonidan qabul qilinish ehtiyoji va emotsional beqarorlik ayrim vaziyatlarda nizolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda emotsiyalarni anglash va boshqarish qobiliyati muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘smirning o‘z emotsional holatini tushunishi va nazorat qila olishi uning ota-onasi, o‘qituvchilari va tengdoshlari bilan konstruktiv munosabatlar o‘rnatishiga yordam beradi. Empatiyaning rivojlanishi esa boshqa insonlarning kechinmalarini tushunish, ularning nuqtayi nazarini hisobga olish va ijtimoiy jihatdan maqbul xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi.

Rahmdillik, hamdardlik va boshqa insonning kechinmalarini tushunish qobiliyati emotsional rivojlanishning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Mazkur ko‘nikmalar bolalikdan shakllana boshlaydi va tegishli ta’lim-tarbiya hamda ijtimoiy tajriba asosida rivojlanib boradi.

Emotsional intellektning rivojlanishida oilaviy muhit, ota-onaning bola emotsiyalariga munosabati, oiladagi o‘zaro hurmat va samimiylik, bolaning ijtimoiy tajribasi, tengdoshlari bilan munosabatlari hamda ta’lim muhiti muhim rol o‘ynaydi.

Emotsional intellektni rivojlantirish bolaning o‘z emotsiyalarini anglashidan boshlanadi. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarga o‘z hissiyotlarini nomlash, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash, emotsional holat va xatti-harakat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish imkoniyatini berish muhimdir.

Emotsional intellektni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

hissiy o‘zini anglash — o‘z emotsiyalarini aniqlash va ularning xulq-atvorga ta’sirini tushunish;

o‘ziga ishonch — o‘z imkoniyatlari va shaxsiy qadr-qimmatini real baholash;

emotsiyalarni boshqarish — salbiy emotsiyalarni nazorat qilish va ularni konstruktiv faoliyatga yo‘naltirish;

empatiya — boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish va unga mos munosabat bildirish;

ijtimoiy mas’uliyat — guruhdagi hamkorlik va ijtimoiy munosabatlarda mas’uliyatli ishtirok etish;

shaxslararo munosabatlar — nizolarni konstruktiv hal qilish va samarali muloqot o‘rnatish;

moslashuvchanlik — o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslasha olish va real sharoitlarni to‘g‘ri baholash.

Emotsional intellektni rivojlantirishda individual va guruhiy psixologik treninglar, rolli o‘yinlar, emotsional vaziyatlarni tahlil qilish, refleksiv mashqlar, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar hamda oilaviy psixologik-pedagogik yondashuvlardan foydalanish mumkin.

Bunda ota-ona va pedagoglarning emotsiyalarga nisbatan munosabati alohida ahamiyatga ega. Bolaning his-tuyg‘ularini inkor etish yoki keskin bostirishdan ko‘ra, ularni tushunishga, nomlashga va konstruktiv tarzda ifodalashga o‘rgatish emotsional kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Emotsional intellekt bola shaxsining kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muhim psixologik resursdir. Uning rivojlanishi bolaning o‘z hissiy holatini anglash va boshqarishiga, boshqa insonlarning emotsiyalarini tushunishiga, samarali muloqot o‘rnatishiga va turli ijtimoiy vaziyatlarga moslashishiga yordam beradi.

Ayniqsa, o‘smirlik davrida emotsional intellektning shakllanganlik darajasi shaxslararo munosabatlar, nizoli vaziyatlarni hal qilish, o‘zini o‘zi idora qilish va ijtimoiy moslashuv jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli umumiy ta’lim muassasalarida emotsional intellektni rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik dasturlarni takomillashtirish, ota-onalar va pedagoglarning emotsional kompetensiyasini oshirish hamda bolalarning emotsional o‘zini anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Shunday qilib, emotsional intellektni rivojlantirish bola shaxsining nafaqat psixologik farovonligi, balki uning ijtimoiylashuvi, shaxslararo munosabatlari, moslashuvchanligi va kelgusidagi hayotiy faoliyati uchun ham muhim psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salovey P., Mayer J.D. Current Directions in Emotional Intelligence Research // Handbook of Emotions. 2nd ed. / Eds. M. Lewis, J.M. Haviland. – New York: Guilford Press, 2000. – P. 504–520.

2. Бойко В.В. Энергия эмоций в общении: взгляд на себя и других**.** – М.: Филинъ, 1996. – 472 с.

3. Ильин Е.П. Эмоции и чувства**.** – СПб.: Питер, 2001. – 752 с.

4. Люсин Д.В., Марютина О.О., Степанова А.С. Структура эмоционального интеллекта и связь его компонентов с индивидуальными особенностями: эмпирический анализ // Социальный интеллект: теория, измерение, исследования / Под ред. Д.В. Люсина, Д.В. Ушакова. – М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2004. – С. 29–36.

5. Андреева И.Н. Понятие и структура эмоционального интеллекта // Социально-психологические проблемы ментальности: материалы VI Международной научно-практической конференции. – Смоленск: СГПУ, 2004. – Ч. 1. – С. 22–26.

UDK: 37.01:004.8

SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI VA MUAMMOLARI

Salomov A.A.,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi kafedra mudiri,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning (SI) jadal rivojlanishi ta’lim tizimining mazmuni, shakli va metodlarini takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ta’limning raqamli transformatsiyasi, avvalo, o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bilan tavsiflanadi. Shu nuqtayi nazardan, sun’iy intellekt ta’lim jarayonining yordamchi vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

SI texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim darajasi va individual ehtiyojlarini tahlil qilish, ularga mos topshiriqlarni shakllantirish, o‘quv materiallarini tavsiya etish hamda natijalarni tahlil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli modellashtirish, interaktiv topshiriqlar, virtual tajribalar, avtomatlashtirilgan tahlil va elektron ta’lim resurslaridan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qilishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchini tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi subyekt emas, balki izlanadigan, tahlil qiladigan va muammoni mustaqil hal etadigan faol ishtirokchiga aylantirishga yordam beradi.

Raqamli vositalarning yana bir muhim jihati ta’lim jarayonida vaqt va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatidir. Elektron ta’lim platformalari, raqamli topshiriqlar va avtomatlashtirilgan tahlil vositalari o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘zlashtirish holatini tezkor aniqlash, ta’limdagi bo‘shliqlarni belgilash va keyingi pedagogik faoliyatni rejalashtirishda ko‘maklashadi. Natijada ta’lim jarayoni faqat umumiy yondashuv asosida emas, balki o‘quvchilarning real ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi mumkin.

Sun’iy intellektdan foydalanishda pedagogning roli ham alohida ahamiyatga ega. SI o‘qituvchining o‘rnini bosuvchi emas, balki uning kasbiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaralishi lozim. Pedagog o‘quv maqsadini belgilaydi, ta’lim mazmunini tanlaydi, o‘quvchilarning faoliyatini boshqaradi, natijalarni pedagogik jihatdan tahlil qiladi va zarur hollarda tuzatishlar kiritadi. Shu sababli raqamli texnologiyalar bilan ishlash kompetensiyasi zamonaviy o‘qituvchining muhim kasbiy ko‘nikmalaridan biriga aylanmoqda.

Shu bilan birga, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni ta’limga joriy etish qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli emasligi, raqamli tengsizlik, pedagoglarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasi, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, SI vositalaridan haddan tashqari foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va izlanish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasligi uchun ulardan foydalanishning pedagogik chegaralarini belgilash zarur.

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish akademik halollik masalasini ham kun tartibiga olib chiqmoqda. O‘quvchilarning tayyor javoblardan foydalanib, topshiriqlarni mustaqil bajarmasligi ularning haqiqiy bilim va ko‘nikmalarini aniqlashni qiyinlashtirishi mumkin. Shu sababli baholash jarayonida faqat yakuniy natijaga emas, balki o‘quvchining fikrlash jarayoni, amaliy faoliyati, mustaqil xulosalari va ijodiy yondashuviga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bunda raqamli vositalardan foydalanish bilan bir qatorda og‘zaki suhbat, amaliy topshiriq, loyiha va muammoli vazifalardan foydalanish samarali natija beradi.

Sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etishda bosqichma-bosqich yondashuv muhim hisoblanadi. Dastlab pedagoglarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish, ta’lim muassasalarining texnik imkoniyatlarini baholash va mavjud o‘quv dasturlariga mos raqamli resurslarni tanlash zarur. Keyingi bosqichda fanlar kesimida samarali raqamli metodikalarni ishlab chiqish, tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va ularning natijalarini tahlil qilish orqali ilg‘or tajribalarni ommalashtirish mumkin. Bunday yondashuv texnologiyadan maqsadsiz foydalanishning oldini olib, uning pedagogik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

SI texnologiyalarini ayniqsa aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda qo‘llash o‘quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatini kuchaytirishi mumkin. Masalan, matematik masalalarni modellashtirish, fizik jarayonlarni vizuallashtirish, biologik jarayonlarni raqamli muhitda kuzatish yoki statistik ma’lumotlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa fanlararo aloqadorlikni kuchaytirib, o‘quvchilarda tahliliy, mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Ta’lim tizimida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini ta’minlash uchun, birinchi navbatda, pedagoglarning raqamli kompetensiyasini muntazam rivojlantirish, ta’lim muassasalarining texnik bazasini mustahkamlash va sifatli elektron resurslar yaratish muhimdir. Shuningdek, SI vositalaridan foydalanish jarayonida axborot xavfsizligi, akademik halollik va pedagogik maqsadga muvofiqlik tamoyillariga rioya qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish va pedagogik faoliyat samaradorligini kuchaytirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq texnologiyaning o‘zi ta’lim sifatini avtomatik ravishda ta’minlamaydi. Uning samarasi pedagogning kasbiy mahorati,

puxta metodik yondashuvi, zamonaviy infratuzilma va xavfsiz raqamli muhit bilan uyg‘unlashgandagina namoyon bo‘ladi. Shu bois ta’limning raqamli transformatsiyasi texnologik yangilanish bilan bir qatorda pedagogik va metodik rivojlanishni ham qamrab olishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Russell S., Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. 4th ed. Pearson, 2021.
2. Davenport T.H., Ronanki R. Artificial Intelligence for the Real World // *Harvard Business Review*. 2018. Vol. 96, No. 1.
3. Shabbir J., Anwar S. A Survey of Deep Learning Techniques for Natural Language Processing // *IEEE Access*. 2018. Vol. 6.
4. Саломов А.А. Развитие умений и навыков у учащихся старших классов при реализации межпредметной функции математики. — Ташкент, 1996.
5. Саломов А.А., Мирзаева М. Активизация познавательной деятельности учащихся на уроках математики // Основные роли педагогических идей. — Челябинск, 1990.
6. Саломов А.А. Самостоятельные занятия на уроках математики // Совершенствование организационных форм и методов преподавания математики, информатики и ВТ в школах и педвузах. — Гулистан, 1990.

UDK 159.9:37.015.3

XALQ TA’LIMI TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING DOLZARB MASALALARIDAN BIRI

Tursunov L. S.,
Toshkent ijtimoiy fanlar universiteti
“Pedagogika va tillar” kafedrasi dotsenti, p.f.n.

Har bir shaxsning ontogenez jarayonidagi ruhiy rivojlanishi va takomillashuvi bevosita va bilvosita uni qurshab turgan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq. Shu bilan birga, shaxs rivojlanishining turli bosqichlarida pedagog, psixolog, ota-ona va boshqa mutaxassislarning hamkorlikdagi kuzatuvi hamda ko‘magi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi, axborot oqimining keskin ortishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi yoshlarning ruhiy rivojlanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘smirlik va o‘spirinlik davrida shaxsning o‘zligini anglashi, «Men» obrazini shakllantirishi, tengdoshlari orasida o‘z o‘rnini topishi va ijtimoiy mavqeini belgilashi murakkab psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda yosh avlodga psixologik yordam ko‘rsatuvchi mutaxassis sifatida maktab psixologining o‘rni tobora ortib bormoqda.

Psixologik xizmatning asosiy maqsadi shaxsning har tomonlama shakllanishi va rivojlanishi, uning samarali ijtimoiylashuvi va moslashuvi, shuningdek, bolalar rivojlanishining turli yosh davrlarida psixologik salomatligini muhofaza qilish uchun zarur psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

XXI asrning birinchi choragi yakuniga kelib, psixologik xizmatga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Bu ehtiyoj faqat ta’lim tizimi bilan cheklanib qolmay, oila, mahalla, mehnat jamoalari va boshqa ijtimoiy institutlarda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat xodimlari psixologik-pedagogik diagnostika, maslahat, korreksiya, rivojlantirish va profilaktika ishlarini amalga oshirish bilan bir qatorda, oila va mahalla bilan hamkorlikda ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirishga ham hissa qo‘shmoqda.

Maktabning kundalik hayotida psixologik xizmat oldiga qo‘yilayotgan har bir vazifa muhim hisoblanadi. Biroq o‘quvchilar o‘rtasidagi ruhiy va jismoniy bosim, tajovuzkorlik, tahqirlash, qo‘rqitish, kamsitish va shaxsiy chegaralarni buzish bilan bog‘liq xatti-harakatlarning oldini olish alohida e’tibor talab qiladi.

Psixologik nuqtayi nazardan ab’yuz xulq-atvorni bir shaxsning boshqa shaxsga nisbatan muntazam ravishda psixologik, hissiy yoki jismoniy bosim o‘tkazishi, uni nazorat qilish yoki shaxsiy chegaralarini buzishga intilishi bilan tavsiflash mumkin. Bunday xatti-harakatlar ochiq yoki yashirin shaklda namoyon bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilar orasida ab’yuz xulq-atvor turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Jumladan, sinfdoshini muntazam masxara qilish, uning kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatish, qo‘pol hazillar orqali tahqirlash, qo‘rqitish, ijtimoiy jihatdan ajratib qo‘yish, guruhdagi mavqeidan foydalanib bosim o‘tkazish, shaxsiy tanlovini cheklash yoki doimiy ravishda aybdorlik hissini shakllantirish shular jumlasidandir.

Bunday holatlarni oddiy tengdoshlar o‘rtasidagi kelishmovchilikdan farqlash muhim. Bir martalik nizoli vaziyat bilan muntazam, maqsadli va takroriy bosim o‘rtasida psixologik jihatdan muhim farq mavjud. Shu sababli maktab psixologi vaziyatni baholashda xatti-harakatning takroriyligi, tomonlar o‘rtasidagi kuchlar nomutanosibligi, jabrlanuvchining psixologik holati va ijtimoiy muhitning ta’sirini kompleks ravishda hisobga olishi lozim.

O‘smirlik va o‘spirinlik davrida shaxs o‘z «Men»ligini anglash, o‘z imkoniyatlarini baholash va tengdoshlari orasida o‘z o‘rnini belgilashga intiladi. Bu davrda «Men kimman?», «Menga qanday munosabatda bo‘lishlari kerak?», «Men boshqalarga qanday munosabatda bo‘lishim kerak?» kabi savollar shaxsiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

O‘smirning hozirgi «Men»i bilan kelajakdagi «Men»i o‘rtasidagi farq ba’zan ichki ziddiyatlarni yuzaga keltirishi mumkin. O‘zligini namoyon etish va tengdoshlari tomonidan tan olinishga intilish konstruktiv yo‘nalishda kechsa, sport, san’at, texnika, tadbirkorlik, ilm-fan va boshqa sohalarda yuqori natijalarga olib kelishi mumkin. Aksincha, o‘zini namoyon etish ehtiyoji ijtimoiy jihatdan nomaqbul yo‘l bilan qondirilsa, tajovuzkorlik, bosim o‘tkazish yoki deviant xulq-atvor shakllanishi ehtimoli ortadi.

Shu nuqtayi nazardan o‘quvchi shaxsining rivojlanishini faqat individual psixologik xususiyatlar bilan emas, balki u faoliyat yuritayotgan ijtimoiy muhit va muloqot tizimi bilan birgalikda o‘rganish zarur.

O‘quvchilar xulq-atvorining shakllanishida muloqot alohida o‘rin tutadi. Muloqot jarayonida shaxs o‘zining munosabatini, ehtiyojlarini, hissiy holatini va boshqalarga nisbatan pozitsiyasini namoyon qiladi. Shu bilan birga, tengdoshlar bilan munosabatlar o‘quvchining o‘ziga beradigan bahosiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

E.G‘. G‘oziyev shaxs rivojlanishida munosabatlar tizimining ahamiyatini ta’kidlab, uni «subyekt–obyekt–subyektlararo» va «subyekt–subyekt–obyektlararo» munosabatlar doirasida tahlil qilish mumkinligini ko‘rsatadi [1]. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, o‘quvchi xulq-atvorini baholashda uning individual xususiyatlari bilan bir qatorda, oila, sinf jamoasi, tengdoshlar guruhi va boshqa ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Muloqot jarayonida o‘quvchi o‘zini yetakchi, tashabbuskor, boshqaruvchi, hamkorlikka moyil yoki aksincha, bosim o‘tkazuvchi subyekt sifatida namoyon qilishi mumkin. Shu bilan birga, bir xil o‘quvchi turli ijtimoiy guruhlarda turlicha mavqega ega bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Masalan, u bir guruhda yetakchilik qilsa, boshqa guruhda tengdoshlari bosimiga duch kelishi mumkin. Demak, o‘quvchiga faqat

«ab’yuz» yoki «jabrlanuvchi» sifatida bir tomonlama baho berishdan ko‘ra, uning turli vaziyatlardagi xulq-atvor dinamikasini o‘rganish muhimdir.

O‘quvchilar o‘rtasidagi ab’yuz munosabatlarning asosiy belgilaridan biri shaxsiy chegaralarning muntazam buzilishidir. Agar o‘zaro munosabatlarda nazorat kuchli, erkinlik cheklangan, qo‘rqitish yoki tahdid mavjud bo‘lsa, shaxsning qadr-qimmati muntazam ravishda kamsitilsa, bunday munosabatlar psixologik jihatdan xavfli muhitni yuzaga keltirishi mumkin.

Ab’yuz xulq-atvorning yana bir ko‘rinishi muntazam ravishda ayblash va aybdorlik hissini shakllantirishdir. «Sen meni hech qachon tushunmaysan», «Men haqimda o‘ylamaysan», «Sen o‘zing kimligingni bilmaysan» kabi iboralar takroriy tarzda qo‘llanib, boshqa shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirishga xizmat qilsa, bu psixologik bosimning belgisi bo‘lishi mumkin.

Maktab muhitida bunday holatlar sinfdoshining shaxsiyatini kamsitish, uni masxara qilish, qo‘pol hazillar orqali tahqirlash, tengdoshlar guruhidan chetlashtirish, qo‘rqitish yoki uning fikrini muntazam ravishda mensimaslik shaklida namoyon bo‘ladi.

Ota-ona yoki yaqinlarning bolaning qiziqishlari, do‘stlari, kasbiy yo‘nalishi yoki bo‘sh vaqtini haddan tashqari nazorat qilishi ham o‘quvchining shaxsiy chegaralari bilan bog‘liq muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Biroq har qanday ota-ona nazorati yoki tarbiyaviy talabni avtomatik ravishda ab’yuz munosabat sifatida baholash to‘g‘ri emas. Bunda talabning mazmuni, qo‘llanish shakli, muntazamligi va bolaning psixologik holatiga ta’siri kompleks baholanishi lozim.

Bola shaxsining rivojlanishida oilaviy muhit muhim o‘rin egallaydi. Oilada zo‘ravonlik, doimiy qo‘rqitish, tahqirlash yoki bir-biriga nisbatan hurmatsiz munosabatlarning mavjudligi bola tomonidan muayyan xulq-atvor namunalarining o‘zlashtirilishiga olib kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda bola kuzatuv orqali nizolarni kuch ishlatish, bosim o‘tkazish yoki bo‘ysundirish orqali hal qilish mumkinligi haqidagi noto‘g‘ri tasavvurni shakllantirishi ehtimoli mavjud.

Shu bilan birga, ab’yuz xulq-atvorni faqat oilaviy muhit bilan izohlash ham bir tomonlama yondashuv bo‘ladi. Uning shakllanishida maktab muhiti, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari ham muayyan rol o‘ynashi mumkin.

O‘quvchi turli jamoalarda turlicha ijtimoiy rollarni bajarishi mumkin. Shu sababli psixologik diagnostika jarayonida uning xulq-atvorini faqat bitta muhitdagi kuzatuvlar asosida baholash emas, balki turli vaziyatlardagi xatti-harakatlarini solishtirish maqsadga muvofiq.

Ab’yuz xulq-atvor bilan bog‘liq vaziyatlarda maktab psixologining asosiy vazifasi faqat muammo yuzaga kelganidan keyin unga munosabat bildirishdan iborat emas. Muhim yo‘nalishlardan biri bunday holatlarning oldini olishdir.

Buning uchun o‘quvchilar o‘rtasida psixologik xavfsiz muhitni shakllantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, nizolarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini

shakllantirish, empatiya va o‘zaro hurmatni rivojlantirishga qaratilgan trening va profilaktik mashg‘ulotlarni tashkil etish mumkin.

Psixolog o‘quvchi bilan individual ishlashda uning hissiy holati, o‘ziga bergan bahosi, tengdoshlari bilan munosabatlari va oilaviy muhitini o‘rganishi lozim. Zarur hollarda pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda individual psixologik-pedagogik yordam dasturini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ayniqsa, o‘quvchi zo‘ravonlik yoki muntazam psixologik bosimga duch kelayotgan bo‘lsa, vaziyatni «o‘zi hal qilib olishi»ni kutish o‘rniga, uning xavfsizligini ta’minlash va tegishli mutaxassislarni jalb etish muhimdir. Shu bilan birga, bosim o‘tkazuvchi o‘quvchi bilan ishlashda uni faqat jazolashga yo‘naltirilgan yondashuvdan ko‘ra, xulq-atvorining sabablarini aniqlash, empatiya, o‘zini boshqarish va nizolarni zo‘ravonliksiz hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratish samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalq ta’limi tizimida psixologik xizmatning dolzarb vazifalaridan biri o‘quvchilar o‘rtasidagi psixologik xavfsizlikni ta’minlash va ab’yuz xulq-atvorning oldini olishdan iborat. Mazkur muammo o‘quvchining individual xususiyatlari bilan bir qatorda, uning oilaviy muhiti, tengdoshlari bilan munosabatlari, sinf jamoasi va kengroq ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq.

Ab’yuz xulq-atvorning dastlabki belgilarini o‘z vaqtida aniqlash, o‘quvchilarning psixologik holatini muntazam kuzatish, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish maktab psixologik xizmatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Shu bilan birga, o‘quvchiga nisbatan bir tomonlama yorliq qo‘yishdan saqlanish, uning xulq-atvorini turli ijtimoiy vaziyatlarda kompleks o‘rganish zarur. Psixologik xizmatning profilaktik, diagnostik, maslahat va korreksion-rivojlantiruvchi yo‘nalishlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali ta’lim muassasasida sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish hamda o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvini qo‘llab-quvvatlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2010.
2. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya metodologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2013.
3. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.
4. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

УДК 159.922.8:004

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ САМОРЕГУЛЯЦИЯ ПОДРОСТКОВ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ И НАПРАВЛЕНИЯ КОРРЕКЦИОННОЙ РАБОТЫ

Алимова Елена Геннадьевна
PhD по психологическим наукам, доцент,
Национальный педагогический университет Узбекистана имени Низами

Цифровая среда стала одним из постоянных условий развития современного подростка. Она выполняет коммуникативную, образовательную, информационную, развлекательную и регуляторную функции. Поэтому цифровое поведение целесообразно рассматривать не только как внешнее воздействие на подростка, но и как часть его способов совладания с эмоционально значимыми ситуациями.

Обращение к телефону, социальной сети, игре или видеоконтенту может быть связано не только с интересом к цифровой активности, но и со снижением тревоги, отвлечением от конфликта или уходом от неприятных переживаний. В этом случае цифровая среда включается в систему психологической регуляции.

В структуре психологической регуляции значимое место занимают защитные механизмы, связанные со снижением субъективного эмоционального напряжения [1, 95–123; 2, 199–209; 12, 229–257]. Их нельзя автоматически оценивать как адаптивные или дезадаптивные: значение имеют контекст, частота использования и возможность перехода к более осознанным способам переработки ситуации.

Другой уровень регуляции представлен копинг-стратегиями. В подростковом возрасте они находятся в процессе развития: по мере взросления возрастает способность анализировать ситуацию и планировать действия [7, 1–8]. Цифровая среда предоставляет быстрые способы переключения внимания, поэтому важно изучать не только интенсивность активности, но и ее психологическую функцию.

Эмпирическую основу исследования составили результаты обследования подростков в возрасте от 12 до 15 лет. Выборка была разделена на две возрастные группы: 12–13 лет и 14–15 лет. Комплекс методик позволил рассмотреть психологическую саморегуляцию с нескольких взаимосвязанных сторон.

Для диагностики механизмов психологической защиты применялась методика Life Style Index [12, 229–257]. Ведущие копинг-стратегии определялись с помощью CISS. Уровень тревожности оценивался посредством шкалы тревожности Спилбергера–Ханина. Особенности интернет-поведения и

признаки интернет-зависимости исследовались с помощью теста К. Янг [15, 237–244].

Анализ результатов показал наличие возрастных различий в характере копинг-стратегий. У подростков старшей возрастной группы более выраженным оказался проблемно-ориентированный копинг, тогда как у младших подростков в большей степени представлены эмоционально-ориентированный и избегающий способы совладания. Полученные данные соответствуют представлениям о возрастной специфике копинг-поведения в подростковом возрасте [7, 1–8].

Анализ защитных механизмов выявил возрастную специфику их представленности. У младших подростков более выраженными оказались регрессия и замещение. У старших подростков отмечалось увеличение выраженности интеллектуализации и проекции при снижении выраженности регрессии и замещения. Такая динамика может рассматриваться как качественная перестройка системы психологической регуляции в процессе подросткового развития [2, 199–209; 12, 229–257].

Особое значение для практической модели имеют взаимосвязи защитных механизмов и копинг-стратегий. Проблемно-ориентированный копинг положительно связан с интеллектуализацией и отрицательно — с регрессией. Это позволяет предположить, что способность переводить эмоционально насыщенную ситуацию в когнитивно осмысленную форму может создавать условия для более последовательного решения проблемы.

Полученные результаты позволяют уточнить подход к оценке цифрового поведения. Сам факт интенсивного использования интернета не является достаточным основанием для вывода о нарушении адаптации. Более информативным является анализ того, что происходит с эмоциональным состоянием подростка до и после цифровой активности. Если обращение к телефону, игре или видеоконтенту систематически снижает тревогу, раздражение, чувство одиночества или позволяет не сталкиваться с проблемой, цифровое поведение может выполнять выраженную регуляторную функцию [15, 237–244].

Таким образом, психологическая саморегуляция подростка в цифровой среде представляет собой систему взаимодействующих процессов, включающих эмоциональные реакции, защитные механизмы, копинг-стратегии и особенности цифрового поведения. В исследовании выявлены возрастные различия в способах совладания: у старших подростков более выражен проблемно-ориентированный копинг, у младших — эмоционально-ориентированный и избегающий.

Одновременно обнаружена перестройка структуры защитных механизмов: у старших подростков увеличивается выраженность интеллектуализации и проекции, тогда как регрессия и замещение выражены в меньшей степени. Выявленные связи между защитными механизмами и копинг-стратегиями

позволяют рассматривать конструктивное и избегающее совладание как различные варианты психологической регуляции.

В связи с этим психологическое сопровождение подростков в цифровой среде должно включать не только регулирование времени использования гаджетов, но и развитие внутренних механизмов саморегуляции, эмоциональной осознанности и конструктивных способов совладания. Ключевым диагностическим вопросом становится не только «сколько подросток находится в цифровой среде», но и «какую психологическую функцию она выполняет для него в конкретной ситуации».

Литература:

1. Одинцова М.А., Сорокова М.Г. Копинг-стратегии и копинг-стили подростков при врожденной и приобретенной инвалидности (на примере ДЦП, онкологии, ревматических заболеваний) // Клиническая и специальная психология. 2021. Т. 10. № 2. С. 95–123.

2. Зубарева Н.С., Капустина В.А. Психологическое содержание жизнестойкости и защитных механизмов у молодежи с разными видами интернет-поведения // Вестник Томского государственного педагогического университета. 2021. № 6. С. 199–209.

3. Байрамян Р.М. Половые различия в предпочтениях школьниками копинг-стратегий // Психологические исследования. 2021. Т. 14. № 80.

4. Матафонова С.И., Рерке В.И., Кротова Т.Е. Взаимосвязь оценок детско-родительского взаимодействия и копинг-стратегий подростков «группы риска» // Психология и право. 2022. Т. 12. № 3. С. 109–123.

5. Одинцова М.А., Любовский Д.В. и др. Профили жизнестойкости подростков (на примере подростков с врожденной, приобретенной инвалидностью и здоровых сверстников) // Клиническая и специальная психология. 2022. Т. 11. № 3.

6. Алимова Е.Г. Методологические основы исследования защитных механизмов и стратегий психологической устойчивости подростков в условиях цифровой среды. // Педагогическая акмеология. № 12 (29) 2025. –С. 318-323.

UDK 372.881.512.133:37.02

KONSEPTUAL YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI FANINI O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI: O‘ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI QIYOSIY TAHLILI

Pardayev Bekmurat,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Zamonaviy ta’lim tizimida ona tili fanining vazifasi grammatik qoidalar, nazariy tushunchalar va imlo me’yorlarini o‘quvchiga yetkazish bilangina cheklanmaydi. Bugungi raqamli va axborotlashgan muhitda o‘quvchi turli janrdagi yozma, og‘zaki, vizual va multimodal matnlarni tushunishi, tahlil qilishi, baholashi hamda o‘z fikrini turli kommunikativ vaziyatlarda aniq va asoslangan tarzda ifodalay olishi lozim.

Shu jihatdan ona tili ta’limini tashkil etishda konseptual yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Konseptual yondashuv deganda ta’lim mazmunini alohida mavzular va qoidalar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan maqsad, mazmun, metod, faoliyat, natija va baholash tizimidan iborat yaxlit pedagogik konsepsiya asosida tashkil etish tushuniladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ona tili fanini o‘qitish mazmunini yangilash, o‘quvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda to‘g‘ri ifodalashga yo‘naltirish masalalari ilgari surilgan. Ona tili ta’limiga oid metodik manbalarda ham o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va amaliy nutq faoliyatini kuchaytirish muhim vazifa sifatida ko‘rsatiladi.

Biroq mavjud amaliyotda nazariy-lingvistik bilim bilan real kommunikativ faoliyat o‘rtasidagi tafovut, o‘quvchilarning matnni chuqur anglash va tahlil qilish ko‘nikmalarining yetarli darajada shakllanmasligi, baholashning ayrim holatlarda reproduktiv topshiriqlarga tayanishi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.

Mazkur masalaning dolzarbligini xalqaro baholash natijalari ham ko‘rsatadi. OECDning PISA-2022 mamlakatlar bo‘yicha hisobotida O‘zbekistonda 15 yoshli o‘quvchilarning atigi 14 foizi o‘qish savodxonligi bo‘yicha 2-daraja yoki undan yuqori natijaga erishgani, OECD mamlakatlari o‘rtacha ko‘rsatkichi esa 74 foizni tashkil etgani qayd etilgan. Ushbu ko‘rsatkich ona tili ta’limini matnni yodlash va grammatik tahlildan ko‘ra o‘qish savodxonligi, matnni talqin qilish, dalillash, xulosa chiqarish va mustaqil fikrlashga yo‘naltirish zaruratini kuchaytiradi.

Tadqiqotda qiyosiy-pedagogik tahlil, ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish, konseptual modellashtirish, tizimli yondashuv va pedagogik tajribani umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

O‘zbekiston hamda Finlyandiya ta’lim tizimlari tanlandi. Finlyandiya tajribasida ona tili va adabiyot fani umumiy ta’limning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning mazmuni o‘qish, yozish, muloqot, matnni talqin qilish, baholash va madaniy kompetensiyalar bilan bog‘langan. Finlyandiya milliy o‘quv dasturida fanlar bilan bir qatorda barcha fanlarda rivojlantiriladigan transversal kompetensiyalar tizimi ham belgilangan. Ular qatoriga fikrlash va o‘rganishni o‘rganish, madaniy kompetensiya, o‘zaro muloqot va o‘zini ifodalash, multiliteracy, AKT kompetensiyasi hamda jamiyatdagi faol ishtirok kiradi.

Ona tili fanini konseptual asosda o‘qitish uchta asosiy o‘zgarishni nazarda tutadi.

Birinchidan, “bilim - ko‘nikma — faoliyat — kompetensiya” uzviyligi ta’minlanishi kerak. O‘quvchi grammatik qoidani bilishi bilan cheklanmasdan, mazkur bilimni real kommunikativ vaziyatda qo‘llay olishi zarur.

Ikkinchidan, ta’lim mazmunining markaziga matn va kommunikativ vaziyat qo‘yilishi lozim. Masalan, “qo‘shma gap” mavzusini o‘rganishda faqat uning grammatik belgilarini aniqlash emas, balki o‘quvchiga ijtimoiy mazmundagi matn berilib, undagi qo‘shma gaplarning ma’no va uslubiy vazifasini tahlil qildirish, keyin esa o‘quvchining o‘zi shu grammatik qurilmalardan foydalanib matn yaratishini tashkil etish samaraliroqdir.

Uchinchidan, baholash ham o‘qitish konsepsiyasiga moslashishi lozim. Agar darsning maqsadi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo‘lsa, yakuniy baholash faqat test yoki grammatik tahlil bilan cheklanmasligi kerak. O‘quvchining matn yaratishi, fikrini dalillashi, matnni talqin qilishi va kommunikativ vaziyatga mos til vositalarini tanlashi ham baholanishi lozim.

O‘zbekiston va Finlyandiya tajribasining qiyosiy tahlili

Mezon	O‘zbekiston sharoiti	Finlyandiya tajribasi	O‘zbekiston uchun metodik xulosa
Ta’lim maqsadi	Nutqiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish, savodxonlikni rivojlantirish	Kommunikativ kompetensiya, multiliteracy, matnni yaratish va talqin qilish	Maqsadlarni real kommunikativ faoliyat bilan yanada kuchli bog‘lash
Ta’lim mazmuni	Fonetik, leksik, grammatik bilimlar va nutqiy faoliyat	Til, adabiyot, muloqot, matnlar, madaniyat va transversal kompetensiyalar	Grammatik mazmunni kommunikativ va madaniy kontekstda berish
O‘quvchi roli	Bilimni o‘zlashtiruvchi va topshiriq bajaruvchi	Faol subyekt, tadqiqotchi, matn yaratuvchi va o‘z faoliyatini baholovchi	O‘quvchi agentligini kuchaytirish
Matn bilan ishlash	O‘qish, savol-javob, tahlil, qayta hikoyalash	Matnni tushunish, talqin qilish, baholash, yaratish va multimodal ishlash	Matn bilan ishlashning to‘liq siklini joriy etish

Kompetensiya	Fanga oid va tayanch kompetensiyalar	Transversal kompetensiyalar barcha fanlarga singdirilgan	Ona tili darsini boshqa fanlar bilan integratsiyalash
Raqamli savodxonlik	Raqamli vositalardan foydalanish bosqichma-bosqich kengaymoqda	AKT va multiliteracy umumiy kompetensiyalarning tarkibiy qismi	Raqamli va multimodal matnlarni dars mazmuniga kiritish
Baholash	Nazorat ishlari, test, yozma va og‘zaki topshiriqlar	Turli xil, jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi formatif va summativ baholash	Formativ baholash, portfolio va mezonli baholashni kengaytirish
Fanlararo integratsiya	Alohida loyihalar va integratsion topshiriqlar mavjud	Har bir o‘quv yilida multidisiplinar modul tashkil etilishi ko‘zda tutiladi	Ona tili asosida tarix, informatika, adabiyot va jamiyatshunoslik bilan loyihalar yaratish

Finlyandiya milliy o‘quv dasturida transversal kompetensiyalar har bir fan doirasida o‘qitilishi, o‘rganilishi va baholanishi belgilangan. Shuningdek, maktablar kamida yiliga bir marta bir nechta fanlarni birlashtiruvchi multidisiplinar o‘quv modulini tashkil etadi.

Mazkur tajribaning O‘zbekiston uchun eng muhim jihati — ona tili fanini boshqa fanlardan ajratilgan, faqat til hodisalarini o‘rgatuvchi fan sifatida emas, balki o‘quvchining umumiy tafakkuri, muloqoti va savodxonligini rivojlantiruvchi vosita sifatida ko‘rishdir.

Bugungi o‘quvchi an’anaviy kitob va maqolalardan tashqari elektron xabar, blog, infografika, videorolik, reklama, ijtimoiy tarmoq posti, jadval va grafik kabi turli shakldagi axborotlar bilan ishlaydi.

Shu sababli ona tili ta’limida multiliteracy, ya’ni ko‘p savodxonlik konsepsiyasidan foydalanish dolzarbdir. Finlyandiya ta’lim tizimida multiliteracy o‘quvchining turli muhit va vositalarda matnni o‘qish, tushunish, talqin qilish, yozish, yaratish va baholash qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

O‘zbekiston maktablarida ushbu yondashuvni quyidagi topshiriqlar orqali bosqichma-bosqich joriy etish mumkin:

- bir mavzuga oid gazeta maqolasi va ijtimoiy tarmoq postini qiyoslash;
- reklama matnining til xususiyatlarini tahlil qilish;
- statistik ma’lumot asosida axborot matni yaratish;
- videomaterial asosida qisqa yozma xulosa tayyorlash;
- bir xil mazmunning ilmiy, publitsistik va badiiy uslubdagi ifodalarini qiyoslash;

internetdagi axborot manbalarining ishonchliligini til va mazmun jihatidan baholash.

Bunday topshiriqlar o‘quvchini faqat “to‘g‘ri javob”ni topishga emas, balki axborotni anglash, saralash, baholash va qayta yaratishga o‘rgatadi.

O‘zbekistonda konseptual yondashuvni amalga oshirishning dolzarb masalalari

1. Grammatik bilim bilan nutqiy faoliyat o‘rtasidagi uzviylikni kuchaytirish

Ona tili darslarida grammatik mavzularni o‘rganish zarur. Ammo grammatik bilimning ta’limiy qiymati uni amaliy nutqda qo‘llash bilan namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun “qoida — misol — mashq” ketma-ketligiga “kommunikativ vaziyat — kuzatish — xulosa — qoida — amaliy qo‘llash — ijodiy mahsulot” modelini qo‘shish maqsadga muvofiq.

2. Matn markazidagi ta’limni kuchaytirish

Ona tili darsining asosiy didaktik birligi sifatida alohida gapdan ko‘ra matnga ko‘proq e’tibor qaratish zarur. Matn o‘quvchiga til hodisasining real qo‘llanishini ko‘rsatadi.

Masalan, fe’l zamonlarini o‘rgatishda alohida gaplarni mexanik o‘zgartirishdan ko‘ra tarixiy voqea, kundalik hayot yoki kelajak kasbi haqida matn bilan ishlash o‘quvchida mazmuniy va grammatik tafakkurning birligini ta’minlaydi.

3. O‘qish savodxonligini alohida metodik yo‘nalish sifatida rivojlantirish

PISA natijalari O‘zbekiston uchun o‘qish savodxonligini rivojlantirish masalasining nihoyatda dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Shu sababli ona tili darslarida matnning asosiy g‘oyasini aniqlash; yashirin ma’noni anglash; muallif pozitsiyasini aniqlash; dalil va xulosani farqlash; ikki matnni qiyoslash; matn mazmunini boshqa manba bilan tekshirish; fakt va fikrni ajratish; matnning maqsadli auditoriyasini aniqlash; o‘z xulosasini dalillar asosida asoslash. i savol turlarining ulushini oshirish maqsadga muvofiq.

4. O‘qituvchining metodik rolini o‘zgartirish. Konseptual yondashuvda o‘qituvchi tayyor bilimni yetkazuvchi emas, balki o‘quv faoliyatini loyihalashtiruvchi va yo‘naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘qituvchidan muammoli vaziyat yaratish, savol va topshiriqlarni kompetensiyaga yo‘naltirish, turli darajadagi o‘quvchilar uchun differensial topshiriqlar tuzish, raqamli resurslardan maqsadli foydalanish, formatif baholashni amalga oshirish, o‘quvchi refleksiyasini tashkil etish, kabi metodik kompetensiyalarni talab etadi.

5. Baholash tizimini konsepsiyaga moslashtirish. Konseptual yondashuvning samaradorligi baholash tizimi bilan bevosita bog‘liq. Agar darsda ijodiy va kommunikativ faoliyat tashkil etilib, yakuniy natija faqat reproduktiv test orqali baholansa, ta’lim maqsadi bilan baholash vositasi o‘rtasida nomuvofiqlik yuzaga keladi.Shuning uchun ona tili fanida mezonli baholash, portfolio, o‘z-o‘zini baholash, o‘zaro baholash, rubrika va formatif fikr-mulohaza vositalaridan foydalanishni kengaytirish lozim.

Finlyandiya tajribasida ham baholashning turli shakllari hamda o‘quv jarayonini rivojlantiruvchi feedback muhim o‘rin egallaydi. Ona tili va adabiyot bo‘yicha yakuniy bosqich baholashida o‘zaro ta’sir, o‘qish va yozish, matnni talqin qilish, yaratish va baholash, til, adabiyot hamda madaniyat mazmunlari qamrab olinadi.

Xulosa shuki, ona tili fanini konseptual yondashuv asosida o‘qitish zamonaviy ta’limning muhim metodik talablaridan biridir. Mazkur yondashuv ona tili darsini

grammatik bilimlarni uzatish jarayonidan o‘quvchining kommunikativ, kognitiv, ijodiy va madaniy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi yaxlit pedagogik tizimga aylantirish imkonini beradi. Umuman olganda, konseptual yondashuv asosidagi ona tili ta’limining bosh mezoni o‘quvchining “qoidani bilishi” emas, balki til bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda mustaqil, ongli, ijodiy va samarali qo‘llay olishi bilan belgilanadi. Aynan shu jihat ona tili ta’limining mazmunini xalqaro ta’lim tendensiyalari bilan uyg‘unlashtirish va o‘quvchilarning funksional savodxonligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. – Toshkent, 2019.
3. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. va boshq. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Nosir, 2009.
5. Alavutdinova N. G. Ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – 102 b.
6. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi: Ona tili. Adabiyot. O‘zbek tili (ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). – Toshkent: Sharq.
7. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework: Reading, Mathematics and Science. – Paris: OECD Publishing, 2019. ECD

UDK: 373.3:796.01

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA VALEOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Xudoyberdiyev Shuxrat Mamayuspovich,
Termiz davlat pedagogika instituti “Jismoniy madaniyat” kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Zamonaviy ta’lim tizimida yosh avlod salomatligini saqlash va mustahkamlash masalasi ustuvor pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘quv yuklamalarining ortishi, bolalarning harakat faolligi kamayishi, raqamli qurilmalardan foydalanish vaqtining ko‘payishi hamda sog‘lom turmush tarziga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning kuchayishi maktab ta’limining dastlabki bosqichidayoq valeologik madaniyatni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda [3; 5].

Boshlang‘ich maktab davri bolaning asosiy qadriyatlari, odatlari va xulq-atvor stereotiplari shakllanadigan muhim rivojlanish bosqichidir. Shu sababli aynan ushbu davrda o‘quvchilarda o‘z salomatligiga ongli va mas’uliyatli munosabatni tarkib toptirish, jismoniy faollikka ehtiyojni shakllantirish hamda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega [1; 4].

Valeologik madaniyat shaxsning integrativ sifati bo‘lib, u salomatlik haqidagi bilimlar, sog‘lom turmush tarziga motivatsiya, o‘zini asrashga qaratilgan xulq-atvor ko‘nikmalari va sog‘lomlashtiruvchi faoliyat tajribasini o‘z ichiga oladi. Uni shakllantirishda o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim mazmunini amaliy faoliyat bilan bog‘lash hamda bolalar uchun tabiiy va qiziqarli pedagogik vositalardan foydalanish zarur [1; 3].

Bunday vositalar orasida harakatli o‘yinlar alohida o‘rin egallaydi. Harakatli o‘yinlar kichik maktab yoshidagi bolalarning tabiiy harakatga bo‘lgan ehtiyojiga mos keladi, ularni faol emotsional jarayonga jalb qiladi va jismoniy, ruhiy hamda ijtimoiy rivojlanishning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlaydi.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida valeologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslarini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ushbu jarayonda harakatli o‘yinlardan foydalanishning samarali metodik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning tajriba-sinov ishlari Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 10-sonli umumta’lim maktabining 3-sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borildi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik va psixologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma, tajriba-sinov hamda olingan natijalarni qiyosiy tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tajriba jarayonida o‘quvchilar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari amaldagi o‘quv dasturi asosida olib borildi. Tajriba guruhida esa valeologik mazmunga yo‘naltirilgan, maxsus tanlangan harakatli o‘yinlardan muntazam foydalanishga asoslangan pedagogik yondashuv qo‘llanildi.

Valeologik madaniyatning shakllanganlik darajasi kognitiv, motivatsion-qadriyatli, xulq-atvor va emotsional-irodaviy komponentlar asosida baholandi.

Valeologik madaniyatni shakllantirish zamonaviy pedagogika, psixologiya, jismoniy tarbiya nazariyasi, yosh fiziologiyasi hamda sog‘lomlashtiruvchi ta’lim konsepsiyalarining o‘zaro kesishgan nuqtasida o‘rganiladigan kompleks jarayondir [4; 7].

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda salomatlik ta’lim jarayonining muhim natijalaridan biri sifatida qaraladi. Maktab nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilarning jismoniy va psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlovchi muhit bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida sog‘lom xulq-atvorni shakllantirish, jismoniy faollikka ijobiy munosabatni rivojlantirish va salomatlikni qadriyat sifatida anglatish muhim pedagogik vazifadir [1; 5].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida valeologik madaniyatni shakllantirishning asosiy pedagogik shartlaridan biri ta’lim mazmunining bolaning yosh xususiyatlariga mosligidir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar mavhum tushunchalarga qaraganda aniq faoliyat, obrazli topshiriqlar, o‘yin va bevosita tajriba orqali bilimlarni samaraliroq o‘zlashtiradilar.

Shu sababli salomatlik, gigiyena, jismoniy faollik, dam olish va ovqatlanish kabi tushunchalarni faqat nazariy ma’lumotlar orqali emas, balki amaliy mashqlar va harakatli o‘yinlar yordamida tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Harakatli o‘yinlar kichik maktab yoshidagi bolalarning rivojlanish xususiyatlariga mos bo‘lgan faoliyat shaklidir. Ular o‘quvchilarni jismoniy faoliyatga jalb qilish bilan birga, muloqot, hamkorlik, o‘zini boshqarish va mas’uliyat kabi ijtimoiy-psixologik ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi.

Jismoniy tarbiya sohasidagi tadqiqotlar harakatli o‘yinlarning bir qator pedagogik afzalliklarini ko‘rsatadi. Jumladan, ular:

- o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos keladi;
- jismoniy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi;
- jismoniy va ruhiy rivojlanishga kompleks ta’sir ko‘rsatadi;
- hamkorlik, mas’uliyat va o‘zaro yordam ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- jismoniy mashg‘ulotlarga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni shakllantiradi;
- o‘zini boshqarish va belgilangan qoidalarga rioya qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Harakatli o‘yinlarning muhim jihati shundaki, ularda ta’limiy, tarbiyaviy va sog‘lomlashtiruvchi vazifalar bir vaqtning o‘zida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, gigiyena qoidalariga oid savollar bilan uyg‘unlashtirilgan harakatli o‘yinlar orqali

o‘quvchi bir vaqtning o‘zida bilim oladi, harakat qiladi va sog‘lom xulq-atvor me’yorlarini mustahkamlaydi.

Tajriba-sinov jarayonida tajriba guruhida valeologik yo‘naltirilgan harakatli o‘yinlardan tizimli foydalanish natijasida barcha asosiy ko‘rsatkichlarda ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

Tajriba boshida kognitiv komponent bo‘yicha tajriba guruhining ko‘rsatkichi 44 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yakuniy bosqichda ushbu ko‘rsatkich 78 foizga yetdi. Nazorat guruhida esa mazkur ko‘rsatkich 42 foizdan 55 foizgacha oshdi.

Motivatsion-qadriyatli komponent bo‘yicha tajriba guruhida ko‘rsatkich 41 foizdan 82 foizgacha o‘sdi. Nazorat guruhida esa 39 foizdan 52 foizgacha o‘zgarish kuzatildi.

Xulq-atvor komponentida tajriba guruhining natijasi 38 foizdan 79 foizgacha oshgan bo‘lsa, nazorat guruhida 36 foizdan 50 foizgacha o‘sish qayd etildi.

Emotsional-irodaviy komponent tajriba guruhida 43 foizdan 85 foizgacha, nazorat guruhida esa 40 foizdan 54 foizgacha oshdi.

Umumiy o‘rtacha ko‘rsatkich tajriba guruhida 42 foizdan 81 foizgacha, ya’ni 39 foiz bandga oshgan. Nazorat guruhida esa 39 foizdan 53 foizgacha, ya’ni 14 foiz bandlik o‘sish kuzatilgan.

Olingan natijalar tajriba guruhida qo‘llanilgan pedagogik yondashuvning samaradorligi yuqoriroq bo‘lganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, motivatsion-qadriyatli va emotsional-irodaviy komponentlardagi o‘sish harakatli o‘yinlarning bolalarda sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabatni shakllantirishdagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Eng sezilarli o‘zgarish emotsional-irodaviy komponentda qayd etildi. Buni o‘yin faoliyati davomida muvaffaqiyatga erishish hissining paydo bo‘lishi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishning kamayishi va jismoniy faollikka nisbatan ijobiy munosabatning shakllanishi bilan izohlash mumkin.

Kognitiv ko‘rsatkichlarning oshishi esa salomatlikka oid bilimlarning amaliy faoliyat bilan bog‘langan holda o‘zlashtirilishi samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi. O‘quvchi bilimni faqat tinglab yoki yodlab qolmay, uni bevosita faoliyat jarayonida qo‘llaganida mazkur bilimning mazmuni yaxshiroq anglanadi va mustahkamlanadi.

Shuningdek, harakatli o‘yinlar o‘quvchilarda hamkorlik, o‘zaro yordam, qoidalarga rioya qilish va mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qilgani kuzatildi. Bu esa valeologik madaniyatni faqat jismoniy salomatlik bilan cheklab qo‘ymasdan, uning ijtimoiy va psixologik jihatlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida valeologik madaniyatni shakllantirishda faoliyatga asoslangan pedagogik yondashuvning muhimligini ko‘rsatmoqda. Harakatli o‘yinlar o‘quvchining tabiiy ehtiyojlari va qiziqishlariga mos kelgani sababli ta’limiy mazmunni emotsional jihatdan qulay sharoitda o‘zlashtirish imkonini beradi.

Bunda o‘yinlardan foydalanishning samaradorligi ularning shunchaki jismoniy faollik vositasi sifatida emas, balki aniq pedagogik maqsad asosida tashkil etilishiga bog‘liq. O‘yin mazmuni salomatlik, gigiyena, jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish, dam olish va o‘zini asrash kabi valeologik tushunchalar bilan uzviy bog‘lanishi lozim.

Shu jihatdan, boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari tadbirlar, tarbiyaviy soatlar va sog‘lomlashtirish tadbirlarida ham valeologik mazmundagi harakatli o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

O‘tkazilgan tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida valeologik madaniyatni shakllantirishda harakatli o‘yinlardan foydalanish samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi.

Tajriba-sinov natijalari tajriba guruhida kognitiv, motivatsion-qadriyatli, xulq-atvor va emotsional-irodaviy komponentlarning shakllanganlik darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi. Umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichning tajriba guruhida 42 foizdan 81 foizgacha o‘sishi qo‘llanilgan metodik yondashuvning ijobiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Harakatli o‘yinlar o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish bilan birga, sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabat, o‘z salomatligiga mas’uliyatli munosabat, hamkorlik va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida harakatli o‘yinlarni valeologik mazmun bilan boyitish, ularni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari va tarbiyaviy faoliyatga tizimli ravishda integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur metodikaning turli yosh guruhlarida samaradorligini kengroq tanlanma asosida o‘rganish hamda uning uzoq muddatli natijalarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2017. — 320 b.

2. Kerimov F.A. Sport pedagogikasi asoslari. — Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2018. — 256 b.

3. Xo‘jayev N.X., Nishonova S.N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 384 b.

4. Rasulov A.Q. Sog‘lom turmush tarzi va valeologiya asoslari. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2019. — 224 b.

5. Bailey R. Physical Education and Sport in Schools: A Review of Benefits and Outcomes // Journal of School Health. 2018. Vol. 88, No. 5. P. 345–356.

6. Corbin C.B., Welk G.J., Corbin W.R., Welk K.A. Concepts of Physical Fitness: Active Lifestyles for Wellness. — New York: McGraw-Hill Education, 2019. — 480 p.

7. World Health Organization. Global Recommendations on Physical Activity for Health. — Geneva: WHO Press, 2010. — 60 p.

UDK 37.02:37.018.4

“AQLIY HUJUM” METODINING TA’LIM JARAYONIDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA SAMARALI QO‘LLASH MEXANIZMLARI

Aytbayev D.T.,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti professori

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri bilimlarni tayyor holda yetkazish bilan bir qatorda, ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, o‘z nuqtayi nazarini erkin ifodalashi, muammoli vaziyatlarga yechim topishi va ijodiy faoliyat yuritishi uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Shu jihatdan ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish muhim metodik vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Interfaol metodlar ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi, shuningdek, ta’lim oluvchilarning o‘zaro faol hamkorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Bunday metodlar orqali ta’lim oluvchi dars jarayonining passiv ishtirokchisidan faol subyektiga aylanadi. U o‘z fikrini ilgari surish, uni asoslash, boshqa fikrlarni tinglash va baholash, umumiy xulosaga kelish jarayonida bevosita ishtirok etadi.

Ana shunday interfaol metodlardan biri “Aqliy hujum” metodidir. Mazkur metod qisqa vaqt ichida ko‘plab fikr va g‘oyalarni yuzaga chiqarish, ta’lim oluvchilarning mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini aniqlash hamda ularni yangi bilimlarni o‘zlashtirishga tayyorlash imkonini beradi.

“Aqliy hujum” metodining mazmun-mohiyati haqida fikr yuritadigan bo‘lsak: “Aqliy hujum” metodi ta’lim jarayonida muayyan muammo yoki savol yuzasidan ta’lim oluvchilarning imkon qadar ko‘proq fikr va g‘oyalarini shakllantirishga asoslanadi. Metodning asosiy xususiyati shundan iboratki, fikrlarni bildirishning dastlabki bosqichida ular tanqid qilinmaydi, muhokama etilmaydi va baholanmaydi.

Bunday yondashuv ta’lim oluvchiga o‘z fikrini erkin ifodalash imkonini beradi. Ayniqsa, noto‘g‘ri javob berishdan qo‘rqadigan yoki o‘z fikrini ochiq bayon qilishga qiynaladigan ta’lim oluvchilar uchun mazkur metod psixologik jihatdan qulay muhit yaratadi.

“Aqliy hujum” jarayonida asosiy e’tibor fikrlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘-riligiga emas, balki ularning imkon qadar ko‘p va xilma-xil bo‘lishiga qaratiladi. Keyingi bosqichda bildirilgan fikrlar tahlil qilinib, ular orasidan mavzuga mos, asoslangan va maqbul javoblar ajratib olinadi.

Metodni qo‘llashning pedagogik imkoniyatlari: “Aqliy hujum” metodidan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin. Uni qo‘llashdan ko‘zlangan pedagogik maqsadga qarab metodning o‘rni va mazmuni o‘zgaradi.

Birinchidan, ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsa-dida “Aqliy hujum” darsning kirish qismida qo‘llanadi. Bunda yangi mavzu bilan bog‘liq savol berilib, ta’lim oluvchilarning mavjud bilimlari aniqlanadi.

Ikkinchidan, avvalgi mavzuni takrorlash yoki uni yangi mavzu bilan bog‘lash maqsadida metoddan yangi mavzuga o‘tish bosqichida foydalanish mumkin. Bu usul o‘zlashtirilgan bilimlarni faollashtirish va yangi mavzuni qabul qilish uchun zarur intellektual tayyorgarlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida “Aqliy hujum” darsning yakuniy yoki mustahkamlash bosqichida tashkil etiladi. Bunda ta’lim oluvchilar o‘zlashtirilgan bilimlarni qisqa vaqt ichida qayta faollashtirib, asosiy tushunchalarni umumlashtiradilar.

Shunday qilib, metoddan foydalanish maqsadi faqat savol-javob o‘tkazish-dan iborat bo‘lmay, balki ta’lim oluvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni fikrlashga undash va mavzu yuzasidan mustaqil xulosa chiqarishga yo‘nal-tirishni nazarda tutadi.

Metodning samaradorligi uni tashkil etish qoidalariga rioya qilinishiga bevosita bog‘liq. Eng avvalo, bildirilayotgan fikrlarni dastlabki bosqichda tanqid qilmaslik muhimdir. Chunki fikrni darhol baholash ta’lim oluvchilarning erkin fikr bildirishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Metoddan foydalanishda quyidagi asosiy qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiq: bildirilgan fikr va g‘oyalar dastlabki bosqichda muhokama qilinmaydi va baholanmaydi; har qanday fikr, hatto u noto‘g‘ri yoki mavzuga to‘liq mos bo‘lmasa ham, qayd etiladi; har bir ta’lim oluvchining jarayonda faol ishtirok etishiga imkon yaratiladi; bildirilgan fikrlar ko‘rinadigan shaklda qayd etib boriladi; fikrlar umumlashtirilgach, ular belgilangan mezonlar asosida tahlil qilinadi hamda yakuniy bosqichda savol yoki muammo yuzasidan asoslangan xulosa shakllantiriladi.

Mazkur qoidalar metodning asosiy maqsadi – erkin, faol va ijodiy fikrlash muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Metodni samarali tashkil etish muayyan ketma-ketlikni talab qiladi. Birinchi bosqichda ta’lim beruvchi mavzu yoki muammo yuzasidan aniq va tushunarli savolni shakllantiradi. Savol ta’lim oluvchilarni fikrlashga undashi va bir nechta javob variantlarini yuzaga keltirishi lozim.

Ikkinchi bosqichda ta’lim oluvchilar savol yuzasidan o‘z fikr-mulohaza va g‘oyalarini bildiradilar. Bu jarayonda erkin fikrlashga imkon berilishi va javoblar tanqid qilinmasligi kerak.

Tashkiliy-guruhiy determinantlar orasida psixologik xavfsizlik alohida o‘rin tutadi. A. Edmondson psixologik xavfsizlikni jamoa a’zolarining shaxslararo munosabatlarda o‘zini xavfsiz his qilishi haqidagi umumiy tasavvur sifatida izohlaydi va uni jamoaning o‘rganish xatti-harakati bilan bog‘laydi [8]. Maktab muhitida psixologik xavfsizlikning mavjudligi rahbar va pedagoglar o‘rtasida ochiq muloqot,

fikr almashish, muammolarni yashirmasdan muhokama qilish va xatolardan o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ish talablari va resurslari modeliga ko‘ra, yuqori darajadagi mehnat talablari yetarli resurslar bilan muvozanatlashmagan sharoitda kasbiy zo‘riqish va kuyish xavfi ortishi mumkin [9]. Maktab rahbarlari faoliyatida ish yuklamasining haddan tashqari ko‘payishi, ma’muriy vazifalarning ortishi va vaqt resurslarining cheklanganligi boshqaruv kompetensiyalarining to‘liq namoyon bo‘lishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimolini oshiradi. Shu sababli rahbar faoliyatida nafaqat talablarni, balki tashkiliy va psixologik resurslarni ham hisobga olish zarur.

Ijtimoiy-madaniy va me’yoriy determinantlar tarkibiga jamiyatning maktabga nisbatan kutishlari, hisobdorlik talablari, rahbarlarni tanlash va tayinlash tartibi, shuningdek, muayyan madaniy qadriyatlar kiradi. G. Xofstede tomonidan tavsiflangan hokimiyat masofasi kabi madaniy o‘lchovlar rahbar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarga, qaror qabul qilishda ishtirok etish darajasiga va tashkilotdagi muloqot xususiyatlariga ta’sir qilishi mumkin [10].

O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar [11; 12] maktab rahbarlari oldiga yangi vazifalar va talablarni qo‘ymoqda. Ushbu talablarning rahbarlarning kasbiy motivatsiyasi, boshqaruv uslubi, mas’uliyat hissi va psixologik holatiga ta’siri alohida empirik tadqiqotlarni talab etadi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar va determinantlar tahlili maktab ta’limi tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi:

1. **Rahbarlarni tayyorlash dasturlarini psixologik mazmun bilan boyitish.** Menejerlik kurslariga o‘z-o‘ziga samaradorlik, stressni boshqarish, emotsional intellekt, samarali muloqot va nizolarni boshqarish kabi ijtimoiy-psixologik modullarni kiritish.

2. **Psixologik xavfsiz tashkiliy muhitni shakllantirish.** Maktab jamoasida ochiq muloqot, konstruktiv fikr almashish va xatolardan o‘rganish madaniyatini rivojlantirish.

3. **Rahbarlarning ish yuklamasini maqbullashtirish.** Rahbarlarni bevosita boshqaruv faoliyatiga aloqador bo‘lmagan vazifalar va ortiqcha yig‘ilishlarga asossiz ravishda jalb etishni kamaytirish hamda kasbiy zo‘riqishning dastlabki belgilarini aniqlash mexanizmlarini joriy etish.

4. **Mentorlik va kasbiy qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish.** Yangi tayinlangan rahbarlarga tajribali rahbarlar yoki tegishli mutaxassislar tomonidan muntazam maslahat va psixologik-pedagogik ko‘mak berilishini yo‘lga qo‘yish.

Maktab ta’limi tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalari faqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar asosida emas, balki shaxsiy-psixologik, tashkiliy-guruhiy hamda ijtimoiy-madaniy va me’yoriy determinantlarning o‘zaro ta’siri natijasida rivojlanadi.

Rahbarning o‘z boshqaruv imkoniyatlarini anglashi, kasbiy motivatsiyasi, emotsional intellekti va stressga chidamliligi uning individual boshqaruv salohiyatini belgilovchi muhim omillar bo‘lsa, psixologik xavfsizlik, tashkiliy madaniyat, ish yuklamasi, resurslar va mentorlik jamoaviy muhitning muhim determinantlari hisoblanadi. Jamiyat kutishlari, hisobdorlik tizimi, madaniy qadriyatlar va rahbarlarni tayinlash tartibi esa boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-madaniy va me’yoriy kontekstini belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan, boshqaruv psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri rahbar kompetensiyalarini faqat baholash emas, balki ularning rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik va tashkiliy shart-sharoitlarni aniqlashdan iborat. Mazkur determinantlarni hisobga olish rahbar kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va kasbiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Leithwood K., Harris A., Hopkins D. Seven strong claims about successful school leadership // *School Leadership & Management*. – 2008. – Vol. 28, No. 1. – P. 27–42.

2. Hallinger P., Heck R. H. Reassessing the principal’s role in school effectiveness: A review of empirical research, 1980–1995 // *Educational Administration Quarterly*. – 1996. – Vol. 32, No. 1. – P. 5–44.

3. Boyatzis R. E. *The Competent Manager: A Model for Effective Performance.* – New York: Wiley, 1982.

4. Spencer L. M., Spencer S. M. *Competence at Work: Models for Superior Performance.* – New York: Wiley, 1993.

5. Bass B. M., Riggio R. E. *Transformational Leadership.* 2nd ed. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 2006.

6. Robinson V. M. J., Lloyd C. A., Rowe K. J. The impact of leadership on student outcomes: An analysis of the differential effects of leadership types // *Educational Administration Quarterly*. – 2008. – Vol. 44, No. 5. – P. 635–674.

7. Bandura A. *Self-Efficacy: The Exercise of Control.* – New York: W. H. Freeman, 1997.

8. Edmondson A. Psychological safety and learning behavior in work teams // *Administrative Science Quarterly*. – 1999. – Vol. 44, No. 2. – P. 350–383.

9. Bakker A. B., Demerouti E. The Job Demands-Resources model: State of the art // *Journal of Managerial Psychology*. – 2007. – Vol. 22, No. 3. – P. 309–328.

10. Hofstede G. *Culture’s Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations.* 2nd ed. – Thousand Oaks: Sage, 2001.

11. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”.

13. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.

14. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

15. У.Д.Кадыров, К.Х. Авазов. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества. Интернаука, 53-54.

UDK 37.07:159.9

MAKTAB RAHBARLARINING BOSHQARUV FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK OMILLAR VA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Turaxonov Abdukarim Eshkuziyevich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Ta’lim sifati nazorati bo‘limi boshlig‘i, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Maktab ta’limi tashkilotlarining samaradorligi ko‘p jihatdan rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyati bilan belgilanadi. Xalqaro tadqiqotlar sharhida maktab rahbarligi va boshqaruvi o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga ta’sir qiluvchi omillar orasida sinfdagi o‘qitishdan keyingi o‘rinda turishi ta’kidlanadi [1]. Bu ta’sir asosan bilvosita, ya’ni o‘qituvchilarning motivatsiyasi, kasbiy hamkorligi va maktab muhiti orqali amalga oshadi [2]. Demak, rahbarning kasbiy kompetentligi nafaqat uning shaxsiy bilim va ko‘nikmalariga, balki u faoliyat yuritayotgan ijtimoiy-psixologik muhitga ham bog‘liq.

Boshqaruv psixologiyasi va amaliyot o‘rtasida esa ko‘pincha uzilish kuzatiladi. Rahbar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarida me’yoriy-huquqiy hamda ma’muriy mavzular ustun bo‘lib, kasbiy kompetentlikning qaysi psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida rivojlanishi masalasi kamroq o‘rganiladi. Shu sababli maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatida psixologik omillar va kasbiy kompetentlikni rivojlantirish masalalarini tizimli o‘rganish hamda ularni boshqaruv amaliyoti bilan bog‘lash muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshqaruv psixologiyasida kompetensiya R. Boyatzis asarlaridan boshlab shaxsning samarali faoliyat bilan sababiy bog‘liq xususiyati sifatida talqin etiladi [3]. L. Spenser va S. Spenserlarning “aysberg” modelida bilim va ko‘nikmalar yuza qatlamni, motivlar, shaxsiy xislatlar va o‘z-o‘zini anglash esa chuqur qatlamni tashkil etadi [4]. Chuqur qatlamni o‘zgartirish nisbatan murakkab bo‘lgani sababli uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktab rahbarining kasbiy kompetentligi tarkibiga strategik fikrlash, jamoani boshqarish va rag‘batlantirish, pedagogik jarayonni qo‘llab-quvvatlash, o‘zgarishlarni boshqarish, resurslar bilan ishlash hamda tashqi hamkorlik kabi yo‘nalishlarni kiritish mumkin. Rahbarlik modellari orasida transformatsion yondashuv [5] rahbarning shaxsiy namunasi, istiqbol rejasi, intellektual rag‘batlantirishi va individual yondashuviga tayanadi. Pedagogik rahbarlik esa o‘qitish sifatini bevosita yo‘naltirishga qaratilgan bo‘lib, ayrim tahlillarda uning o‘quvchilar natijalariga ta’siri kuchliroq ekani ko‘rsatilgan [6]. Har ikkala yondashuv ham rahbarning psixologik xususiyatlari va u faoliyat yuritayotgan muhit bilan uzviy bog‘liq.

Maktab rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillarni shaxsiy-psixologik, tashkiliy-guruhiy hamda ijtimoiy-madaniy va me’yoriy omillarga ajratish maqsadga muvofiq.

Shaxsiy-psixologik omillar qatoriga rahbarning o‘z boshqaruv imkoniyatlarini anglashi, kasbiy motivatsiyasi, emotsional intellekti va stressga chidamliligi kiradi. A. Bandura o‘z-o‘ziga ishonchni shaxsning zarur harakatlarni tashkil etish va bajara olishiga bo‘lgan ishonchi sifatida ta’riflaydi [7]. Bunday ishonch rahbarning murakkab qarorlarni qabul qilishi, o‘zgarishlarni boshqarishi va muvaffaqiyatsizliklardan keyin tiklanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Rahbar o‘zining kuchli va zaif jihatlarini anglab, faoliyatini tahlil qila olgan sari kasbiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan individual strategiyalarni shakllantirish imkoniyati ham ortadi.

Kasbiy motivatsiya ham rahbar faoliyatining muhim psixologik omillaridan biridir. Ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan rahbar o‘z faoliyatini faqat ma’muriy vazifalarni bajarish bilan cheklab qo‘ymaydi, balki ta’lim sifatini oshirish, jamoani rivojlantirish va maktabning istiqboldagi faoliyatini takomillashtirishga intiladi. Emotsional intellekt esa rahbarning o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish hamda samarali muloqot qilish qobiliyatini belgilaydi.

Tashkiliy-guruhiy omillar orasida jamoadagi psixologik xavfsizlik alohida o‘rin tutadi. A. Edmondson psixologik xavfsizlikni jamoa a’zolarining shaxslararo munosabatlarda o‘zini xavfsiz his etishiga bo‘lgan umumiy ishonch sifatida izohlaydi va uni jamoaning o‘rganish xatti-harakati bilan bog‘laydi [8]. Maktab jamoasida xodimlar o‘z fikrini erkin bildira olishi, muammolarni yashirmasdan muhokama qilishi va xatolardan xulosa chiqarishi uchun qulay psixologik muhit mavjud bo‘lishi rahbarning boshqaruv kompetentligini namoyon etishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Ish talablari va resurslari modeliga ko‘ra, yuqori ish talablari yetarli resurslar bilan qoplanmasa, kasbiy kuyish xavfi ortadi [9]. Maktab rahbarlarining ish yuklamasining haddan tashqari yuqoriligi, ortiqcha ma’muriy vazifalar, vaqt tanqisligi va doimiy nazorat bosimi ularning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Natijada strategik fikrlash, ijodkorlik, jamoa bilan ishlash va muammolarni konstruktiv hal etish imkoniyatlari cheklanadi.

Mentorlik va kasbiy hamkorlik ham rahbarlarning rivojlanishida muhim tashkiliy-guruhiy omil hisoblanadi. Tajribali rahbarlar bilan fikr almashish, boshqaruvdagi real vaziyatlarni tahlil qilish va ilg‘or tajribalarni o‘rganish yangi rahbarlarning kasbiy moslashuvini tezlashtiradi. Shu bilan birga, rahbarlar o‘rtasidagi hamkorlik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yangi yondashuvlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-madaniy va me’yoriy omillarga jamiyatning maktabga bo‘lgan kutishlari, hisobdorlik talablari, rahbarni tanlash va tayinlash tartibi hamda madaniy qadriyatlar kiradi. G. Xofstede tomonidan tasvirlangan hokimiyat masofasi kabi madaniy o‘lchovlar rahbar va xodimlar o‘rtasidagi munosabatlarga, qarorlar qabul qilishda ishtirok etish darajasiga va jamoada ochiq muloqotga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [10].

O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan me’yoriy hujjatlar [11, 12] maktab rahbarlari oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy rahbar nafaqat ma’muriy boshqaruvni amalga oshirishi, balki ta’lim sifatini ta’minlashi, pedagoglarni kasbiy rivojlanishga yo‘naltirishi, jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratishi va ta’lim tashkilotining rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishi lozim. Bu talablarning rahbar shaxsiga va uning psixologik holatiga ta’sirini alohida o‘rganish zarur.

Maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishda, avvalo, rahbarlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturlarining mazmunini takomillashtirish muhimdir. Menejerlik kurslari tarkibiga o‘z boshqaruv imkoniyatlarini anglash, stressni boshqarish, samarali muloqot, nizolarni konstruktiv hal etish, emotsional intellekt va jamoani motivatsiyalash kabi ijtimoiy-psixologik mavzularni kengroq kiritish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, maktablarda sog‘lom psixologik xavfsizlik muhitini yaratish, ochiq muloqot va xatolardan o‘rganish madaniyatini shakllantirish zarur. Rahbar jamoa a’zolarining fikrlarini tinglashi, muammolarni jazolash vositasi sifatida emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida ko‘rib chiqishi samarali boshqaruvning muhim shartlaridan biridir.

Rahbarlarning ish yuklamasini muvozanatlash ham alohida ahamiyatga ega. Faoliyatiga bevosita aloqador bo‘lmagan ishlar va ortiqcha yig‘ilishlarga jalb etilishni kamaytirish, kasbiy kuyishning dastlabki belgilarini aniqlash va psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish rahbarning kasbiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, rahbarlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bir martalik malaka oshirish kurslari bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayon uzluksiz kasbiy rivojlanish, amaliy vaziyatlarni tahlil qilish, mentorlik, o‘z-o‘zini baholash va muntazam refleksiya asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv rahbarning o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilishiga va boshqaruv uslubini mavjud sharoitga moslashtirishiga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, maktab rahbarlarining kasbiy kompetentligi shaxsiy-psixologik, tashkiliy-guruhiy hamda ijtimoiy-madaniy va me’yoriy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida rivojlanadi. Rahbarning o‘z imkoniyatlarini anglashi, kasbiy motivatsiyasi, emotsional intellekti va stressga chidamliligi uning boshqaruv faoliyatining ichki psixologik asoslarini tashkil etadi. Jamoada psixologik xavfsizlik, samarali hamkorlik, mentorlik va yetarli tashkiliy resurslar esa ushbu kompetensiyalarning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lishiga sharoit yaratadi. Shu sababli maktab rahbarlarini tanlash, tayyorlash va kasbiy qo‘llab-quvvatlash jarayonlarida boshqaruvning psixologik jihatlariga alohida e’tibor qaratish ta’lim tashkilotlari samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Leithwood K., Harris A., Hopkins D. Seven strong claims about successful school leadership // School Leadership & Management. 2008. Vol. 28, No. 1. P. 27–42.
2. Hallinger P., Heck R. H. Reassessing the principal's role in school effectiveness: A review of empirical research, 1980–1995 // Educational Administration Quarterly. 1996. Vol. 32, No. 1. P. 5–44.
3. Boyatzis R. E. The Competent Manager: A Model for Effective Performance. New York: Wiley, 1982.
4. Spencer L. M., Spencer S. M. Competence at Work: Models for Superior Performance. New York: Wiley, 1993.
5. Bass B. M., Riggio R. E. Transformational Leadership. 2nd ed. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum, 2006.
6. Robinson V. M. J., Lloyd C. A., Rowe K. J. The impact of leadership on student outcomes: An analysis of the differential effects of leadership types // Educational Administration Quarterly. 2008. Vol. 44, No. 5. P. 635–674.
7. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: W. H. Freeman, 1997.
8. Edmondson A. Psychological safety and learning behavior in work teams // Administrative Science Quarterly. 1999. Vol. 44, No. 2. P. 350–383.
9. Bakker A. B., Demerouti E. The Job Demands-Resources model: State of the art // Journal of Managerial Psychology. 2007. Vol. 22, No. 3. P. 309–328.
10. Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. 2nd ed. Thousand Oaks: Sage, 2001.
11. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
13. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.
14. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.
15. У.Д.Кадыров, К.Х. Авазов. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества. Интернаука, 53-54.

UDK 159.9:796.07

KASBIY KOMPETENTLIK — BO‘LAJAK SPORT PSIXOLOGLARI KASBIY KAMOLOTINI BELGILOVCHI OMIL SIFATIDA

Rasulov Zokir Pardayevich,
O‘zbekiston davlat sport akademiyasi,
ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ma’lumki, sport sohasining jadal rivojlanishi sportchilarni nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan tayyorlash masalasiga ham alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sport amaliyotida sportchining yuqori natijalarga erishishi uning jismoniy tayyorgarligi bilan bir qatorda, motivatsiyasi, emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va musobaqa jarayonidagi psixologik holatini boshqara olish qobiliyatiga ham bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, sport psixologining kasbiy faoliyati sportchilarning psixologik tayyorgarligini ta’minlash, ularning individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish va sport faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport psixologiyasi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyati turli va murakkab psixologik vaziyatlar bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan maxsus bilim, amaliy ko‘nikma, kasbiy tajriba hamda shaxsiy-psixologik sifatlarning uyg‘unligini talab qiladi. Sportchi bilan individual ishlash, uning psixologik holatini diagnostika qilish, musobaqa oldidan psixologik tayyorgarlikni tashkil etish, stress va emotsional zo‘riqishni kamaytirish, motivatsiyani shakllantirish hamda sport jamoasida sog‘lom psixologik muhitni yaratish bo‘lajak sport psixologidan yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikni talab etadi.

Shu jihatdan, bo‘lajak sport psixologlarini tayyorlash jarayonida kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda, ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ham muhim psixologik-pedagogik vazifa hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassisning o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llashi, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilishi, mustaqil qaror qabul qilishi va faoliyat natijalarini baholashi imkoniyatlarini belgilaydi.

Kasbiy kompetentlik tushunchasi pedagogika va psixologiya fanlarida turli nuqtayi nazarlardan talqin etilgan. Jumladan, A.V. Xutorskoy kompetensiyani muayyan faoliyat sohasida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va faoliyat usullarining o‘zaro bog‘liq majmui sifatida, kompetentlikni esa shaxsning mazkur kompetensiyaga egaligi hamda unga nisbatan shaxsiy munosabati sifatida izohlaydi [1].

Mazkur yondashuv nuqtayi nazaridan, bo‘lajak sport psixologi uchun kasbiy kompetentlik faqat sport psixologiyasiga oid bilimlarni egallash bilangina cheklanmaydi. Talaba ushbu bilimlarni real sport vaziyatlarida qo‘llay olishi, sportchining individual xususiyatlarini hisobga olishi va kasbiy vazifalarni mustaqil hal eta olishi zarur. Demak, Xutorskoy yondashuvida kompetentlikning bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda, shaxsning faoliyatga bo‘lgan munosabati bilan bog‘lanishi sport psixologlarini kasbiy tayyorlash uchun ham muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotchi E.F. Zeer kompetentlikni shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zida mujassamlashtirgan integrativ sifati sifatida qaraydi. Olimning yondashuvida kompetensiyalar bilim, ko‘nikma, faoliyat qobiliyatlari hamda qadriyat-motivatsion komponentlarning birligini ifodalaydi [2].

Bizningcha, ushbu yondashuv bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini tadqiq etishda alohida ahamiyatga ega. Chunki sport psixologi faoliyatining samaradorligi faqat uning psixologik bilimlariga emas, balki kasbiy faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasi, sportchilar bilan ishlashga tayyorligi, kasbiy qadriyatlari va amaliy vaziyatlarda mavjud bilimlarini safarbar qila olish qobiliyatiga ham bog‘liq. Shuning uchun kasbiy kompetentlikni yaxlit va integrativ shaxsiy sifat sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

A.K. Markova professionalizm va kasbiy kompetentlikni insonning kasbiy faoliyatni yuqori darajada amalga oshirish imkoniyatlari bilan bog‘laydi. Uning yondashuvida kasbiy kompetentlik tarkibida professional bilim va ko‘nikmalar bilan bir qatorda, psixologik sifatlar, kasbiy pozitsiya, kasbiy intilishlar va mehnat motivatsiyasi ham muhim o‘rin egallaydi [3].

A.K. Markovaning mazkur qarashlari bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kamolotini tushuntirishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki sport psixologining kasbiy yetukligi faqat psixologik metodikalarni bilishi bilan emas, balki sportchi bilan ishlashga bo‘lgan munosabati, kasbiy mas’uliyati, o‘z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabati va professional rivojlanishga intilishi bilan ham belgilanadi. Shu sababli kasbiy kompetentlikni bo‘lajak sport psixologining kasbiy kamolotini ta’minlovchi kompleks omil sifatida qarash mumkin.

N.V. Kuzmina kasbiy kompetentlikni mutaxassisning kasbiy vazifalarni samarali hal etish uchun ilmiy va amaliy bilimlarni maqsadga muvofiq tarzda qo‘llay olish qobiliyati bilan bog‘laydi. Olim pedagogik faoliyat kompetentligini maxsus-kasbiy, metodik, ijtimoiy-psixologik va differensial-psixologik jihatlar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqadi [4].

Mazkur fikrni sport psixologiyasi faoliyatiga tatbiq etadigan bo‘lsak, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi sport psixologiyasiga oid maxsus bilimlar, psixodiagnostik va psixokorreksion metodlarni egallash, sportchi bilan samarali muloqot qilish, uning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish va turli kasbiy

vaziyatlarda mos psixologik yondashuvni tanlash qobiliyatlarining birligi orqali namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, I.A. Zimnyaya kompetentlikning motivatsion, kognitiv, xulq-atvor, qadriyat-mazmuniy va emotsional-irodaviy jihatlarini ajratib ko‘rsatadi. Uning yondashuvida kompetentlik faqat bilimning mavjudligi emas, balki ushbu bilimni amaliy faoliyatda namoyon etishga tayyorlik va uni real vaziyatlarda qo‘llash tajribasi bilan tavsiflanadi [5].

Bizning tadqiqotimiz nuqtayi nazaridan, ushbu yondashuv ayniqsa muhimdir. Chunki bo‘lajak sport psixologining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda motivatsion komponent uning boshqa tarkibiy qismlarini faollashtiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Kasbiy faoliyatga qiziqish, sportchilar bilan ishlashga bo‘lgan ehtiyoj, muvaffaqiyatga intilish va professional o‘zini rivojlantirish motivi talabaning bilimlarni egallashiga, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishiga va kasbiy tajriba orttirishiga turtki beradi.

Shu asosda bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini motivatsion, kognitiv, amaliy-faoliyat, kommunikativ, refleksiv va shaxsiy-psixologik komponentlarning o‘zaro integratsiyasi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Bunda:

motivatsion komponent — kasbiy qiziqish va maqsadlarni;

kognitiv komponent — sport psixologiyasiga oid bilimlarni;

amaliy-faoliyat komponenti — psixologik metod va texnologiyalarni qo‘llashni;

kommunikativ komponent — sportchi va murabbiylar bilan samarali muloqotni;

refleksiv komponent — o‘z faoliyatini tahlil qilishni;

shaxsiy-psixologik komponent — empatiya, emotsional barqarorlik, mas’uliyat va stressga chidamlilikni qamrab oladi.

Kasbiy kompetentlikning bo‘lajak sport psixologlari kasbiy kamolotidagi o‘rni

Bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ularning kasbiy kamolotini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lishining yana bir jihati shundaki, kasbiy kompetentlik shakllangan sari talabaning mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorgarligi ham ortib boradi. Bunda talaba nafaqat mavjud bilimlarni takrorlaydi, balki yangi kasbiy vaziyatlarni mustaqil tahlil qiladi, muammolarni aniqlaydi, psixologik yordamning maqbul usullarini tanlaydi va o‘z faoliyati natijalarini baholaydi.

Shu bilan birga, sport psixologining kasbiy kompetentligi uning psixologik diagnostika, psixologik maslahat, psixokorreksiya, psixoprofilaktika va sportchining psixologik tayyorgarligini tashkil etish kabi faoliyat yo‘nalishlarini samarali amalga oshira olishida namoyon bo‘ladi. Mazkur faoliyat turlarining har biri maxsus psixologik bilimlar bilan bir qatorda, yuqori darajadagi kommunikativ qobiliyat, empatiya, kuzatuvchanlik, emotsional barqarorlik va refleksivlikni talab qiladi.

Kasbiy kompetentlikning rivojlanishi bo‘lajak sport psixologining murakkab sport vaziyatlarida oqilona qaror qabul qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Masalan, sportchining musobaqa oldidagi kuchli hayajoni, mag‘lubiyatdan keyingi psixologik

tushkunligi, motivatsiyasining pasayishi yoki jamoada yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarda psixologdan vaziyatni tezkor baholash, individual yondashuvni tanlash va tegishli psixologik yordamni tashkil etish talab qilinadi.

Shu jihatdan, kasbiy kompetentlik bo‘lajak sport psixologining kasbiy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lovchi, uning kasbiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi va professional o‘zini-o‘zi rivojlantirishini rag‘batlantiruvchi omil sifatida qaralishi mumkin. Uning shakllanganlik darajasi mutaxassisning nafaqat ta’lim jarayonidagi, balki kelgusidagi kasbiy faoliyatidagi samaradorligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bo‘lajak sport psixologining kasbiy kamolotini ta’minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib, uning shakllanishi ta’lim jarayonida nazariy bilim, amaliy tayyorgarlik, kasbiy motivatsiya, kommunikativ faoliyat va refleksiv rivojlanishning o‘zaro uyg‘unligini talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy kompetentlik bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kamolotini belgilovchi muhim psixologik-pedagogik omil hisoblanadi. Uning shakllanishi sport psixologiyasi yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, kasbiy motivatsiyasi, kommunikativ va refleksiv qobiliyatlari hamda kasbiy jihatdan muhim shaxsiy sifatlarining o‘zaro uyg‘un rivojlanishi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, bo‘lajak sport psixologlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonida ta’limning nazariy va amaliy tarkibiy qismlarini integratsiyalash, real kasbiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlardan foydalanish, refleksiv faoliyatni kuchaytirish hamda talabalarning mustaqil kasbiy rivojlanishiga sharoit yaratish muhim pedagogik shartlar sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada kasbiy kompetentlik bo‘lajak sport psixologining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini yaxlit tizimga birlashtirib, uning mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хуторской А.В. Ключевые компетенции и образовательные стандарты // Эйдос. – 2002. – № 1. – С. 34.
2. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития. – М.: Академия, 2009. – 240 с.
3. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. – 308 с.
4. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – М.: Высшая школа, 1990. – 119 с.
5. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – № 5. – С. 87.

UDK 159.922.8:316.356.2

OTA-ONA VA FARZAND O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR XUSUSIYATLARINING O‘SMIRLARDAGI HISSIY BEQARORLIKKA TA’SIRI

Agzamova Malika Muratovna,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
“Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Insonning emotsional sohasi tashqi voqea va hodisalarning subyektiv ahamiyatini belgilovchi affektiv holatlar hamda individual xususiyatlar majmuasidan iborat. Emotsiyalar xulq-atvorni tartibga solishda muhim rol o‘ynab, samarali ijtimoiy integratsiya uchun zarur bo‘lgan shaxsiy moslashuv, muloqot va motivatsiyani ta’minlaydi. Biroq emotsional sohaning rivojlanishi ko‘pincha muayyan qiyinchiliklar bilan kechadi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida bu holat hissiy beqarorlik, yuqori ta’sirchanlik va emotsional reaksiyalarning tez o‘zgarishi ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin [3].

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko‘ra, hissiyotlarning rivojlanishi ijtimoiy o‘zaro munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq. Olim shaxsning keyingi rivojlanishini belgilovchi muhim psixologik tuzilmalar aynan o‘smirlik davrida shakllanishini ta’kidlagan [2].

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim va ziddiyatli bosqichi hisoblanadi. Mazkur davrda psixikaning kognitiv, emotsional va motivatsion tuzilmalarida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. Kechagi bola asta-sekin mustaqillikka, o‘z fikri va xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga intila boshlaydi. Biroq biologik yetilish jarayoni, ijtimoiy muhitning murakkablashuvi va shaxslararo munosabatlardagi o‘zgarishlar ko‘pincha o‘smirlarda emotsional beqarorlik va yuqori darajadagi ta’sirchanlikni yuzaga keltiradi [1; 2].

O‘smirlar o‘z hissiyotlarini anglash va tushunish qobiliyatini tobora rivojlantirib boradilar, biroq ularni samarali boshqarish hali ham muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. D.B. Elkonin ta’kidlaganidek, o‘smirlik davrida tengdoshlar bilan muloqot yetakchi faoliyatlardan biriga aylanadi. Natijada tengdoshlar bilan munosabatlar kuchli hissiy kechinmalarning muhim manbalaridan biri bo‘lib qoladi [4].

O‘smirlarning hissiy holatini o‘rganishning muhimligi ruhiy salomatlik sohasidagi zamonaviy tendensiyalar bilan ham tasdiqlanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 10–19 yoshdagi har yetti nafar o‘smirdan taxminan bir nafari ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolarga duch keladi. Ushbu yosh guruhida

depressiya, xavotir va xulq-atvor buzilishlari keng tarqalgan muammolar qatoriga kiradi [6].

O‘smirlik davri bolalik va kattalik o‘rtasidagi o‘tish bosqichini ifodalaydi. O‘smirning mustaqillikka va o‘z xatti-harakatlarini erkin belgilashga intilishi ko‘pincha hayotiy tajriba hamda psixologik barqarorlikning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan to‘qnashadi. Bu holat o‘smirning o‘zini kattalardek his qilishi, ya’ni subyektiv qarashlari bilan uning real imkoniyatlari o‘rtasida ichki ziddiyat yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Oila muhiti esa o‘smirning hissiy farovonligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Nosog‘lom oilaviy munosabatlar, hissiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi yoki tarbiyaviy talablarning nomutanosibligi o‘smirning hissiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin [3].

Empirik tadqiqot Toshkent shahridagi 188-sonli umumta’lim maktabida o‘tkazildi. Tadqiqotda 27 nafar o‘smir va ularning 22 nafar onasi ishtirok etdi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oiladagi tarbiya usullari hamda ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning o‘smirlarning hissiy holati bilan bog‘liq xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Baholash uchun E.G. Eydemiller va V.V. Yustiskis tomonidan ishlab chiqilgan “Oilaviy munosabatlar tahlili” (OMT) metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika ota-onaning farzandga munosabatini kompleks baholash, tarbiyaviy ta’sirning o‘ziga xos jihatlarini, bolaga qo‘yiladigan talablar xususiyatini, hissiy jalb etilganlik darajasini hamda oiladagi nazorat xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi [5].

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishtirokchi onalar orasida oilaviy tarbiyaning bir qator nomutanosib shakllari aniqlandi. Jumladan, yuqori axloqiy mas’uliyat va hissiy rad etish ko‘rsatkichlari eng yuqori ulushni tashkil etdi — har ikkala ko‘rsatkich bo‘yicha 5 nafardan, ya’ni 22,7 foizdan natija qayd etildi. Shafqatsiz munosabat ko‘rsatkichi 4 nafar onada (18,2 foiz), haddan tashqari homiylikka asoslangan giperproteksiya va hukmronlik qiluvchi giperproteksiya esa 3 nafardan (13,6 foiz) qayd etildi.

Mazkur natijalar tanlanma guruhdagi ayrim onalar o‘smirga nisbatan yuqori darajadagi talablarni qo‘yishga moyilligini ko‘rsatadi. Bunday tarbiyaviy yondashuvlarda o‘smirning yosh va individual xususiyatlari, mustaqillikka bo‘lgan ehtiyoji hamda hissiy ehtiyojlarini yetarli darajada hisobga olmaslik holatlari kuzatilishi mumkin.

“Hissiy rad etish” ko‘rsatkichining nisbatan yuqori ulushi ota-ona va o‘smir o‘rtasidagi hissiy yaqinlikning yetarli darajada shakllanmaganligi, shartsiz qabul qilish va qo‘llab-quvvatlashni namoyon etishda qiyinchiliklar mavjudligini ko‘rsatishi mumkin. O‘smirlik davrida tengdoshlarning ta’siri kuchayishiga qaramay, ota-ona bilan hissiy bog‘liqlik va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoj saqlanib qoladi. Ushbu ehtiyojning yetarli darajada qondirilmasligi ochiq muloqotning cheklanishiga va shaxsiy muammolarni ota-ona bilan muhokama qilishdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Giperproteksiya ko‘rsatkichlarining mavjudligi esa ayrim oilalarda o‘smirning mustaqilligiga nisbatan cheklovlar, ortiqcha nazorat yoki tarbiyaviy jarayonga haddan tashqari aralashuv mavjud bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bunday holat o‘smirning mustaqillikka bo‘lgan tabiiy ehtiyoji bilan ota-onaning nazoratga intilishi o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini talqin qilishda tanlanma hajmi cheklanganligini hisobga olish lozim. Mazkur natijalar ushbu guruhdagi oilaviy tarbiya xususiyatlarini aks ettiradi va ularni barcha o‘smirlar yoki oilalarga umumlashtirish uchun kengroq tanlanmalarda qo‘shimcha tadqiqotlar o‘tkazish talab etiladi.

Olingan nazariy va empirik ma’lumotlar o‘smirlik davridagi hissiy beqarorlik faqat yoshga xos psixologik o‘zgarishlar bilan emas, balki ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlari bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Xususan, haddan tashqari himoyalash, hissiy rad etish, o‘ta yuqori axloqiy talablarni qo‘yish hamda tarbiyaviy nazoratning nomutanosibligi o‘smirlarda hissiy taranglik, xavotir, impulsiv reaksiyalar va o‘zini o‘zi boshqarishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Aksincha, oiladagi ijobiy hissiy muhit, o‘smirning shaxs sifatida qabul qilinishi, uning shaxsiy chegaralariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish va tarbiyaviy talablardagi izchillik hissiy barqarorlik hamda konstruktiv xulq-atvorning rivojlanishi uchun qulay psixologik sharoit yaratadi.

O‘tkazilgan nazariy va empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davridagi hissiy beqarorlikni tushuntirishda oilaviy muhit va ota-ona hamda farzand o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. O‘smirning hissiy holati uning yoshga xos psixologik rivojlanishi bilan bir qatorda, oiladagi hissiy muhit, ota-onaning tarbiyaviy yondashuvi, nazorat darajasi, qo‘llab-quvvatlash va o‘smirning mustaqilligiga bo‘lgan munosabat bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotda yuqori axloqiy mas’uliyat va hissiy rad etish ko‘rsatkichlarining nisbatan yuqori ulushda aniqlanishi oilaviy tarbiya jarayonida talabchanlik va hissiy qo‘llab-quvvatlash o‘rtasidagi muvozanatga e’tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi. Giperprotektiv tarbiya shakllarining mavjudligi esa o‘smirning mustaqillikka bo‘lgan ehtiyoji bilan ota-onaning nazorati o‘rtasidagi munosabatlarni psixologik jihatdan o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bois o‘smirlarda hissiy beqarorlikning oldini olish va hissiy barqarorlikni rivojlantirishda faqat individual psixologik yordam bilan cheklanib qolmasdan, ota-onalar bilan psixologik-ma’rifiy va konsultativ ishlarni tashkil etish, oiladagi muloqot sifatini yaxshilash, o‘smirning shaxsiy chegaralari va mustaqilligini hurmat qilish hamda hissiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, oila o‘smirning psixologik barqarorligi va hissiy farovonligini qo‘llab-quvvatlovchi muhim ijtimoiy-psixologik muhit bo‘lishi bilan birga, tarbiyaviy

munosabatlardagi nomutanosibliklar mavjud bo‘lgan sharoitda hissiy zo‘riqish bilan bog‘liq omillardan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. — СПб.: Питер, 2008. — 400 с.
2. Выготский Л.С. Психология развития ребёнка. — М.: Эксмо, 2019. — 512 с.
3. Реан А.А. Психология подростка. — СПб.: Прайм-Еврознак, 2018. — 480 с.
4. Эльконин Д.Б. Психология развития. — М.: Академия, 2017. — 384 с.
5. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. 4-е изд. — СПб.: Питер, 2008. — 672 с.
6. World Health Organization. Adolescent mental health. World Health Organization — Adolescent mental health.
7. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.
8. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.
9. У.Д.Кадыров, К.Х. Авазов. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества. Интернаука, 53-54.

UDK: 37.015.3:37.018.1:37.02

TA’LIMNING PSIXOLOGIK MODELI: BILIM, TARBIYA, OILA VA FANLARARO INTEGRATSIYA UYG‘UNLIGI ASOSIDA ZAMONAVIY SHAXSNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Raximova Dilbar Muxitdinovna,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b., psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Zamonaviy jamiyatda ta’limning mazmuni va vazifalari sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Avvalgi davrlarda ta’lim samaradorligi, avvalo, o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar hajmi bilan izohlangan bo‘lsa, bugungi kunda bilimni mustaqil izlash, uni tahlil qilish, turli vaziyatlarda qo‘llash, muammoli holatlarda qaror qabul qilish hamda ijtimoiy munosabatlarda mas’uliyatli ishtirok etish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday yondashuv ta’lim jarayonining nafaqat pedagogik, balki psixologik va ijtimoiy omillarini ham kompleks ravishda o‘rganishni taqozo etadi.

O‘quvchining ta’limdagi muvaffaqiyati faqat dars jarayonida berilayotgan bilim va topshiriqlarga bog‘liq emas. Uning oiladagi muloqot tajribasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, ta’limga munosabati, ichki motivatsiyasi, emotsional xavfsizlik hissi va mustaqil faoliyatga tayyorgarligi ham ta’lim natijalariga ta’sir etuvchi muhim omillardir [1; 4]. Shu jihatdan oila va ta’lim muassasasini bir-biridan ajratib o‘rganish shaxs rivojlanishining barcha jihatlarini to‘liq ochib berishga imkon bermaydi. Oila shaxs rivojlanishining dastlabki ijtimoiy-psixologik muhitini yaratadi, ta’lim muassasasi esa mazkur tajribani tizimli bilim, ko‘nikma va ijtimoiy faoliyat bilan boyitadi.

Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida bilim bilan bir qatorda ko‘nikma, qadriyat, munosabat va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratiladi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim, fan va amaliyot o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish, o‘quvchining olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi [9].

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’lim amaliyotida bilim, tarbiya, oila, psixologik rivojlanish va fanlararo integratsiya ko‘pincha alohida yo‘nalishlar sifatida qaraladi. Aslida esa ushbu omillar shaxs rivojlanishining yagona tizimida o‘zaro ta’sir etadi.

Tadqiqotning maqsadi bilim, tarbiya, oila, psixologik rivojlanish va fanlararo integratsiya o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni nazariy jihatdan asoslash hamda zamonaviy shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi psixopedagogik modelni ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun ta’lim va shaxs rivojlanishining psixologik jihatlarini tahlil qilish, oilaning ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, fanlararo integratsiyaning shaxs rivojlanishidagi rolini asoslash, bilim, tarbiya va psixologik rivojlanish o‘rtasidagi aloqalarni yoritish, “oila–psixologik rivojlanish–ta’lim–fanlararo integratsiya” modelini ishlab chiqish hamda ushbu modelni ta’lim amaliyotida qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatish vazifalari belgilandi.

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, unda pedagogika, psixologiya, ta’lim metodikasi va fanlararo integratsiyaga oid ilmiy qarashlar tizimlashtirildi. Tadqiqot metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, psixologik va fanlararo yondashuvlar tashkil etadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda o‘quvchi tayyor bilimni passiv qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, balki o‘z rivojlanish jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi. Bunda uning individual qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va shaxsiy tajribasini hisobga olish ta’lim samaradorligining muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik yondashuv o‘quvchining motivatsiyasi, ehtiyojlari, qiziqishlari, emotsional holati, o‘z-o‘zini baholashi va mustaqil faoliyatga tayyorgarligini ta’lim jarayonining muhim ichki omillari sifatida baholaydi. O‘quvchining psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi uning bilim olishga bo‘lgan munosabati va ta’limdagi faolligini mustahkamlashi mumkin.

Fanlararo yondashuv esa murakkab hayotiy va ilmiy muammolarni birgina fan doirasida emas, balki turli fanlarning bilim va metodlarini o‘zaro bog‘lash orqali o‘rganishni nazarda tutadi [2; 7]. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, kontent-tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Bolaning ta’limga bo‘lgan munosabati maktabga kelgan paytdan boshlanmaydi. U oiladagi kundalik muloqot, savollarga beriladigan javoblar, kitob o‘qishga munosabat, kattalarning bilimga bo‘lgan qiziqishi va bolaning fikrini tinglash madaniyati orqali bosqichma-bosqich shakllanadi. Shu sababli oilani faqat bolaning xulq-atvorini nazorat qiluvchi ijtimoiy institut sifatida baholash yetarli emas. Oila bir vaqtning o‘zida shaxsning dastlabki psixologik, ijtimoiy va ta’limiy tajribasi shakllanadigan muhit hisoblanadi [2; 6].

Oiladagi qo‘llab-quvvatlovchi va hurmatga asoslangan muloqot bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mustaqil fikrlashi va bilishga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirishga xizmat qiladi. Aksincha, doimiy tanqid, haddan tashqari nazorat yoki bolaning fikrini inkor etish uning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda oila bilan ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlikni psixologik-pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish muhimdir.

O‘quvchining bilimni o‘zlashtirishi uning ichki motivatsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Agar o‘quvchi bilimning mazmuni va hayotiy ahamiyatini anglamasa, o‘qish faoliyati faqat tashqi talabni bajarishga aylanib qolishi mumkin [3; 4]. Shu sababli

zamonaviy ta’limda o‘quvchiga bilimning amaliy va shaxsiy ahamiyatini anglash imkonini beradigan ta’limiy vaziyatlarni yaratish zarur.

Fanlararo integratsiya mazkur vazifani amalga oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchi bir mavzuning bir nechta fan bilan bog‘liqligini va uning real hayotdagi ahamiyatini anglaganida bilimning funksional qiymati oshadi. Masalan, “suvni tejash” muammosini matematika, geografiya, biologiya, informatika va tarbiya fanlari bilan bog‘lash mumkin. Bunda o‘quvchi turli fanlardan olingan bilimlarni alohida ma’lumotlar sifatida emas, balki yagona hayotiy muammoni anglash va hal qilish vositalari sifatida qabul qiladi.

Shunday qilib, fanlararo integratsiya faqat didaktik vazifani bajarib qolmay, balki psixologik vazifani ham amalga oshiradi. U o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishi, bilimning mazmunini anglashiga yordam berishi va o‘quv faoliyatining ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Ta’lim jarayonida bilim va tarbiya bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida tashkil etilishi lozim. Bilim o‘quvchiga muayyan hodisa va jarayonlarni anglash imkonini bersa, tarbiya mazkur bilimlardan foydalanishning ijtimoiy va axloqiy yo‘nalishini belgilaydi. Shu sababli zamonaviy ta’limda “nimani bilish?” savoli bilan bir qatorda “bilimdan qanday foydalanish kerak?” degan savolga ham e’tibor qaratish muhim.

Fanlararo integratsiya ushbu ikki yo‘nalishni birlashtirish imkonini beradi. Masalan, ekologik muammolarni o‘rganishda biologik va geografik bilimlar bilan bir qatorda mas’uliyat, tabiatga ehtiyotkor munosabat, jamoaviy hamkorlik va fuqarolik mas’uliyati kabi tarbiyaviy jihatlar ham shakllantiriladi. Bunday yondashuvda o‘quvchi bilimni shunchaki eslab qolmaydi, balki uning ijtimoiy ahamiyatini ham anglaydi.

Oila va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlik o‘quvchining rivojlanishi uchun yagona psixologik-ta’limiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda ota-onalar, pedagoglar va psixologlar o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va rivojlanish dinamikasi haqida o‘zaro fikr almashishi muhimdir.

Hamkorlik faqat ota-onalar yig‘ilishi yoki o‘quvchining baholari haqida axborot berish bilan cheklanmasligi kerak. Uni oilaviy loyihalar, fanlararo topshiriqlar, ijodiy faoliyat, kasbiy yo‘naltirish tadbirlari va refleksiv mashg‘ulotlar orqali kengaytirish mumkin. Bunday faoliyat o‘quvchining oilaviy tajribasini ta’lim mazmuni bilan bog‘lash imkonini beradi.

Tadqiqot natijasida zamonaviy shaxsni shakllantirishning quyidagi psixopedagogik modeli taklif etiladi:

Oila → psixologik tayanch → ta’lim motivatsiyasi → bilim → fanlararo tafakkur → qadriyat → amaliy faoliyat → refleksiya → shaxsiy rivojlanish.

Mazkur ketma-ketlikda oila shaxsning dastlabki ijtimoiy-psixologik tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Psixologik tayanch o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchi va ta’limga nisbatan ijobiy munosabatini qo‘llab-quvvatlaydi. Ta’lim motivatsiyasi bilim olish jarayonining ichki harakatlantiruvchi omiliga aylanadi. O‘zlashtirilgan bilim

fanlararo aloqalar orqali kengayib, o‘quvchining murakkab hodisalarni tizimli idrok etishiga yordam beradi.

Keyingi bosqichda bilim qadriyatlar bilan bog‘lanadi va amaliy faoliyatda namoyon bo‘ladi. Refleksiya esa o‘quvchiga o‘z faoliyati, erishgan natijalari va kelgusidagi rivojlanish yo‘nalishlarini anglash imkonini beradi. Shu tariqa ta’lim jarayoni faqat bilim berishga emas, balki mustaqil fikrlovchi, mas’uliyatli va faol shaxsni shakllantirishga yo‘naltiriladi.

Taklif etilayotgan modelni ta’lim amaliyotida qo‘llash bir necha o‘zaro bog‘liq bosqichlar asosida tashkil etilishi mumkin. Dastlab o‘quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari va oilaviy ta’lim muhiti o‘rganiladi. Keyingi bosqichda fanlararo mazmunga ega muammoli vaziyatlar va amaliy topshiriqlar ishlab chiqiladi. Mazkur topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, jamoada ishlashi va turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirishini taqozo etishi lozim.

Keyingi bosqichda o‘quvchilarni loyiha faoliyati, muammoli ta’lim, munozara, amaliy mashg‘ulot va ijodiy topshiriqlarga jalb etish maqsadga muvofiq. Bunday faoliyat davomida o‘quvchi bilimni amaliy vaziyatda qo‘llash, muammoni tahlil qilish, muqobil yechimlarni izlash va qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Yakuniy bosqichda esa refleksiya tashkil etilib, o‘quvchilarning o‘z faoliyatini baholashi, erishilgan natijalarni tahlil qilishi va kelgusidagi vazifalarni belgilashi ta’minlanadi.

Mazkur jarayonda oila bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ham muhim. Ota-onalarni fanlararo loyihalar, kasbiy yo‘naltirish mashg‘ulotlari, oilaviy ta’limiy topshiriqlar va tarbiyaviy tadbirlarga jalb etish o‘quvchining maktabdagi va oiladagi tajribasi o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlashi mumkin.

Xulosa. Zamonaviy shaxsni shakllantirish jarayonini faqat ta’lim muassasasi doirasida izohlash yetarli emas. Shaxs rivojlanishining pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillari o‘zaro aloqada faoliyat ko‘rsatadi. Oila shaxsning dastlabki psixologik va ijtimoiy tajribasini shakllantirsa, ta’lim muassasasi ushbu tajribani tizimli bilim, ko‘nikma va ijtimoiy faoliyat bilan boyitadi. Fanlararo integratsiya esa olingan bilimlarni o‘zaro bog‘lash, ularni real hayotiy muammolarni anglash va hal qilishda qo‘llash imkonini beradi.

Tadqiqotda taklif etilgan psixopedagogik model oila, psixologik rivojlanish, ta’lim, fanlararo integratsiya, qadriyat va amaliy faoliyatni yagona tizimda birlashtiradi. Modelning asosiy mantiqi **“oila → psixologik tayanch → ta’lim motivatsiyasi → bilim → fanlararo tafakkur → qadriyat → amaliy faoliyat → refleksiya → shaxsiy rivojlanish”** ketma-ketligi orqali ifodalanadi.

Mazkur modelning nazariy ahamiyati shundaki, fanlararo integratsiya faqat didaktik hodisa emas, balki shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Amaliy jihatdan esa oila va ta’lim muassasasi hamkorligini fanlararo loyihalar bilan bog‘lash, o‘quvchining oilaviy tajribasini ta’lim resursiga aylantirish, muammoli vaziyatlar va refleksiv topshiriqlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, zamonaviy ta’limning asosiy vazifasi faqat bilimli o‘quvchini emas, balki bilimini amaliyotda qo‘llay oladigan, mustaqil fikrlaydigan, o‘z faoliyatini tahlil qila oladigan, ijtimoiy mas’uliyatni anglaydigan va doimiy rivojlanishga intiladigan shaxsni shakllantirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bandura A. *Social Learning Theory*. — Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977.
2. Bronfenbrenner U. *The Ecology of Human Development*. — Cambridge: Harvard University Press, 1979.
3. Bruner J. S. *The Process of Education*. — Cambridge: Harvard University Press, 1960.
4. Deci E. L., Ryan R. M. *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. — New York: Plenum, 1985.
5. Dewey J. *Experience and Education*. — New York: Macmillan, 1938.
6. Epstein J. L. *School, Family, and Community Partnerships*. — Boulder: Westview Press, 2001.
7. Jacobs H. H. *Interdisciplinary Curriculum: Design and Implementation*. — Alexandria: ASCD, 1989.
8. Vygotsky L. S. *Mind in Society*. — Cambridge: Harvard University Press, 1978.
9. UNESCO. *Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action*. — Paris: UNESCO, 2016.

UDK 159.928:378.147

SAMARALI O‘QUV STRATEGIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV PSIXOLOGIK OMILLARI

Jabborova Malohat Azimovna,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti v.b.,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida talabaning akademik muvaffaqiyati faqat egallangan bilimlar hajmi bilan belgilanmaydi. Axborot oqimining jadallashuvi va raqamli ta’lim imkoniyatlarining kengayishi talabalardan bilimni izlash, tanlash, qayta ishlash, o‘zlashtirish va yangi vaziyatlarda qo‘llashning samarali usullarini egallashni talab etmoqda. Shu sababli ta’lim jarayonida “nimani o‘rganish?” masalasi bilan bir qatorda “qanday samarali o‘rganish?” masalasi ham muhim psixologik muammolardan biriga aylanmoqda.

O‘quv strategiyalari talabaning muayyan akademik maqsadga erishish uchun ongli ravishda tanlaydigan va boshqaradigan kognitiv hamda metakognitiv harakatlari tizimini ifodalaydi. Biroq muayyan o‘quv usulini bilishning o‘zi uning samarali qo‘llanishini kafolatlamaydi. Talaba strategiyani nima uchun tanlayotgani, qaysi vazifada undan foydalanish mumkinligi va erishilgan natijaga qarab uni qachon o‘zgartirish zarurligini ham anglay olishi kerak. Shu jihatdan samarali o‘quv strategiyasi tayyor algoritm emas, balki o‘quv vaziyatiga moslashtiriladigan va natijalar asosida takomillashtirib boriladigan dinamik psixologik mexanizmdir.

P.H. Winne va A.F. Hadwin o‘zini o‘zi boshqarib o‘rganishni axborotni qayta ishlash va metakognitiv boshqaruv bilan o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida izohlaydilar. Ularning yondashuvida talaba avvalo o‘quv vazifasining shartlarini anglaydi, maqsadni belgilaydi, unga erishish uchun zarur strategiya va taktikalarni tanlaydi hamda o‘z faoliyati natijalarini kuzatib boradi. Olingan natija kutilgan maqsadga mos kelmasa, o‘quv faoliyatiga tegishli o‘zgartirishlar kiritiladi [1]. Bunday yondashuvda talaba bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va boshqaruvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Samarali strategiyalar rivojlanishining muhim psixologik omillaridan biri metakognitiv monitoring hisoblanadi. U talabaning o‘z bilim darajasini, vazifaning murakkabligini va qo‘llanayotgan strategiyaning natijadorligini kuzatib borish qobiliyatini anglatadi. A. Efklides metakognitiv jarayonlarni motivatsiya va affektiv holatlar bilan bog‘liq holda tahlil qilib, o‘quv faoliyatida qiyinchilikni his etish, o‘ziga ishonch va sarflanayotgan aqliy kuchni baholash kabi metakognitiv tajribalar o‘zini o‘zi

boshqarishga ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi [2]. Demak, talaba nafaqat nimani bilishini, balki o‘rganish jarayoni qanday kechayotganini ham anglay olishi muhimdir.

R.A. Bjork va E.L. Bjork tomonidan ilgari surilgan “maqsadga muvofiq qiyinchiliklar” konsepsiyasi samarali o‘rganish mexanizmlarini tushuntirishda alohida ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvga ko‘ra, o‘quv jarayonining subyektiv jihatdan oson kechishi bilimning mustahkam o‘zlashtirilganligini har doim ham anglatmaydi. Aksincha, o‘rganish jarayoniga maqsadga muvofiq kiritilgan ayrim qiyinchiliklar bilimning uzoq muddatli saqlanishi va keyinchalik qayta tiklanishiga yordam berishi mumkin [3]. Masalan, matnni qayta-qayta o‘qish talabada material tanish degan taassurot uyg‘otadi, biroq kitob yopilgandan so‘ng uning asosiy mazmunini mustaqil ravishda qayta tiklash haqiqiy o‘zlashtirish darajasini aniqroq namoyon qilishi mumkin.

Samarali o‘quv strategiyalarining yana bir muhim nazariy asosi L. Fiorella va R.E. Mayerning bilimlarni faol qayta ishlashga yo‘naltirilgan o‘rganish yondashuvida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuvda chuqur o‘rganish axborotni passiv qabul qilish orqali emas, balki muhim ma’lumotlarni tanlash, ularni mazmunan tashkil etish va avvalgi bilimlar bilan bog‘lash orqali yuzaga kelishi ta’kidlanadi [4]. Talabaning o‘rganilgan mavzuni o‘z so‘zlari bilan tushuntirishi, asosiy g‘oyalarni umumlashtirishi, konseptual xarita tuzishi yoki bilimni boshqa kishiga tushuntirishga harakat qilishi materialning faol qayta ishlanishini ta’minlaydi.

Y. Weinstein, C.R. Madan va M.A. Sumeracki tomonidan ta’lim amaliyoti uchun tizimlashtirilgan o‘rganish strategiyalari ham mazkur muammoni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar interval asosida o‘rganish, mavzularni navbatlashtirib o‘rganish, faol esga tushirish, mazmuniy kengaytirish va aniq misollardan foydalanish kabi strategiyalarning o‘quv jarayonidagi imkoniyatlarini ko‘rsatganlar [5]. Ushbu strategiyalarning umumiy xususiyati talabani ma’lumotni shunchaki takrorlashdan bilim bilan faol ishlashga yo‘naltirishdan iborat.

Xususan, faol esga tushirish jarayonida talaba materialni qayta o‘qishdan oldin o‘zlashtirilgan bilimni xotiradan mustaqil ravishda tiklashga harakat qiladi. O‘z-o‘ziga savol berish, mavzu yuzasidan kichik test bajarish yoki asosiy tushunchalarni manbaga qaramasdan qayta bayon qilish ushbu strategiyaning amaliy ko‘rinishlaridir. Interval asosida o‘rganish esa materialni bir martalik uzoq mashg‘ulot davomida o‘rganish o‘rniga, uni ma’lum vaqt oralig‘ida takroriy o‘zlashtirishga asoslanadi.

Mazmuniy kengaytirish yangi bilim bilan mavjud bilim o‘rtasidagi aloqalarni shakllantirishga yordam beradi. Talabaning “Nima uchun?”, “Bu qaysi tushuncha bilan bog‘liq?”, “Bunga qanday misol keltirish mumkin?” kabi savollar ustida fikrlashi yangi axborotning kengroq bilim tizimiga integratsiyalashuviga xizmat qiladi.

Nazariy qarashlarning qiyosiy tahlili samarali o‘quv strategiyalarini rivojlantirish bir nechta psixologik komponentlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanishini ko‘rsatadi.

Birinchidan, kognitiv faollik axborotni tanlash, tahlil qilish, qayta tashkil etish va xotiradan tiklashni ta’minlaydi.

Ikkinchidan, metakognitiv monitoring talabaning o‘zlashtirish jarayonini kuzatishi va nazorat qilishiga imkon beradi.

Uchinchidan, motivatsion faollik tanlangan strategiyadan izchil foydalanishni qo‘llab-quvvatlaydi hamda o‘quv maqsadiga erishishga yo‘naltirilgan faoliyatni rag‘batlantiradi.

To‘rtinchidan, o‘zini o‘zi boshqarish maqsad belgilash, rejalashtirish, vaqt va resurslarni taqsimlash hamda strategiyani o‘quv vaziyatiga moslashtirishni ta’minlaydi.

Beshinchidan, refleksiya olingan natijalarni tahlil qilish va o‘quv tajribasini keyingi faoliyat uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga aylantirish imkonini beradi.

Shu asosda samarali o‘quv strategiyalarini rivojlantirishning integrativ psixologik jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin:

maqsadni anglash → vazifani tahlil qilish → strategiyani tanlash → faol o‘rganish → metakognitiv monitoring → natijani baholash → refleksiya → strategiyani takomillashtirish.

Mazkur ketma-ketlikda strategiya o‘quv faoliyatining bir martalik usuli emas, balki talabaning o‘z tajribasi va natijalari asosida doimiy ravishda rivojlantirib boriladigan psixologik vositaga aylanadi. Shuning uchun samarali o‘quv strategiyalarini shakllantirishda talabalarga faqat “qanday o‘qish kerakligi”ni ko‘rsatish yetarli emas. Ularda qaysi strategiyani, nima uchun, qachon va qanday sharoitda qo‘llash kerakligini anglash qobiliyatini ham rivojlantirish zarur.

Samarali o‘quv strategiyalarini rivojlantirish kognitiv, metakognitiv, motivatsion va refleksiv jarayonlarning funksional birligiga asoslanadi. Oliy ta’limda talabalarni ko‘proq ma’lumot o‘zlashtirishga emas, balki o‘z o‘rganish jarayonini samarali tashkil etishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o‘quv mashg‘ulotlariga faol esga tushirish, interval asosida takrorlash, o‘z-o‘ziga tushuntirish, bilimlararo bog‘lanishlarni aniqlash, o‘zini tekshirish va refleksiv tahlil elementlarini tizimli ravishda kiritish maqsadga muvofiq.

Samarali o‘rganishning yakuniy natijasi faqat yuqori akademik ko‘rsatkich bilan cheklanmaydi. Uning muhim natijasi o‘z bilimini anglaydigan, o‘quv faoliyatini mustaqil boshqaradigan, strategik qarorlar qabul qila oladigan va yangi ta’limiy vaziyatlarga moslasha oladigan talaba shaxsini shakllantirishdan iborat. Shu ma’noda samarali o‘quv strategiyalari talabaning joriy ta’lim natijalarini yaxshilovchi vositagina emas, balki uning uzluksiz intellektual rivojlanishini ta’minlovchi psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Winne P.H., Hadwin A.F. Studying as Self-Regulated Learning // Hacker D.J., Dunlosky J., Graesser A.C. (eds.). *Metacognition in Educational Theory and Practice*. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1998. – P. 277–304.

2. Efklides A. Interactions of Metacognition with Motivation and Affect in Self-Regulated Learning: The MASRL Model // *Educational Psychologist*. – 2011. – Vol. 46, No. 1. – P. 6–25.

3. Bjork R.A., Bjork E.L. Making Things Hard on Yourself, But in a Good Way: Creating Desirable Difficulties to Enhance Learning // Gernsbacher M.A. et al. (eds.). *Psychology and the Real World: Essays Illustrating Fundamental Contributions to Society*. – New York: Worth Publishers, 2011.

4. Fiorella L., Mayer R.E. *Learning as a Generative Activity: Eight Learning Strategies That Promote Understanding*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015.

5. Weinstein Y., Madan C.R., Sumeracki M.A. Teaching the Science of Learning // *Cognitive Research: Principles and Implications*. – 2018. – Vol. 3. – Article 2.

6. Winne P.H., Marzouk Z. Learning Strategies and Self-Regulated Learning // Dunlosky J., Rawson K.A. (eds.). *The Cambridge Handbook of Cognition and Education*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2019.

UDK: 37.016:62:371.3

ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDA TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Berdiyeva Hanifa Meyliyevna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi “Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik jihatdan jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchiga faqat nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, uning olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishi, mustaqil qaror qabul qilishi, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashishi va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim tizimida texnologiya fanining imkoniyatlari keng bo‘lib, mazkur fan o‘quvchilarning kundalik hayotda zarur bo‘ladigan amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni mehnat faoliyatiga, kasb tanlashga va ijodiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiladi. Texnologiya fanida nazariy bilim bilan amaliy faoliyatning uyg‘unligi boshqa fanlarga nisbatan yaqqol namoyon bo‘lgani sababli uni o‘qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini yaxlit tizimga keltirish va amaliy faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi.

Fanlararo integratsiya zamonaviy pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, turli fanlar mazmunidagi bilim, ko‘nikma va tushunchalarni yagona ta’limiy maqsad asosida o‘zaro bog‘lashni nazarda tutadi. Integratsiyalashgan ta’lim jarayonida o‘quvchi muayyan masalani hal etish uchun bir nechta fanlardan o‘zlashtirgan bilimlaridan foydalanadi. Texnologiya fanining amaliy xarakteri esa bunday yondashuvni qo‘llash uchun keng imkoniyat yaratadi. Chunki har qanday texnologik jarayonda hisob-kitoblarni amalga oshirish, materiallarning xususiyatlarini aniqlash, chizma va tasvirlardan foydalanish, axborot texnologiyalarini qo‘llash hamda estetik talablarga rioya qilish zarur bo‘ladi.

Texnologiya va matematika fanlari integratsiyasi o‘quvchilarga matematik bilimlarning amaliy ahamiyatini bevosita anglash imkonini beradi. Mahsulot tayyorlash uchun zarur material miqdorini hisoblash, o‘lchamlarni aniqlash, yuza va hajmni hisoblash, mahsulot tannarxi va xarajatlarni belgilash kabi topshiriqlar matematik bilimlardan foydalanishni talab etadi. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchini bilimni faqat eslab qolishdan uni amaliy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltiradi. Natijada o‘quvchilarda hisob-kitob qilish, aniqlik, tejamkorlik va amaliy muammolarni hal etish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Texnologiya fanining tasviriy san’at bilan integratsiyasi o‘quvchilarning estetik didi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Buyum dizaynini ishlab chiqish, ranglar uyg‘unligini tanlash, bezak elementlarini yaratish va kompozitsiyani shakllantirish jarayonida tasviriy san’atga oid bilimlardan foydalaniladi. Bunda o‘quvchi yaratilayotgan buyumning nafaqat funksional, balki estetik jihatlarini ham hisobga olishni o‘rganadi. Mazkur yondashuv ijodkorlik, did va dizayn tafakkurini shakllantirish uchun muhim pedagogik sharoit yaratadi.

Texnologiya fanini geografiya, biologiya va ekologiya bilan bog‘lab o‘qitish ham muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Mahalliy xomashyolardan oqilona foydalanish, tabiiy resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish, materiallarni qayta ishlash va ekologik xavfsiz mahsulotlar yaratish bilan bog‘liq topshiriqlar o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantiradi. Shu bilan birga, texnologiya darslarida milliy hunarmandchilik, xalq amaliy san’ati va milliy qadriyatlarni o‘rganish orqali ta’limning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik va milliy bezak san’ati kabi yo‘nalishlar o‘quvchilarda milliy merosga hurmat, mehnatsevarlik, sabr-toqat va estetik didni rivojlantiradi.

Texnologiya va informatika fanlari integratsiyasi zamonaviy ta’lim sharoitida alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda mahsulot loyihasini ishlab chiqish, grafik tasvirlarni yaratish, axborot izlash, elektron taqdimotlar tayyorlash va ayrim texnologik jarayonlarni raqamli vositalar yordamida modellashtirish imkoniyatlari kengaymoqda. Bunday faoliyat o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirish bilan birga, texnologik masalalarni zamonaviy vositalar asosida hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiyalashgan darslarda o‘quvchi tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi emas, balki faol ta’lim subyekti sifatida ishtirok etadi. Masalan, “Ekologik mahsulot yaratish” mavzusida tashkil etilgan loyiha ishida o‘quvchi materialni tanlaydi, uning xususiyatlarini o‘rganadi, mahsulot dizaynini ishlab chiqadi, o‘lchamlarni hisoblaydi, texnologik jarayonni rejalashtiradi va tayyor mahsulotni taqdim etadi. Bunday faoliyat davomida texnologik, matematik, ekologik, estetik va kommunikativ bilimlar o‘zaro uyg‘unlashadi. Natijada o‘quvchi turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni nazariy jihatdan emas, balki amaliy faoliyat orqali anglaydi.

Texnologiya fanini fanlararo integratsiya asosida o‘qitishda loyiha metodi, muammoli ta’lim, “aqliy hujum”, klaster, keys-stadi, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot va amaliy topshiriqlardan foydalanish samarali natija beradi. Ayniqsa, loyiha metodi texnologiya fanining amaliy mazmuniga mos keladi. O‘quvchilar muayyan mahsulot yoki buyumni mustaqil loyihalash va tayyorlash jarayonida turli fanlarga oid bilimlardan foydalanadilar. Loyihaning yakunida tayyor mahsulotni himoya qilish esa ularning nutqiy, kommunikativ va taqdimot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Muammoli ta’lim asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarga real hayotga yaqin vaziyatlar taklif etiladi. Masalan, cheklangan miqdordagi materialdan qanday qilib funksional va estetik mahsulot yaratish mumkinligi haqidagi muammo

o‘quvchini mustaqil izlanishga undaydi. O‘quvchi materialni tejash, konstruksiyani tanlash, o‘lchamlarni hisoblash va dizaynni ishlab chiqish orqali muammoning maqbul yechimini izlaydi. Bunday faoliyat o‘quvchilarda ijodkorlik bilan bir qatorda iqtisodiy tafakkur, tejamkorlik va mas’uliyatni ham shakllantiradi.

Texnologiya fanining yana bir muhim jihati uning tarbiyaviy imkoniyatlari bilan bog‘liq. Amaliy faoliyat jarayonida o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas’uliyat, tartiblilik, jamoada ishlash, o‘z faoliyatini rejalashtirish va natijani baholash kabi sifatlar shakllanadi. O‘quvchi o‘z qo‘li bilan mahsulot yaratish jarayonida mehnatning qadri va natijaning ahamiyatini anglaydi. Yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlash va tuzatish orqali sabr-toqat hamda mas’uliyatni o‘rganadi. Guruhda ishlash esa boshqalarning fikrini tinglash, vazifalarni oqilona taqsimlash va hamkorlikda faoliyat yuritish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu sababli texnologiya fanini o‘qitishda ta’limiy maqsadlar bilan bir qatorda tarbiyaviy maqsadlarni ham aniq belgilash maqsadga muvofiq.

Fanlararo integratsiyani samarali tashkil etish uchun o‘qituvchidan yuqori metodik tayyorgarlik, fanlar mazmunini o‘zaro bog‘lay olish va amaliy topshiriqlarni to‘g‘ri tanlash talab etiladi. Integratsiya sun’iy ravishda bir nechta fanni bitta darsga qo‘shish emas, balki umumiy maqsadga xizmat qiladigan bilim va faoliyat turlarini mantiqiy jihatdan birlashtirishni anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, texnologiya darslarini rejalashtirishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, mavjud bilim darajasi, amaliy imkoniyatlari va hududiy sharoitlarni hisobga olish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim jarayonida texnologiya fanini fanlararo integratsiya asosida o‘qitish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Texnologiya fanining amaliy xarakteri uni matematika, informatika, tabiiy fanlar, tasviriy san’at, geografiya, ekologiya va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘lash imkonini beradi. Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash, muammolarni mustaqil hal qilish, ijodiy fikrlash va jamoada ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, bunday darslar o‘quvchilarning mehnat, ekologik, estetik, iqtisodiy va kasbiy tarbiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Demak, texnologiya fanini fanlararo integratsiya asosida tashkil etish zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim talablariga javob beradigan, o‘quvchini amaliy faoliyatga tayyorlaydigan va uning ijodiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradigan samarali pedagogik yondashuvlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.

2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent.

3. Mavlonova R.A., To‘rayeva O.T., Holiqberdiyev K.M. Pedagogika. – Toshkent.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent.
5. Beane J.A. *Curriculum Integration: Designing the Core of Democratic Education*. – New York: Teachers College Press.
6. Fogarty R. *How to Integrate the Curricula*. – Corwin Press.
7. UNESCO. *Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action*. – Paris: UNESCO.
8. OECD. *The Future of Education and Skills 2030*. – OECD Publishing.
9. Partnership for 21st Century Learning. *Framework for 21st Century Learning*.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.

UDK: 159.9:373.5

MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARI FAOLIYATIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH

Mirzayev Olim Safarovich,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining nafaqat akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini, balki uning individual-psixologik xususiyatlari, emotsional holati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanish dinamikasini o‘rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda maktab amaliyotchi psixologining diagnostik faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktab amaliyotchi psixologi o‘quvchining psixologik holatini o‘rganish, ta’lim jarayonidagi muammolarni aniqlash, sust o‘zlashtirish va uning kelib chiqish omillarini tushunish hamda o‘quvchilarga tegishli psixologik yordam ko‘rsatishda turli psixodiagnostik metodlardan foydalanadi. Psixodiagnostik amaliyotda standartlashtirilgan shaxs so‘rovnomalari, testlar, suhbat, kuzatish, faoliyat mahsulini tahlil qilish, biografik metod hamda proyektiv metodikalar muhim o‘rin egallaydi.

Ayniqsa, bolalar va o‘smirlar bilan ishlashda rasm chizishga asoslangan proyektiv metodikalar o‘quvchi uchun nisbatan tabiiy va qiziqarli diagnostik vaziyatni yaratishi bilan ahamiyatlidir. Proyektiv metodikalar shaxsning ichki psixologik mazmunini bilvosita o‘rganishga qaratilgan psixodiagnostik vositalar hisoblanadi. Ularda tadqiq etiluvchiga muayyan darajada noaniq yoki turlicha talqin qilinishi mumkin bo‘lgan stimul, topshiriq, obraz yoki vaziyat taqdim etiladi. Shaxs esa mazkur materialga o‘zining individual tajribasi, munosabati, ehtiyoji va kechinmalari asosida javob beradi.

Ukrain psixologi L. F. Burlachukning fikricha, proyektiv metodikalarning amaliyotdagi muhim jihati shundaki, respondentlarning javobi faqat tayyor variantlardan birini tanlash bilan cheklanmaydi [1, 78]. Proyektiv metodikalar shaxsning psixologik xususiyatlarini o‘rganishda, boshqa testlar uchun qo‘shimcha diagnostik ma’lumot manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Maktab amaliyotida, ayniqsa, rasmli proyektiv metodikalardan foydalanish qulay va samarali usullardan biri hisoblanadi. Rasm chizish jarayoni o‘quvchining ichki tajribalarini bilvosita ifodalashi uchun psixologik imkoniyat yaratadi.

Maktab psixologi proyektiv metodikalardan o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlarini kompleks o‘rganish jarayonida foydalanishi mumkin. Psixolog D. Ya. Raygorodskiyning fikriga ko‘ra, proyektiv metodikalar orqali o‘quvchining emotsional holati, o‘zini idrok qilishi va o‘z-o‘ziga munosabati, oilaviy munosabatlar tizimi, tengdoshlari bilan munosabatlari, xavfsizlik va himoya hissi, shaxslararo

munosabatlardagi qiyinchiliklari, ichki kechinmalari va emotsional zo‘riqish belgilari, ijtimoiy muhitni idrok etish xususiyatlari, shaxsiy chegaralarni his qilish ko‘nikmalari hamda ijodiy tasavvuri va obrazli tafakkuri haqida qo‘shimcha ma’lumot olish mumkin [2, 300].

Mazkur yo‘nalishlar amaliyotchi psixologga o‘quvchining psixologik holati haqida dastlabki tasavvur hosil qilish va keyingi psixodiagnostik ishlarni istiqbolli rejalashtirish imkonini beradi. Biroq proyektiv metodikalar natijalarini sharhlashda ehtiyotkorlik va kasbiy kompetentlik talab etiladi. Olingan natijalar o‘quvchining shaxsiyati yoki psixologik holati haqida yakuniy xulosa sifatida emas, balki kompleks diagnostikaning bir qismi sifatida qaralishi lozim.

Maktab psixologik amaliyotida keng qo‘llanishi mumkin bo‘lgan proyektiv metodikalardan biri “Uy-Daraxt-Odam” metodikasidir. Psixolog olim A. L. Vengerning fikricha, mazkur metodikada tadqiq etiluvchining uy, daraxt va odam obrazlarini tasvirlashi hamda ushbu obrazlarga bergan mazmuni tahlil qilinadi [3, 76]. Metodika orqali o‘quvchining o‘ziga va atrof-muhitga munosabati haqida qo‘shimcha diagnostik ma’lumot olish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, “Oila rasmi” proyektiv metodikasi bolaning oila a’zolari bilan munosabatlarini hamda oilaviy muhitni subyektiv idrok etish xususiyatlarini o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin. Bunda rasmning o‘zi bilan bir qatorda bolaning rasm chizish jarayonidagi xatti-harakatlari, izohlari va rasmdan keyingi suhbatda bildirgan fikrlari ham inobatga olinadi.

“Mavjud bo‘lmagan hayvon” kabi rasmli metodikalar esa shaxsning obrazli tasavvuri, individual xususiyatlari va o‘ziga xos psixologik reaksiyalarini o‘rganishda qo‘shimcha diagnostik manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bunday metodikalardan foydalanishda bolaning yosh xususiyatlari, rasm chizish qobiliyati, topshiriqni tushunishi va diagnostik vaziyatdagi emotsional holatini hisobga olish zarur.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, rasmdagi alohida bir belgiga qarab o‘quvchining shaxsiy xususiyati yoki psixologik holati haqida qat’iy xulosa chiqarish ilmiy jihatdan asosli emas. Proyektiv metodikalar natijalarini birlamchi diagnostik ma’lumot sifatida qabul qilish va ularni boshqa psixodiagnostik vositalar yordamida tekshirish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotchi N. A. Korniyenkoning ta’kidlashicha, proyektiv metodikalar natijalari suhbat, kuzatish, testlar va boshqa shaxs so‘rovnomalari kabi diagnostik vositalar orqali kompleks tahlil qilinishi lozim [4, 353].

Demak, maktab ta’limi amaliyotida proyektiv metodikalardan foydalanish, avvalo, amaliyotchi psixologdan yuqori darajadagi kasbiy mas’uliyat, maxsus tayyorgarlik va diagnostik natijalarni to‘g‘ri talqin qilish ko‘nikmasini talab etadi. Proyektiv metodikalar o‘quvchining ichki kechinmalari, emotsional holati va shaxslararo munosabatlari haqida qo‘shimcha ma’lumot olish imkonini berishi bilan maktab psixologining diagnostik faoliyatini boyitadi.

Umuman olganda, maktab amaliyotchi psixologi faoliyatida proyektiv metodikalardan oqilona va kompleks foydalanish o‘quvchilarning individual-

psixologik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish, mavjud psixologik muammolarni aniqlash hamda ularga ko‘rsatiladigan psixologik yordam yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бурлачук Л. Ф. Введение в проективную психодиагностику. — Киев: Ника-центр; Вист-С, 1997. — 128 с.
2. Райгородский Д. Я. Практическая психодиагностика. Методики и тесты: учеб. пособие. — Самара: ИД «БАХРАХ-М», 2007. — 672 с.
3. Венгер А. Л. Психологические рисуночные тесты: иллюстрированное руководство. — М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2003. — 160 с.
4. Корниенко Н. А. Проективная психология типологии личности // Профессиональное образование в современном мире. — 2023. — Т. 13, № 2. — С. 353–376.

UDK 343.85:343.91-055.2

AYOLLAR JINOYATCHILIGINI OLDINI OLISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Samatova Dilrabo,
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

Ayollar jamiyatning muhim ijtimoiy-demografik guruhlaridan biri bo‘lib, ularning oiladagi, ta’limdagi, mehnat bozoridagi va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki jamiyat rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ayollar bilan bog‘liq ijtimoiy muammolarni o‘rganish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda turli huquqbuzarliklarning oldini olish zamonaviy jamiyatning muhim vazifalaridan biridir.

Ayollar jinoyatchiligi jinoyatchilikning o‘ziga xos yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishiga individual, oilaviy, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik va huquqiy omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois ushbu hodisani faqat shaxsning individual xususiyatlari bilan izohlash yetarli emas. Jinoyatchilikning oldini olishda ayolning yashash muhiti, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishi, ta’lim va bandlik imkoniyatlari, oilaviy munosabatlari hamda huquqiy savodxonligi kabi omillarni ham hisobga olish zarur.

Ayollar jinoyatchiligini o‘rganishda uning sabablarini bir tomonlama talqin qilishdan qochish muhim. Masalan, ishsizlik yoki moddiy qiyinchiliklarning mavjudligi o‘z-o‘zidan jinoyat sodir etishga olib kelmaydi. Biroq bunday sharoitlar boshqa xavf omillari bilan birlashganda ayrim shaxslar uchun ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklarini kuchaytirishi mumkin.

Ayollar jinoyatchiligini shakllantiruvchi omillarni bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga ijtimoiy-iqtisodiy omillar kiradi. Ishsizlik, kasbiy tayyorgarlikning yetarli emasligi, barqaror daromad manbaining mavjud emasligi va ijtimoiy himoyaga ehtiyojning kuchayishi shaxsning hayotiy vaziyatini murakkablashtirishi mumkin.

Ikkinchi guruhni oilaviy va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq omillar tashkil etadi. Oiladagi nizolar, ajralish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi, zo‘ravonlik yoki doimiy psixologik bosim ayrim hollarda shaxsning emotsional holatiga va qaror qabul qilish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Uchinchi guruh — psixologik omillardir. Ular qatoriga yuqori darajadagi stress, emotsional zo‘riqish, impulsiv xatti-harakatlar, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish ko‘nikmalarining yetarli rivojlanmaganligi va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni kiritish mumkin. Bunday omillar jinoyatning bevosita sababi sifatida emas, balki ayrim hollarda xavf omillaridan biri sifatida baholanishi lozim.

To‘rtinchi guruhni huquqiy va ma’rifiy omillar tashkil etadi. Shaxsning o‘z huquq va majburiyatlarini yetarli darajada bilmasligi, huquqiy masalalarda maslahat olish

imkoniyatining cheklanganligi hamda qonuniy muqobil imkoniyatlardan bexabarlik ayrim muammoli vaziyatlarda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Ayollar jinoyatchiligining oldini olishda ta’lim muhim profilaktik vositalardan biridir. Ta’lim nafaqat bilim va kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi, balki shaxsning huquqiy, ijtimoiy va axloqiy dunyoqarashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Ayniqsa, yosh qizlarda huquqiy savodxonlikni oshirish, mehnat va ta’lim imkoniyatlari haqida ma’lumot berish, muammoli vaziyatlarda yordam so‘rash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda sog‘lom muloqot va nizolarni konstruktiv hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish muhimdir.

Tarbiya jarayonida esa shaxsning ijtimoiy mas’uliyati, qonunlarga hurmat, inson huquqlariga rioya qilish, o‘z xatti-harakatlari oqibatlarini anglash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilishi lozim.

Ayollar jinoyatchiligining oldini olishda psixologik xizmatlarning imkoniyatlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Psixologik maslahat shaxsning muammoli vaziyatni anglashiga, emotsional zo‘riqishni kamaytirishiga, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishiga va muammolarni konstruktiv yo‘l bilan hal etish strategiyalarini shakllantirishiga yordam berishi mumkin.

Ayniqsa, oilaviy nizolar, ajralish, ishsizlik, ijtimoiy yakkalanish yoki boshqa og‘ir hayotiy vaziyatlarni boshdan kechirayotgan ayollarga o‘z vaqtida psixologik va ijtimoiy yordam ko‘rsatish profilaktik jihatdan muhimdir.

Bunda psixologik yordam jazolash yoki ayblashga emas, balki shaxsning mavjud muammolarini anglash, o‘z imkoniyatlarini baholash va konstruktiv xulq strategiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilishi kerak.

Ayollar jinoyatchiligining oldini olishda bandlik masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Kasbiy ta’lim, qayta tayyorlash, tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish ayollarning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ayniqsa, ijtimoiy jihatdan zaif guruhlarga mansub, yolg‘iz farzand tarbiyalayotgan yoki jazoni o‘tab bo‘lgan ayollarni jamiyatga qayta moslashtirish bo‘yicha kompleks dasturlarni rivojlantirish zarur.

Ijtimoiy moslashuv jarayonida faqat moddiy yordam bilan cheklanib qolmasdan, kasbiy yo‘naltirish, psixologik maslahat, huquqiy yordam va ijtimoiy ko‘makni o‘zaro uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Ayollar jinoyatchiligining oldini olish masalasida gender tengligi tamoyillariga rioya qilish ham muhimdir. Ayollarning ta’lim olish, mehnat qilish, kasbiy rivojlanish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarining kengayishi ularning ijtimoiy resurslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bunda gender tengligi jinoyatchilikning yagona sababi yoki yechimi sifatida emas, balki ayollarning ijtimoiy imkoniyatlari va himoya resurslarini kengaytiruvchi omillardan biri sifatida qaralishi lozim.

Ayollar jinoyatchiligining oldini olish samarali amalga oshirilishi uchun davlat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, mahalla, psixologik xizmatlar, tibbiy va ijtimoiy tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Bunday hamkorlik doirasida xavf guruhiga mansub ayollarni erta aniqlash, ularga psixologik va huquqiy maslahat berish, kasbiy tayyorgarlik va bandlikka ko‘maklashish, oilaviy muammolarni hal etishda tegishli mutaxassislarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi.

Jazoni o‘tab bo‘lgan ayollarni ijtimoiy hayotga qaytarish ham alohida e’tiborni talab qiladi. Ularning jamiyatga moslashuvi uchun kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, bandlikka ko‘maklashish, psixologik yordam va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini birgalikda qo‘llash zarur.

Ayollar jinoyatchiligining oldini olish murakkab va ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik hamda huquqiy vazifa hisoblanadi. Jinoyatchilikka olib kelishi mumkin bo‘lgan omillarni faqat iqtisodiy yoki psixologik sabablar bilan izohlash to‘g‘ri emas. Shaxsning individual xususiyatlari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, ta’lim va bandlik imkoniyatlari, huquqiy savodxonlik hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqilishi lozim.

Profilaktikaning samaradorligini oshirish uchun ta’lim-tarbiya, psixologik yordam, huquqiy maslahat, kasbiy tayyorgarlik, bandlikka ko‘maklashish va ijtimoiy moslashuv choralarini yagona tizimga birlashtirish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, ayollar bilan ishlashda ularni faqat jinoyatchilik xavfi bilan bog‘liq guruh sifatida emas, balki turli ehtiyoj va hayotiy sharoitlarga ega bo‘lgan shaxslar sifatida ko‘rib chiqish muhimdir. Bunday yondashuv profilaktik ishlarning insonparvarlik, individual yondashuv va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tamoyillariga asoslanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyundagi “Jazoni o‘tab bo‘lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-303-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan “Ayollar daftari”ni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizom.
5. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning jamiyatdagi rolini oshirishga doir tizimli islohotlar tahlili // Huquq va burch jurnali. – 2025. – №3.

UDK 37.013.42:37.016

TARBIYA FANINI O‘QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Abduraimov Sherali No‘monjonovich,
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi” kafedrasi mudiri, dotsent v.b.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarga ma’lum hajmdagi bilimlarni berish bilangina cheklanmaydi. Bugungi kunda ta’lim oldida mustaqil fikrlaydigan, ma’naviy jihatdan yetuk, ijtimoiy faol, o‘z xatti-harakatiga mas’uliyat bilan yondashadigan shaxsni tarbiyalash vazifasi ham turibdi. Shu sababli ta’lim mazmunini takomillashtirish, o‘quv fanlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash va o‘quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirish muhim pedagogik masalalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida fanlarni bir-biridan mutlaqo ajratib o‘qitish o‘quvchining muayyan hodisa va jarayonlarni faqat bir tomonlama anglashiga olib kelishi mumkin. Aslida esa inson hayoti, jamiyat taraqqiyoti, tabiat va ijtimoiy munosabatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun o‘quvchining turli fanlardan olgan bilimlarini o‘zaro bog‘lay olishi, ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashi ta’lim samaradorligining muhim shartlaridan biridir.

O‘zbekiston ta’lim tizimida “Tarbiya” fanining joriy etilishi yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Mazkur fan mazmunida odob-axloq, ma’naviyat, huquqiy madaniyat, fuqarolik mas’uliyati, insonlararo munosabatlar va jamiyat hayotiga daxldorlik kabi masalalar o‘zaro uyg‘unlashgan.

“Tarbiya” fanini samarali o‘qitishda uning boshqa fanlar bilan aloqadorligini ta’minlash alohida ahamiyatga ega. Jumladan, tarix fani orqali vatanparvarlik va tarixiy xotira, adabiyot orqali insoniy fazilatlar va axloqiy tanlov, biologiya orqali tabiatga mas’uliyatli munosabat, tasviriy san’at va musiqa orqali estetik did, informatika orqali esa raqamli madaniyat va axborotdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin.

O‘quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirish uchun faqat bitta fan doirasidagi bilimlar yetarli emas. Ayniqsa, tarbiyaviy mazmundagi tushunchalar o‘quvchining kundalik hayoti, tarixiy voqealar, badiiy asarlar, tabiat hodisalari va jamiyatdagi munosabatlar bilan bog‘lab tushuntirilgandagina yanada aniq va ta’sirchan mazmun kasb etadi.

Fanlararo integratsiya o‘quvchining turli fanlardan olgan bilimlarini bir-biriga bog‘lash, muayyan masalaga turli nuqtayi nazardan qarash va mustaqil xulosa chiqarish

imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan birga, o‘quvchi nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan bog‘lashni o‘rganadi. Bu esa “Tarbiya” fanining hayotiyligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Fanlararo aloqadorlik pedagogika tarixida uzoq davrlardan beri muhim didaktik tamoyillardan biri sifatida qaralib keladi. Y.A. Komenskiy ta’limda izchillik, uzviylik va tizimlilikka katta ahamiyat bergan. Uning pedagogik qarashlarida bilimlarni o‘zaro bog‘liq holda berish orqali o‘quvchida yaxlit tasavvurni shakllantirish g‘oyasi alohida o‘rin tutadi.

Hozirgi pedagogik tadqiqotlarda ham fanlararo integratsiya o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositalaridan biri sifatida baholanadi. Chunki axborot bilan ishlash, muloqotga kirishish, ijtimoiy mas’uliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirish va mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni faqat bitta fan doirasida shakllantirish qiyin. Bunday sifatlar turli fanlar mazmuni va ta’limiy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligi asosida rivojlanadi.

Fanlararo bog‘liqlik o‘quvchining xotirasi, tasavvuri va mantiqiy fikrlashini faollashtirishga ham yordam beradi. Bir mavzuning turli fanlarda turlicha yoritilishi o‘quvchiga bilimlar o‘rtasidagi aloqani ko‘rish va ularni mustaqil ravishda umumlashtirish imkonini beradi.

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy-tahliliy yondashuv, modellashtirish, sintez va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. “Tarbiya” fani mazmuni boshqa o‘quv fanlarining tegishli mavzulari bilan qiyosiy tahlil qilinib, fanlararo aloqadorlikning amaliy imkoniyatlari ko‘rib chiqildi.

“Tarbiya” fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi, avvalo, mavzularning mazmuniy jihatdan bir-birini to‘ldirishiga asoslanishi lozim. Bunda integratsiya faqat bir darsda bir nechta fan nomini tilga olishdan iborat bo‘lmasligi kerak. Muhimi, o‘quvchi o‘rganayotgan mavzuning turli fanlarda qanday namoyon bo‘lishini anglay olishi va olgan bilimlarini bir butun holda qo‘llay bilishidir.

Tarix fani bilan bog‘liqlik “Tarbiya” darslarida ayniqsa katta imkoniyat beradi. Tarixiy shaxslar faoliyati, ajdodlarning ilm-fan va davlat boshqaruvidagi xizmatlari, xalqning ozodlik va taraqqiyot yo‘lidagi kurashi haqida ma’lumot berish orqali o‘quvchilarda Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va tarixiy xotira tuyg‘ularini shakllantirish mumkin. Masalan, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi tarixiy shaxslarning hayoti va ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish “Tarbiya” fanidagi mehnatsevarlik, bilimga intilish, mas’uliyat va Vatanga xizmat qilish kabi tushunchalarni aniq misollar bilan ochib berishga yordam beradi.

Adabiyot bilan integratsiya ham tarbiyaviy jihatdan katta imkoniyatlarga ega. Badiiy asarlardagi qahramonlarning xatti-harakatlari, hayotiy tanlovlari, insonlar bilan munosabatlari o‘quvchilar uchun muayyan axloqiy vaziyat sifatida tahlil qilinishi mumkin. Bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchi qahramonning xatti-harakatiga baho berish

bilan cheklanmay, “Men shunday vaziyatda qanday yo‘l tutgan bo‘lardim?” degan savol ustida ham fikr yuritadi. Natijada adabiy obraz tarbiyaviy mazmun kasb etadi.

Biologiya va ekologiya bilan integratsiya qilish orqali tabiatga munosabat, ekologik mas’uliyat, tejamkorlik va daxldorlik kabi sifatlarni shakllantirish mumkin. Tabiiy resurslarning cheklanganligi, atrof-muhitning ifloslanishi, suv va energiyadan oqilona foydalanish masalalarini “Tarbiya” fanidagi mas’uliyat va burch tushunchalari bilan bog‘lash o‘quvchining ekologik muammolarga bo‘lgan munosabatini yanada kuchaytiradi.

Tasviriy san’at va musiqa fanlari bilan integratsiya o‘quvchilarning estetik didini rivojlantirishga xizmat qiladi. Milliy san’at namunalari, xalq kuy-qo‘shiqlari, me’moriy obidalar va tasviriy san’at asarlari orqali o‘quvchilarda milliy madaniyatga hurmat va go‘zallikni anglash tuyg‘ularini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, jahon xalqlari san’ati bilan tanishtirish boshqa madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga yordam beradi.

Bugungi raqamli muhit sharoitida matematika va informatika fanlari bilan aloqadorlik ham muhim. “Tarbiya” darslarida axborot xavfsizligi, internetdan foydalanish madaniyati, kiberetika, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash kabi masalalarga e’tibor qaratish mumkin. Bu yo‘nalish o‘quvchilarda raqamli muhitda o‘zini tutish madaniyatini shakllantirish bilan birga, axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Fanlararo integratsiyani amalga oshirishda darsning mazmuni va o‘quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Integratsiya o‘quvchini ortiqcha ma’lumot bilan band qilib qo‘ymasligi, aksincha, asosiy tarbiyaviy g‘oyani chuqurroq anglashiga yordam berishi lozim.

“Tarbiya” fanini biologiya va adabiyot bilan bog‘lab tashkil etiladigan darslardan biri “Ekologik mas’uliyat va insonning tabiat oldidagi burchi” mavzusidagi mashg‘ulot bo‘lishi mumkin.

Darsning dastlabki bosqichida o‘quvchilarga suv tanqisligi, havoning ifloslanishi, o‘rmonlarning qisqarishi kabi ekologik muammolar aks etgan videolavha yoki tasvirlar namoyish etiladi. Shundan so‘ng biologiya fanidan olingan bilimlarga tayangan holda tabiatdagi ekologik muvozanat va uning inson hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Bu jarayonda o‘quvchilarga ekologik muammoning faqat tabiiy emas, balki axloqiy mas’uliyat bilan ham bog‘liq ekanligi tushuntiriladi.

Darsning keyingi bosqichida adabiyot faniga murojaat qilinib, o‘zbek adabiyotida tabiatga munosabatni aks ettiruvchi badiiy namunalar tahlil qilinadi. Tabiatni asrash, uning go‘zalligini qadrlash va insonning tabiat oldidagi mas’uliyati haqida fikr almashiladi. “Inson tabiatning hukmdorimi yoki uning bir qismimi?” degan savol asosida o‘quvchilar o‘rtasida munozara tashkil etish mumkin.

Mashg‘ulotning amaliy qismida o‘quvchilar guruhlarga ajratilib, maktab hududini obodonlashtirish, chiqindilarni kamaytirish, suv va elektr energiyasidan tejamkor foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadilar. Masalan, “Mening maktabim – yashil

makon” loyihasi orqali o‘quvchilar o‘z maktabida ekologik madaniyatni oshirish bo‘yicha aniq takliflar tayyorlashlari mumkin.

Bunday dars jarayonida o‘quvchi biologik bilimni, adabiy tasavvurni va axloqiy qarashni bir-biri bilan bog‘laydi. Eng muhimi, u o‘rganilgan mavzuni kundalik hayoti bilan bog‘lash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Fanlararo integratsiyaga asoslangan “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning mavzuga qiziqishi va ishtiroki ortishi kuzatiladi. Chunki mavzu birgina nazariy tushuntirish bilan cheklanmay, tarixiy voqea, badiiy obraz, ilmiy dalil yoki amaliy topshiriq bilan boyitiladi.

Integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchiga muayyan masalani bir necha tomondan ko‘rib chiqish imkonini beradi. Masalan, ekologik muammo biologiya nuqtayi nazaridan tabiiy jarayon, “Tarbiya” fani nuqtayi nazaridan insonning mas’uliyati, adabiyot nuqtayi nazaridan esa inson va tabiat munosabati sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu tariqa o‘quvchida voqea-hodisalar haqida kengroq va tizimli tasavvur shakllanadi.

Bunday yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va o‘z fikrini asoslash qobiliyatini rivojlantiradi. Turli fanlardan olingan ma’lumotlarni taqqoslash, umumiy jihatlarni aniqlash va xulosa chiqarish jarayonida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Fanlararo integratsiyaning yana bir muhim jihati shundaki, tarbiyaviy tushunchalar hayotiy misollar bilan bog‘lanadi. Mas’uliyat, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, tabiatga ehtiyotkor munosabat kabi tushunchalar quruq nazariya sifatida emas, balki tarixiy shaxslar faoliyati, adabiy qahramonlar taqdiri yoki real hayotdagi muammolar misolida o‘rganiladi. Bu esa o‘quvchining mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

“Tarbiya” fanini o‘qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini boyitish bilan birga, ularning ma’naviy-axloqiy va ijtimoiy sifatlarini shakllantirish uchun ham muhim imkoniyat yaratadi. Fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchi turli fanlardan olgan bilimlarini o‘zaro bog‘lashni, muammoga turli nuqtayi nazardan yondashishni va o‘z xulosasini asoslashni o‘rganadi.

“Tarbiya” fanining tarix bilan bog‘lanishi tarixiy xotira va vatanparvarlikni, adabiyot bilan integratsiyasi insonparvarlik va axloqiy fazilatlarni, biologiya bilan aloqadorligi ekologik madaniyatni, san’at fanlari bilan bog‘liqligi estetik didni, informatika bilan uyg‘unligi esa raqamli madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bois “Tarbiya” fani o‘qituvchisi darsni rejalashtirishda boshqa fanlar dasturidagi mazmunan yaqin mavzularga e’tibor qaratishi maqsadga muvofiq. Fan o‘qituvchilari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, tarix va “Tarbiya”, adabiyot va “Tarbiya”, biologiya va “Tarbiya” fanlari doirasida qo‘shma darslar tashkil etish yaxshi samara beradi.

Shuningdek, fanlararo integratsiyaga mos metodik qo‘llanmalar, amaliy topshiriqlar, keyslar va loyiha ishlanmalarini ko‘paytirish zarur. Bunda o‘quvchining

faqat tayyor bilimni o‘zlashtirishi emas, balki uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashi, muammoga yechim topishi va mustaqil fikr bildirishiga imkon beradigan topshiriqlarga ustuvorlik berish lozim.

Umuman olganda, fanlararo integratsiya “Tarbiya” fanining mazmunini boshqa fanlar bilan mexanik tarzda birlashtirish emas, balki o‘quvchida bilim, dunyoqarash va tarbiyaviy qarashlarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Shu jihatdan u o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish va ta’limning hayotiyligini ta’minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ‘Tarbiya’ fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 422-son qarori.

2. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

3. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent: Nihol, 2016.

4. Mavlonova R., Rahmonqulova N. *Pedagogik integratsiya va innovatsiyalar*. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

5. Ziyoyev A. Tarbiya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar va fanlararo aloqadorlik // *Pedagogik mahorat*. – 2023. – №4.

6. Hasanboyev J. va boshqalar. *Pedagogika fanidan ma’ruzalar matni*. – Toshkent: Edu Press, 2018.

UDK 159.9:37.015.3:316.77

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В РАМКАХ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ИНТЕГРАЦИИ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Сандул Александр Михайлович,
Специалист ЦЯТ ФГБОУ ВО
«Санкт Петербургский государственный университет»
г. Санкт Петербург РФ

В настоящее время инновационные подходы трансформируют психологическую службу в системе образования, делая её более гибкой, доступной и эффективной. Однако важно сохранять баланс между технологическими возможностями и личностным подходом, чтобы обеспечить качественную поддержку психологического здоровья учащихся, педагогов и родителей. Каждый педагог должен быть не только психологически образован, но должен быть ещё и психологически компетентен, т. е. способен эффективно использовать психологическую образованность на практике. В профессиональной деятельности учителя оказание психологической поддержки ученику как партнеру общения – это важная составляющая педагогического успеха на уроке и вне его.

Xorijiy tillarni o‘qitish tizimida ham bosqichli yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bunda quyi sinflarda bazaviy bilim va nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish, yuqori sinflarda esa akademik yozuv, muloqot va amaliy til ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mazkur o‘zgarishlar ta’lim mazmunini faqat nazariy bilim berishdan o‘quvchining bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirishga qaratilganini ko‘rsatadi.

Ochiq statistik ma’lumotlar maktab ta’limi infratuzilmasi va inson resurslari salohiyatida o‘sish kuzatilayotganini ko‘rsatadi.

2025/2026 o‘quv yili boshida mamlakatda 11 mingdan ortiq umumiy o‘rta ta’lim muassasasi faoliyat yuritgan. Maktablarda tahsil olayotgan o‘quvchilar soni 6,7 million nafardan oshgan.

Pedagog kadrlar sonida ham sezilarli o‘sish qayd etilgan. Xususan, 2015/2016 o‘quv yilida umumiy ta’lim tizimida taxminan 385 ming nafar o‘qituvchi faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2024/2025 o‘quv yiliga kelib mazkur ko‘rsatkich qariyb 565 ming nafarga yetgan.

Shuningdek, so‘nggi yillarda nodavlat umumiy ta’lim muassasalari sonining sezilarli darajada ko‘payishi ta’lim tizimida davlat sektori bilan bir qatorda nodavlat sektorning ham ulushi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

1-jadval

Ta’lim tizimining ayrim miqdoriy ko‘rsatkichlari dinamikasi

Ko‘rsatkich	**2015/2016 o‘quv yili**	**2024/2025–2025/2026 o‘quv yili**
Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari soni	—	11 mingdan ortiq
O‘quvchilar soni	—	6,7 mln dan ortiq
Pedagog kadrlar soni	≈385 ming	≈565 ming

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining ochiq ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Shu bilan birga, o‘quvchilar sonining o‘sish sur’ati bilan yangi ta’lim o‘rinlarini yaratish sur’ati o‘rtasidagi muvozanat masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayrim hududlarda demografik o‘sish va maktab yoshidagi bolalar sonining ko‘payishi mavjud infratuzilmaga qo‘shimcha yuklama keltirib chiqarmoqda. Shu sababli ta’lim infratuzilmasini rejalashtirishda hududlarning demografik xususiyatlari va maktablarning amaldagi sig‘imini hisobga olish muhimdir.

O‘zbekiston 2022-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan tashkil etiladigan PISA xalqaro tadqiqotida ilk bor ishtirok etdi. Mazkur tadqiqot 15 yoshli o‘quvchilarning matematika, o‘qish va tabiiy-ilmiy savodxonligini, shuningdek, bilimlarni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini baholashga qaratilgan.

PISA-2022 natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston o‘quvchilari matematik savodxonlik bo‘yicha 364 ball, o‘qish savodxonligi bo‘yicha 336 ball va tabiiy-ilmiy savodxonlik bo‘yicha 355 ball to‘plagan.

2-jadval

PISA-2022: O‘zbekiston natijalari va xalqaro o‘rtacha ko‘rsatkichlar

Yo‘nalish	**O‘zbekiston**	**OECD o‘rtachasi**	**Farq**

Matematik savodxonlik	364	472	−108
O‘qish savodxonligi	336	476	−140
Tabiiy-ilmiy savodxonlik	355	485	−130

Manba: OECD, PISA 2022 Results ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ushbu natijalar O‘zbekiston ta’lim tizimida o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish masalasi muhim ekanini ko‘rsatadi. Biroq PISA natijalarini milliy ta’lim tizimining barcha jihatlarini to‘liq ifodalovchi yagona mezon sifatida emas, balki ta’lim sifatini xalqaro kontekstda baholash vositasi sifatida talqin qilish lozim.

Tahlil natijalari davlat ta’lim siyosatining miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha turli dinamikaga ega ekanini ko‘rsatadi.

Miqdoriy jihatdan maktablar, o‘quvchilar va pedagoglar sonining ortishi, ta’lim infratuzilmasining kengayishi hamda nodavlat ta’lim sektorining rivojlanishi tizimning qamrov va resurs salohiyati kengayayotganidan dalolat beradi.

Biroq ta’lim tizimining miqdoriy kengayishi avtomatik ravishda ta’lim sifatining oshishini anglatmaydi. PISA-2022 natijalari o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini yanada rivojlantirish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Mazkur holatni izohlashda bir qator omillarni hisobga olish mumkin.

Birinchidan, o‘quv dasturlari va baholash tizimi o‘rtasidagi uyg‘unlikni kuchaytirish zarur. Ta’lim jarayonida bilimni yodlab olish bilan bir qatorda uni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda qo‘llash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini baholash mexanizmlari kengaytirilishi lozim.

Ikkinchidan, pedagoglarning kasbiy salohiyatini oshirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy o‘qitish metodikalarini amaliyotga samarali joriy etish uchun malaka oshirishning uzluksiz va amaliyotga yo‘naltirilgan mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi.

Uchinchidan, hududlar o‘rtasidagi ta’lim imkoniyatlari farqini kamaytirish muhim. Maktablarning moddiy-texnik bazasi, pedagogik kadrlar bilan ta’minlanganligi va ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlaridagi tafovutlar ta’lim natijalariga ta’sir qilishi mumkin.

To‘rtinchidan, o‘quvchilar sonining ko‘payishi ayrim hududlarda sinflar sig‘imiga bosimni kuchaytirishi mumkin. Shu sababli yangi maktab va qo‘shimcha o‘quv o‘rinlarini yaratish jarayonida hududlarning demografik prognozlarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Xalqaro tajriba ham ta’lim sifatini oshirishda nafaqat infratuzilmaga investitsiya kiritish, balki pedagoglarning kasbiy rivoji, ta’lim mazmuni, baholash tizimi va maktab boshqaruvi kabi omillarning o‘zaro uyg‘unligi muhimligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi o‘quv dasturlari, ixtisoslashtirilgan ta’lim yo‘nalishlari, xorijiy tillarni o‘qitish tizimidagi o‘zgarishlar va xalqaro baholash dasturlaridagi ishtirokni yagona ta’lim siyosati doirasida o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirish muhimdir.

O‘tkazilgan tahlil O‘zbekistonda maktab ta’limi sohasidagi davlat siyosati so‘nggi yillarda tizimli o‘zgarishlar bilan tavsiflanayotganini ko‘rsatadi. Ta’lim boshqaruvi takomillashtirildi, o‘quv dasturlarini yangilash jarayoni boshlandi, xorijiy tillarni o‘qitish mazmuniga yangi yondashuvlar joriy etildi, maktablar va pedagoglar soni oshdi hamda xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish yo‘lga qo‘yildi.

Shu bilan birga, ta’lim sifatini oshirish, funksional savodxonlikni rivojlantirish, hududiy tafovutlarni kamaytirish va pedagoglarning kasbiy salohiyatini mustahkamlash dolzarb vazifalar bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish. Malaka oshirish jarayonida zamonaviy pedagogik metodikalar, kompetensiyaviy yondashuv va amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish.
2. Baholash tizimini takomillashtirish. O‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki funksional savodxonligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashi, muammolarni hal qilish hamda bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini baholashga ko‘proq e’tibor qaratish.
3. Hududiy ta’lim tafovutlarini kamaytirish. Qishloq va chekka hududlardagi maktablarning moddiy-texnik bazasi, pedagogik kadrlar bilan ta’minlanganligi va zamonaviy ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash.
4. Xalqaro baholash natijalaridan tizimli foydalanish. PISA, TIMSS va PIRLS kabi xalqaro tadqiqotlar natijalarini muntazam tahlil qilish va aniqlangan muammolarni ta’lim siyosatini ishlab chiqishda hisobga olish.
5. Maktablarning boshqaruv imkoniyatlarini kengaytirish. Hudud va maktablarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish, resurslardan foydalanish va ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha maktablarning institutsional imkoniyatlarini kengaytirish.
6. Ta’lim infratuzilmasini demografik prognozlar asosida rejalashtirish. O‘quvchilar sonining hududlar bo‘yicha o‘zgarishini hisobga olgan holda yangi maktablar va qo‘shimcha o‘quv o‘rinlarini yaratish bo‘yicha uzoq muddatli rejalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.

Umuman olganda, ta’lim sohasidagi davlat siyosatining samaradorligini baholashda maktablar yoki o‘quvchilar sonining o‘sishi bilan bir qatorda, ta’lim oluvchilarning real bilim, ko‘nikma va kompetensiyalari, ta’lim imkoniyatlarining tengligi hamda ta’lim natijalarining barqarorligi asosiy mezonlardan biri bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni, 2023-yil 26-may.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy tillar va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarga oid hujjatlari. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 2024-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimiga oid statistik ma’lumotlar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimiga oid ochiq statistik ma’lumotlar.
6. OECD. *PISA 2022 Results*. Paris: OECD Publishing, 2023.
7. Avloniy.uz. O‘zbekistonning PISA-2022 tadqiqotidagi natijalariga oid materiallar.
8. Gazeta.uz. O‘zbekistonning PISA-2022 tadqiqotidagi natijalari bo‘yicha tahliliy materiallar.
9. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*. Xalq ta’limi tizimidagi muassasalarning statistik ma’lumotlarini taqqoslash. Vol. 45, 2025.
10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy portali. 2024/2025 o‘quv yiliga oid statistik ma’lumotlar.

UDK 159.9:378.015.3

OLIY TA’LIMDA AKADEMIK PROKRASTINATSIYANI PASS METODIKASI ASOSIDA PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKA QILISH IMKONIYATLARI

Odilbekov Mansurbek Maxmudjon o‘g‘li,
Oriental universiteti katta o‘qituvchisi

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil ta’lim olishi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi, vaqt resurslaridan samarali foydalanishi va o‘quv vazifalarini o‘z vaqtida bajarishi muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Kredit-modul tizimining keng joriy etilishi, mustaqil ta’lim hajmining ortishi hamda raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishi talabadan yuqori darajadagi o‘zini o‘zi boshqarish va mas’uliyatni talab qilmoqda.

Bunday sharoitda talabalar duch keladigan psixologik muammolardan biri akademik prokrastinatsiyadir. Akademik prokrastinatsiya — shaxs muayyan topshiriqni bajarish zarurligini anglagan va kechiktirish salbiy oqibatlarga olib kelishini bilgan holda, uni ixtiyoriy ravishda keyinga qoldirishi bilan tavsiflanadigan xulq-atvor shaklidir [1; 2]. Bunda topshiriqni kechiktirish oddiy rejalashtirish yoki vazifani boshqa muddatga ko‘chirishdan farq qiladi. Prokrastinatsiya ko‘pincha vaqt tanqisligi, xavotir, aybdorlik hissi, o‘z faoliyatidan norozilik, topshiriq sifatining pasayishi va akademik natijalarning yomonlashuvi bilan birga kechishi mumkin.

Akademik prokrastinatsiyaning shakllanishida bir qator psixologik omillar ishtirok etadi. Jumladan, o‘zini o‘zi boshqarishning yetarli darajada rivojlanmaganligi, vaqtni rejalashtirishdagi qiyinchiliklar, o‘quv motivatsiyasining pasayishi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, perfektsionizm, topshiriqning murakkab yoki yoqimsiz deb qabul qilinishi hamda qisqa muddatli emotsional qulaylikni afzal ko‘rish shular jumlasidandir [2; 3].

Shu sababli akademik prokrastinatsiyani faqat intizom yoki mas’uliyatning yetishmasligi sifatida baholash ilmiy jihatdan yetarli emas. Uni psixologik diagnostika asosida o‘rganish, kechiktirishning qaysi vaziyatlarda va qanday sabablar bilan yuzaga kelishini aniqlash talabalar bilan olib boriladigan psixologik yordamning samaradorligini oshirishi mumkin.

Akademik prokrastinatsiyani o‘rganishda Solomon va Rothblum tomonidan ishlab chiqilgan **Procrastination Assessment Scale for Students — PASS** metodikasi alohida ahamiyatga ega [1]. Ushbu metodika universitet talabalarining akademik vazifalarni bajarishni kechiktirish xususiyatlarini aniqlash uchun ishlab chiqilgan.

PASS metodikasi ikki asosiy yo‘nalishni qamrab oladi. Birinchi yo‘nalishda talabaning turli akademik vazifalarni kechiktirish darajasi o‘rganiladi. Bunda yozma ishlarni bajarish, imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rish, muntazam o‘quv topshiriqlarini

bajarish, akademik-ma’muriy vazifalar va boshqa o‘quv faoliyatiga oid vazifalarni bajarish jarayonidagi kechiktirish holatlari hisobga olinadi.

Muhim jihati shundaki, talaba faqat vazifani qanchalik tez-tez kechiktirishi bilan emas, balki mazkur kechiktirishni o‘zi uchun qanchalik muammoli deb baholashi bilan ham o‘rganiladi. Bundan tashqari, talabaning ushbu xulq-atvorini o‘zgartirish istagi aniqlanadi. Bu ko‘rsatkichlar psixolog uchun muammoning subyektiv ahamiyatini tushunish va keyingi yordam strategiyasini belgilash imkonini beradi.

PASS metodikasining ikkinchi muhim yo‘nalishi prokrastinatsiyaning sabablarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu qismda baholanishdan qo‘rqish, muvaffaqiyatsizlikdan xavotirlanish, perfektsionistik talablar, qaror qabul qilishdagi qiyinchilik, topshiriqning yoqimsizligi, vaqtni tashkil eta olmaslik, tashqi nazorat yoki yordamga ehtiyoj, motivatsiyaning yetarli emasligi kabi omillar hisobga olinadi [1].

Shunday qilib, PASS metodikasi “talaba topshiriqlarni kechiktiradi yoki kechiktirmaydi” degan oddiy xulosadan ko‘ra kengroq diagnostik ma’lumot beradi. U kechiktirishning chastotasi, subyektiv muammolilik darajasi, o‘zgarishga tayyorlik va ehtimoliy sabablarini birgalikda ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Bu jihat psixologik xizmat uchun ayniqsa muhimdir. Chunki bir xil darajadagi prokrastinatsiya turli talabalar uchun turlicha psixologik mexanizmlarga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, bir talaba topshiriqni vaqtni to‘g‘ri rejalashtira olmagani sababli kechiktirsa, boshqa talaba muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqishi yoki topshiriqni mukammal bajarishga haddan tashqari intilishi sababli uni boshlay olmasligi mumkin. Shuning uchun ularga bir xil psixologik yordam ko‘rsatish kutilgan natijani bermasligi mumkin.

Prokrastinatsiya ko‘pincha o‘zini o‘zi boshqarish jarayonlari bilan bog‘liq. Talaba o‘z oldiga maqsad qo‘yishi, uni bajarish uchun zarur bo‘lgan vaqt va resurslarni belgilashi, faoliyat jarayonini nazorat qilishi va yuzaga kelgan qiyinchiliklarga mos ravishda strategiyasini o‘zgartira olishi kerak. Mazkur jarayonlarning ayrim bo‘g‘inlaridagi qiyinchiliklar vazifani kechiktirishga olib kelishi mumkin.

Bunda qisqa muddatli emotsional holat ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, murakkab yoki yoqimsiz topshiriqni bajarish o‘rniga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, dam olish yoki boshqa faoliyatga o‘tish talaba uchun vaqtinchalik emotsional qulaylik yaratishi mumkin. Biroq topshiriqning kechiktirilishi keyinchalik vaqt bosimi va xavotirning kuchayishiga olib kelishi ehtimoli mavjud [3].

Shuningdek, perfektsionizm bilan bog‘liq prokrastinatsiyada talaba topshiriqni juda yuqori darajada bajarish zarur deb hisoblaydi. Natijada vazifani boshlashning o‘zi qiyinlashadi. Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish bilan bog‘liq holatlarda esa topshiriqni kechiktirish vaqtinchalik ravishda salbiy emotsiyalarni kamaytiruvchi himoya strategiyasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, akademik prokrastinatsiyani diagnostika qilishda faqat uning tashqi ko‘rinishini emas, balki uni yuzaga keltiruvchi psixologik mexanizmlarni ham aniqlash muhimdir.

Oliy ta’lim muassasalarida PASS metodikasidan foydalanish uchun uning o‘zbek tilidagi shaklini ilmiy-metodik talablarga muvofiq ishlab chiqish zarur. Bunda original metodikani oddiy so‘zma-so‘z tarjima qilish yetarli emas. Psixologik diagnostika vositalarini moslashtirishda mazmuniy, lingvistik va madaniy ekvivalentlik ta’minlanishi kerak.

Moslashtirish jarayoni bir necha bosqichda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Dastlab original bandlarning mustaqil tarjimalari tayyorlanib, ular o‘zaro taqqoslanadi va yagona variant ishlab chiqiladi. Keyingi bosqichda qayta tarjima yordamida dastlabki mazmunning saqlanganligi tekshiriladi. Shundan so‘ng psixologiya va psixometriya sohasidagi mutaxassislar tomonidan ekspert bahosi o‘tkazilishi lozim.

Bundan tashqari, talabalar ishtirokida kognitiv intervyular tashkil etish ham muhim. Bunda respondentning har bir savolni qanday tushungani, javob variantini tanlashda nimaga asoslangani va ayrim iboralar unga tushunarsiz yoki noaniq bo‘lgan-bo‘lmaganligi aniqlanadi.

Pilot tadqiqot bosqichida esa metodikaning bandlari bo‘yicha javoblarning taqsimlanishi, ichki muvofiqlik va boshqa psixometrik ko‘rsatkichlar tekshirilishi zarur. Mahalliy me’yorlar ishlab chiqilmagan sharoitda natijalarni sun’iy ravishda “past”, “o‘rta” yoki “yuqori” darajalarga ajratishdan ehtiyot bo‘lish kerak.

PASS metodikasidan oliy ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat faoliyatida individual va guruhiy diagnostika vositasi sifatida foydalanish mumkin. Biroq uning natijalari boshqa psixologik ko‘rsatkichlar bilan birgalikda tahlil qilinishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, talabaning o‘quv motivatsiyasi, o‘zini o‘zi boshqarish darajasi, vaqtni rejalashtirish ko‘nikmalari va emotsional holati bilan bog‘liq ma’lumotlarni hisobga olish prokrastinatsiyaning individual profilini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Diagnostika natijalariga ko‘ra psixologik yordamning turli yo‘nalishlari belgilanadi. Masalan, vaqtni tashkil etishdagi qiyinchiliklar aniqlangan talabalar bilan rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash va vazifalarni kichik bosqichlarga ajratish bo‘yicha mashg‘ulotlar olib borish mumkin. Muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish bilan bog‘liq prokrastinatsiyada esa talabaning o‘ziga nisbatan haddan tashqari yuqori talablarini qayta ko‘rib chiqish va vazifani bosqichma-bosqich bajarish strategiyalarini shakllantirish muhim.

Guruhiy darajadagi diagnostika natijalari esa oliy ta’lim muassasasida profilaktik dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin. Jumladan, talabalar uchun vaqtni boshqarish, o‘zini o‘zi boshqarish, o‘quv motivatsiyasi va stressni konstruktiv boshqarishga qaratilgan psixologik treninglar tashkil etish mumkin.

Bunda muhim etik talab — diagnostika natijalaridan talabani jazolash, unga salbiy yorliq qo‘yish yoki intizomiy qarorlar qabul qilish vositasi sifatida foydalanmaslikdir. PASS psixologik yordamni rejalashtirishga xizmat qiluvchi diagnostik vosita sifatida qaralishi, respondentlarning individual ma’lumotlari esa maxfiy saqlanishi kerak.

Akademik prokrastinatsiya oliy ta’lim jarayonida talabaning o‘quv faoliyati, o‘zini o‘zi boshqarishi va psixologik holatiga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan muhim muammolardan biridir. Uni faqat intizomning yetishmasligi bilan izohlash o‘rniga, prokrastinatsiyaning psixologik va vaziyatli omillarini kompleks o‘rganish zarur.

PASS metodikasi akademik vazifalarni kechiktirish chastotasi, mazkur holatning talaba uchun muammolilik darajasi, xulq-atvorni o‘zgartirish istagi va kechiktirishning ehtimoliy sabablarini birgalikda aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan u oliy ta’lim tizimidagi psixologik diagnostika va profilaktik ishlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

PASS metodikasining o‘zbek tilidagi variantini amaliyotga joriy etishdan oldin uni ilmiy-metodik talablarga muvofiq tarjima qilish, ekspert va kognitiv baholashdan o‘tkazish hamda mahalliy talaba namunalarida ishonchlilik va validlik ko‘rsatkichlarini aniqlash zarur. Shundagina metodika natijalaridan ilmiy asoslangan psixologik xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi.

Umuman olganda, PASS metodikasidan foydalanish talabalarning akademik prokrastinatsiyasini chuqurroq tushunish, individual psixologik yordam yo‘nalishlarini belgilash, prokrastinatsiyaning oldini olishga qaratilgan trening va dasturlarni ishlab chiqish hamda oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Solomon L. J., Rothblum E. D. Academic procrastination: Frequency and cognitive-behavioral correlates // Journal of Counseling Psychology. 1984. Vol. 31, No. 4. P. 503–509.

2. Steel P. The nature of procrastination: A meta-analytic and theoretical review of quintessential self-regulatory failure // Psychological Bulletin. 2007. Vol. 133, No. 1. P. 65–94.

3. Sirois F. M., Pychyl T. A. Procrastination and the priority of short-term mood regulation: Consequences for future self // Social and Personality Psychology Compass. 2013. Vol. 7, No. 2. P. 115–127.

4. Klingsieck K. B. Procrastination: When good things don’t come to those who wait // European Psychologist. 2013. Vol. 18, No. 1. P. 24–34.

5. Odilbekov M. M. Talabalarda akademik prokrastinatsiyaning psixologik xususiyatlari va nazariy modellari // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. 2026. T. 7, № 2. B. 281–284.

UDK: 37.015.3:159.9

OILA, MAKTAB VA JAMIYAT TA’SIRIDA BOLA SHAXSINING PSIXOLOGIK FAROVONLIGINI TA’MINLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Usmonova Aziza To‘lqin qizi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat instituti katta o‘qituvchisi

Bola shaxsining sog‘lom shakllanishi va psixologik farovonligi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanining eng dolzarb muammolaridan biridir. So‘nggi yillarda bolalar va o‘smirlar orasida tashvish, xavotir, ijtimoiy izolyatsiya va emotsional beqarorlik holatlarining ko‘payishi kuzatilmoqda, bu esa muammoni faqat individual (bola shaxsi) darajasida emas, balki uni o‘rab turgan tizim – oila, maktab va jamiyat – darajasida ham chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Amerikalik psixolog Uri Bronfenbrenner (Bronfenbrenner, 1979) ilgari surgan ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, bola shaxsi bir-biriga ta’sir ko‘rsatuvchi bir necha muhit qatlamlari – oila, maktab, mahalla, keng ijtimoiy-madaniy muhit – doirasida rivojlanadi. Ushbu yondashuv bola psixologik farovonligini ta’minlashda alohida bir institutning emas, balki oila, maktab va jamiyatning muvofiqlashgan, uzluksiz hamkorligining zarurligini ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi – bola tarbiyasida oila, maktab va jamiyat ta’sirining psixologik jihatlarini tizimli tahlil qilish, xavf va himoya omillarini aniqlash hamda psixologik farovonlikni ta’minlashning pedagogik-psixologik yo‘nalishlarini asoslashdan iborat.

Oilaviy muhitning bola psixologik rivojlanishiga ta’siri. Bola psixologik farovonligining birlamchi manbai oiladir. Jon Boulbi (Bowlby, 1982) tomonidan asoslangan bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning ota-ona (yoki uni tarbiyalovchi shaxs) bilan hosil qiladigan hissiy bog‘lanishi uning keyingi hayotidagi ishonch hissi, o‘zini xavfsiz his qilishi va boshqalar bilan sog‘lom munosabat qurish qobiliyatining negizini tashkil etadi. Diana Baumrind (Baumrind, 1991) tomonidan ishlab chiqilgan tarbiya uslublari tasnifiga ko‘ra, mo‘tadil-talabchan (authoritative) tarbiya uslubi – issiqlik va qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda aniq va izchil talablarni uyg‘unlashtiruvchi uslub – bolada eng yuqori psixologik moslashuvchanlik va o‘zini-o‘zi qadrlash hissini shakllantirishi ilmiy jihatdan asoslangan. Aksincha, haddan tashqari qattiqqo‘l yoki, aksincha, nazoratsiz-erkin tarbiya uslublari bolada tashvish, o‘zini past baholash yoki xulq-atvor muammolarining yuzaga kelish xavfini oshiradi.

Oiladagi psixologik muhit – ota-ona-bola muloqoti sifati, oilaviy ziddiyatlarning hal etilish uslubi, bolaning fikri va hissiyotlariga hurmat bilan yondashilishi – bolaning maktab va jamiyatdagi keyingi moslashuvi uchun asosiy psixologik “poydevor” vazifasini o‘taydi.

Maktab muhitining psixologik farovonlikdagi o‘rni. Maktab bola hayotining katta qismini egallovchi ikkinchi muhim ijtimoiylashuv instituti sifatida uning psixologik holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Maktab iqlimi – o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarining sifati, tengdoshlar orasidagi munosabatlar, maktabda xavfsizlik va tegishlilik (belonging) hissining mavjudligi – o‘quvchining o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyati bilan bir qatorda uning emotsional holatini ham belgilaydi. Zo‘ravonlik (bulling), jumladan raqamli zo‘ravonlik (kiberbulling) holatlari, o‘qituvchi tomonidan yetarli hissiy qo‘llab-quvvatlanmaslik yoki o‘quv yuklamasining haddan tashqari yuqoriligi bolada surunkali stress va psixologik iztirobga olib kelishi mumkin.

Shu bois zamonaviy maktabda malakali maktab psixologi xizmatining mavjudligi, o‘qituvchilarning bolalar psixologiyasi bo‘yicha savodxonligi va erta pedagogik-psixologik diagnostika tizimining yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday tizim nafaqat mavjud muammolarni aniqlashga, balki bolaning psixologik farovonligini rivojlantiruvchi profilaktik muhitni yaratishga ham xizmat qiladi.

Jamiyat va ijtimoiy muhitning ta’siri. Oila va maktabdan tashqarida bola keng ijtimoiy muhit – mahalla, tengdoshlar guruhi, ommaviy axborot vositalari va raqamli ijtimoiy tarmoqlar – ta’sirida ham shakllanadi. Zamonaviy sharoitda ijtimoiy tarmoqlarning bolalar va o‘smirlar psixologik holatiga ikki tomonlama ta’siri kuzatiladi: bir tomondan, ular ijtimoiy aloqa va o‘z-o‘zini ifodalash imkoniyatini kengaytiradi, ikkinchi tomondan esa haddan tashqari qiyoslash, ijtimoiy bosim va nazoratsiz axborot oqimi tufayli tashvish darajasini oshirishi mumkin. Jamiyatning bolalar va oilalarga nisbatan qo‘llab-quvvatlovchi munosabati, ijtimoiy xizmatlar va mahalliy jamoatchilik institutlarining faolligi bola psixologik farovonligini ta’minlashning muhim tashqi omili hisoblanadi.

Xavf va himoya omillari: profilaktika va psixologik yordam tizimi. Oila, maktab va jamiyat ta’sirini tahlil qilishda xavf omillari (oilaviy ziddiyat, hissiy qo‘llab-quvvatlanmaslik, maktabdagi zo‘ravonlik, ijtimoiy izolyatsiya) bilan himoya omillari (ishonchli kattalar bilan barqaror munosabat, maktabdagi tegishlilik hissi, o‘z qadr-qimmatini his qilish, o‘z vaqtida ko‘rsatilgan psixologik yordam) o‘rtasidagi muvozanatni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “LIVE LIFE” strategiyasi (WHO, 2021) ham aynan shu tamoyilga – ya’ni davlat, ta’lim tizimi va jamoatchilik darajasida uzviy profilaktika va erta murojaat tizimini yaratishga – asoslanadi. Bunday tizimning markazida bola atrofidagi kattalar (ota-onalar, o‘qituvchilar, maktab psixologlari)ning bolaning hissiy holatidagi o‘zgarishlarni o‘z vaqtida sezishi, hukm qilmasdan tinglashi va zarur hollarda malakali mutaxassis (psixolog, tibbiyot xodimi)ga yo‘naltirishi yotadi.

O‘zbekiston Respublikasida umumta’lim maktablarida psixologik xizmatning joriy etilishi, ota-onalar uchun pedagogik-psixologik savodxonlikni oshirish bo‘yicha tashkil etilayotgan tadbirlar ushbu yo‘nalishdagi institutsional asosni tashkil etadi, biroq uning samaradorligi ko‘p jihatdan oila, maktab va mahalliy jamoatchilikning muvofiqlashgan hamkorligiga bog‘liq.

Oila-maktab-jamiyat hamkorligining integrativ modeli. Yuqorida keltirilgan tahlil bola psixologik farovonligini ta’minlashning uchta institut – oila, maktab va jamiyat – o‘rtasidagi izchil va muntazam hamkorlikni talab qilishini ko‘rsatadi. Bunday hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin: ota-onalar uchun tarbiya uslublari va bolalar psixologiyasi bo‘yicha maslahat-konsultatsiya xizmatlarini tashkil etish; maktabda o‘qituvchi-ota-ona-psixolog o‘rtasida muntazam axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish; maktab va mahalliy jamoatchilik (mahalla, ijtimoiy xizmatlar) o‘rtasida bola manfaatlarini ifodalovchi doimiy aloqa kanallarini shakllantirish. Aynan shunday integrativ yondashuvgina bolaning turli muhitlarda bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi qo‘llab-quvvatlashni his qilishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, bola shaxsining psixologik farovonligi oila, maktab va jamiyatning uyg‘un va muvofiqlashgan ta’siri natijasida shakllanadi. Oilaviy tarbiya uslubi va hissiy bog‘lanish sifati bolaning psixologik “poydevor”ini, maktab iqlimi va o‘qituvchi munosabati uning ijtimoiy-emotsional moslashuvini, keng ijtimoiy muhit esa uning qadriyatlar tizimi va dunyoqarashini belgilaydi. Xavf omillarining o‘z vaqtida aniqlanishi va himoya omillarining mustahkamlanishi, shuningdek maktab psixologik xizmatining samarali faoliyat yuritishi bolalar va o‘smirlar orasidagi psixologik muammolarning oldini olishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Shu sababli kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish dasturlarida pedagoglar va ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, MA: Harvard University Press.

2. Bowlby, J. (1982). Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment (2nd ed.). New York: Basic Books.

3. Baumrind, D. (1991). The Influence of Parenting Style on Adolescent Competence and Substance Use. Journal of Early Adolescence, 11(1), 56-95.

4. World Health Organization. (2021). LIVE LIFE: An Implementation Guide for Suicide Prevention in Countries. Geneva: WHO.

R.Otamuratov, M. Ochilova “Emotsional intelekt tushunchasining psixologik o‘ziga xosligi”. file:///C:/Users/admin/Downloads/emotsional-intelekt-tushunchasining-psixologik-o-ziga-xosligi.pdf

5. И.Н.Андреева Эмотсионалный интеллект как предиктор академической успеваемости / И.Н. Андреева // Университетское образование: опыт тысячелетия, проблемы, перспективы развития: тез. докл. ИИ междунар. конгр., Минск, 14 - 16 мая 2008 г.: в 2 т.; отв. ред. Р.С. Пионова-Минск: МГЛУ, 2008.

6. S.To‘ychiyeva, A.Akbaraliyeva “Emotsional intilektning shaxsiy kasbiy sifatlarga bog’liqligi” “Ilm-fan taraqqiyoti: muammo, uchim va istiqbollari II an’anaviy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferinsiya. Toshkent. 2024 yil 17-18-dekabr. file:///C:/Users/admin/Downloads/TAFU2160.pdf

7. World Health Organization. (2021). LIVE LIFE: An Implementation Guide for Suicide Prevention in Countries. Geneva: WHO.

8. Ismailov, A.A. (2024). Rahbar kadrlar boshqaruv kompetentligining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi komponentlar. A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti ilmiy jurnali.

UDK 37.015.3:373.2

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY FAOLIYATIDA PSIXOLOGIK XIZMATNI TAKOMILLASHTIRISH

Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna,
“University of Economics and Pedagogy” NOTM
Maktabgacha ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimining rivojlanishi faqat bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash yoki ularga dastlabki bilimlarni berish bilan belgilanmaydi. Zamonaviy maktabgacha ta’lim bolaning jismoniy, ijtimoiy-hissiy, kommunikativ, bilish va ijodiy rivojlanishini ta’minlaydigan yaxlit pedagogik muhitni yaratishni talab etmoqda. Mazkur jarayonning markazida esa bola bilan bevosita kundalik munosabatga kirishadigan tarbiyachi turadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim sifatini oshirish masalasini tarbiyachining psixologik holati, kasbiy barqarorligi, emotsional kompetensiyasi va refleksiv tayyorgarligidan ajratib o‘rganish mumkin emas.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy va metodik islohotlar izchil davom etmoqda. Jumladan, 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun, 2020-yil 22-dekabrdagi Vazirlar Mahkamasining 802-son qarori bilan tasdiqlangan maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti hamda maktabgacha ta’lim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazkur tizimning tashkiliy-pedagogik asoslarini belgilab bermoqda.

Ayniqsa, 2025-yil 8-iyuldagi Vazirlar Mahkamasining 423-son qarori bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti tasdiqlangani tarbiyachining kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni kompetensiyaviy nuqtayi nazardan yanada kuchaytirdi. Mazkur yondashuv tarbiyachidan faqat metodik bilimlarga ega bo‘lishni emas, balki bolalarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, samarali kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish va o‘z faoliyatini refleksiv baholashni ham talab etadi.

Shuningdek, 2024-yil 14-noyabrda qabul qilingan O‘RQ-996-son “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning psixologik xavfsizligini ta’minlash masalasini yanada dolzarblashtirdi. Mazkur huquqiy yondashuvda jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik bilan bir qatorda ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya va bulling kabi holatlarga ham e’tibor qaratilgan. Demak, tarbiyachining bolaning emotsional holatini anglay olishi, xavf omillarini o‘z vaqtida aniqlashi va zarur hollarda tegishli

mutaxassisga murojaat qilishi zamonaviy pedagogik faoliyatning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning yana bir muhim yo‘nalishi ta’lim mazmunini takomillashtirish bilan bog‘liq. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining takomillashtirilgan nashri bolaning rivojlanishini kompleks tashkil etish, uning individual ehtiyojlarini hisobga olish, ta’lim-tarbiya jarayonini bola shaxsiga yo‘naltirish va kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari amaliyotida psixologik xizmat ko‘pincha bola bilan bog‘liq muammolarni aniqlash, ota-onalarga maslahat berish yoki ayrim muammoli holatlarda psixologik yordam ko‘rsatish bilan chegaralanib qolishi mumkin. Bunday yondashuvning asosiy cheklovi shundaki, unda tarbiyachining o‘zi psixologik xizmatning faol subyekti sifatida yetarlicha ko‘rilmaydi. Holbuki, tarbiyachi maktabgacha ta’lim tashkilotida bolaning kundalik psixologik muhitini shakllantiruvchi asosiy shaxs hisoblanadi.

Tarbiyachining emotsional holati, kommunikativ uslubi, nizoli vaziyatlarga munosabati, pedagogik empatiyasi va kasbiy stress darajasi guruhdagi psixologik iqlimga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatida psixologik xizmatni an’anaviy “muammoni aniqlash va maslahat berish” modelidan profilaktika, erta diagnostika, individual psixologik qo‘llab-quvvatlash va refleksiv rivojlanishga asoslangan tizimli modelga o‘tkazish muhimdir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatida psixologik xizmatni takomillashtirish, avvalo, tarbiyachining emotsional kompetensiyasi, kommunikativ qobiliyati, kasbiy barqarorligi va refleksiv imkoniyatlarini rivojlantirish mexanizmlarini asoslashni talab etadi.

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tizimli yondashuv psixologik xizmatni alohida tadbirlar yig‘indisi sifatida emas, balki diagnostika, profilaktika, maslahat, korreksiya, rivojlantirish va monitoringni o‘z ichiga oluvchi yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv tarbiyachining psixologik bilimlarini uning real pedagogik vaziyatlarda amaliy qo‘llay olish qobiliyati bilan bog‘laydi. Bunda nazariy bilimlarning o‘zi yetarli bo‘lmay, ularni bola bilan muloqot, nizoli vaziyatlar, ota-onalar bilan hamkorlik va guruhdagi psixologik muhitni boshqarishda qo‘llash ko‘nikmasi ham shakllantirilishi lozim.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv esa har bir tarbiyachining individual psixologik xususiyatlari, kasbiy ehtiyojlari, emotsional holati va rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Bu yondashuv psixologik yordamni bir xil shaklda emas, balki individual ehtiyojlardan kelib chiqib tashkil etishga imkon beradi.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvda bo‘lajak tarbiyachining psixologik tayyorgarligi real kasbiy vaziyatlar asosida shakllantiriladi. Bunda pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, rolli o‘yinlar, keyslar, treninglar, muammoli vazifalar va refleksiv mashg‘ulotlardan foydalanish samarali natija berishi mumkin.

Shuningdek, zamonaviy ta’lim sharoitida raqamli-transformatsion yondashuv ham psixologik xizmatni takomillashtirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu yondashuv doirasida elektron diagnostika, raqamli monitoring, masofaviy maslahat, elektron refleksiya kundaligi va individual rivojlanish xaritalaridan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda.

Bo‘lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatida psixologik xizmatni tashkil etishda uning uchta asosiy darajasini ajratish mumkin: profilaktik, diagnostik-monitoring va individual rivojlantiruvchi-korreksion darajalar.

Profilaktik darajada tarbiyachilarning kasbiy zo‘riqishi, emotsional charchashi, kommunikativ qiyinchiliklari va nizoli vaziyatlarga moyilligini kamaytirishga qaratilgan psixologik ma’rifat, trening va refleksiv mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Bunday faoliyat muammo yuzaga kelgandan keyin yordam ko‘rsatishdan ko‘ra, uning oldini olishga yo‘naltirilishi bilan ahamiyatlidir.

Diagnostik-monitoring darajasida tarbiyachining psixologik holati, kasbiy stress darajasi, emotsional barqarorligi, kommunikativ kompetensiyasi va kasbiy motivatsiyasi davriy ravishda o‘rganiladi. Bunda diagnostika natijalari “yaxshi” yoki “yomon” tarzida baholanishi emas, balki psixologik yordamga bo‘lgan ehtiyojni erta aniqlash va individual qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishini belgilash uchun xizmat qilishi lozim.

Individual rivojlantiruvchi-korreksion darajada aniqlangan muammolarga mos ravishda psixologik maslahat, individual suhbat, stressni boshqarish mashg‘ulotlari, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, konfliktlarni konstruktiv hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish va refleksiv mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

Mazkur uch darajali yondashuv psixologik xizmatni faqat muammo mavjud bo‘lgan holatlarda ko‘rsatiladigan yordamdan rivojlantiruvchi va profilaktik tizimga aylantirish imkonini beradi.

Maktabgacha ta’lim tarbiyachisi o‘z kasbiy faoliyatida bir vaqtning o‘zida bir nechta murakkab vazifalarni bajaradi. U bolalar bilan ishlaydi, ota-onalar bilan muloqot qiladi, metodik talablarni bajaradi, ta’limiy faoliyatni rejalashtiradi, guruhdagi munosabatlarni boshqaradi va bolaning rivojlanishini kuzatadi.

Shu sababli tarbiyachining kasbiy faoliyatida emotsional barqarorlik, pedagogik empatiya, stressga chidamlilik, kommunikativ kompetensiya, konfliktlarni konstruktiv boshqarish, kasbiy refleksiya, o‘z-o‘zini boshqarish va kasbiy motivatsiya alohida ahamiyat kasb etadi.

Emotsional barqarorlik tarbiyachiga turli pedagogik vaziyatlarda o‘z hissiyotlarini nazorat qilish va bolalarga nisbatan vaziyatga mos munosabat bildirish imkonini beradi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning xulq-atvori ko‘pincha bevosita emotsional

reaksiyalar bilan namoyon bo‘lishini hisobga olsak, tarbiyachining vazminligi muhim kasbiy sifat sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik empatiya bolaning kechinmalari, ehtiyojlari va individual xususiyatlarini tushunishga yordam beradi. Empatik yondashuv bolaning o‘zini xavfsiz his qilishi, tarbiyachi bilan ijobiy munosabat o‘rnatishi va ta’lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi.

Stressga chidamlilik tarbiyachining kasbiy zo‘riqish sharoitida o‘z faoliyatini barqaror davom ettirishiga xizmat qiladi. Kasbiy stressning ortib borishi esa emotsional charchash, kommunikativ qiyinchiliklar va pedagogik munosabatlarning susayishiga olib kelishi mumkin.

Kommunikativ kompetensiya tarbiyachining bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o‘rnatishini ta’minlaydi. Konfliktlarni konstruktiv boshqarish ko‘nikmasi esa nizoli vaziyatlarni kuchaytirmasdan, ularni pedagogik maqsadga muvofiq tarzda hal etishga yordam beradi.

Kasbiy refleksiya tarbiyachining o‘z faoliyati, xatti-harakatlari va pedagogik qarorlarini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi. Refleksiv qobiliyat rivojlangan tarbiyachi o‘zining kuchli va rivojlantirilishi zarur jihatlarini anglab, kasbiy faoliyatini takomillashtirishga intiladi.

Mazkur sifatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi bolaning xulq-atvorini noto‘g‘ri talqin qilish, pedagogik vaziyatlarga haddan tashqari emotsional reaksiya bildirish yoki guruhda psixologik noqulay muhit yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatning samaradorligini oshirish uchun uning mazmunini tarbiyachi faoliyatining real ehtiyojlari bilan bog‘lash lozim. Bunda psixolog va tarbiyachi o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyatga ega.

Psixolog tarbiyachini faqat diagnostika natijalari bilan tanishtiruvchi yoki muammoli vaziyatlarda maslahat beruvchi mutaxassis sifatida emas, balki kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi hamkor sifatida faoliyat yuritishi maqsadga muvofiq.

Psixologik xizmat doirasida quyidagi yo‘nalishlarni izchil amalga oshirish mumkin:

tarbiyachilarning psixologik savodxonligini oshirish;
emotsional kompetensiyani rivojlantirish;
stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish;
pedagogik empatiyani rivojlantirish;
kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish;
konfliktlarni konstruktiv hal etish usullarini o‘rgatish;
kasbiy refleksiyani rivojlantirish;
emotsional charchashning oldini olish;
bolalarning individual psixologik xususiyatlarini anglash ko‘nikmalarini shakllantirish;

ota-onalar bilan samarali psixologik-pedagogik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Bunday tizimning muhim jihati shundaki, psixologik xizmat faqat tarbiyachidagi muammoni aniqlashga emas, balki uning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga ham yo‘naltiriladi.

Ta’lim tizimining raqamlashtirilishi psixologik xizmatning mazmun va shakllarini ham takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida raqamli vositalardan psixologik monitoring, qayta aloqa va refleksiv faoliyatni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Masalan, tarbiyachining kasbiy holatini davriy o‘rganish uchun elektron so‘rovnomalar, qisqa refleksiv anketalar va individual rivojlanish xaritalaridan foydalanish mumkin. Bunday vositalar yordamida kasbiy zo‘riqish, emotsional holat, kommunikativ qiyinchiliklar va psixologik yordamga ehtiyojni muntazam kuzatish imkoniyati yaratiladi.

Biroq raqamli diagnostika psixologning professional faoliyatini to‘liq almashtirmasligi kerak. Uning asosiy vazifasi mutaxassisga dastlabki ma’lumotlarni tizimlashtirish, dinamikani kuzatish va individual psixologik yordam yo‘nalishlarini belgilashda ko‘maklashishdan iborat bo‘lishi lozim. Psixologik ma’lumotlarning maxfiyligi, ulardan foydalanishning etik va huquqiy me’yorlariga rioya qilish ham muhim shart hisoblanadi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichi ta’lim mazmunini yangilash bilan bir qatorda pedagogning psixologik barqarorligi va kasbiy farovonligini ta’minlashni ham talab qilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonining bevosita tashkilotchisi bo‘lgan tarbiyachining psixologik holati guruhdagi ijtimoiy-emotsional muhit va pedagogik munosabatlar sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda maktabgacha ta’limning normativ-huquqiy bazasi takomillashib borayotgani, pedagogning kasbiy standarti joriy etilishi, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha yangi huquqiy mexanizmlarning shakllanishi, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining takomillashtirilishi va ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning kengayishi psixologik xizmat oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Shu nuqtayi nazardan, psixologik xizmatni faqat muammo yuzaga kelganda ko‘rsatiladigan maslahat bilan cheklash zamonaviy maktabgacha ta’lim talablariga to‘liq javob bermaydi. Uning mazmuni profilaktika, erta diagnostika, monitoring, individual psixologik qo‘llab-quvvatlash, rivojlantirish, refleksiya va qayta baholashni qamrab oladigan yaxlit tizimga aylanishi lozim.

Bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida psixologik xizmatning mazmunini kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida tashkil etish ularning emotsional barqarorligi, kommunikativ kompetensiyasi, pedagogik empatiyasi va kasbiy refleksiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada tarbiyachi nafaqat ta’lim-tarbiya jarayonining tashkilotchisi, balki bolaning psixologik

xavfsizligi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim subyekt sifatida shakllanadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida psixologik xizmatni takomillashtirishning istiqbolli modeli profilaktik, diagnostik-monitoring va individual rivojlantiruvchi-korreksion yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslanishi lozim. Mazkur yondashuv tarbiyachining kasbiy faoliyatini psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, bolalar uchun qulay psixologik muhit yaratish hamda maktabgacha ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni. 2019-yil 16-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. 2020-yil 23-sentabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-996-son Qonuni. 2024-yil 14-noyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim-tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi 423-son “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022.
7. Xolmirzayeva G.B. Bo‘lajak tarbiyachilarda tanqidiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda integrativ yondashuvning o‘rni // Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal. – 2025. – 2(4.1). – B. 634–635.
8. Xolmirzayeva G.B. Bo‘lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi // Maktabgacha va maktab ta’limi. – Toshkent, 2026. – №5(1). – B. 452–457.

UDK: 37.015.3:004.9

TA’LIM MUHITIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI VA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK

Xidoyatova Laylo Taxtasinovna,
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat sifatli bilim berish, balki o‘quvchi va talabalarning psixologik farovonligi, ijtimoiy moslashuvi hamda shaxsiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat. Ta’lim jarayonida stress, xavotir, o‘quv motivatsiyasining pasayishi, kommunikativ qiyinchiliklar, ijtimoiy bosim va raqamli muhitning haddan tashqari ta’siri yoshlarning psixologik holatiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmasdan, zamonaviy innovatsion va raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Raqamli vositalar psixologik xizmatning tezkorligi, qulayligi va qamrovini kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli psixologik xizmatni joriy etish jarayonida ilmiy asoslangan metodikalar, mutaxassisning kasbiy nazorati, ma’lumotlar maxfiyligi va psixologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari alohida e’tibor talab qiladi.

Ta’limdagi psixologik xizmat o‘quvchi va talabalarning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlash, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, muammoli vaziyatlarning oldini olish hamda zarur hollarda psixologik yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan faoliyat tizimidir.

An’anaviy psixologik xizmat doirasida suhbat, kuzatish, psixologik diagnostika, maslahat, profilaktika va korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlardan foydalaniladi. Bunday faoliyat shakllari ta’lim oluvchining psixologik holatini o‘rganish va zarur yordamni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Biroq zamonaviy raqamli muhit psixologik xizmatning mazmuni va tashkiliy shakllarini kengaytirish imkonini bermoqda. Xususan, onlayn konsultatsiya, elektron psixologik so‘rovnomalar, masofaviy diagnostika, videomuloqot, raqamli treninglar va elektron monitoring tizimlari psixologik xizmatning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda.

Ta’lim muassasalarida raqamli psixologik xizmatni bir necha asosiy yo‘nalishlarda tashkil etish mumkin.

Birinchidan, raqamli psixologik diagnostika. Elektron so‘rovnomalar va standartlashtirilgan psixodiagnostik vositalar yordamida stress, xavotir, o‘quv motivatsiyasi, emotsional holat va ijtimoiy moslashuv kabi ko‘rsatkichlarni dastlabki

baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda raqamli vosita faqat dastlabki ma’lumotlarni yig‘ish va tizimlashtirish vositasi sifatida qaralishi, yakuniy psixologik xulosa esa mutaxassis tomonidan chiqarilishi lozim.

Ikkinchidan, onlayn psixologik maslahat. Videomuloqot, audioaloqa yoki himoyalangan elektron platformalar orqali psixologik maslahat olish imkoniyati psixologik yordamning hududiy va tashkiliy chegaralarini kengaytiradi. Ayniqsa, psixologga yuzma-yuz murojaat qilishda psixologik to‘siqlarga duch keladigan yoki ta’lim muassasasiga muntazam kelish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun bunday shakl qulay bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, psixologik profilaktika. Stressni boshqarish, nizolarning oldini olish, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, emotsional savodxonlik va o‘zini o‘zi boshqarish bo‘yicha raqamli treninglar va ta’limiy materiallardan foydalanish mumkin.

To‘rtinchidan, psixologik monitoring. Ta’lim oluvchilarning psixologik holatidagi o‘zgarishlarni muntazam kuzatish, muammolarning dastlabki belgilarini aniqlash va zarur hollarda individual yordamga yo‘naltirish imkoniyati yuzaga keladi.

Beshinchidan, raqamli psixologik ma’rifat. O‘quvchi, talaba, ota-ona va pedagoglar uchun psixologik bilimlarni elektron kurslar, videodarslar, podkastlar, infografikalar va boshqa raqamli materiallar orqali tarqatish mumkin.

Raqamli psixologik xizmatning rivojlanishi ta’lim oluvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish xususiyatlarini ham hisobga olishni talab etadi. Internet va raqamli qurilmalardan haddan tashqari foydalanish ayrim hollarda uyqu rejimi, diqqatni jamlash, emotsional holat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq muammolarni kuchaytirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ta’lim muassasasidagi psixologning vazifasi raqamli texnologiyalardan foydalanishni faqat cheklash yoki taqiqlashdan iborat bo‘lmasligi kerak. Muhim vazifalardan biri o‘quvchi va talabalarda raqamli gigiyena, raqamli muhitda xavfsiz xulq-atvor va texnologiyalardan ongli foydalanish madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Raqamli psixologik xizmatning samaradorligi bevosita psixologik xavfsizlik bilan bog‘liq. Psixologik ma’lumotlar shaxsga oid sezgir axborot bo‘lganligi sababli ularni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va uzatishda maxfiylik talablariga rioya qilish zarur. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, tegishli rozilik mexanizmlarini ta’minlash hamda psixologik ma’lumotlardan maqsadsiz foydalanishning oldini olish muhimdir.

Shu bois raqamli psixologik xizmatni tashkil etishda “texnologiya – inson – psixologik xavfsizlik” tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq. Texnologiya psixologik xizmatni almashtirmasdan, uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qaralishi kerak.

Innovatsion psixologik xizmatda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ham istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Sun’iy intellektga asoslangan tizimlar katta

hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, so‘rovnoma natijalarini dastlabki tahlil qilish, ma’lumotlarni tizimlashtirish va psixologning monitoring faoliyatini yengillashtirish imkonini beradi.

Biroq sun’iy intellektdan psixologik xizmatda foydalanishda muhim chegaralarni belgilash zarur. Sun’iy intellekt diagnostik ma’lumotlarni qayta ishlash yoki psixologga qo‘shimcha axborot taqdim etishda yordamchi vosita bo‘lishi mumkin, biroq u psixologning kasbiy kompetensiyasi, empatik muloqoti va professional qarorini to‘liq almashtirmasligi lozim.

Ayniqsa, ruhiy holat bilan bog‘liq muhim qarorlar, xavf darajasini baholash va psixologik yordamning individual strategiyasini belgilash malakali mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Ta’lim muhitida raqamli texnologiyalarga asoslangan psixologik xizmatning kompleks modeli quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab olishi mumkin:

psixologik diagnostika;
psixologik profilaktika;
individual va guruhiy maslahat;
korreksion-rivojlantiruvchi ishlar;
raqamli psixologik monitoring;
ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlik;
psixologik ma’rifat;
raqamli xavfsizlik va psixogigiyena bo‘yicha targ‘ibot;
natijalarni tahlil qilish va qayta aloqa.

Mazkur modelning samaradorligi uning alohida texnologiyalar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq psixologik xizmat tizimi sifatida tashkil etilishiga bog‘liq. Bunday yondashuv ta’lim oluvchining mavjud muammolarini aniqlash bilan birga uning shaxsiy, emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini kompleks qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimida psixologik xizmatni raqamlashtirish zamonaviy ta’limning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar psixologik xizmatning tezkorligi, qulayligi va qamrovini kengaytirishga xizmat qilishi mumkin. Onlayn maslahat, elektron diagnostika, psixologik monitoring, raqamli treninglar va psixologik ma’rifat vositalari ta’lim muassasalarida psixologik yordamni tashkil etishning qo‘shimcha imkoniyatlarini yaratadi.

Biroq raqamlashtirishni faqat texnik yangilik sifatida emas, balki psixologik xizmatning mazmuni, metodlari va tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni sifatida ko‘rish zarur. Raqamli vositalardan foydalanishda shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi, axborot xavfsizligi, etik me’yorlar, voyaga yetmaganlarning huquqlari va mutaxassisning kasbiy mas’uliyati ustuvor bo‘lishi lozim.

Shunday qilib, innovatsion va raqamli yondashuvlarga asoslangan psixologik xizmat modeli ta’lim oluvchilarning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlash, muammolarni erta aniqlash, profilaktik ishlarni kuchaytirish va shaxsning har

tomonlama rivojlanishiga ko‘maklashuvchi mexanizm sifatida shakllanishi mumkin. Bunda texnologik innovatsiyalar inson omili va professional psixologik yondashuv bilan uyg‘unlashtirilishi raqamli transformatsiyaning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nishanova Z.T., Alimbayeva Sh.T., Sulaymanov M.V. Psixologik xizmat: darslik. – Toshkent, 2013.
2. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. Psixokorreksiya: darslik. – Toshkent: Ijod-Press, 2019.
3. Barotov Sh.R. Ta’limda psixologik xizmat: o‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2007.
4. Mirzayeva S.R., Radjabova Z.M., Mirqosimova H.M. va boshq. Psixologik xizmat asoslari: darslik. – Toshkent: Sarbon, 2025. – 368 b.
5. Tojiboyeva G.R. Ta’lim muassasalarida psixologik xizmat. – 2021.
6. Xalimova M.V. Psixologik xizmat asoslari. – 2022.
7. Дубровина И.В. Психологическая служба в современном образовании: рабочая книга / под ред. И.В. Дубровиной. – М.: Питер, 2009.
8. Немов Р.С. Психология: учебник для студентов высших педагогических учебных заведений: в 3 кн. – М.: Владос, 2000.

UDK: 37.015.3:004.738.5

URBANIZATSIYA SHAROITIDA TA’LIM SUBYEKTLARIGA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISHNI RAQAMLASHTIRISH VA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Bayturayev Akmal Faxriddinovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

XXI asr boshidan jahon miqyosida kuzatilayotgan jadal urbanizatsiya jarayoni ijtimoiy hayotning turli sohalari, jumladan, ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shaharlarning kengayishi va aholining hududlararo harakatchanligi ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, moslashuv, ijtimoiy munosabatlar, stress va psixologik qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga ham sabab bo‘lmoqda [1; 2].

O‘zbekistonda ham urbanizatsiya jarayoni izchil davom etmoqda. Aholining shaharlarda to‘planishi, ta’lim va mehnat imkoniyatlarining yirik shaharlarda nisbatan yuqori darajada jamlanishi yoshlarning hududlararo harakatini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, viloyat va tumanlardagi ta’lim muassasalaridan yirik shaharlarga o‘qishga kelgan o‘quvchi va talabalar yangi ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida turli psixologik qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Urbanizatsiya ta’lim subyektlari uchun zamonaviy ta’lim va axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy izolyatsiya, yangi muhitga moslashish, migratsiya bilan bog‘liq stress, kommunikativ qiyinchiliklar va psixologik xizmatdan foydalanishdagi hududiy tafovutlar kabi muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin [2].

Bunday sharoitda psixologik xizmatni raqamlashtirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Masofaviy konsultatsiya, videomuloqot, elektron murojaat tizimlari, mobil ilovalar va raqamli diagnostika vositalari psixologik yordamning hududiy qamrovini kengaytirish imkonini beradi [3].

Tadqiqotning maqsadi — urbanizatsiya sharoitida ta’lim subyektlariga psixologik xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirishning innovatsion imkoniyatlarini tahlil qilish, shahar va qishloq ta’lim muassasalarida psixologik xizmatdan foydalanishdagi mavjud tafovutlarni aniqlash hamda ularni kamaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— urbanizatsiyaning ta’lim subyektlarining psixologik holatiga ta’sirini nazariy jihatdan tahlil qilish;

— raqamli psixologik xizmatning asosiy shakllari va imkoniyatlarini o‘rganish;

— shahar va qishloq ta’lim muassasalarida psixologik xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish;

— raqamli psixologik xizmat samaradorligini belgilovchi asosiy omillarni aniqlash;

— ta’lim tizimida raqamli psixologik xizmatni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Urbanizatsiya va ruhiy salomatlik o‘rtasidagi bog‘liqlik zamonaviy ilmiy adabiyotlarda muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. U. Halbreich urbanizatsiya jarayonining kuchayishi bilan ruhiy salomatlik va psixososial qo‘llab-quvvatlash tizimlariga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib borishini ta’kidlaydi [1]. A. Hepat, D. Khode va S. Chakole tomonidan olib borilgan tahliliy sharhda esa urbanizatsiya sharoitida stress, xavotir, depressiv kechinmalar va ijtimoiy moslashuv bilan bog‘liq muammolarning dolzarbligi qayd etilgan [2].

Ta’limni raqamlashtirish jarayonining psixologik jihatlari ham alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. R. Shilko, S. Egorov va Y. Zinchenko raqamli ta’lim muhitining psixologik holatga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini qayd etadilar. Bir tomondan, raqamli vositalar psixologik yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, noto‘g‘ri tashkil etilgan raqamli ta’lim ortiqcha yuklama va ijtimoiy izolyatsiya bilan bog‘liq muammolarni kuchaytirishi mumkin [3].

Mahalliy tadqiqotlarda ham ta’lim tizimida psixologik xizmatni tashkil etish, mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalalariga e’tibor qaratilgan. Sh.U. Kamolova ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni samarali tashkil etishda mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasi va zamonaviy yondashuvlardan foydalanish muhimligini ko‘rsatadi [5]. M.L. Numanova esa urbanizatsiyaning hududlar rivoji va inson kapitaliga ta’sirini tahlil qilib, hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish zarurligini ta’kidlaydi [6].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar psixologik xizmatning geografik qamrovini kengaytirish imkonini beradi. Biroq bunday xizmatlarni ta’lim subyektlarining yosh, ijtimoiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish masalasi yanada chuqurroq o‘rganishni talab qiladi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-tahliliy yondashuv, ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, shahar va qishloq ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkil etishning tashkiliy imkoniyatlari hamda raqamli vositalardan foydalanish shartlari qiyosiy tahlil qilindi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, shahar va qishloq ta’lim muassasalarida psixologik xizmatdan foydalanish imkoniyatlari bir xil emas. Yirik shaharlarda psixolog mutaxassislar, maslahat markazlari, internet infratuzilmasi va raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari nisbatan kengroq bo‘lishi mumkin. Qishloq va tuman hududlarida esa mutaxassislar yetishmasligi, masofaning uzoqligi va raqamli infratuzilmaning cheklanganligi psixologik yordamning o‘z vaqtida ko‘rsatilishiga ta’sir qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, raqamli psixologik xizmatning asosiy afzalliklaridan biri hududiy masofani qisqartirishdan iborat. Masofaviy videokonsultatsiya, onlayn murojaat, elektron maslahat va psixologik-ma’rifiy materiallardan foydalanish imkoniyati ta’lim subyektlarining psixologik xizmatga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Biroq raqamlashtirishni faqat texnik vositalarni joriy etish sifatida tushunish to‘g‘ri emas. Raqamli psixologik xizmat samaradorligi, avvalo, psixologning kasbiy kompetensiyasi, muloqot madaniyati, masofaviy konsultatsiya metodlarini bilishi va axborot xavfsizligi talablariga rioya qilishi bilan bog‘liq.

Ayniqsa, voyaga yetmaganlar bilan ishlashda maxfiylik, ota-ona yoki qonuniy vakillarning huquqlari, ma’lumotlarni himoya qilish va psixologik xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratish zarur. Raqamli platformalardan foydalanishda shaxsiy ma’lumotlarning himoyalanishi va psixologik maslahat jarayonining maxfiyligi ta’minlanishi lozim.

Urbanizatsiya sharoitida yana bir muhim jihat — yangi ijtimoiy muhitga moslashishdir. Qishloq yoki kichik shaharlardan yirik shaharlarga ta’lim olish uchun kelgan yoshlar yangi muhit, mustaqil hayot, yangi ijtimoiy munosabatlar va ta’lim talablari bilan bog‘liq psixologik qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli ular uchun moslashuvga yo‘naltirilgan raqamli psixologik dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Raqamli psixologik xizmatning samaradorligini baholashda bir necha mezonlardan foydalanish mumkin. Jumladan, xizmatdan foydalanish qulayligi, murojaatga javob berish tezligi, psixologik maslahatning davomiyligi, foydalanuvchilarning qoniqish darajasi, takroriy murojaatlar dinamikasi va psixologik yordamning natijadorligi muhim ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Shuningdek, raqamli xizmat an’anaviy psixologik xizmatning to‘liq o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki uni to‘ldiruvchi mexanizm sifatida qaralishi maqsadga muvofiq. Murakkab psixologik holatlarda yuzma-yuz konsultatsiya, chuqur diagnostika va tegishli mutaxassislar bilan hamkorlik zarur bo‘lishi mumkin.

Urbanizatsiya sharoitida ta’lim subyektlariga psixologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1. Shahar va qishloq ta’lim muassasalarini yagona masofaviy psixologik maslahat tizimi bilan bosqichma-bosqich bog‘lash.

2. Yirik shaharlarga ta’lim olish uchun kelgan o‘quvchi va talabalar uchun moslashuvga yo‘naltirilgan psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish.

3. Ta’lim muassasalari psixologlarining raqamli kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish.

4. Psixologik xizmat platformalarida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylikni ta’minlash mexanizmlarini kuchaytirish.

5. Raqamli psixologik xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini hududlar kesimida muntazam monitoring qilish.

6. Psixologik-ma’rifiy kontent, o‘z-o‘zini rivojlantirish materiallari va moslashuv dasturlarini raqamli shaklda kengaytirish.

7. Raqamli xizmatlarni an’anaviy psixologik maslahat, diagnostika va profilaktika ishlari bilan uzviy bog‘lash.

Urbanizatsiya sharoitida ta’lim subyektlariga psixologik xizmat ko‘rsatishni raqamlashtirish hududiy masofani qisqartirish, psixologik yordamning tezkorligini oshirish va xizmat qamrovini kengaytirish imkonini beruvchi istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa, psixologik mutaxassislar yetishmasligi yoki geografik masofa sababli an’anaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklangan hududlarda raqamli vositalarning ahamiyati ortadi.

Shu bilan birga, raqamli psixologik xizmatni samarali tashkil etish texnologik imkoniyatlargina emas, balki psixologlarning kasbiy tayyorgarligi, raqamli kompetensiyasi, axborot xavfsizligi va maxfiylik talablariga rioya etilishiga ham bog‘liq.

Urbanizatsiya jarayonida ta’lim subyektlarining psixologik ehtiyojlari ham o‘zgarib boradi. Shuning uchun raqamli psixologik xizmatlar universal shaklda emas, balki o‘quvchi va talabalarning yoshi, ijtimoiy muhiti, hududiy sharoiti va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim. Bunday yondashuv ta’lim tizimida psixologik xizmatning ochiqligi, qulayligi va uzluksizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Halbreich U. Impact of Urbanization on Mental Health and Well-Being // Current Opinion in Psychiatry. – 2023. – Vol. 36, № 3. – P. 200–205.

2. Hepat A., Khode D., Chakole S. A Narrative Review of Urbanization and Mental Health: An Indian Perspective // Cureus. – 2024. – Vol. 16, № 3. – e55381.

3. Shilko R., Egorov S., Zinchenko Y. Digitalization of Education and Mental Health // European Psychiatry. – 2021. – Vol. 64, Suppl. 1. – P. S349–S350.

4. Гордиенко Е. А. Проблема цифровизации в психологической и образовательной сферах : сб. материалов III Междунар. науч.-практ. конф. – Харьков: ХНПУ им. Г. С. Сковороды, 2018. – С. 88–90.

5. Kamolova Sh. U. Maktab psixologining ta’lim tizimidagi o‘rni va ijtimoiy-psixologik xizmatni tashkil etish muammolari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Vol. 2, № 2. – B. 630–636.

6. Numanova M. L. Urbanizatsiyaning shahar aholisi farovonligini rivojlantirishdagi roli // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2024. – № 1. – B. 400–405.

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholi soni va uning hududiy joylashuvi to‘g‘risida rasmiy statistik ma’lumotlar, 2025-yil holatiga. – Toshkent, 2025.

УДК: 372.881.161.1:37.016

РАЗВИТИЕ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

Сафарова Замира Михлиевна,
старший преподаватель кафедры «Методика преподавания языков»
Центра педагогического мастерства Сурхандарьинской области

Современное образование предъявляет к процессу обучения иностранным языкам требования, связанные не только с формированием языковых знаний и речевых навыков, но и с развитием способности учащихся понимать культурный контекст общения. Владение иностранным языком предполагает знакомство с особенностями культуры его носителей, традициями, нормами поведения, ценностями и коммуникативными моделями. В связи с этим особое значение приобретает развитие лингвокультурной компетенции учащихся старших классов, изучающих русский язык как иностранный.

Лингвокультурная компетенция представляет собой способность воспринимать, понимать и интерпретировать языковые единицы с учётом их культурной обусловленности, а также использовать полученные знания в процессе межкультурного общения. Она объединяет языковые, социокультурные и коммуникативные знания и умения. Для учащихся старших классов данная компетенция имеет особое значение, поскольку именно на этом этапе расширяется круг тем и ситуаций общения, усложняется содержание учебного материала, возрастает самостоятельность учащихся и формируется их способность анализировать культурные явления.

Изучение русского языка как иностранного не должно ограничиваться освоением грамматических правил и лексического материала. Языковые единицы существуют в определённом культурном пространстве и нередко отражают особенности национального мировосприятия. Фразеологизмы, пословицы, поговорки, формы речевого этикета, обращения, традиционные формы общения и реалии повседневной жизни содержат значительный культурный компонент. Поэтому включение лингвокультурного материала в содержание уроков позволяет учащимся не только расширять словарный запас, но и глубже понимать значение языковых выражений и особенности их употребления.

Одним из эффективных направлений развития лингвокультурной компетенции является интеграция культурного материала в содержание языкового образования. На уроках русского языка целесообразно использовать

литературные произведения, адаптированные тексты, произведения устного народного творчества, музыкальные материалы, фрагменты художественных и документальных фильмов, сведения о традициях и национальных праздниках. При этом культурный материал должен быть связан с изучаемой языковой темой и соответствовать возрастным и познавательным возможностям учащихся.

Особую роль играет работа с аутентичными и адаптированными текстами. Их анализ позволяет учащимся выявлять культурно маркированные слова и выражения, определять особенности речевого поведения персонажей, сравнивать описываемые явления с традициями и нормами собственной культуры. Например, при изучении темы, связанной с речевым этикетом, можно рассматривать различные формы приветствия, обращения, благодарности, просьбы и извинения. Такое сопоставление помогает учащимся осознать сходства и различия между культурами и способствует предупреждению коммуникативных ошибок.

Эффективным средством формирования лингвокультурной компетенции является проектная деятельность. Учащимся можно предложить подготовить проекты, посвящённые традициям и праздникам, русской литературе, национальной кухне, истории городов, выдающимся деятелям культуры, особенностям повседневного общения и другим аспектам культуры. В процессе подготовки проекта учащиеся осуществляют поиск и отбор информации, работают с русскоязычными источниками, расширяют словарный запас, учатся структурировать материал и представлять результаты своей работы на русском языке. Таким образом, проектная деятельность объединяет познавательный, языковой, исследовательский и коммуникативный компоненты обучения.

Важное место в развитии лингвокультурной компетенции занимают ролевые и ситуационные задания. Моделирование реальных коммуникативных ситуаций позволяет учащимся применять языковые средства с учётом социальных и культурных норм. Например, можно организовать ситуации знакомства, посещения общественных мест, общения с преподавателем, участия в праздничном мероприятии, обращения с просьбой или выражения благодарности. При выполнении таких заданий учащиеся не просто воспроизводят изученные языковые конструкции, а учатся выбирать соответствующие речевые средства в зависимости от ситуации и характера общения.

Кросс-культурный подход также способствует эффективному развитию лингвокультурной компетенции. Сопоставление русской культуры с культурой учащихся позволяет сделать процесс обучения более осмысленным и личностно значимым. При этом важно не противопоставлять культуры, а выявлять их общие и отличительные черты. Обсуждение традиций, семейных ценностей, национальных праздников, форм общения и повседневного поведения помогает

формировать уважительное отношение к культурному многообразию и развивать навыки межкультурной коммуникации.

Современные информационные технологии расширяют возможности культурологической составляющей обучения русскому языку как иностранному. Электронные образовательные ресурсы, виртуальные экскурсии, видеоматериалы, цифровые библиотеки и образовательные платформы позволяют знакомить учащихся с различными аспектами русскоязычной культуры. Однако использование цифровых ресурсов должно сопровождаться критическим отбором информации и соответствовать образовательным целям урока. Важно формировать у учащихся не только умение находить информацию, но и способность оценивать её достоверность, содержание и культурную значимость.

Для развития лингвокультурной компетенции целесообразно использовать разнообразные виды учебных заданий. К ним относятся анализ культурно маркированной лексики, объяснение значения фразеологизмов и пословиц, сравнение речевых ситуаций, составление диалогов, интерпретация литературных и публицистических текстов, ролевые игры, подготовка презентаций и проектных работ. Эффективность таких заданий повышается в том случае, если они связаны с реальными коммуникативными ситуациями и предполагают самостоятельную позицию учащегося.

Оценивание сформированности лингвокультурной компетенции также должно носить комплексный характер. Недостаточно проверять только объём знаний о культуре страны изучаемого языка. Необходимо учитывать способность учащегося правильно интерпретировать культурную информацию, применять её в коммуникативной ситуации, объяснять значение культурных реалий и адекватно реагировать на особенности межкультурного общения. В качестве средств оценки могут использоваться тестовые задания, творческие работы, проекты, устные выступления, ролевые игры и дискуссии.

Следует учитывать, что развитие лингвокультурной компетенции представляет собой последовательный процесс. Он требует систематического включения культурного компонента на разных этапах обучения, а не проведения отдельных культурологических мероприятий. При таком подходе каждый урок русского языка может стать пространством не только для формирования языковых навыков, но и для расширения представлений учащихся о культуре, ценностях и особенностях общения носителей русского языка.

Таким образом, развитие лингвокультурной компетенции учащихся старших классов является важным условием эффективного обучения русскому языку как иностранному. Интеграция культурного материала в языковое образование способствует более глубокому пониманию значения языковых единиц, повышает мотивацию учащихся и формирует готовность к реальному межкультурному взаимодействию. Использование аутентичных и

адаптированных текстов, проектной и ролевой деятельности, кросс-культурного сопоставления, цифровых ресурсов и коммуникативных заданий позволяет создать условия для комплексного развития языковой и культурной компетентности учащихся. В результате русский язык воспринимается не только как система грамматических правил и лексических единиц, но и как важнейший элемент культуры и средство межкультурного общения.

Литература:

1. Бондарь Н. И. Лингвокультурология: введение в дисциплину. — М.: Наука, 2015.
2. Костомаров В. Г. Язык и культура: лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. — М.: Русский язык, 1990.
3. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. — М.: Русский язык, 1990.
4. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). — М.: ИКАР, 2009.
5. Щукин А. Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. — М.: Высшая школа, 2003.
6. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. — М.: Слово, 2000.
7. Сафонова В. В. Социокультурный подход к обучению иностранным языкам. — М.: Высшая школа, 1991.
8. Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. — М.: Смысл; Академия, 2003.
9. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. — М.: Просвещение, 1991.
10. Елизарова Г. В. Культура и обучение иностранным языкам. — СПб.: КАРО, 2005.

UDK: 37.015.3:159.942

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA HISSIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUVLARI

Narmatova Gulnora,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi

Zamonaviy ta’lim tizimida bolaning intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda uning emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim jarayonining samaradorligi faqat o‘quvchining bilim va ko‘nikmalari bilan emas, balki uning o‘z hissiyotlarini anglay olishi, ularni boshqara olishi, tengdoshlari bilan muloqot qila olishi va turli vaziyatlarda mos ijtimoiy xulq-atvorni namoyon etishi bilan ham bog‘liq.

Psixologiya fanida “hissiy intellekt” tushunchasi insonning o‘z emotsiyalarini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish va ijtimoiy munosabatlarda ulardan samarali foydalanish qobiliyatlarini ifodalash uchun qo‘llanadi. Ushbu tushunchaning ilmiy rivojlanishida P. Salovey va J.D. Mayerning ishlari muhim o‘rin tutadi. Keyinchalik mazkur yo‘nalish D. Goulman tomonidan keng ommalashtirildi.

Boshlang‘ich maktab yoshi hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarning rivojlanishi uchun muhim davr hisoblanadi. Bu bosqichda bola o‘z hissiyotlarini nomlash, ularning sabablarini tushunish, emotsional reaksiyalarini nazorat qilish, boshqa insonlarning kayfiyati va ehtiyojlarini anglash hamda ijtimoiy vaziyatlarga mos munosabat bildirishni bosqichma-bosqich o‘zlashtiradi.

Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida hissiy intellektni rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat ijtimoiy moslashuvi, balki ta’lim jarayonidagi faolligi va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham muhimdir.

Hissiy intellektning mazmuni turli nazariy modellarda turlicha talqin qilinadi. D. Goulman yondashuvida u o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ichki motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar kabi tarkibiy jihatlar bilan izohlanadi.

O‘z-o‘zini anglash — bolaning o‘z hissiy holatini tanishi, uni nomlashi va muayyan vaziyatda qanday kechinmalarni boshdan kechirayotganini tushunish qobiliyatidir. Masalan, o‘quvchi xafa bo‘lganini yoki hayajonlanganini anglay olishi uning keyingi xatti-harakatlarini boshqarishi uchun muhim asos bo‘ladi.

O‘z-o‘zini boshqarish — yuzaga kelgan emotsional holatni nazorat qilish va vaziyatga mos ravishda javob qaytarish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari

uchun g‘azab, xafagarchilik yoki qo‘rquv kabi kuchli hissiyotlarni boshqarishni o‘rganish alohida ahamiyatga ega.

Ichki motivatsiya — maqsad sari intilish, qiyinchiliklarga qaramay faoliyatni davom ettirish va o‘z imkoniyatlarini rivojlantirishga bo‘lgan ichki ehtiyoj bilan bog‘liq.

Empatiya — boshqa insonlarning hissiy holatini anglash, ularning kechinmalarini tushunishga harakat qilish qobiliyatidir. Boshlang‘ich sinfda empatiyaning rivojlanishi o‘quvchilar o‘rtasidagi ijobiy munosabatlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Ijtimoiy ko‘nikmalar esa muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish va boshqa insonlar bilan samarali munosabat o‘rnatish qobiliyatlarini qamrab oladi.

L.S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy yondashuvi nuqtayi nazaridan bolaning psixik rivojlanishida ijtimoiy muhit, muloqot va ta’lim muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan hissiy ko‘nikmalarni ham tegishli pedagogik sharoitlar va kattalar ko‘magida rivojlantirish mumkin.

Ijtimoiy-hissiy ta’lim (Social and Emotional Learning — SEL) o‘quvchilarda o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish, ijobiy munosabatlarni shakllantirish, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish va ijtimoiy vaziyatlarda samarali harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Boshlang‘ich sinflarda SEL elementlarini alohida mashg‘ulotlar bilan cheklab qo‘ymasdan, kundalik ta’lim jarayoniga integratsiya qilish maqsadga muvofiq. Masalan, dars boshida o‘quvchilarning kayfiyatini aniqlash, guruhli topshiriqlarda hamkorlikni tashkil etish, nizoli vaziyatlarni muhokama qilish va dars yakunida qisqa refleksiya o‘tkazish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘yin va ertaklar hissiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning qulay vositalaridan biri hisoblanadi. Ertak qahramonlarining xatti-harakatlarini muhokama qilish orqali o‘quvchilar turli hissiy holatlarni farqlash, ularning sabablarini aniqlash va muayyan vaziyatda qanday munosabat bildirish mumkinligini o‘rganadilar.

Masalan, “Qahramon nima uchun xafa bo‘ldi?”, “Uning o‘rnida siz bo‘lganingizda nima qilardingiz?” kabi savollar empatiya va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Rolli o‘yinlarda esa o‘quvchilar turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirib, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini amaliy tarzda mashq qiladilar.

Refleksiya bolaning o‘z kechinmalarini anglashiga yordam beradigan muhim pedagogik vositalardan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kun davomida yoki dars yakunida o‘z holatini sodda so‘zlar, ranglar yoki belgilar yordamida ifodalash imkoniyatini berish mumkin.

Masalan, “Bugun men o‘zimni qanday his qildim?”, “Meni nima xursand qildi?”, “Qaysi vaziyat menga qiyin bo‘ldi?” kabi savollar o‘quvchining o‘z hissiy holatini kuzatishiga yordam beradi.

Bunday mashg‘ulotlar muntazam tashkil etilganda bola o‘z hissiyotlarini anglash va ularni so‘z bilan ifodalashga asta-sekin ko‘nikadi.

Raqamli texnologiyalar ham hissiy intellektni rivojlantirish jarayonida qo‘shimcha pedagogik vosita sifatida foydalanilishi mumkin. Interaktiv topshiriqlar, animatsiyalar, obrazlar va turli vaziyatlarni aks ettiruvchi multimedia materiallari orqali o‘quvchilarga emotsiyalarni farqlash va ularga mos munosabatni tanlash bo‘yicha mashqlar berish mumkin.

Biroq raqamli vositalar o‘qituvchi va tengdoshlar bilan jonli muloqotning o‘rnini bosmasligi kerak. Ular, avvalo, amaliy mashg‘ulotlarni boyituvchi va o‘quvchilarning qiziqishini oshiruvchi qo‘shimcha vosita sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Bolaning hissiy rivojlanishida kattalarning munosabati alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi va ota-onaning bolaning his-tuyg‘ularini inkor etmasdan, ularni tushunishga harakat qilishi va emotsiyalarni boshqarishning maqbul usullarini ko‘rsatishi hissiy kompetensiyalarning rivojlanishiga yordam beradi.

Masalan, bola xafa bo‘lganida “Yig‘lama” yoki “Buning hech qanday ahamiyati yo‘q” deyish o‘rniga uning hissiyotini tan olish va vaziyatni birgalikda muhokama qilish samaraliroq yondashuv bo‘lishi mumkin. Bunda kattalar bolaning har qanday xatti-harakatini ma’qullashi emas, balki uning hissiyotini tushunib, xulq-atvorini maqbul yo‘nalishga yo‘naltirishi muhim.

Hissiy intellekt bilan bog‘liq ko‘nikmalar bolaning tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘z hissiyotlarini anglay oladigan va ularni boshqarishning sodda usullarini biladigan o‘quvchi nizoli vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Empatiyaning rivojlanishi esa boshqa bolalarning hissiyotlarini tushunish va ularga nisbatan e’tiborli munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Bu sinf jamoasida hamkorlik va o‘zaro hurmat muhitini shakllantirish uchun muhim shartlardan biridir.

Hissiy intellektni rivojlantirish o‘quv jarayoni bilan ham bog‘liq. O‘zini boshqarish, diqqatni jamlash, qiyinchiliklarga nisbatan konstruktiv munosabat bildirish va yordam so‘ray olish kabi ko‘nikmalar bolaning ta’lim faoliyatiga moslashishiga yordam berishi mumkin. Shu bilan birga, hissiy intellektni akademik muvaffaqiyatning yagona yoki bevosita sababi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. O‘quv natijalariga bolaning individual xususiyatlari, oilaviy muhit, pedagogik sharoit va boshqa ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta’limda hissiy intellektni rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratish mumkin:

o‘quvchilarga asosiy hissiyotlarni tanish va nomlashni muntazam o‘rgatish;

dars jarayonida qisqa reflektiv mashqlardan foydalanish;

ertak va hikoya qahramonlarining hissiy holatini muhokama qilish;

rolli va hamkorlikka asoslangan o‘yinlarni tashkil etish;

nizoli vaziyatlarni xavfsiz muhitda modellashtirish va ularning muqobil yechimlarini izlash;

o‘qituvchilarning hissiy murabbiylik ko‘nikmalarini rivojlantirish;

ota-onalarni bolaning hissiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash usullari bilan tanishtirish;

raqamli va interaktiv vositalardan maqsadli, me’yorida foydalanish.

Boshlang‘ich sinf davri bolaning hissiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim bosqichlardan biridir. Mazkur davrda o‘quvchining o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarish, boshqalarning kechinmalarini tushunish, empatiya ko‘rsatish hamda samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish keyingi ta’lim va ijtimoiy hayot uchun muhim zamin yaratadi.

Hissiy intellektni rivojlantirishda ijtimoiy-hissiy ta’lim, o‘yin va ertaklardan foydalanish, reflektiv suhbatlar, hissiy kundalik, interaktiv vositalar hamda o‘qituvchi va ota-onalarning hissiy murabbiylik yondashuvlarini o‘zaro uyg‘unlashtirish samarali pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

Shu bilan birga, hissiy intellektni rivojlantirish bir martalik mashg‘ulotlar bilan cheklanmasdan, bolaning kundalik ta’lim va tarbiya muhitiga izchil singdirilishi lozim. O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limi sharoitida mazkur yondashuvlarning samaradorligini empirik tadqiqotlar orqali o‘rganish va milliy ta’lim muhiti uchun mos metodik tavsiyalar ishlab chiqish istiqbolli ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salovey P., Mayer J.D. Emotional Intelligence // *Imagination, Cognition and Personality*. – 1990. – Vol. 9, No. 3. – P. 185–211.
2. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Emotional Intelligence: New Ability or Eclectic Traits? // *American Psychologist*. – 2008. – Vol. 63, No. 6. – P. 503–517.
3. Goleman D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. – New York: Bantam Books, 1995.
4. Denham S.A. *Emotional Development in Young Children*. – New York: Guilford Press, 1998.
5. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
6. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning (CASEL). *CASEL’s Framework for Systemic Social and Emotional Learning*. – Chicago: CASEL.
7. Андреева И.Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии. – Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный университет.
8. Люсин Д.В. Современные представления об эмоциональном интеллекте // *Социальный интеллект: теория, измерение, исследования*. – Москва: Институт психологии РАН.

UDK: 373.5:37.015.31:33

STEAM LOYIHALARI ORQALI MAKTAB O‘QUVCHILARIDA TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Maxmatraimov Choriyor Eshmamatovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi kunda ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy, ijodiy va tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish sharoitida muammoni aniqlash, ijodiy yechim ishlab chiqish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, tavakkalchilikni baholash, jamoada ishlash va o‘z g‘oyasini asoslab taqdim etish kabi ko‘nikmalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi fanlararo integratsiya va amaliy faoliyatga asoslanganligi sababli mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik imkoniyat yaratadi [4; 5]. Bunda o‘quvchi tayyor bilimni o‘zlashtiruvchi emas, balki muammoni o‘rganuvchi, yechim ishlab chiquvchi va o‘z g‘oyasini amaliy mahsulotga aylantiruvchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, STEAM ta’limi ko‘proq fanlararo integratsiya, muammoli ta’lim va loyihaviy faoliyat nuqtai nazaridan o‘rganilgan bo‘lsa, tadbirkorlik ta’limi ko‘pincha alohida yo‘nalish sifatida qaraladi. J. Dyui, J. Bruner va D. Kolbning faoliyatga asoslangan ta’limga oid qarashlari o‘quvchining tajriba, amaliy faoliyat va refleksiya orqali rivojlanishini nazariy jihatdan asoslaydi [1; 2; 3]. Shu bois STEAM va tadbirkorlik ta’limini yagona pedagogik model doirasida integratsiyalash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi — STEAM loyihalari orqali maktab o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik modelni ishlab chiqish va uning amaliy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot nazariy va amaliy bosqichlarda olib borildi. Nazariy bosqichda ilmiy adabiyotlar tahlili, taqqoslash, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Amaliy bosqichda umumta’lim maktabining 8–9-sinfida tahsil olayotgan 64 nafar o‘quvchi ishtirokida pedagogik tajriba tashkil etildi. Ishtirokchilar 32 nafardan tajriba guruhi va nazorat guruhiga ajratildi.

Tajriba guruhida STEAM asosidagi pedagogik model, nazorat guruhida esa amaldagi an’anaviy ta’lim yondashuvlari qo‘llanildi. O‘quvchilarning tadbirkorlik

ko‘nikmalarini aniqlashda pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, ekspert baholash va loyiha mahsulotlarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Taklif etilgan pedagogik model maqsadli, mazmuniy, texnologik, faoliyat-jarayon va natijaviy-baholash komponentlaridan tashkil topdi. Modelning mazmuni tadbirkorlik kompetensiyalari hamda STEAM loyihalarining amaliy imkoniyatlarini integratsiyalashga yo‘naltirildi.

Model quyidagi to‘rt bosqich asosida amalga oshirildi:

1. **Motivatsion-orientatsion bosqich** — o‘quvchilarda muammoni tadbirkorlik nuqtai nazaridan ko‘ra olish, ehtiyojni aniqlash va g‘oya shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
2. **Loyihalash-ishlab chiqish bosqichi** — mahsulot yoki xizmat g‘oyasini ishlab chiqish, zarur resurslarni aniqlash va dastlabki prototipni yaratish.
3. **Amaliy-tadbirkorlik bosqichi** — loyiha uchun sodda biznes-reja ishlab chiqish, mahsulotning amaliy va iqtisodiy imkoniyatlarini tahlil qilish hamda uni taqdim etish.
4. **Refleksiv-baholash bosqichi** — loyiha natijalarini yangilik, foydalilik, iqtisodiy asoslanganlik, amaliy qiymat va jamoaviy hamkorlik mezonlari asosida baholash.

Mazkur modelni ishlab chiqishda S. Sarasvatining effektuatsiya nazariyasi hamda S. Mitchelmore va J. Rowley tomonidan taklif etilgan tadbirkorlik kompetensiyalari yondashuvidan foydalanildi [6; 7].

Pedagogik tajriba natijalari tajriba guruhida tadbirkorlik ko‘nikmalarining rivojlanishida sezilarli ijobiy dinamika kuzatilganini ko‘rsatdi.

Tajriba boshlanishida tajriba guruhida o‘quvchilarning 12,4 foizi yuqori, 41,7 foizi o‘rta va 45,9 foizi past darajadagi tadbirkorlik ko‘nikmalariga ega edi. Tajriba yakunida yuqori darajadagi ko‘rsatkich 38,6 foizga, o‘rta daraja 48,2 foizga yetdi, past darajadagi ko‘rsatkich esa 13,2 foizgacha kamaydi.

Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar nisbatan kam bo‘ldi: yuqori darajadagi ko‘rsatkich 13,1 foizdan 17,8 foizgacha, o‘rta daraja 40,9 foizdan 44,6 foizgacha oshgan bo‘lsa, past daraja 46,0 foizdan 37,6 foizgacha kamaydi.

Sifat jihatidan tahlil qilish natijasida tajriba guruhi o‘quvchilarida muammoni mustaqil aniqlash, g‘oyani asoslash, jamoada hamkorlik qilish, mahsulot yoki xizmat konsepsiyasini ishlab chiqish hamda loyiha natijalarini taqdim etish ko‘nikmalari rivojlangani kuzatildi. Shuningdek, loyihaviy faoliyat o‘quvchilarning amaliy topshiriqlarga qiziqishi va o‘quv motivatsiyasining ortishiga yordam bergan.

Olingan natijalar STEAM loyihalari orqali tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Bunday yondashuvda o‘quvchi muammoni aniqlashdan boshlab, g‘oya yaratish, prototip ishlab chiqish, uning amaliy imkoniyatlarini baholash va yakuniy natijani taqdim etishgacha bo‘lgan jarayonda faol ishtirok etadi.

STEAMning fanlararo xususiyati o‘quvchilarga bitta muammoni turli fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, mahsulot yaratishda matematika hisob-kitoblar uchun, texnologiya va muhandislik prototip yaratish uchun, informatika raqamli vositalardan foydalanish uchun, san’at esa dizayn va taqdimot uchun xizmat qilishi mumkin. Shu tariqa fan bilimlari real amaliy vazifa bilan bog‘lanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatadiki, tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish faqat iqtisodiy bilimlarni berish bilan cheklanmasligi kerak. Muammoni ko‘ra olish, mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy fikrlash, jamoada ishlash, muloqot qilish va o‘z faoliyatini tahlil qilish ham tadbirkorlik kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlaridir.

Shu bilan birga, tadqiqotning bitta ta’lim muassasasi va 64 nafar o‘quvchi bilan cheklanganligi natijalarni keng miqyosda umumlashtirishda ehtiyotkorlikni talab qiladi. Model samaradorligiga o‘qituvchining metodik tayyorgarligi, moddiy-texnik baza, o‘quvchilarning boshlang‘ich tayyorgarligi va loyiha mavzularining mazmuni ham ta’sir qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari STEAM loyihalari asosida ishlab chiqilgan pedagogik model maktab o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik imkoniyat yaratishini ko‘rsatdi. Model fanlararo integratsiya, loyihaviy faoliyat va tadbirkorlik tafakkurini yagona ta’lim jarayonida birlashtiradi.

Modelning motivatsion-orientatsion, loyihalash-ishlab chiqish, amaliy-tadbirkorlik va refleksiv-baholash bosqichlari o‘quvchining muammoni aniqlashdan boshlab, g‘oyani ishlab chiqish, uni amaliy jihatdan sinash va natijani baholashgacha bo‘lgan faoliyatini izchil tashkil etishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan mazkur model umumta’lim maktablarida texnologiya, informatika, matematika va tabiiy fanlarni o‘qitishda, shuningdek, to‘garaklar, loyiha-tanlovlar va maktabdan tashqari ta’lim jarayonida qo‘llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, o‘qituvchilarning STEAM va loyiha ta’limi bo‘yicha metodik kompetensiyasini oshirish, o‘quvchilar uchun “mini-startap yarmarkalari”ni tashkil etish, loyiha natijalarini baholashning yagona mezonlarini ishlab chiqish hamda loyiha mazmunini hududiy va ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish tavsiya etiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda modelni katta hajmdagi tanlanmada sinovdan o‘tkazish, turli yosh guruhlariga moslashtirish, uzoq muddatli natijalarni kuzatish va statistik mezonlar yordamida uning samaradorligini yanada chuqurroq baholash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dewey J. *Democracy and Education*. — New York: Macmillan, 1916. — 434 p.

2. Bruner J. S. *The Process of Education*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. — 97 p.

3. Kolb D. A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984. — 256 p.

4. Yakman G. STEAM Education: An overview of creating a model of integrative education // *PATT Conference Proceedings*. — 2008. — P. 1–8.

5. Bybee R. W. *The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities*. — Arlington, VA: NSTA Press, 2013. — 224 p.

6. Sarasvathy S. D. *Effectuation: Elements of Entrepreneurial Expertise*. — Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2008. — 355 p.

7. Mitchelmore S., Rowley J. Entrepreneurial competencies: A literature review and development agenda // *International Journal of Entrepreneurial Behavior & Research*. — 2010. — Vol. 16, No. 2. — P. 92–111.

8. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasi materiallari. — Toshkent, 2019.

UDK: 37.013.42:159.9(575.1)

SAYYID BURHONIDDIN MUHAQQIQ TERMIZIY MEROSIDAGI TARBIYAVIY G‘OYALARNING ZAMONAVIY PEDAGOGIK PSIXOLOGIYAGA TATBIQI

Tursunova Nilufar Samiyevna,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi

Bugungi kunda jamiyat oldida turgan muhim vazifalardan biri — ma’naviy jihatdan yetuk, o‘z xatti-harakatlarini anglay oladigan, ijtimoiy mas’uliyatli va jamiyatga foydali shaxsni tarbiyalashdir. Mazkur vazifani amalga oshirishda zamonaviy pedagogik-psixologik yondashuvlar bilan bir qatorda xalqimizning asrlar davomida shakllangan ma’naviy-ma’rifiy merosidan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo mutafakkirlari merosida insonning o‘zini tarbiyalashi, nafsini boshqarishi, axloqiy kamolotga intilishi, ustoz-shogird munosabatlari va jamiyatdagi odob-axloq masalalariga katta e’tibor qaratilgan. Ana shunday mutafakkirlardan biri Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy bo‘lib, u tasavvuf tarixida muhim o‘rin egallagan va Mavlono Jaloliddin Rumiyning ma’naviy ustozlaridan biri sifatida tanilgan.

Termiziydan “Maorif” nomli fors tilidagi asar meros qolgan. Unda insonning ruhiy va axloqiy kamoloti, o‘zini tarbiyalashi, ustoz-shogird munosabatlari, insonlar o‘rtasidagi muomala va ma’naviy qadriyatlarga oid qarashlar aks etgan. Mazkur g‘oyalarni bugungi pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan tahlil qilish milliy-ma’naviy merosning zamonaviy ta’lim jarayonidagi imkoniyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Maqolaning maqsadi — Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning “Maorif” asaridagi ayrim tarbiyaviy g‘oyalarni zamonaviy pedagogik psixologiyaning tegishli tushunchalari bilan qiyosiy tahlil qilish hamda ularning ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llanish imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tarixiy-mantiqiy va mazmuniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Termiziyning “Maorif” asarida insonning o‘z nafsini boshqarishi, ehtiyoj va istaklarini me’yorlashtirishi, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Mutafakkir qarashlarida insonning ma’naviy kamoloti uning tashqi sharoitlardan tashqari, avvalo, o‘z ichki dunyosini boshqara olish qobiliyati bilan bog‘lanadi.

Masalan, asarda taomlanish odobi haqida fikr yuritilar ekan, ne’matlardan foydalanishda me’yorni saqlash va ortiqchalikdan tiyilish g‘oyasi ilgari suriladi.

Mazkur qarashni zamonaviy psixologiyadagi **o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation)** tushunchasi bilan qiyoslash mumkin.

O‘z-o‘zini boshqarish shaxsning o‘z hissiyotlari, xatti-harakatlari, diqqat-e’tibori va ehtiyojlarini maqsadga muvofiq ravishda boshqara olish qobiliyatini anglatadi. Ta’lim jarayonida mazkur ko‘nikmaning rivojlanganligi o‘quvchining o‘quv faoliyatini rejalashtirishi, qiyinchiliklarga bardosh berishi, impulsiv xatti-harakatlarini nazorat qilishi va uzoq muddatli maqsadlar sari izchil harakatlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Termiziyning nafs tarbiyasiga oid qarashlari bilan zamonaviy o‘z-o‘zini boshqarish yondashuvi o‘rtasidagi mazmuniy mushtaraklik shundaki, har ikkala yondashuvda ham insonning xulq-atvorini faqat tashqi nazorat va taqiqlar orqali emas, balki ichki anglash va o‘zini boshqarish asosida tartibga solish muhim hisoblanadi.

Mazkur g‘oyalarni ta’lim amaliyotida quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llash mumkin:

- o‘quvchilarga o‘z hissiyotlarini anglash va nomlashni o‘rgatish;
- o‘z xatti-harakatlarining oqibatlarini oldindan baholashga yo‘naltirish;
- sabr-toqat va kechiktirilgan qoniqish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish;
- o‘z oldiga maqsad qo‘yish va unga erishish jarayonini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Termiziy ta’limotida insonning ichki dunyosi, qalbiy holati va ma’naviy poklanishi muhim o‘rin tutadi. “Maorif” asaridagi qarashlarda insonning ichki kechinmalarini anglash, ularni ma’naviy jihatdan to‘g‘ri yo‘naltirish hamda ezgu fazilatlarni shakllantirish masalalariga katta e’tibor beriladi.

Zamonaviy psixologiyada mazkur yo‘nalish bilan ma’lum darajada bog‘liq bo‘lgan tushunchalardan biri **emotsional intellekt**dir. Emotsional intellekt shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarishi, boshqa insonlarning emotsional holatini tushunishi hamda ular bilan samarali munosabat o‘rnata olishi bilan bog‘liq qobiliyatlarni qamrab oladi.

Termiziyning qalb tarbiyasiga oid qarashlari bilan emotsional intellekt o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazariy ayniyat mavjud, deb aytish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Biroq har ikki yondashuvda insonning ichki holatini anglash, o‘z xatti-harakatlariga mas’uliyat bilan yondashish va boshqalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga e’tibor qaratilishi ularni pedagogik nuqtayi nazardan qiyoslash imkonini beradi.

Maktab psixologik xizmati faoliyatida bu g‘oyalar quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin:

- o‘quvchilarning o‘z kechinmalarini anglash va ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- empatiya va o‘zaro hurmatga asoslangan mashg‘ulotlar tashkil etish;
- stressli vaziyatlarda hissiyotlarni boshqarish usullarini o‘rgatish;
- samimiylik, mehr-oqibat, mas’uliyat va o‘zaro hurmat kabi qadriyatlarni psixologik-pedagogik mashg‘ulotlar mazmuniga kiritish.

Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy hayoti ustoz-shogird an’anasining muhim tarixiy namunalaridan biridir. U Bahouddin Valad bilan ma’naviy aloqa qilgan va keyinchalik Mavlono Jaloliddin Rumiyning ma’naviy shakllanishida muhim o‘rin tutgan.

Ustoz-shogird munosabatlarining asosini faqat bilim uzatish emas, balki shaxsiy namuna, ishonch, hurmat, ma’naviy qo‘llab-quvvatlash va yo‘l-yo‘riq tashkil etishi mumkin. Shu jihatdan ushbu an’anani zamonaviy ta’limdagi **mentorlik** yondashuvi bilan qiyoslash mumkin.

Zamonaviy mentorlikda tajribali shaxsning o‘rganuvchini qo‘llab-quvvatlashi, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashishi, maqsadlarini belgilashiga yordam berishi muhim hisoblanadi.

Termiziy merosidagi ustoz-shogird an’analaridan zamonaviy ta’limda quyidagi yo‘nalishlarda foydalanish mumkin:

- pedagog va o‘quvchi o‘rtasida ishonchli va hurmatga asoslangan munosabatni shakllantirish;
- tajribali pedagoglar tomonidan yosh o‘qituvchilarga mentorlik ko‘magini tashkil etish;
- katta yoshdagi o‘quvchilarning kichik yoshdagi o‘quvchilarga ijtimoiy va ta’limiy ko‘mak berishini yo‘lga qo‘yish;
- ustozning shaxsiy namunasini tarbiyaviy ta’sir vositasi sifatida kuchaytirish.

Bunda ustozning roli o‘quvchiga tayyor yechimlarni berishdan ko‘ra, uning mustaqil fikrlashi va shaxsiy rivojlanishiga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish bilan boyitiladi.

“Maorif” asarida insonlar bilan munosabat, samimiyat, hurmat va axloqiy mas’uliyatga oid qarashlar ham muhim o‘rin egallaydi. Termiziy insonlar o‘rtasidagi munosabatlarda samimiyat va halollikni qadrlaydi, soxta maqtov va manfaatparast munosabatlarning salbiy jihatlariga e’tibor qaratadi.

Zamonaviy ta’limda ushbu masalalar **ijtimoiy-emotsional ta’lim (Social and Emotional Learning — SEL)** yondashuvi bilan ma’lum jihatdan uyg‘unlashadi. SEL o‘quvchilarda o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, sog‘lom munosabatlarni shakllantirish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Termiziy merosidagi ijtimoiy-axloqiy qarashlarni zamonaviy ta’limga tatbiq etishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- milliy-ma’naviy meros namunalari asosida tarbiyaviy suhbatlar tashkil etish;
- samimiylik, halollik, hurmat va mas’uliyat mavzularida psixologik treninglar o‘tkazish;
- nizoli vaziyatlarni rolli o‘yinlar orqali tahlil qilish;
- sinf jamoasida o‘zaro ishonch va psixologik xavfsizlik muhitini shakllantirish;
- o‘quvchilarda o‘z harakatlarining boshqalarga ta’sirini anglash ko‘nikmasini rivojlantirish.

Olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning “Maorif” asaridagi tarbiyaviy qarashlar va zamonaviy pedagogik psixologiyaning ayrim yo‘nalishlari o‘rtasida mazmuniy yaqinliklar mavjud. Xususan, nafsni boshqarish va o‘z-o‘zini boshqarish, qalb tarbiyasi va emotsional kompetensiyalar, ustoz-shogird an’anasi va mentorlik, ijtimoiy odob-axloq va ijtimoiy-emotsional ta’lim o‘rtasida pedagogik nuqtayi nazardan qiyoslash mumkin bo‘lgan jihatlar mavjud.

Shu bilan birga, tarixiy-ma’naviy tushunchalarni zamonaviy psixologik nazariyalar bilan aynan bir xil hodisa sifatida talqin qilishdan ehtiyot bo‘lish lozim. Ular turli tarixiy, falsafiy va metodologik sharoitlarda shakllangan. Shuning uchun Termiziy merosidagi g‘oyalarni zamonaviy psixologiya bilan qiyoslashda ularning mazmuniy va funksional yaqinliklariga asoslanish maqsadga muvofiq.

Mazkur yondashuv milliy-ma’naviy merosdan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, maktab psixologik xizmati faoliyatida o‘quvchilarning o‘zini boshqarishi, emotsional kompetensiyalari, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda bunday manbalardan foydalanish mumkin.

Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziyning “Maorif” asaridagi tarbiyaviy g‘oyalar bugungi ta’lim-tarbiya jarayoni uchun ma’naviy va pedagogik ahamiyatga ega. Ayniqsa, insonning o‘z xatti-harakatlarini boshqarishi, ichki dunyosini tarbiyalashi, ustoz-shogird munosabatlarida ishonch va hurmatni qaror toptirishi hamda jamiyatda axloqiy mas’uliyat bilan yashashi haqidagi qarashlar zamonaviy ta’lim maqsadlari bilan mazmunan uyg‘un jihatlarga ega.

Termiziy merosini zamonaviy pedagogik psixologiya bilan qiyosiy o‘rganish milliy-ma’naviy qadriyatlarni ta’lim jarayoniga mazmunli integratsiya qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda o‘zini boshqarish, emotsional kompetentlik, ijtimoiy mas’uliyat, o‘zaro hurmat va mustaqil rivojlanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu sababli Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy merosini pedagogika va psixologiya nuqtayi nazaridan tizimli o‘rganish, uning tarbiyaviy g‘oyalarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashtirish istiqbolli ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy. Maorif. — Tehron: Tehron universiteti, 1967. — 235 b.
2. Seyyid Burhaneddin Tirmizî. Maârif / Ali Rıza Karabulut tarjimasi. — 1995.
3. Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi. “Maorif” asarida taomlanish odobi haqida**.** — Termiziy.uz.
4. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ**.** — New York: Bantam Books, 1995.

5. Zimmerman B. J. Attaining Self-Regulation: A Social Cognitive Perspective // *Handbook of Self-Regulation*. — San Diego: Academic Press, 2000.
6. CASEL. Social and Emotional Learning (SEL) Framework. — Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning.
7. Rogers C. R. Freedom to Learn for the 1980s. — Columbus: Charles E. Merrill Publishing Co., 1983.
8. Mavlono Rumiyning termizlik ustozi haqida materiallar // *Oyina.uz* ilmiy-ma’rifiy elektron nashri.

UDK 159.923:331.101.3

EMOTSIONAL INTELLEKT KASBIY O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Soibjonov Jasurbek Botirjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Milliy universiteti “Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Emotsional intellekt tushunchasi shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash va tartibga solish, emotsional holatlarni farqlash, boshqalarning hissiy kechinmalarini tushunish hamda emotsiyalardan ijtimoiy munosabatlar va faoliyat samaradorligini ta’minlashda oqilona foydalanish imkoniyatlarini ifodalaydi. Mazkur fenomenning psixologik xususiyatlarini o‘rganish shaxsning individual-psixologik sifatlari, kognitiv jarayonlari, kommunikativ kompetentligi, empatiyasi, o‘zini-o‘zi boshqarishi va ijtimoiy moslashuvi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash imkonini beradi.

“Emotsional intellekt” fenomeniga oid dastlabki g‘oyalar G. Ayzenk, J. Gilford hamda G. Gardnerlarning ijtimoiy intellektga oid tadqiqotlarida o‘z aksini topgan [1]. Ushbu tadqiqotlarda insonning ijtimoiy muhitga moslashuvi, shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etishi va ijtimoiy faoliyatdagi muvaffaqiyati bilan bog‘liq intellektual imkoniyatlar yoritilgan. Biroq mazkur yondashuvlar emotsional intellektning mustaqil psixologik fenomen sifatidagi mazmunini to‘liq ochib bermagan.

Emotsional intellekt tushunchasi ilmiy jihatdan J. Mayer va P. Salovey tomonidan tizimli ravishda asoslab berilgan [6]. Ularning yondashuviga ko‘ra, emotsional intellekt his-tuyg‘ularni idrok etish va ifodalash, ularni tushunish, emotsiyalarni fikrlash jarayoniga integratsiya qilish hamda hissiy holatlarni boshqarish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur yondashuv emotsional jarayonlar va kognitiv faoliyatning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi.

D. Goulmanning qarashlarida intellekt va emotsional intellekt bir-biriga zid bo‘lmagan, balki shaxs faoliyatining turli jihatlarini ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq imkoniyatlar sifatida talqin qilinadi [4]. Muallif emotsional intellekt tarkibida o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy vaziyatlarni tushunish hamda shaxslararo munosabatlarni samarali boshqarish kabi komponentlarni ajratib ko‘rsatadi. Mazkur komponentlar shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi va kasbiy muhitga moslashuvida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy o‘zini-o‘zi anglash shaxsning o‘z kasbiy imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari, qadriyatlari va kasbiy faoliyatdagi o‘rnini anglash jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu jarayon umumiy o‘zini-o‘zi anglashning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsning hayotiy faoliyati va kasbiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi.

Kasbiy o‘zini-o‘zi anglash masalasi S. L. Rubinshteyn, L. I. Bojovich, K. A. Abulxanova-Slavskaya kabi olimlarning tadqiqotlarida hayotiy o‘zini-o‘zi anglash va shaxsning o‘zini belgilashi muammolari bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. S. L. Rubinshteyn konsepsiyasida hayotiy va kasbiy o‘zini-o‘zi anglash shaxsning o‘z hayot yo‘lini faol belgilashi, o‘z imkoniyatlari va maqsadlarini anglab yetishi bilan bog‘liq jarayon sifatida qaraladi.

Kasbiy o‘zini belgilash muammosi inson hayotining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, ayniqsa yoshlik davrida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu davrda shaxsning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga oid qarashlari, qiziqishlari va maqsadlari shakllanadi. Shuning uchun kasbiy tanlov jarayonida nafaqat intellektual imkoniyatlar, balki shaxsning o‘z hissiy holatini anglay olishi, boshqalarning kechinmalarini tushunishi va ijtimoiy vaziyatlarga moslasha olishi ham muhim omil hisoblanadi.

Emotsional intellektning rivojlanganligi shaxsga o‘zining kuchli va zaif tomonlarini anglash, kasbiy faoliyatga nisbatan real baho berish hamda mavjud imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish imkonini beradi. O‘z emotsiyalarini anglash va boshqarish qobiliyati kasbiy qarorlar qabul qilishda hissiy impulslarning salbiy ta’sirini kamaytiradi. Shu bilan birga, emotsional o‘zini-o‘zi boshqarish murakkab kasbiy vaziyatlarda barqarorlikni saqlash, stressli holatlarga moslashish va faoliyat samaradorligini ta’minlashga yordam beradi.

Emotsional intellektning yana bir muhim jihati shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil etish bilan bog‘liq. Kasbiy faoliyat jarayonida hamkasblar, rahbarlar, mijozlar yoki boshqa ijtimoiy guruhlar bilan doimiy muloqot talab etiladi. Bunday sharoitda empatiya, faol tinglash, suhbatdoshning emotsional holatini to‘g‘ri anglash va kommunikativ vaziyatga mos ravishda munosabat bildirish kasbiy moslashuvning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, emotsional intellekt shaxsning kasbiy qiziqishlari va ehtiyojlarini anglashiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Inson o‘zining hissiy reaksiyalarini kuzatish orqali qaysi faoliyat turlarida o‘zini qulay his qilishi, qaysi vazifalar unga qiziqish uyg‘otishi va qanday sharoitlarda yuqori natijaga erishishini yaxshiroq tushunishi mumkin. Bu esa kasbiy yo‘nalishni ongli ravishda tanlash va kelgusidagi kasbiy rivojlanish strategiyasini belgilashga yordam beradi.

Shunday qilib, emotsional intellekt shaxsning o‘z emotsiyalarini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish, empatik munosabat o‘rnatish hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali harakat qilishini ta’minlovchi muhim psixologik imkoniyatdir. Nazariy tahlil natijalari emotsional intellektning o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish va shaxslararo munosabatlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mazkur xususiyatlar shaxsning kasbiy qiziqishlari, imkoniyatlari va ehtiyojlarini anglashiga, ongli kasbiy tanlovni amalga oshirishiga hamda kasbiy muhitga samarali moslashishiga xizmat qiladi.

Demak, emotsional intellektni kasbiy o‘zini-o‘zi anglashning muhim psixologik omili sifatida o‘rganish shaxsning kasbiy rivojlanishi, kasbiy tanlovining ongli amalga

oshirilishi va kasbiy faoliyatga muvaffaqiyatli moslashuvining psixologik mexanizmlarini tushunishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Айзенк Г. Ю. Понятие и определение интеллекта // Вопросы психологии. – 1995. – № 1. – С. 111–131.
2. Андреева И. Н. Азбука эмоционального интеллекта. – СПб.: БХВ-Петербург, 2012. – 288 с.
3. Андреева И. Н. Современные представления об эмоциональном интеллекте и его месте в структуре личности // Журнал Белорусского государственного университета. Философия. Психология. – 2017. – № 2. – С. 104–109.
4. Гоулман Д. В лабиринте эмоционального интеллекта // Отдел кадров. – 2012. – № 8. – С. 98–100.
5. Кон И. С. Психология ранней юности. – М., 1989. – 254 с.
6. Mayer J. D., Salovey P., Caruso D. R. Models of Emotional Intelligence // Handbook of Intelligence / ed. by R. J. Sternberg. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. – P. 396–420.

UDK 37.091.12:005.336.5

YANGI MILLIY TA’LIM DASTURINI YARATISH VA JORIY ETISHDA PEDAGOGIK MAHORAT MEZONLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI

Asadova Ruxsara Ergash qizi,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va ta’lim sifatini oshirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, yangi milliy ta’lim dasturini yaratish va uni ta’lim amaliyotiga samarali joriy etish jarayonida pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik mahoratini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta’lim dasturining samaradorligi, avvalo, uni amaliyotga tatbiq etuvchi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi va pedagogik mahoratiga bog‘liq. Shu sababli pedagoglarning kasbiy faoliyatini baholash, mavjud imkoniyatlarini aniqlash va individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiluvchi mezonlar tizimini takomillashtirish zarur.

Pedagogik mahorat mezonlari o‘qituvchining nafaqat nazariy bilimlarini, balki darsni rejalashtirish, ta’lim metodlarini tanlash, o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o‘quvchilar faoliyatini baholash va o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish kabi amaliy kompetensiyalarini ham qamrab olishi lozim.

Mazkur tadqiqotning maqsadi yangi milliy ta’lim dasturini yaratish va joriy etish jarayonida pedagogik mahorat mezonlari tizimini takomillashtirishning amaliy ahamiyatini aniqlash, uning o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi va ta’lim sifatiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot 2023–2025-yillar davomida olib borildi. Tadqiqot obyekti sifatida 50 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabi va 30 ta oliy ta’lim muassasasi tanlab olindi. Tadqiqotda turli fan yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan 200 nafar o‘qituvchi hamda 150 nafar pedagogik rahbar ishtirok etdi.

Tadqiqot jarayonida pedagoglarning yangi milliy ta’lim dasturi talablarini o‘zlashtirishi, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanishi va kasbiy rivojlanish dinamikasini aniqlashga e’tibor qaratildi. Tadqiqotda pedagogik faoliyatni kuzatish, so‘rovnoma, test, amaliy monitoring, qiyosiy tahlil va statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Pedagoglarning metodik va didaktik kompetensiyalari, darsni loyihalash va tashkil etish ko‘nikmalari, interfaol metodlardan foydalanish darajasi, o‘quvchilar

faoliyatini baholash hamda pedagogik faoliyatni refleksiv tahlil qilish qobiliyati asosiy mezonlar sifatida belgilandi.

Olingan ma’lumotlar umumlashtirilib, foiz ko‘rsatkichlari va o‘rtacha natijalar asosida tahlil qilindi. Mazkur metodlar pedagogik mahorat mezonlari tizimining amaliy samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari yangi milliy ta’lim dasturini joriy etish jarayonida pedagogik mahorat mezonlarini aniq belgilash va ularni muntazam monitoring qilish o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tadqiqotda ishtirok etgan o‘qituvchilarning 78 foizi pedagogik mahoratini muntazam baholash va aniqlangan kamchiliklar asosida o‘z kasbiy faoliyatini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgan. O‘qituvchilarning 65 foizi yangi milliy ta’lim dasturi talablariga mos metodik yondashuvlarni o‘z faoliyatiga faol joriy etgan.

Shuningdek, pedagoglarning 72 foizi interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va zamonaviy o‘quv materiallaridan foydalanish orqali darslarning samaradorligini oshirishga erishganini qayd etdi. Amaliy monitoring natijalarida pedagogik mahorat mezonlari asosida kasbiy rivojlanish yo‘nalishlari belgilangan ta’lim muassasalarida darslarni rejalashtirish, o‘quvchilar bilan muloqot qilish va baholash jarayonlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi.

O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarida o‘rtacha 15–25 foizgacha ijobiy o‘zgarish qayd etilgani pedagogik faoliyatni tizimli baholash va rivojlantirish mexanizmlarining ta’lim natijalariga ham ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi.

Tadqiqot davomida pedagogik rahbarlarning fikrlari ham o‘rganildi. Ularning aksariyati mezonlarga asoslangan baholash tizimi o‘qituvchilarning kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqlash, individual kasbiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish va metodik yordamni maqsadli tashkil etish imkonini berishini ta’kidladi.

Shuningdek, pedagogik mahorat mezonlaridan foydalanish o‘qituvchilarda o‘z faoliyatini tahlil qilish, pedagogik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytirgan.

Tadqiqot natijalari yangi milliy ta’lim dasturini muvaffaqiyatli joriy etishda pedagogik mahorat mezonlari tizimini takomillashtirish alohida ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Chunki yangi ta’lim mazmuni va zamonaviy pedagogik talablar o‘qituvchidan nafaqat fan bo‘yicha chuqur bilimga, balki yuqori darajadagi metodik va kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lishni talab qiladi.

Pedagogik mahoratni baholashda faqat nazariy bilimlarni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, o‘qituvchining amaliy faoliyatini ham kompleks baholash zarur. Bunda darsni loyihalash, ta’limning zamonaviy metodlarini qo‘llash, raqamli vositalardan foydalanish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, individual yondashuvni ta’minlash va ta’lim natijalarini tahlil qilish kabi ko‘rsatkichlar muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, pedagogik mahorat mezonlari tizimi jazolovchi yoki faqat nazorat qiluvchi mexanizm sifatida emas, balki o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini

qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Baholash natijalari asosida pedagog uchun individual rivojlanish yo‘nalishlari belgilanib, metodik maslahat, mentorlik, trening va amaliy seminarlar tashkil etilishi tizimning samaradorligini oshiradi.

Yangi milliy ta’lim dasturining amaliy samaradorligi o‘qituvchilarning uni qanday tushunishi va pedagogik faoliyatida qanday qo‘llashi bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun pedagogik mahorat mezonlarini milliy ta’lim dasturining maqsad va vazifalari bilan uyg‘unlashtirish zarur. Bunday yondashuv ta’lim mazmuni, pedagog faoliyati va kutilayotgan ta’lim natijalari o‘rtasida uzviylikni ta’minlaydi.

Pedagogik mahorat mezonlari tizimini takomillashtirishda raqamli baholash vositalaridan foydalanish ham muhim istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Elektron portfolio, onlayn monitoring, o‘z-o‘zini baholash va pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish vositalari o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini muntazam kuzatish imkonini beradi.

Shuningdek, baholash mezonlarining shaffofligi, tushunarliligi va amaliy faoliyat bilan bog‘liqligi o‘qituvchilarning mazkur tizimga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Natijada pedagog o‘z faoliyatini baholashni kasbiy rivojlanishning tabiiy qismi sifatida qabul qiladi.

Yangi milliy ta’lim dasturini yaratish va joriy etish jarayonida pedagogik mahorat mezonlari tizimini takomillashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini aniq va shaffof mezonlar asosida baholash ularning kuchli va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini aniqlash, individual kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash hamda metodik yordamni maqsadli tashkil etish imkonini berishini ko‘rsatdi.

Pedagogik mahorat mezonlari tizimi o‘qituvchining faqat bilim darajasini emas, balki uning amaliy pedagogik kompetensiyasi, metodik tayyorgarligi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish qobiliyati, kommunikativ mahorati va refleksiv faoliyatini ham qamrab olishi lozim. Bunday yondashuv yangi milliy ta’lim dasturining mazmunini amaliyotga samarali tatbiq etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, pedagogik mahoratni baholash natijalarini o‘qituvchining kasbiy rivojlanish dasturlari bilan bog‘lash, mentorlik va metodik ko‘mak tizimini kuchaytirish, zamonaviy raqamli baholash vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Pedagogik mahorat mezonlari tizimining takomillashtirilishi natijasida o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasi, metodik salohiyati va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish qobiliyati oshadi.

Umuman olganda, yangi milliy ta’lim dasturi talablarini amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish pedagog shaxsining kasbiy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli pedagogik mahorat mezonlarini takomillashtirish nafaqat o‘qituvchilar faoliyatini baholash, balki ta’lim sifatini boshqarish, pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish va zamonaviy kompetensiyalarga ega o‘quvchilarni tayyorlashning muhim mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova N. Pedagogik mahorat va uning amaliyotdagi ahamiyati. – Toshkent: O‘zbekiston ta’lim nashriyoti, 2020.
2. Axmedov S., Raximova L. Milliy ta’lim dasturlari va pedagogik innovatsiyalar. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2019.
3. Islomova M. Pedagogik malaka va baholash tizimlari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Pedagogika, 2021.
4. Rustamov A. Ta’limda innovatsion yondashuvlar va o‘qituvchi mahorati. – Toshkent: O‘zbekiston ta’lim nashriyoti, 2018.
5. Sobirov T. O‘qituvchilarning professional rivojlanish strategiyalari. – Toshkent: Ilmiy nashrlar, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. Yangi milliy ta’lim dasturi. – Toshkent, 2020.
7. Yusupov F. Pedagogik baholash tizimlarini takomillashtirishning amaliy jihatlari // Pedagogika ilmiy jurnali. – 2019. – № 5(2). – B. 34–42.
8. Jalolov B. Ta’lim sifatini oshirishda o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2021.

UDK: 37.015.31:159.955

O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Bolliyev To‘ychibek Ro‘ziqul o‘g‘li,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi

Bugungi globallashuv va axborot oqimi jadallashib borayotgan sharoitda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Tanqidiy fikrlash shaxsning axborotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, taqqoslash, baholash, dalillar asosida xulosa chiqarish va zarur hollarda o‘z nuqtayi nazarini qayta ko‘rib chiqish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur ko‘nikma o‘quvchining nafaqat ta’limiy faoliyatida, balki ijtimoiy hayotida, muloqotida, mustaqil qaror qabul qilishida va kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tanqidiy fikrlashning psixologik asosini tafakkurning yuqori darajadagi shakllari tashkil etadi. Tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash, xulosa chiqarish kabi aqliy operatsiyalar tanqidiy fikrlashning tarkibiy mexanizmlari hisoblanadi. L.S. Vygotskiy ta’lim va rivojlanish jarayonida ijtimoiy muhit, muloqot va tilning alohida ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun ularni savol-javob, munozara, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, fikrni dalillar asosida himoya qilish kabi faol kognitiv jarayonlarga jalb etish zarur.

Tanqidiy fikrlash rivojlangan o‘quvchi mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda tahliliy yondashish, qaror qabul qilishda dalillarga tayanish, muqobil fikrlarni tinglash va baholash, o‘z xulosalarini qayta ko‘rib chiqish kabi psixologik xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ayniqsa, kognitiv moslashuvchanlik tanqidiy fikrlashning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Kognitiv moslashuvchanlik shaxsning yangi axborot, o‘zgaruvchan vaziyat va qarama-qarshi fikrlarga mos ravishda o‘z tafakkur strategiyasini o‘zgartira olish imkoniyatini anglatadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish o‘quvchini tayyor bilimlarni passiv o‘zlashtiruvchi emas, balki bilimlarni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi va baholovchi faol subyektga aylantirishni nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchining vazifasi faqat axborot berishdan iborat bo‘lmay, balki o‘quvchilarda savol berish, muammoni aniqlash, dalillarni izlash, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarishga imkon beruvchi ta’lim muhitini yaratishdan iborat.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli ta’lim, munozara, “aqliy hujum”, keys-stadi, loyiha metodi, “klaster”, “Venn diagrammasi”, “INSERT”, “B-B-B” kabi

interfaol metodlardan samarali foydalanish mumkin. Mazkur metodlarning umumiy xususiyati o‘quvchini faol fikrlashga undashi, mavjud bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llashiga imkon berishi va o‘z fikrini asoslashga yo‘naltirilishidir. Bunday yondashuvda o‘qituvchi tayyor javobni beruvchi emas, balki o‘quvchining mustaqil izlanishini tashkil etuvchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda kichik guruhlarda ishlash ham samarali pedagogik vositalardan biridir. Kichik guruhdagi faoliyat o‘quvchilarga o‘z fikrlarini nisbatan erkin ifodalash, tengdoshlari bilan fikr almashish va turli qarashlarni muhokama qilish imkonini beradi. Ayniqsa, sinf oldida javob berishda qiynaladigan yoki o‘z fikriga ishonchi past bo‘lgan o‘quvchilar kichik guruh muhitida faolroq ishtirok etishlari mumkin. Natijada ularning kommunikativ faolligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Tanqidiy fikrlashning muhim tarkibiy qismlariga kuzatish, talqin qilish, tahlil qilish, xulosa chiqarish va baholash ko‘nikmalari kiradi. O‘quvchi muayyan ma’lumotni qabul qilganda uning manbasini, ishonchliligini va mazmunini baholay olishi kerak. Ayniqsa, zamonaviy raqamli axborot muhitida bu ko‘nikmalarning ahamiyati yanada ortmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda katta hajmdagi turli xil axborotlarning mavjudligi o‘quvchidan ma’lumotni tanlash, uning haqqoniyligini tekshirish va manipulyativ mazmundagi axborotni ajrata olish qobiliyatini talab qiladi.

Shu jihatdan media va axborot savodxonligini tanqidiy fikrlash bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantirish maqsadga muvofiq. O‘quvchilarga bir masala bo‘yicha turli manbalardan ma’lumot topish, ularni o‘zaro taqqoslash, muallif pozitsiyasini aniqlash va dalillarning ishonchliligini baholash topshiriqlarini berish ularning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi. Bunday faoliyat o‘quvchining tayyor xulosani qabul qilishdan ko‘ra, xulosaga mustaqil ravishda kelishiga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida psixologik xavfsiz ta’lim muhitining ham ahamiyati katta. O‘quvchi xato javob berishdan qo‘rqadigan, uning fikri keskin rad etiladigan muhitda mustaqil fikrlashga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Aksincha, turli fikrlarni hurmat qilish, xatoni o‘rganish imkoniyati sifatida qabul qilish va asoslangan muqobil qarashlarni qo‘llab-quvvatlash o‘quvchilarning intellektual faolligini oshiradi. Shu sababli o‘qituvchi sinfda erkin fikr almashish, savol berish va fikrni dalillar asosida himoya qilish uchun qulay psixologik muhit yaratishi lozim.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish jarayoni muntazam va tizimli tashkil etilgandagina samarali natija beradi. Bunda o‘quvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim. Boshlang‘ich bosqichlarda oddiy kuzatish, taqqoslash va sabab-oqibatni aniqlashga qaratilgan topshiriqlardan foydalanilsa, yuqori sinflarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni solishtirish, dalillarni baholash va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan murakkab topshiriqlarni qo‘llash mumkin.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samaradorligini aniqlashda o‘quvchilarning mustaqil fikr bildirish darajasi, dalillardan foydalanishi, muammoli vaziyatlarga turli

nuqtayi nazardan yondashishi, xulosalarining mantiqiyligi va o‘z fikrini qayta ko‘rib chiqishga tayyorligi kabi mezonlardan foydalanish mumkin. Shuningdek, kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba-sinov, o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish va ekspert baholash usullarining kompleks qo‘llanilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi.

Umuman olganda, tanqidiy fikrlash o‘quvchining intellektual rivojlanishi va ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim kompetensiyalardan biridir. Uni shakllantirish faqat alohida bir fan doirasida emas, balki barcha ta’lim yo‘nalishlarida tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim. Buning uchun muammoli va interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish, kichik guruhlarda ishlashni yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undash, dalillash va munozara madaniyatini rivojlantirish hamda psixologik jihatdan xavfsiz ta’lim muhitini yaratish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning strategik vazifalaridan biri bo‘lib, ushbu jarayon psixologik va pedagogik omillarning o‘zaro uyg‘unligini talab qiladi. Tanqidiy fikrlaydigan o‘quvchi axborotni ongli ravishda tahlil qiladi, dalil va taxminni farqlaydi, turli qarashlarni taqqoslaydi, asoslangan qaror qabul qiladi va zarur hollarda o‘z nuqtayi nazarini qayta ko‘rib chiqadi. Shu sababli maktab ta’limida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimlarni takomillashtirish kelajakda mustaqil, intellektual faol va ijtimoiy mas’uliyatli shaxsni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech**.** — Moskva: Labirint, 1999.
2. Dewey J. How We Think**.** — Boston: D.C. Heath & Co., 1933.
3. Facione P.A**.** Critical Thinking: What It Is and Why It Counts**.** — Insight Assessment, 2015.
4. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. — Pearson Education, 2014.
5. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. — New York: David McKay Company, 1956.
6. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. — New York: Psychology Press, 2014.
7. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии**.** — Москва: Народное образование, 1998.
8. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat**.** — Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.

UDK: 373.3:502.131.1:37.02

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK TAFAKKURNI INNOVATSION TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Yo‘ldosheva Hosiyat Madat qizi,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi

Bugungi kunda iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, atmosfera havosining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolari global miqyosdagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Orol dengizi ekologik inqirozi esa mazkur muammolarning Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli yosh avlodda tabiatga ehtiyotkorona va mas’uliyatli munosabatni shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir.

Ekologik qarashlar va tabiatga munosabatning dastlabki asoslari boshlang‘ich maktab yoshidayoq shakllana boshlaydi. Bu davrda bola atrof-muhitni bilishga qiziqadi, kattalarning xatti-harakatlarini faol kuzatadi va o‘zlashtiradi, tabiat hodisalariga hissiy munosabat bildiradi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim bosqichida berilgan ekologik bilim va tarbiya keyingi yosh davrlarida barqaror ekologik qadriyatlar va mas’uliyatli xulq-atvorning shakllanishiga zamin yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, xalq ta’limi tizimini rivojlantirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga oid davlat dasturiy hujjatlarida ekologik madaniyat va atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi [1–3].

Shu bilan birga, amaliyotda ekologik ta’lim ayrim hollarda tabiat haqidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan chegaralanib qolmoqda. Bunday yondashuv o‘quvchining ekologik bilimlari bilan kundalik xatti-harakatlari o‘rtasida tafovut yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. O‘quvchi tabiatni asrash zarurligini bilishi bilan birga, mazkur bilimni amaliy faoliyatda qo‘llashi ham muhimdir.

Shundan kelib chiqib, ekologik ta’limni faqat nazariy bilim berish bilan cheklamasdan, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, hissiy munosabati va amaliy ekologik faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirish zarur.

Ekologik tafakkur insonning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglashi, o‘z xatti-harakatlarining atrof-muhitga ta’sirini tushunishi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan fikrlash tarzidir. Mazkur tushuncha ekologik bilimlardan kengroq bo‘lib, shaxsning tabiatga nisbatan qadriyatli munosabati, hissiy munosabati va amaliy mas’uliyatini ham qamrab oladi.

Mazkur maqolada ekologik tafakkurning quyidagi to‘rt tarkibiy komponenti ajratiladi:

Bilim komponenti — tabiatdagi o‘zaro bog‘liqlik, oziq zanjiri, tabiiy resurslar, ekologik muammolar va ularning oqibatlari haqidagi bilimlar.

Qadriyat komponenti — tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklarni asrash va ulardan oqilona foydalanish zarurligiga bo‘lgan ishonch.

Hissiy komponent — tabiatga mehr, uning go‘zalligidan zavqlanish, ekologik muammolarga befarq bo‘lmaslik va tabiatga zarar yetkazilishidan xavotirlanish.

Xulq-atvor komponenti — suv va elektr energiyasini tejash, chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish, o‘simlik va hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy harakatlarda ishtirok etish.

Shunday qilib, ekologik tafakkur bilimning o‘zinigina emas, balki bilimni qadriyat va amaliy xatti-harakat bilan bog‘lash qobiliyatini ham anglatadi.

Ekologik ta’limning xalqaro nazariy asoslari 1977-yilda Tbilisida o‘tkazilgan hukumatlararo konferensiyada muhim yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Mazkur yondashuv ekologik ta’limni bilim, munosabat, ko‘nikma va faol ishtirok bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi [7].

Hungerford va Volk tadqiqotlarida ekologik bilimning o‘zi xulq-atvorni o‘zgartirish uchun yetarli emasligi, bunda munosabat, shaxsiy mas’uliyat va amaliy harakat ko‘nikmalarining ham muhimligi ta’kidlangan [6]. Mazkur qarash ekologik tafakkurni bilim, qadriyat, hissiy munosabat va xulq-atvor birligi sifatida ko‘rib chiqish zaruratini asoslaydi.

Ta’lim psixologiyasi nuqtayi nazaridan L. S. Vygotskiy va J. Piaje qarashlari bolaning bilimni faol faoliyat va ijtimoiy hamkorlik jarayonida egallashiga e’tibor qaratadi [4;5]. Piaje nazariyasiga ko‘ra, boshlang‘ich maktab yoshida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi konkret predmet va hodisalar bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Shu sababli ekologik tushunchalarni real hayotiy vaziyatlar, tajribalar, kuzatuvlar va ko‘rgazmali vositalar asosida o‘rgatish maqsadga muvofiq.

Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi qarashlari esa o‘quvchilarning kattalar va tengdoshlari bilan hamkorlikda o‘rganishining pedagogik ahamiyatini asoslaydi [4]. R. Luv esa zamonaviy bolalarning tabiat bilan bevosita aloqasining qisqarishini muhim tarbiyaviy muammo sifatida ko‘rsatadi [8].

Milliy pedagogik tajribada ham tabiatga ehtiyotkorona munosabat bilan bog‘liq qadriyatlar muhim o‘rin egallaydi. Suvni isrof qilmaslik, daraxt va o‘simliklarni asrash, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish, non va rizqni qadrlash kabi tushunchalar ekologik tarbiyaning mazmunini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotning nazariy qismida ilmiy-pedagogik va me’yoriy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Amaliy jihatdan ekologik tafakkurni rivojlantirish jarayonini o‘rganishda pedagogik kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, test topshiriqlari va o‘quvchilarning amaliy faoliyatini tahlil qilish kabi metodlardan foydalanish nazarda tutiladi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda uch bosqichli yondashuvdan foydalanish mumkin: aniqlovchi bosqichda o‘quvchilarning dastlabki ekologik bilimlari va munosabatlari aniqlanadi; shakllantiruvchi bosqichda innovatsion ta’lim texnologiyalari tizimli ravishda joriy etiladi; yakuniy bosqichda esa olingan natijalar dastlabki ko‘rsatkichlar bilan taqqoslanadi.

Past daraja: o‘quvchi ekologik tushunchalarni asosan eslab qoladi, tabiatdagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini mustaqil tushuntirishda qiynaladi va ekologik mazmundagi amaliy faoliyatda tashabbus ko‘rsatmaydi.

O‘rta daraja: o‘quvchi oddiy ekologik sabab-oqibat aloqalarini tushuntira oladi, o‘qituvchi yoki kattalar ko‘rsatmasi asosida ekologik faoliyatda ishtirok etadi.

Yuqori daraja: o‘quvchi tabiatdagi o‘zaro bog‘liqliklarni mustaqil tahlil qiladi, ekologik muammolarga yechimlar taklif etadi va kundalik hayotda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan xatti-harakatlarni mustaqil amalga oshiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘yin texnologiyalari ekologik tushunchalarni o‘zlashtirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. «Tabiat qo‘riqchilari», «Oziq zanjirini tuz», «Kim to‘g‘ri saralaydi?» kabi rolli va didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilar ekologik jarayonlarni faol ishtirokchi sifatida o‘rganadilar.

Rolli o‘yinlar o‘quvchiga tabiat obyektlari yoki turli ekologik vaziyatlar nuqtayi nazaridan fikrlash imkonini beradi. Bu esa ekologik muammolarga nisbatan hissiy munosabat va mas’uliyatni shakllantirishga yordam beradi.

Loyiha texnologiyasi ekologik bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. «Sinfimiz — yashil hudud», «Maktab hovlisida kichik bog‘», «Suvni tejaymiz» kabi loyihalar o‘quvchilarni real muammoni aniqlash, maqsad belgilash, reja tuzish, amaliy harakatlarni amalga oshirish va natijalarni baholashga jalb etadi.

Loyiha faoliyatining muhim jihati shundaki, unda o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki muammoni hal etishda faol ishtirok etuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Muammoli ta’lim o‘quvchilarning ekologik hodisalarni sabab-oqibat jihatidan tushunishiga yordam beradi. Masalan, «Nima uchun suv havzasidagi baliqlar soni kamayishi mumkin?», «Agar ayrim hasharotlar yo‘qolib qolsa, tabiatda qanday o‘zgarishlar yuz beradi?» kabi savollar o‘quvchini taxmin qilish, dalillarni izlash va xulosa chiqarishga undaydi.

Bunday topshiriqlar ekologik tafakkurning tahliliy va prognozlash komponentlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kichik guruhlarda ishlash, «Aqliy hujum», «Klaster», «Venn diagrammasi» kabi metodlar o‘quvchilarning o‘z fikrini asoslash, boshqalarning fikrini tinglash va umumiy qarorga kelish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ekologik muammolarning ko‘pchiligi jamoaviy harakatni talab qilishi sababli hamkorlikda o‘qitish ekologik ta’lim mazmuni bilan ham uyg‘unlashadi.

Tabiat qo‘ynida kuzatuv olib borish, o‘simlik va hasharotlarni o‘rganish, mavsumiy o‘zgarishlarni qayd etish hamda maktab hududining ekologik holatini tahlil qilish o‘quvchilarning tabiat bilan bevosita aloqasini kuchaytiradi.

Bunday mashg‘ulotlar ekologik tafakkurning hissiy komponentini rivojlantirish bilan birga, o‘quvchilarning kuzatuvchanligi va amaliy ko‘nikmalarini ham oshiradi.

Multimedia taqdimotlari, qisqa ta’limiy videolar, interaktiv testlar va virtual sayohatlar ekologik jarayonlarni ko‘rgazmali tarzda tushuntirish imkonini beradi. Masalan, muzliklarning erishi, cho‘llanish jarayoni yoki Orolbo‘yi hududidagi ekologik o‘zgarishlarni raqamli materiallar orqali namoyish etish o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirishi mumkin.

Biroq raqamli vositalar tabiat bilan bevosita muloqotning o‘rnini to‘liq bosmasligi kerak. Ular real kuzatuv va amaliy faoliyatni to‘ldiruvchi pedagogik vosita sifatida qo‘llanilganda maqsadga muvofiqdir.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, ekologik tafakkurni rivojlantirishda alohida texnologiyadan foydalanishdan ko‘ra, bir nechta metod va vositalarni yagona pedagogik tizim asosida uyg‘unlashtirish samaraliroq yondashuv hisoblanadi.

Bunday jarayonni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish mumkin:

muammoli vaziyat orqali o‘quvchining qiziqishini uyg‘otish;

o‘yin va hamkorlikdagi faoliyat orqali ekologik bilimlarni shakllantirish;

tabiatdagi kuzatuvlar orqali hissiy munosabatni rivojlantirish;

loyiha faoliyati orqali bilimlarni amaliy harakatga aylantirish;

refleksiya va baholash orqali o‘quvchining o‘z faoliyatini tahlil qilishiga imkon yaratish.

Boshlang‘ich ta’limda ekologik tafakkurni rivojlantirish uchun quyidagi metodik tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Ekologik mazmunni faqat tabiiy fanlar bilan cheklamasdan, ona tili, matematika, tasviriy san’at va texnologiya darslari bilan integratsiya qilish.

Har bir o‘quv choragida kamida bitta qisqa muddatli ekologik loyiha tashkil etish.

Mashg‘ulotlarning ayrim qismlarini maktab hovlisi, bog‘ yoki boshqa xavfsiz tabiiy hududlarda tashkil etish.

O‘quvchilarning ekologik xulq-atvorini «Ekologik kundalik» yoki portfolio orqali muntazam kuzatib borish.

Ota-onalarni ta’lim jarayoniga jalb etish va uy sharoitida suv hamda elektr energiyasini tejash, chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish kabi oilaviy topshiriqlarni tashkil etish.

Pedagoglarning ekologik ta’lim va innovatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha metodik kompetensiyasini oshirish.

Mahalliy ekologik muammolarni ta’lim mazmuniga kiritish orqali o‘quvchilarning mavzuga shaxsiy munosabatini kuchaytirish.

Ekologik tafakkur bilim, qadriyat, hissiy munosabat va xulq-atvorning o‘zaro bog‘liq birligidan tashkil topadigan murakkab pedagogik-psixologik hodisadir. Shu sababli uni faqat ekologik ma’lumotlarni berish orqali shakllantirish yetarli emas. O‘quvchi ekologik bilimni tushunishi, uni qadriyat sifatida qabul qilishi, tabiatga nisbatan ijobiy hissiy munosabat bildirish va ushbu bilim hamda munosabatni amaliy xatti-harakatlarda namoyon eta olishi zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda o‘yin, loyiha, muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, tabiatda tashkil etiladigan mashg‘ulotlar va raqamli ta’lim vositalarini tizimli ravishda uyg‘unlashtirish ekologik tafakkurning turli komponentlarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Ayniqsa, muammoli vaziyatdan boshlanib, o‘yin va hamkorlikdagi faoliyat, tabiatdagi kuzatuv, loyiha ishlari hamda yakuniy refleksiya bilan davom etadigan pedagogik jarayon bilim va amaliy xulq-atvor o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Shunday qilib, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik tafakkurini rivojlantirish, tabiatga mas’uliyatli munosabatini shakllantirish va ularni ekologik muammolarni anglaydigan hamda ularni hal etishda faol ishtirok etadigan shaxs sifatida tarbiyalash uchun muhim pedagogik imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi».

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi».

4. Выготский Л. С. Мышление и речь. — Москва: Лабиринт, 1999.

5. Пиаже Ж. Речь и мышление ребёнка. — Москва: Педагогика-Пресс, 1994.

6. Hungerford H. R., Volk T. L. Changing learner behavior through environmental education // The Journal of Environmental Education. — 1990. — Vol. 21, No. 3. — P. 8–21.

7. UNESCO. Tbilisi Declaration: Final Report of the Intergovernmental Conference on Environmental Education. — Paris: UNESCO, 1978.

8. Louv R. Last Child in the Woods: Saving Our Children from Nature-Deficit Disorder. — Chapel Hill: Algonquin Books, 2005.

UDK: 159.922.7:373.3

OILA MUHITINING BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI PSIXOLOGIK FAROVONLIGIGA TA’SIRI

Yo‘ldosheva Hosiyat Madat qizi,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi

Oila bola shaxsining shakllanishidagi birlamchi ijtimoiy muhit bo‘lib, unda muloqot, hissiyotlarni ifodalash va qiyinchiliklarga munosabat bildirishning dastlabki ko‘nikmalari shakllanadi. Boshlang‘ich sinf davrida bola yangi ijtimoiy rol — o‘quvchilik maqomiga moslashadi. Shu sababli ota-onaning hissiy qo‘llab-quvvatlashi bolaning maktabga moslashuvi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va psixologik holatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologik farovonlik masalasi zamonaviy ta’limda bolaning faqat akademik natijalari bilan emas, balki uning o‘zini xavfsiz, qadrli va qo‘llab-quvvatlangan his qilishi bilan ham bog‘liq holda qaralmoqda. Oiladagi doimiy nizolar, haddan tashqari talabchanlik, bolaning his-tuyg‘ularini inkor etish yoki uni tengdoshlari bilan taqqoslash kabi omillar psixologik noqulayliklarni kuchaytirishi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi — oila muhitining boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixologik farovonligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni nazariy jihatdan tahlil qilish va oila-maktab hamkorligini takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Psixologik farovonlik shaxsning o‘zini xavfsiz va qadrli his qilishi, ijobiy munosabatlar o‘rnatishi, hayotdagi maqsadlarini anglash va o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish holatini ifodalaydi. C. Ryffning ko‘p o‘lchovli modelida psixologik farovonlik o‘zini qabul qilish, ijobiy munosabatlar, mustaqillik, muhitni boshqarish, hayotiy maqsad va shaxsiy rivojlanish kabi jihatlar orqali izohlanadi [7].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida psixologik farovonlik, avvalo, o‘zini oilada sevilgan va qabul qilingan his qilish, maktabga ijobiy munosabatda bo‘lish, tengdoshlari bilan muloqot qila olish, hissiyotlarini me’yorida ifodalash va xatolardan keyin o‘zini tiklay olishda namoyon bo‘ladi.

J. Bowlby va M. Ainsworthning bog‘lanish nazariyasi bola va yaqin kattalar o‘rtasidagi xavfsiz hissiy aloqaning keyingi psixologik rivojlanish uchun muhimligini ta’kidlaydi [4]. U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasiga ko‘ra, bolaning rivojlanishi oila, maktab va kengroq ijtimoiy muhitlarning o‘zaro ta’siri sharoitida kechadi [5]. D. Baumrind esa tarbiya uslublarining bola xulqi va rivojlanishiga ta’sirini o‘rgangan [6].

Mehr, hurmat va bolaning shaxs sifatida qabul qilinishi psixologik farovonlikning muhim shartlaridan biridir. Ota-onaning bolani xatosi bilan birga qabul qilishi unda o‘ziga ishonch va xavfsizlik hissini kuchaytiradi. Doimiy tanqid, kamsitish va mehrni

bolaning muvaffaqiyati bilan bog‘lash esa tashvish va o‘ziga ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin.

Oiladagi tarbiya uslubi bolaning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Mehr va oqilona talablarning uyg‘unligi, qoidalarni tushuntirish hamda bolaning fikrini tinglashga asoslangan demokratik tarbiya uslubi ijobiy rivojlanish uchun qulay sharoit yaratadi. Haddan tashqari qattiqqo‘llik, doimiy nazorat yoki aksincha, chegaralarning yetarli emasligi bolaning o‘zini boshqarish va moslashishida qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Ota-onalar o‘rtasidagi doimiy nizolar va oiladagi beqarorlik bolaning hissiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunda tashvish, diqqatning pasayishi, maktabga qiziqishning susayishi yoki xulq-atvor o‘zgarishlari kuzatilishi ehtimoli mavjud. Biroq bunday omillarning ta’siri muqarrar emas. Bolaga g‘amxo‘r munosabat, ochiq muloqot va ishonchli kattalarning mavjudligi uning psixologik barqarorligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ota-onalarning bolaning o‘qishiga qiziqishi va oqilona yordam ko‘rsatishi maktabga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Shu bilan birga, baholarga haddan tashqari urg‘u berish, bolani tengdoshlari bilan taqqoslash va yuqori natijani doimiy talab qilish maktab tashvishini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli bolaning faqat natijasini emas, balki harakati, tirishqoqligi va rivojlanishini ham e’tirof etish muhimdir.

Bola o‘z hissiyotlarini anglash va ifodalashni, avvalo, oiladagi muloqot jarayonida o‘rganadi. Ota-onaning bolani tinglashi, uning his-tuyg‘ularini inkor etmasligi va ular haqida suhbatlashishi hissiy savodxonlikni rivojlantiradi. Bunday muloqot bolaning o‘z-o‘zini boshqarish va qiyinchiliklarni yengish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida psixologik noqulaylik quyidagi belgilar orqali namoyon bo‘lishi mumkin:

- kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi;
- maktabga borishni istamaslik;
- bosh yoki qorin og‘rig‘idan takroriy shikoyatlar;
- uyqu yoki ishtahaning o‘zgarishi;
- tengdoshlardan uzoqlashish;
- yig‘loqilik yoki tajovuzkorlikning kuchayishi;
- o‘qishga qiziqishning keskin pasayishi.

Bunday belgilar alohida bir holat sifatida emas, balki muntazam va uzoq davom etganida e’tibor talab qiladi. O‘qituvchi mustaqil tashxis qo‘ymasligi, kuzatuv natijalarini maktab psixologi bilan muhokama qilishi va ota-onalar bilan ehtiyotkorlik hamda hamkorlik ruhida muloqot qilishi lozim.

Amaliy tavsiyalar

O‘qituvchilar uchun:

1. Ota-onalar bilan muloqotda ayblashdan ko‘ra hamkorlik tamoyiliga tayanish.
2. Bolaning kuchli jihatlariga e’tibor qaratib, muammolarni birgalikda muhokama qilish.

3. Hissiy savodxonlikni rivojlantiruvchi qisqa mashg‘ulotlardan foydalanish.

4. O‘quvchilarni bir-biri bilan taqqoslamaslik va xatolarini konstruktiv tarzda muhokama qilish.

5. Psixologik noqulaylik belgilari kuzatilganda maktab psixologi bilan hamkorlik qilish.

Ota-onalar uchun:

1. Bola bilan muntazam ravishda samimiy va chalg‘ituvchi vositalarsiz suhbatlashish.

2. Uning his-tuyg‘ularini tinglash va tushunishga harakat qilish.

3. Talablarni aniq va izchil qo‘yish, mehrni baho yoki muvaffaqiyat bilan bog‘lamaslik.

4. Oilaviy nizolarni bola ishtirokida muhokama qilmaslik.

5. Bolaning natijasi bilan birga harakati va tirishqoqligini ham e’tirof etish.

7. Молчанова О. Н. Профессиональный имидж личности: психологические аспекты формирования // Вопросы психологии. — 2015. — № 4. — С. 112–119.
8. Mayer J. D., Salovey P., Caruso D. R. Models of Emotional Intelligence // Handbook of Intelligence / ed. by R. J. Sternberg. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000. — P. 396–420.

UDK 159.9:796.07

BO‘LAJAK SPORT MURABBIYLARIDA KASBIY YO‘NALGANLIK TUSHUNCHASINI YONDOSH KONSTRUKTLARDAN FARQLASH MASALASI

Ermetov Dilmurod Nazarmatovich,
Buxoro Xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy shakllanishi oliy ta’lim jarayonida kechadi va bunda uning tanlagan kasbiga munosabati muhim psixologik omillardan biri hisoblanadi. Sport murabbiyligi bu jihatdan o‘ziga xos kasbiy faoliyat turi bo‘lib, ushbu kasbni tanlagan talaba ko‘pincha avval sportchi sifatida muayyan tajribaga ega bo‘ladi. Shu sababli uning kasbiy tanlovi sport tajribasi, musobaqa faoliyati va pedagogik faoliyat haqidagi tasavvurlar kesishmasida shakllanadi.

O‘zbekiston psixologiyasida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy shakllanishi turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, so‘nggi yillardagi tadqiqotlarda kasbiy yo‘nalganlik ko‘pincha kasbiy kompetentlik, kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish, emotsional holatlar yoki koping-strategiyalar bilan bog‘liq holda tahlil qilingan [1; 2; 3; 4]. Bu esa kasbiy yo‘nalganlikning mazmuniy chegaralarini aniqlash va uni bo‘lajak sport murabbiylari faoliyati kontekstida mustaqil tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda amalga oshirilgan psixologik tadqiqotlarda kasbiy yo‘nalganlikning qaysi yondosh konstruktlar doirasida o‘rganilganini aniqlash hamda bo‘lajak sport murabbiylari uchun uning ishchi modelini asoslashdan iborat.

Kasbiy yo‘nalganlikni yondosh konstruktlardan farqlash, avvalo, kasbiy kompetentlik bilan uning munosabatini aniqlashni talab etadi. Z.A. Abdilaxatov tadqiqotida jismoniy tarbiya ta’lim yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetentligi shaxsiy, motivatsion va kommunikativ tarkiblar orqali ochib berilgan. Unda shaxsning o‘ziga munosabati kasbiy kompetentlikning muhim psixologik mezonlaridan biri sifatida asoslangan [1, 7–15-b.]. Mazkur yondashuvda kasbiy yo‘nalganlikning motivatsion jihatlari qisman qamrab olingan bo‘lsa-da, uning qadriyatli-mazmuniy tarkibi va kasbiy identikligi alohida o‘lchov predmeti sifatida ajratilmagan. Kompetentlik shaxsning kasbiy faoliyatni qay darajada samarali amalga oshira olishini ifodalasa, kasbiy yo‘nalganlik uning nima sababdan muayyan kasbni tanlashi va ushbu kasbga qanchalik barqaror yo‘nalganligini aks ettiradi. Demak, ular o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, mazmunan bir xil konstruktlar emas.

Kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish bilan bog‘liq tadqiqotlarda ham kasbiy yo‘nalganlikning ayrim jihatlari namoyon bo‘ladi. S.Z. Abduvohidova tadqiqotida kasbiy o‘sish motivatsiyasi refleksiya, o‘zini o‘zi boshqarish va shaxs yo‘nalganligi

bilan birgalikda o‘rganilgan. Bitiruv bosqichidagi farqlar esa kasbiy identifikatsiya va o‘zini anglash darajasining ortishi bilan izohlangan [2, 7–12-b.]. Biroq umumiy shaxs yo‘nalganligi talabaning qaysi kasbga va qanday psixologik asoslar bilan yo‘nalganligini to‘liq ifodalamaydi. Ayniqsa, sport murabbiyligi kabi o‘ziga xos kasbda faoliyat mazmuni, sportchi bilan ishlash va musobaqa jarayonini boshqarish kabi jihatlarni alohida hisobga olish zarur.

Sport psixologiyasi doirasidagi tadqiqotlarda esa asosan sportchining muayyan vaziyatdagi psixologik holatlari o‘rganiladi. D.R. Allayarov sportchi talabalarning musobaqa oldi xavotirlanishi, emotsional intellekti, iroda kuchi va yutuqqa erishish motivatsiyasini turli mezonlar asosida tahlil qilgan [3, 7–13-b.]. Mazkur ko‘rsatkichlar sportchining musobaqaga tayyorgarligi va faoliyat samaradorligini tavsiflaydi. Biroq ular talabaning kelajakdagi murabbiylik kasbini tanlashi, unga bo‘lgan barqaror munosabati va kasbiy identikligini bevosita ifodalamaydi.

Kasbiy yo‘nalganlikka mazmunan eng yaqin tadqiqot S.B. Almardanovaning ishida kuzatiladi. Muallif kasbiy shakllanishni oliy ta’limga moslashish, kasbga oid bilim va ko‘nikmalarni egallash hamda tanlangan kasbga nisbatan professional, motivatsion, emotsional va kognitiv tayyorgarlik bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Kasbiy-pedagogik yo‘nalganlik bir necha shkalalar orqali o‘lchangan [4, 7–12-b.]. Shu bilan birga, ushbu yondashuvda kasbiy yo‘nalganlik asosiy mustaqil konstrukt sifatida emas, balki kasbiy shakllanish va koping-strategiyalar bilan bog‘liq hodisa sifatida tahlil qilingan.

Mazkur tadqiqotlarni qiyoslash asosida kasbiy yo‘nalganlikni yondosh konstruktlardan ajratib turuvchi uchta asosiy mezonni ko‘rsatish mumkin. Birinchisi, **obyekt mezoni** bo‘lib, kasbiy yo‘nalganlik muayyan kasbning mazmuni va faoliyat xususiyatlariga qaratilgan bo‘ladi. Shaxs yo‘nalganligi esa kengroq psixologik mazmunga ega. Emotsional holatlar va koping-strategiyalar esa kasb mazmunidan qat’i nazar turli vaziyatlarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi mezon — **vaqt mezoni**. Musobaqa oldi xavotirlanishi kabi emotsional holatlar vaziyatga bog‘liq va nisbatan o‘zgaruvchan xususiyatga ega. Kasbiy yo‘nalganlik esa kasbiy tanlov va kasbiy faoliyatga munosabatni uzoqroq vaqt davomida belgilaydigan nisbatan barqaror psixologik tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi mezon — **funksional mezon**. Kasbiy kompetentlik faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni tavsiflaydi. Koping-strategiyalar murakkab yoki stressli vaziyatlarda xulq-atvorni boshqarish usullarini ifodalaydi. Kasbiy yo‘nalganlik esa shaxsning ushbu imkoniyat va strategiyalarni qaysi kasbiy maqsad sari yo‘naltirishini belgilovchi mazmuniy omil sifatida qaraladi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, ko‘rib chiqilgan tadqiqotlarda kasbiy yo‘nalganlik mustaqil va tizim hosil qiluvchi o‘zgaruvchi sifatida yetarlicha ajratilmagan. Ayniqsa, bo‘lajak sport murabbiylariga xos bo‘lgan sport natijasiga javobgarlik, sportchi bilan individual ishlash, musobaqa sharoitida qaror qabul qilish,

jamoani boshqarish va pedagogik ta’sir ko‘rsatish kabi faoliyat xususiyatlari kasbiy yo‘nalganlikni o‘lchash mazmuniga to‘liq kiritilmagan.

Shundan kelib chiqib, bo‘lajak sport murabbiylarida kasbiy yo‘nalganlikni to‘rt tarkibli model asosida o‘rganish taklif etiladi. **Motivatsion tarkib** kasbiy motivlar tizimi, muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlarining nisbatini qamrab oladi. **Qadriyatli-mazmuniy tarkib** kasbiy faoliyatning shaxs uchun ahamiyati, kasb bilan bog‘liq qadriyatlar va uning shaxsiy ma’nosini ifodalaydi. **Kasbiy o‘zini o‘zi anglash tarkibi** kasbiy «Men» obrazi, kasbiy identiklik va shaxsning o‘z imkoniyatlariga bahosini o‘z ichiga oladi. **Faoliyatli tarkib** esa murabbiylik faoliyati haqidagi tasavvurlar, murabbiylik vazifalarini bajarishga tayyorgarlik va kasbiy faoliyatga psixologik munosabatni aks ettiradi.

Bunda sport tajribasi — sport turi, sport razryadi, mashg‘ulot staji va musobaqa tajribasi — alohida omil sifatida qaralishi lozim. Chunki mazkur tajriba bo‘lajak sport murabbiylarini boshqa pedagogik yo‘nalishdagi talabalardan ajratib turuvchi muhim xususiyatlardan biridir.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston psixologiyasidagi so‘nggi tadqiqotlarda kasbiy yo‘nalganlik ko‘pincha kasbiy kompetentlik, kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish, emotsional holatlar va koping-strategiyalar bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Biroq ushbu konstruktlarning har biri kasbiy yo‘nalganlikning faqat ayrim jihatlarini aks ettiradi va uning o‘rnini to‘liq bosa olmaydi.

Shaxs yo‘nalganligining umumiy tipologiyasi ham bo‘lajak sport murabbiylarining kasbiy yo‘nalganligini to‘liq tavsiflash uchun yetarli emas. Bunda kasb mazmuni, murabbiylik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, sport tajribasi va kasbiy identiklikni hisobga olish zarur.

Shu asosda bo‘lajak sport murabbiylarining kasbiy yo‘nalganligini motivatsion, qadriyatli-mazmuniy, kasbiy o‘zini o‘zi anglash va faoliyatli tarkiblar birligida o‘rganish taklif etildi. Mazkur model kasbiy yo‘nalganlikni yondosh psixologik konstruktlardan farqlash va uning tarkibiy tuzilishini empirik jihatdan tekshirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdilaxatov Z.A. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 7–8 b.

2. Abduvohidova S.Z. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirishning psixologik xususiyatlari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2026. – 7–8 b.

3. Allayarov D.R. Sportchi talabalar musobaqa oldi tayyorgarlik jarayonlaridagi emotsional holatlarining psixologik xususiyatlari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 7–8 b.

4. Almardanova S.B. Talabalar kasbiy shakllanishida koping-strategiyani rivojlantirishning nazariy va amaliy tadqiqi: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 7–8 b.

5. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.

6. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

7. У.Д.Кадыров, К.Х. Авазов. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества. Интернаука, 53-54.

UDK 94(575.1):37.013.42

MUSTAQILLIK YILLARIDA ANDIJON YOSHLARI IJTIMOIY FAOLLIGINING YUKSALISHI: YUTUQLAR VA IMKONIYATLAR

Davronova Rashidaxon Kaxramon qizi,
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan muhim yo‘nalishlardan biri yoshlar masalasidir. Yoshlarning iqtidori va iste’dodini yuzaga chiqarish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda jamiyatda munosib o‘rin egallashiga ko‘maklashish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, milliy tariximizni yosh avlodga yetkazish, ularning qalbi va ongida Vatanga sadoqat, ajdodlarga munosiblik tuyg‘ularini shakllantirish, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “milliy tariximizni yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish zarur” [1, 25-b.].

Yoshlar siyosatini takomillashtirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjatlar qatoriga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosatining samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 27-iyuldagi PF-5466-son “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-son “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar agentligini tashkil qilish to‘g‘risida”gi qarori hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni kiradi.

Mazkur hujjatlarda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi, bandligini ta’minlash, ijtimoiy faolligini oshirish, tashabbus va g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq muhim vazifalar belgilangan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning barcha hududlarida bo‘lgani kabi Andijon viloyatida ham ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma’naviy sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonlarda yoshlar muhim ijtimoiy qatlam sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, ta’lim tizimining isloh qilinishi, yangi bilim maskanlarining barpo etilishi va kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlarining kengayishi Andijon yoshlari uchun yangi imkoniyatlarni yaratdi.

Tadqiqotning obyekti Andijon viloyatida mustaqillik yillarida yoshlar hayotida yuz bergan ijtimoiy, ta’limiy va madaniy o‘zgarishlar hisoblanadi.

Tadqiqot davomida tarixiylik, tizimlilik, xolislik va qiyosiy-tahliliy yondashuv, shuningdek, tarixiy manbalarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, Prezident farmon va qarorlari, ilmiy adabiyotlar hamda davriy matbuot materiallari tadqiqotning asosiy manbalarini tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ta’lim tizimini tubdan isloh qilish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy hujjatlardan biri 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonun bo‘ldi. Mazkur hujjat yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini ta’minlash borasida muhim huquqiy asos yaratdi.

Ta’lim sohasidagi islohotlar ham yoshlar hayotida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. 1992-yil 2-iyulda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi mamlakat ta’lim tizimini rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamladi. Ta’lim tizimining bosqichma-bosqich takomillashtirilishi yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi va kelajakda mehnat bozorida o‘z o‘rnini topishi uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida umumiy ta’lim tizimida ham muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. Ilgari umumiy o‘rta ta’limni tamomlagan yoshlarning bir qismi oliy ta’limga kirgan bo‘lsa, qolgan yoshlarning ma’lum qismi maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lmasdan mehnat faoliyatini boshlagan. Keyingi islohotlar esa yoshlarni umumiy ta’limdan keyin muayyan kasb-hunarga yo‘naltirishga qaratildi.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim bosqich bo‘ldi. 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida hududlarda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish ishlari jadallashdi [4, 18-b.].

Andijon viloyatida ham ushbu jarayon izchil amalga oshirildi. Jumladan, Andijon mashinasozlik instituti qoshida Bo‘ston akademik litseyi tashkil etilib, unda iqtidorli yoshlarning aniq va tabiiy fanlar hamda xorijiy tillarni chuqur o‘rganishi uchun sharoit yaratildi. Bu esa yoshlarning oliy ta’limga tayyorgarligini kuchaytirish va kelgusida malakali mutaxassislar safini kengaytirishga xizmat qildi.

Shuningdek, viloyatdagi mavjud ta’lim muassasalarining faoliyati ham zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etildi. Qo‘rg‘ontepa kasb-hunar litseyi yengil sanoat yo‘nalishidagi kasb-hunar kollejiga, Asaka tibbiyot bilim yurti esa tibbiyot kolleji tizimiga moslashtirildi. 1998-yilda viloyatda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida jami 57 ta ta’lim muassasasi faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning ayrimlari yangi tipdagi ta’lim muassasalari sifatida tashkil etilgan.

1999-yilda viloyatda ta’lim muassasalarini qurish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha ishlar davom ettirildi. Natijada zamonaviy talablarga javob beradigan 12 ta yangi kollej faoliyat boshladi. Ular zamonaviy o‘quv-laboratoriya jihozlari, kompyuterlar va lingafon qurilmalari bilan ta’minlandi. Bunday imkoniyatlar

yoshlarning nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlashtirishiga xizmat qildi.

Andijon viloyatidagi ta’lim muassasalarida yaratilgan shart-sharoitlar davlat rahbariyati tomonidan ham e’tiborga olingan. Jumladan, Oqyor sanoat kasb-hunar kollejiga tashrif davomida ta’lim jarayoni va yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishilib, ularni yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli taklif va ko‘rsatmalar berilgan.

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining joriy etilishi yoshlarning muayyan kasbni egallashi, mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rishi uchun imkoniyatlarni kengaytirdi. Ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, o‘quv laboratoriyalari va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanishi yoshlarning kasbiy salohiyatini oshirishga xizmat qildi.

Andijon yoshlarining ijtimoiy faolligi faqat ta’lim sohasi bilan cheklanib qolmadi. Mustaqillik yillarida viloyatda madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyatining kengayishi, sport va san’at yo‘nalishlarining rivojlanishi ham yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun muhim omil bo‘ldi.

Shu bilan birga, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish jarayonini faqat yaratilgan imkoniyatlar bilan izohlash yetarli emas. Yoshlarning o‘z tashabbuslari, bilim olishga intilishi, kasbiy va ijodiy salohiyatini namoyon etishi ham ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli ta’lim, madaniyat, sport va mehnat sohalaridagi imkoniyatlardan samarali foydalanish yoshlarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida Andijon viloyatida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ta’lim tizimining isloh qilinishi, yangi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining tashkil etilishi, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanishi yoshlarning bilim va kasb egallash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Mazkur jarayonlar Andijon yoshlarining zamonaviy bilim va kasbiy ko‘nikmalarni egallashi, o‘z qiziqish va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun muhim zamin yaratdi. Yoshlar uchun yaratilgan ta’limiy, madaniy va kasbiy imkoniyatlar ularning ijtimoiy faolligi va kelajakdagi kasbiy salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biri bo‘ldi.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida Andijon viloyatida amalga oshirilgan islohotlar yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Ushbu tarixiy tajribani o‘rganish bugungi yoshlar siyosatining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini anglashda ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir*. – Toshkent: Tasvir, 2021. – B. 25–27.

2. Karimov I.A. *Asosiy vazifalarimiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir*. – Toshkent.
3. *Yoshlar madaniyati*. – Toshkent, 1992.
4. Shamsutdinov R., Ishoqov A. *Andijon tarixidan lavhalar*. – Toshkent, 2013.
5. *Xalq so‘zi* gazetasi materiallari.
6. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni, 1991-yil 20-noyabr.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 1992-yil 2-iyul.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 1998-yil.

UDK: 159.9:364.2-055.2

NOTO‘LIQ OILALARDAGI ONALARGA IJTIMOIY YORDAM KO‘RSATISH TIZIMINING PSIXOLOGIK TAHLILI (L.A. GRITSAY KONSEPSIYASI ASOSIDA)

Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o‘g‘li,
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Zamonaviy psixologiyada oila shaxsning emotsional, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida qaraladi. Oilaning tarkibiy o‘zgarishi, xususan, ota-onalardan birining oilaviy tarbiya jarayonida ishtirok etmasligi onaning zimmasiga qo‘shimcha iqtisodiy, tarbiyaviy va psixologik mas’uliyat yuklaydi.

Noto‘liq oilalarda farzand tarbiyasini asosan bir nafar ota yoki ona amalga oshiradi. Ayniqsa, farzandni yolg‘iz tarbiyalayotgan onalar kundalik hayotda moddiy muammolar, emotsional zo‘riqish, tarbiyaviy mas’uliyat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi kabi omillar bilan to‘qnash kelishi mumkin. Shu sababli mazkur guruhga psixologik yordamni faqat individual maslahat bilan cheklab qo‘ymasdan, ijtimoiy, pedagogik va tibbiy xizmatlar bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish muhimdir.

L.A. Gritsay tomonidan ilgari surilgan kompleks yondashuv ana shunday ko‘p yo‘nalishli yordam tizimini shakllantirish zaruratiga e’tibor qaratadi [1]. Ushbu yondashuvda ona va bolaning ehtiyojlarini alohida emas, balki oila, jamiyat va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi doirasida ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi — L.A. Gritsay konsepsiyasi asosida noto‘liq oilalardagi onalarga psixologik-ijtimoiy yordam ko‘rsatish tizimining asosiy yo‘nalishlari va tarkibiy komponentlarini nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

L.A. Gritsay konsepsiyasiga ko‘ra, noto‘liq oilalardagi onalarni qo‘llab-quvvatlash birgina psixologik yordam bilan chegaralanmasligi, balki turli ijtimoiy institutlar faoliyatini birlashtiruvchi kompleks tizim sifatida tashkil etilishi lozim [1]. Ushbu tizimni quyidagi besh asosiy yo‘nalish orqali tavsiflash mumkin.

Birinchi — ma’naviy-axloqiy yo‘nalish. Ushbu yo‘nalish onalikning ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash hamda jamiyatda onalarga nisbatan ijobiy ijtimoiy munosabatni shakllantirishni nazarda tutadi. Bunda onalikni faqat biologik yoki tarbiyaviy vazifa sifatida emas, balki shaxs va jamiyat rivojlanishining muhim omili sifatida talqin qilish muhimdir.

Ikkinchi — davlat-huquqiy yo‘nalish. Noto‘liq oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, onalar va bolalarning huquqiy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy

xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish ushbu yo‘nalishning asosiy vazifalarini tashkil etadi. Bunda davlat va mahalliy boshqaruv organlari, ta’lim muassasalari hamda ijtimoiy xizmatlarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi — axborot-ma’rifiy yo‘nalish. Onalarga bola tarbiyasi, oilaviy munosabatlar, stressni boshqarish va psixologik yordam imkoniyatlari haqida ishonchli ma’lumot berish zarur. Zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orqali psixologik-ma’rifiy materiallarni keng ommaga yetkazish mumkin.

To‘rtinchi — tibbiy-ijtimoiy yo‘nalish. Noto‘liq oilalardagi onalarning jismoniy va ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash, zarur tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy xizmatlar bilan uzviy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ushbu yo‘nalishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Beshinchi — psixologik yo‘nalish. Psixologik yordam ona va bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual maslahat, guruhiy trening, psixoprofilaktika va zarur hollarda psixokorreksiya shakllarida tashkil etilishi mumkin. Ayniqsa, emotsional zo‘riqish, xavotir, o‘ziga ishonchsizlik, tarbiyaviy qiyinchiliklar va ijtimoiy izolyatsiyaning oldini olish muhimdir.

Noto‘liq oilaning psixologik xususiyatlarini tahlil qilishda ona va bolaning o‘zaro munosabatlari alohida ahamiyatga ega. Oiladagi tarkibiy o‘zgarishlar bolaning rivojlanishiga avtomatik ravishda salbiy ta’sir ko‘rsatadi, degan xulosaga kelish to‘g‘ri emas. Bolaning psixologik holatiga oiladagi emotsional muhit, ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarning xususiyati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va tarbiyaviy sharoitlar kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi [2; 3].

Shu nuqtai nazardan, noto‘liq oiladagi onaning psixologik holati yordam tizimining muhim obyekti hisoblanadi. Uzoq davom etuvchi stress, ijtimoiy bosim, iqtisodiy qiyinchiliklar va tarbiyaviy mas’uliyatning ortishi onaning emotsional resurslariga ta’sir qilishi mumkin. Bunday vaziyatlarda psixologik yordamning asosiy vazifalaridan biri onaning mavjud resurslarini aniqlash, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish va konstruktiv moslashuv strategiyalarini rivojlantirishdan iborat.

Noto‘liq oilalardagi bolalar bilan ishlashda ham kompleks yondashuv zarur. Bunda bolaning yosh xususiyatlari, oiladagi emotsional muhit, onaning tarbiyaviy uslubi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi hisobga olinishi lozim. Shuning uchun psixologik yordam faqat bolaning xulq-atvoridagi muammolarni korreksiya qilishga emas, balki ona-bola munosabatlarini optimallashtirishga ham yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

Kompleks yondashuvning muhim jihati — yordamning **ko‘p darajali** tashkil etilishidir. Birinchi darajada individual psixologik maslahat va psixologik diagnostika amalga oshiriladi. Ikkinchi darajada ona va bola o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan psixologik-pedagogik dasturlar tashkil etiladi. Uchinchi darajada esa oila, ta’lim muassasasi, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi.

Shunday qilib, noto‘liq oilalardagi onalarga yordam ko‘rsatish tizimini quyidagi o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topgan model sifatida tasavvur qilish mumkin:

diagnostika → psixologik maslahat → ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash → psixoprofilaktika va psixokorreksiya → ijtimoiy-pedagogik hamkorlik → monitoring.

Mazkur modelning asosiy maqsadi onaning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlash bilan bir qatorda, ona-bola munosabatlarining barqarorligini ta’minlash va oilaning mavjud ijtimoiy resurslaridan samarali foydalanishdan iborat.

Nazariy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, noto‘liq oilalardagi onalarga yordam ko‘rsatish masalasini faqat individual psixologik muammo sifatida talqin qilish yetarli emas. Mazkur holat psixologik, ijtimoiy, pedagogik va tibbiy omillarning o‘zaro ta’siri bilan belgilanadigan murakkab tizimli hodisadir.

L.A. Gritsayning kompleks yondashuvi ushbu muammoni ko‘p darajali yordam tizimi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bunda ma’naviy-axloqiy, davlat-huquqiy, axborot-ma’rifiy, tibbiy-ijtimoiy va psixologik yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi muhim metodologik prinsip sifatida namoyon bo‘ladi.

Noto‘liq oilalardagi onalarga psixologik yordamni tashkil etishda individual yondashuv, ona va bolaning o‘zaro munosabatlarini hisobga olish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslarini faollashtirish hamda profilaktik va korreksion tadbirlarni birlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Kelgusida mazkur nazariy model asosida noto‘liq oilalardagi onalarning psixologik ehtiyojlarini empirik o‘rganish, psixologik yordam dasturini ishlab chiqish va uning samaradorligini eksperimental tarzda baholash dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Грицай Л.А. Кризис современного материнства в современной России: социально-психологический аспект // Современные научные исследования и инновации. — 2010. — № 3.

2. Карабанова О.А. Психология семейных отношений и основы семейного консультирования. — М.: Гардарики, 2005. — 320 с.

3. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. — СПб.: Питер, 2008. — 672 с.

UDK: 316.624:297.7(575.1)

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA O‘SMIR YOSHLARNI DINIY EKSTREMIZMDAN IJTIMOIY-PSIXOLOGIK HIMOYALASHNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Mamatrayimov Jumanazar Mamatmurod o‘g‘li,
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Zamonaviy dunyoda diniy ekstremistik va radikal g‘oyalarning yoshlar, xususan, o‘smirlar ongiga ta’sir o‘tkazish xavfi global tahdidlardan biriga aylanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining xalqaro minbarlardagi chiqishlarida ham ta’kidlanganidek, yoshlarning radikallashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun jamiyat, davlat va ta’lim tizimining birgalikdagi harakatlarini kuchaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. O‘smirlik davri shaxs qadriyatlari tizimi va dunyoqarashi shakllanadigan muhim bosqich bo‘lib, u o‘ziga xos psixologik beqarorlik, identifikatsiya izlanishi va tashqi ta’sirlarga nisbatan yuqori sezuvchanlik bilan tavsiflanadi. Ayni shu xususiyatlar o‘smirlarni destruktiv diniy targ‘ibotning potensial nishoniga aylantirishi mumkin.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy muhiti — mahalla instituti, ko‘p avlodli oilaviy tuzilma, an’anaviy diniy bag‘rikenglik va milliy qadriyatlar tizimi — o‘smirlarni destruktiv g‘oyalardan himoyalashning muhim ijtimoiy-psixologik resurslarini tashkil etadi. Xorijiy tadqiqotlarda ishlab chiqilgan radikallashuv modellari, xususan, F. Moghaddamning “bosqichma-bosqich” (staircase) nazariyasi va K. Makkoli hamda S. Moskalenkoning “ishqalanish” (friction) nazariyasi asosan G‘arb ijtimoiy-madaniy konteksti asosida shakllangan bo‘lib, ularni mahalliy sharoitga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etish yetarli emas. Shu sababli, mazkur umumnazariy modellarni O‘zbekistonning milliy-madaniy xususiyatlari bilan boyitilgan holda qayta talqin etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbek jamiyatida mahalla instituti nafaqat ma’muriy-hududiy birlik, balki kuchli ijtimoiy nazorat, o‘zaro yordam va norasmiy tarbiyaviy ta’sir mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Mahalla sharoitida o‘smirning xatti-harakati va ijtimoiy muhiti kattalar nazorati ostida bo‘lib, bu uning notanish shaxslar yoki noma’lum diniy guruhlar bilan nazoratsiz aloqaga kirishish ehtimolini kamaytirishi mumkin. Ko‘p avlodli oila tuzilmasi esa o‘smirga bevosita oilaviy muloqot, kattalar tajribasidan foydalanish va qadriyatlarning avloddan avlodga uzatilishi imkonini beradi. Bu omillar o‘smirning ijtimoiy-psixologik barqarorligini ta’minlovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Xorijiy modellarda alohidalashgan va individualistik jamiyat sharoitida shakllangan “yolg‘izlanish” omili radikallashuvning sabablaridan biri sifatida

ko‘rsatilsa, mahalliy jamoaviy-oilaviy tuzilma aynan shu omilning ta’sirini susaytiruvchi tabiiy ijtimoiy-psixologik bufer vazifasini bajarishi mumkin.

O‘zbekistonda tarixan shakllangan diniy bag‘rikenglik an’anasi va dinning milliy ma’naviy-axloqiy meros sifatida idrok etilishi o‘smirlarda sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirish uchun qulay ijtimoiy-psixologik zamin yaratadi. Ayni paytda, tadqiqotlar o‘smirlarning diniy bilimlarni norasmiy manbalardan, jumladan, nazoratsiz internet-resurslardan olishi diniy savodsizlik hamda tashqi manipulyatsiyaga moyillikni kuchaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu sababli, “sog‘lom dindorlik immuniteti” tushunchasi — o‘smirning diniy bilimlarni rasmiy va malakali manbalardan olishi, diniy amaliyotni milliy-madaniy an’analar kontekstida to‘g‘ri idrok etishi — destruktiv g‘oyalarga qarshi ichki ijtimoiy-psixologik himoya mexanizmlaridan biri sifatida talqin qilinishi mumkin.

Umumta’lim maktablaridagi psixologik xizmat, sinf rahbarlari va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha mutaxassislar faoliyati o‘smirlarni destruktiv g‘oyalardan himoyalashning institutsional darajadagi muhim bo‘g‘inini tashkil etadi. Biroq amaliyotda maktab psixologlari va o‘qituvchilarning diniy ekstremizm psixologiyasi hamda radikallashuv belgilarini erta aniqlash bo‘yicha maxsus tayyorgarligi yetarli darajada emasligi kuzatiladi. Shu bois, o‘smirlarni destruktiv diniy g‘oyalardan himoyalashning milliy modelini yaratishda xorijiy nazariy yondashuvlarning umumpsixologik mexanizmlarini, ya’ni identifikatsiya inqirozi, guruhga mansublik ehtiyoji va ijtimoiy adolatsizlik hissini mahalliy ijtimoiy-madaniy resurslar — mahalla, oila, an’anaviy bag‘rikenglik va ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirib qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

O‘tkazilgan tahlil natijasida bir qator xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, o‘smirlarni diniy ekstremizmdan ijtimoiy-psixologik himoyalashda xorijiy radikallashuv nazariyalarini mexanik tarzda qo‘llash yetarli emas, ularni mahalliy ijtimoiy-madaniy kontekst bilan boyitish zarur. Ikkinchidan, mahalla va ko‘p avlodli oila instituti, shuningdek, an’anaviy diniy bag‘rikenglik O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik himoya resurslari sifatida ilmiy jihatdan asoslanishi mumkin. Uchinchidan, ta’lim tizimining profilaktik salohiyatini oshirish, xususan, maktab psixologik xizmati xodimlarining radikallashuv psixologiyasi bo‘yicha malakasini oshirish dolzarb amaliy vazifa hisoblanadi. Taklif etilgan yondashuv o‘smirlarni destruktiv diniy g‘oyalardan himoyalash bo‘yicha milliy dasturlar va profilaktik metodikalarni ishlab chiqishda ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Moghaddam F. M. The staircase to terrorism: a psychological exploration // American Psychologist. — 2005. — Vol. 60, № 2. — P. 161–169.

2. McCauley C., Moskalenko S. Friction: How Radicalization Happens to Them and Us. — New York: Oxford University Press, 2011. — 240 p.

3. Shermuxamedov K. A., Karimov J. A. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma’naviy-ma’rifiy asoslari: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati”, 2018. — 176 b.

4. Sultonov A. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashdagi O‘zbekistonning xalqaro hamkorligi. — Toshkent: Milliy universitet nashriyoti, 2020.

5. Mirzaxmedov A., O‘rinov O. Yoshlarda dindorlik omili // O‘zMU xabarlari (ACTA NUUz). — 2024. — № 1/10/1. — B. 138–140.

UDK 373.2:81'23

BOLA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA NUTQ O‘STIRISH MUAMMOSINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Eshmurodova Durdona O‘ktamovna,
Surxondaryo teleradiokanali davlat muassasasi birinchi toifali muharriri,
Termiz davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’limda matematika va ona tili” kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Jamiyat taraqqiyoti har bir shaxsning intellektual salohiyati, muloqotga kirishish qobiliyati va mustaqil fikrlash darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Inson shaxsining shakllanishi hayotining dastlabki bosqichlaridan boshlanadi va bu jarayonda nutq muhim o‘rin tutadi. Nutq bolaning atrof-muhitni anglash, o‘z fikrini ifodalash, boshqalar bilan munosabat o‘rnatish hamda ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishining asosiy vositalaridan biridir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy mahorati maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Nutqni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik ishlar bolaning tilni samarali va maqsadli egallashi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Ona tilini bolaning eng sezgir (sensitiv) rivojlanish davrida to‘laqonli egallashi uning kattalar va tengdoshlari bilan samarali muloqot qila olish qobiliyatini shakllantirish uchun muhim omildir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish tizimini psixologik-pedagogik jihatdan o‘rganish nutqning inson kamolotidagi beqiyos ahamiyati bilan izohlanadi. Bolalarga ona tilini o‘rgatish jarayonini tilshunoslik, psixologiya va pedagogika fanlarining o‘zaro aloqasi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Chunki ushbu fanlarda ishlab chiqilgan ilmiy qarashlar bolaning nutqiy rivojlanishi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asosini tashkil etadi.

Nutq faqatgina fikr almashish vositasi emas, balki tafakkurning shakllanishi, borliqni anglash va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishning muhim qurolidir. Bola dunyoga kelgan dastlabki davrda atrofidagi insonlar bilan asosan hissiy-emotsional vositalar orqali munosabatga kirishadi. Til va nutqni o‘zlashtirish jarayonining rivojlanishi bilan bolaning ongida muhim sifat o‘zgarishlari yuzaga keladi.

Nutq bolaning o‘z-o‘zini anglashi, o‘z “Men”ini shakllantirishi, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishi va jamiyatdagi ijtimoiy rollarni tushunishida muhim vosita hisoblanadi. Bolaning shaxs sifatida rivojlanishida nutq quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Kommunikativ funksiya – bolaning kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilishi, hamkorlik qilishi hamda ijtimoiy muhitga moslashishini ta’minlaydi.

Umumlashtiruvchi funksiya – so‘zlar yordamida predmet va hodisalar umumlashtiriladi, natijada tushunchalar va mavhum tafakkur shakllanadi.

Regulyativ funksiya – bolaning o‘z xatti-harakatlarini rejalashtirishi, irodaviy harakatlarini boshqarishi va o‘z-o‘zini nazorat qilishiga yordam beradi.

Emotsional-ifodaviy funksiya – bola o‘zining his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari va kechinmalarini nutq orqali ifodalaydi.

Shu jihatdan nutqning rivojlanganligi bolaning nafaqat ta’lim olishiga, balki uning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan bolaning nutqini rivojlantirish jarayoni tizimli, izchil va yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi lozim. Nutq o‘stirish bir nechta o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarni qamrab oladi.

Birinchidan, **lug‘at boyligini kengaytirish** muhim ahamiyatga ega. Bolaning faol va passiv lug‘atini muntazam boyitish, yangi so‘zlarning ma’nosini tushuntirish, sinonim va antonimlardan foydalanish uning fikrini aniq ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, **nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish** zarur. Bola so‘zlarni gapda to‘g‘ri bog‘lash, grammatik qo‘shimchalardan, yordamchi so‘zlardan va fe’l shakllaridan o‘rinli foydalanishni bosqichma-bosqich o‘zlashtiradi.

Uchinchidan, **tovush madaniyati va fonematik idrokni rivojlantirish** muhimdir. To‘g‘ri talaffuz, nutqiy nafasni boshqarish va tovushlarni farqlash ko‘nikmalari keyingi ta’lim jarayonining muhim poydevorini yaratadi.

To‘rtinchidan, **bog‘lanishli nutqni rivojlantirish** bolaning o‘z fikrini izchil va mantiqiy bayon qila olishiga xizmat qiladi. Dialogik va monologik nutqni shakllantirish, savollarga to‘liq javob berish, rasm asosida hikoya tuzish, voqealarni ketma-ket bayon qilish kabi mashg‘ulotlar bu borada samarali hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotda didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar, sahnalashtirish, suhbat, hikoya tuzish, badiiy adabiyot namunalaridan foydalanish hamda interfaol metodlarni qo‘llash bolalarning nutqiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Psixologik nuqtayi nazardan nutq va tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jarayonlardir. A.A. Leontyev nutqni insonning bilish va kommunikativ faoliyati bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida talqin qiladi. Uning qarashlariga ko‘ra, samarali muloqot uchun inson vaziyatni to‘g‘ri baholashi, o‘z nutqini rejalashtirishi, mazmunni tanlashi, uni ifodalash vositalarini belgilashi va suhbatdoshning munosabatini hisobga olishi kerak.

Bolaning nutqiy rivojlanishida “til sezgisi” ham muhim o‘rin tutadi. Bola ilgari o‘zlashtirgan til birliklari asosida yangi so‘z va grammatik shakllarni anglay boshlaydi. Bu jarayon uning til materialini tez o‘zlashtirishi va to‘g‘ri nutqiy shakllarni noto‘g‘ri shakllardan farqlay olishiga yordam beradi.

A.V. Zaporojets tadqiqotlarida nutq va tafakkurning o‘zaro aloqasiga alohida e’tibor qaratilgan. Nutqning mazmun bilan bog‘liqligi bolaning fikrlash jarayonini

rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Mazmun va fikrdan ajralgan nutq esa kommunikativ qiymatini yo‘qotadi.

L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlariga ko‘ra, bolaning tashqi, ijtimoiy nutqi rivojlanib borishi bilan asta-sekin ichki nutqqa aylanadi. Ichki nutq esa tafakkur jarayonining muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, bolaning nutqiy rivojlanishi uning tafakkuri va ongining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Nutq rivojlanishining fiziologik asoslarini I.P. Pavlovning oliy nerv faoliyatining birinchi va ikkinchi signal tizimlari haqidagi ta’limoti orqali izohlash mumkin. Inson nutqiy faoliyati murakkab fiziologik mexanizmlar asosida amalga oshadi. So‘z inson ongida predmet va hodisalar haqidagi bevosita tasavvurlarni umumlashtiruvchi signal vazifasini bajaradi.

Lingvistik nuqtayi nazardan esa til belgilar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Til va nutq bir-biriga yaqin tushunchalar bo‘lsa-da, ular o‘rtasida muhim farqlar mavjud. Til jamiyat tomonidan yaratilgan va rivojlantiriladigan belgilar tizimi bo‘lsa, nutq ushbu tizimning muayyan muloqot vaziyatida amaliy qo‘llanishidir.

Bolaning tilni o‘zlashtirishi uning nutqiy faoliyatini shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Shu bilan birga, nutqning amaliy qo‘llanishi orqali bola til birliklarining ma’nosi va vazifalarini yanada chuqurroq egallaydi.

Bolaning nutqiy rivojlanishi uning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, bolaning lug‘at boyligi kengaygani sari uning tushunchalarni anglash, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish imkoniyatlari ham ortadi.

Nutq bolaning emotsional-irodaviy sohasini rivojlantirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Bola o‘z his-tuyg‘ularini so‘z orqali ifodalashni o‘rgangan sari o‘z kechinmalarini boshqarish va boshqalar bilan ulashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Nutqiy rivojlanishdagi muammolar esa bolaning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Talaffuzdagi nuqsonlar, duduqlanish, nutq rivojlanishining kechikishi yoki fikrni erkin ifodalay olmaslik holatlari bolada o‘ziga ishonchsizlik, tortinchoqlik va muloqotdan qochish kabi holatlarni yuzaga keltirishi ehtimolini oshiradi. Shu sababli nutqiy muammolarni imkon qadar erta aniqlash va pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish muhimdir.

Bola shaxsini shakllantirishda nutq o‘stirish pedagogik va psixologik omillarning o‘zaro uyg‘unligini talab qiladigan murakkab jarayondir. Nutq bolaning muloqotga kirishishi, tafakkuri va dunyoqarashining rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglashi hamda jamiyatga moslashishida muhim vosita hisoblanadi.

Shu bois maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqiy rivojlanish uchun qulay muhit yaratish, lug‘at boyligini kengaytirish, grammatik va fonetik ko‘nikmalarni shakllantirish, dialogik hamda monologik nutqni rivojlantirishga tizimli yondashish zarur.

Oila va ta’lim muassasasining hamkorligi, pedagogning kasbiy kompetensiyasi, samarali pedagogik texnologiyalar va bolaga individual yondashuv nutq rivojlanishining muhim shartlari hisoblanadi. Nutqi rivojlangan bola o‘z fikrini erkin ifodalash, tengdoshlari va kattalar bilan samarali muloqot qilish hamda ta’lim jarayonida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu jihatdan nutq o‘stirish bolaning kelajakda barkamol, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishining muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shodmonova Sh.S. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Tafakkur, 2022.

2. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность**.** – М.: Просвещение, 1969. – 214 с.

3. Запорожец А.В. Психология восприятия сказки ребенком-дошкольником // Психология дошкольника: хрестоматия / сост. Г.А. Урунтаева. – М.: Педагогика, 1998. – 138 с.

4. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собрание сочинений: в 6 т. – М.: Педагогика, 1983. – Т. 2. – 340 с.

УДК 159.947.5:378.015.3

МОТИВАЦИОННО-ВОЛЕВЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ САМОРЕГУЛЯЦИИ СТУДЕНТОВ

Темиров Аброр Орифжон угли,
Соискатель Узбекского национального педагогического университета имени Низами

Современное высшее образование предъявляет к студентам требования, связанные не только с усвоением профессиональных знаний, но и со способностью самостоятельно организовывать учебную деятельность. Студенту необходимо ставить цели, планировать последовательность действий, поддерживать активность, преодолевать трудности, контролировать выполнение заданий и оценивать результаты. Данные процессы составляют основу осознанной саморегуляции.

В психологической науке саморегуляция рассматривается как сложная система организации человеком собственной деятельности. В исследованиях А. Бандуры, Б. Циммермана, П. Пинтрича и В. И. Моросановой подчёркивается значение целеполагания, планирования, мотивации, контроля и рефлексивной оценки. При этом эффективность саморегуляции определяется не только когнитивными механизмами, но и особенностями мотивационно-волевой сферы личности.

Наличие учебной цели само по себе не гарантирует её достижения. Студент должен сохранять направленность на результат, регулировать собственные усилия и продолжать деятельность при возникновении трудностей. В связи с этим изучение взаимосвязи мотивации достижения, познавательного мотива и волевой силы с саморегуляцией представляет значительный научный и практический интерес.

Цель исследования заключается в изучении мотивационно-волевых факторов как психологических компонентов развития саморегуляции студентов.

Мотивация определяет направленность активности человека и обеспечивает субъективную значимость поставленной цели. В учебной деятельности мотивация достижения связана со стремлением успешно выполнить задачу, получить значимый результат и реализовать собственные возможности.

Познавательный мотив имеет иной акцент и связан прежде всего с интересом к процессу познания, приобретению новых знаний и пониманию учебного материала. Оба вида мотивации могут способствовать поддержанию активности и направленности учебной деятельности.

Однако мотивационная направленность нуждается в волевой регуляции. Волевая сила позволяет студенту продолжать деятельность при усталости, затруднениях или временных неудачах. Таким образом, мотивация определяет значимость цели, а волевая регуляция обеспечивает реализацию намерений и преодоление возникающих препятствий.

В структуре саморегуляции эти процессы взаимосвязаны: цель определяет направление деятельности, мотивация поддерживает её значимость, а волевая регуляция способствует реализации запланированных действий.

Эмпирическую основу исследования составили данные обследования 410 студентов нескольких высших учебных заведений. Для изучения основных показателей применялись методики диагностики осознанной саморегуляции, рефлексивности, мотивации достижения, уровня притязаний и компетенции саморегуляции. В качестве объективного показателя академической успешности использовался GPA.

Корреляционный анализ показал статистически значимую положительную связь между волевой силой и академической успешностью ($r = 0,34$; $p < 0,001$). Мотивация достижения также положительно коррелировала с GPA ($r = 0,33$; $p < 0,001$). Познавательный мотив продемонстрировал статистически значимую связь с академической успешностью ($r = 0,31$; $p < 0,01$).

Полученные данные свидетельствуют о том, что более выраженные мотивационно-волевые характеристики связаны с более высокими показателями академической успешности в исследуемой выборке. Вместе с тем корреляционные показатели отражают статистические связи и не позволяют самостоятельно устанавливать причинно-следственные отношения.

Дополнительный анализ был проведён с использованием множественной регрессии. Наиболее выраженный стандартизированный коэффициент наблюдался у волевой силы ($\beta = 0,29$; $p < 0,001$), далее следовали мотивация достижения ($\beta = 0,24$; $p < 0,001$) и познавательный мотив ($\beta = 0,17$; $p = 0,007$).

Общая регрессионная модель характеризовалась следующими показателями: $R = 0,58$; $R^2 = 0,34$; скорректированный $R^2 = 0,33$; $F = 52,16$; $p < 0,001$. Включённые в модель психологические факторы объясняли 34% дисперсии компетенции саморегуляции студентов.

Таким образом, результаты указывают на наличие самостоятельного статистического вклада волевой силы, мотивации достижения и познавательного мотива в показатели саморегуляции.

Полученные результаты имеют значение для психологического сопровождения студентов. Развитие саморегуляции целесообразно связывать не только с обучением техническим приёмам планирования и контроля, но и с развитием мотивационной и волевой сфер.

Одним из направлений работы может быть обучение студентов постановке конкретных учебных целей, планированию последовательности действий и

контролю промежуточных результатов. Для развития волевой регуляции целесообразно использовать задания, требующие последовательного выполнения нескольких этапов, преодоления трудностей и доведения работы до завершения.

Мотивацию достижения можно поддерживать посредством постановки индивидуальных целей и отслеживания личного прогресса. Познавательная мотивация может развиваться через проблемные задания, самостоятельный поиск информации и исследовательскую деятельность.

Комплексное воздействие на мотивационные, волевые и рефлексивные компоненты способно создавать условия для более осознанной организации студентами собственной учебной деятельности.

Результаты исследования подтверждают многокомпонентный характер саморегуляции студентов. Мотивация определяет направленность активности, волевая сила поддерживает реализацию намерений, познавательный мотив способствует содержательной включённости в учебную деятельность, а рефлексивность обеспечивает анализ полученного опыта.

Особое значение имеет взаимодействие мотивационных и волевых механизмов. Высокая мотивация без способности поддерживать деятельность при возникновении трудностей может оказаться недостаточной для достижения цели. В свою очередь, волевая регуляция нуждается в содержательно значимых целях, определяющих направление усилий.

Полученные результаты не следует интерпретировать как доказательство прямого причинного влияния мотивационно-волевых факторов на саморегуляцию. Для изучения причинно-следственных механизмов необходимы дополнительные экспериментальные и лонгитюдные исследования.

Мотивационно-волевая сфера представляет собой значимый компонент саморегуляции студентов. Исследование выявило статистически значимые положительные связи волевой силы, мотивации достижения и познавательного мотива с академической успешностью.

Регрессионный анализ показал самостоятельный статистический вклад данных факторов в компетенцию саморегуляции. Наиболее выраженный вклад наблюдался у волевой силы ($\beta = 0{,}29$), далее следовали мотивация достижения ($\beta = 0{,}24$) и познавательный мотив ($\beta = 0{,}17$). В совокупности психологические факторы модели объясняли 34% дисперсии компетенции саморегуляции.

Практически это указывает на целесообразность комплексного развития саморегуляции студентов посредством формирования навыков целеполагания, планирования, поддержания мотивации, волевой устойчивости, контроля и рефлексивной оценки результатов. Такой подход позволяет рассматривать саморегуляцию как интегративный процесс организации студентом собственной учебной деятельности.

Литература:

Birinchi yo‘nalish — maqsad-attraktorni shakllantirish**.** O‘qituvchi o‘quvchining qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda aniq, mazmunli va erishish mumkin bo‘lgan maqsadlarni belgilashga ko‘maklashadi. Mazkur maqsad o‘quvchi uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lishi muhim.

Ikkinchi yo‘nalish — muhit-attraktorni yaratish**.** Ta’lim muhiti o‘quvchida qiziqish, xavfsizlik, hamkorlik va ijodiy faollikni yuzaga keltiradigan tarzda tashkil etiladi. Bunday muhit o‘quvchining ta’lim faoliyatiga ichki ehtiyoj asosida jalb etilishiga yordam beradi.

Uchinchi yo‘nalish — ijtimoiy attraktordan foydalanish**.** O‘qituvchi va tengdoshlarning ijobiy munosabati, guruhga mansublik hissi, hamkorlik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash o‘quvchining ta’lim faoliyatidagi barqarorligini kuchaytirishi mumkin. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayonida mazkur omilning ahamiyati yuqori.

To‘rtinchi yo‘nalish — rivojlanishning muhim bosqichlarida attraktorni qo‘llab-quvvatlash**.** O‘quvchi qiyinchilik yoki tanlov holatiga duch kelganida, o‘qituvchi unga avval belgilangan maqsadni anglash, faoliyatining mazmunini qayta ko‘rib chiqish va keyingi harakat yo‘nalishini belgilashda yordam beradi. Bu o‘quvchining ta’lim motivatsiyasini saqlab qolishiga ko‘maklashadi.

Attraktor tushunchasining pedagogik talqini ta’lim motivatsiyasini statik holat sifatida emas, balki dinamik va rivojlanuvchi jarayon sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. O‘quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari va maqsadlari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Shu sababli pedagogik ta’sir ham bir marotabalik emas, balki o‘quvchining rivojlanish dinamikasiga mos ravishda takomillashib borishi lozim.

Bunday yondashuv o‘qituvchining rolini ham kengaytiradi. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchining rivojlanish yo‘nalishini anglashiga, maqsadlarini belgilashiga, ta’lim muhitidan samarali foydalanishiga va o‘z faoliyatini refleksiv baholashiga ko‘maklashuvchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi.

Attraktor g‘oyasi ta’lim sifatini baholashga ham qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bunda faqat o‘quvchining o‘zlashtirish darajasini emas, balki uning mustaqil ta’lim olishga intilishi, bilimga qiziqishi, kasbiy yo‘nalishi, ijodiy faolligi va o‘z rivojlanishini boshqarish qobiliyatini ham hisobga olish mumkin.

Shu bilan birga, attraktor tushunchasini pedagogik jarayonga tatbiq etishda uning metaforik-metodologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Sinergetikadagi fizik-matematik mazmunni pedagogik jarayonga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki uning asosiy tamoyillaridan — o‘z-o‘zini tashkil etish, rivojlanishning ko‘p variantliligi, ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri kabi g‘oyalardan pedagogik maqsadlarda foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Attraktor tushunchasining pedagogik talqini ta’lim jarayonini o‘quvchining ichki rivojlanish mexanizmlari bilan bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi. Mazkur yondashuvda o‘quvchining maqsadi, qiziqishi, ehtiyoji, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari uning ta’lim faoliyatini yo‘naltiruvchi muhim omillar sifatida qaraladi.

Ta’lim jarayonida maqsad-attraktor, muhit-attraktor va ijtimoiy attraktorlardan foydalanish o‘quvchilarning ta’lim motivatsiyasi, mustaqil faoliyati va rivojlanish faolligini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi mumkin. Bunda o‘qituvchining vazifasi o‘quvchini doimiy tashqi nazorat ostida ushlab turishdan ko‘ra, uning ichki motivatsiyasi va rivojlanish ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhitni yaratishdan iborat bo‘ladi.

Shunday qilib, attraktor tushunchasidan pedagogikada foydalanish ta’lim jarayonini o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil faoliyat va shaxsiy maqsadlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan tizim sifatida talqin qilish uchun metodologik asos yaratadi. Mazkur yondashuv ayniqsa shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillarini amalga oshirishda muhim nazariy imkoniyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. Князева Е.Н. Синергетическая парадигма в образовании. — Москва: Прогресс, 2013. — 312 с.
3. Арпентьева М.Р. Синергетика и педагогика: интеграция подходов. — Калуга: КГУ, 2016. — 228 с.
4. Yo‘ldoshev B.Q., Usmonboeva M. Ta’lim jarayonida sinergetik yondashuv. — Toshkent: Fan, 2018. — 134 b.
5. Ergashev B.B. Oliy ta’limda sinergetik yondashuv imkoniyatlari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. — 98 b.
6. Rahimova D.S. O‘qituvchi tayyorlashda sinergetik model. — Farg‘ona: FarDU, 2020. — 96 b.

7. Nazarov Q.T. Pedagogik mahorat asoslari. — Toshkent: TDPU, 2020. — 184 b.
8. Mirzayev T.I. Boshlang‘ich ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2021. — 160 b.
9. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.
10. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

UDK 159.922.7:316.356.2

OILADA TURLI YOSHDAGI FARZANDLARDA SIBLINGLARARO HASAD HISSI NAMOYON BO‘LISHIDAGI JINS FARQLARI

Jumabekov Ziyovuddin Xazratqul o‘g‘li,
“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

Oila bolaning shaxs sifatida shakllanishi, emotsional tajribani o‘zlashtirishi, o‘z-o‘zini anglashining rivojlanishi va boshqa insonlar bilan munosabat o‘rnatishi uchun muhim ijtimoiy-psixologik muhit hisoblanadi [1; 2]. Ayniqsa, bir oilada voyaga yetayotgan aka-uka va opa-singillar o‘rtasidagi munosabatlarda mehr, hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, raqobat, ranjish, havas va hasad kabi turli emotsional holatlar bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli siblinglararo hasadni faqat salbiy xulq-atvor ko‘rinishi sifatida baholash emas, balki uning ortida turgan ehtiyojlar, o‘zini boshqalar bilan taqqoslash, e’tirofga bo‘lgan ehtiyoj va oiladagi adolat haqidagi tasavvurlarni aniqlash muhimdir.

Hasad murakkab ijtimoiy-emotsional kechinma bo‘lib, u shaxs o‘zida mavjud bo‘lmagan yoki yetarli deb hisoblamagan sifat, imkoniyat, resurs yoki ijtimoiy ustunlik boshqa shaxsda mavjudligini anglagan vaziyatda yuzaga kelishi mumkin [5; 6]. Festingerning ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga ko‘ra, inson o‘z imkoniyatlari va mavqeini baholash jarayonida boshqa insonlar bilan o‘zini taqqoslaydi [10]. Oilada esa bunday taqqoslash jarayoni farzandlar bir-biriga yaqin sharoitda voyaga yetishi sababli yanada faol namoyon bo‘lishi mumkin.

Farzandlararo munosabatlarda hasad ko‘pincha ota-onaning mehr-muhabbati va e’tiborini taqsimlash masalasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Biroq hasadning obyekti faqat ota-ona e’tibori bilan cheklanmaydi. O‘qishdagi muvaffaqiyat, sportdagi yutuqlar, tashqi ko‘rinish, do‘stlar soni, sovg‘alar, moddiy imkoniyatlar, telefon yoki boshqa buyumlar, mustaqillik darajasi, oiladagi mas’uliyat va ota-onaning farzandga bergan erkinligi ham siblinglararo taqqoslash manbai bo‘lishi mumkin. Shu jihatdan hasadning mazmuni bolaning yoshi va rivojlanish bosqichiga qarab o‘zgarib boradi.

Hasadni havas va sog‘lom raqobatdan farqlash ham muhim. Havasda boshqa shaxsning ijobiy sifati yoki yutug‘ini ko‘rib, unga o‘xshashga intilish ustun bo‘ladi. Hasadda esa o‘zini boshqalar bilan taqqoslash natijasida yuzaga keladigan salbiy emotsional baholash, o‘z imkoniyatlarini pastroq deb his qilish yoki boshqa bolaning ustunligini qabul qilishdagi qiyinchilik kuchliroq namoyon bo‘ladi [9]. Sog‘lom siblinglararo raqobat esa aksincha, farzandni o‘z imkoniyatlarini rivojlantirishga va yuqori natijalarga erishishga undashi mumkin. Shu sababli bolaning “men ham shuni xohlayman” yoki “nega unga berildi?” kabi fikrlarini avtomatik ravishda hasad sifatida

baholashdan oldin, ushbu kechinmaning ortida qanday ehtiyoj mavjudligini aniqlash zarur.

Tadqiqotning metodologik asosini oilaviy munosabatlar psixologiyasi, ijtimoiy taqqoslash nazariyasi, siblinglararo munosabatlar va hasad fenomenini o‘rganishga oid psixologik yondashuvlar tashkil etadi [1; 2; 6; 10]. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va psixologik tushunchalarni tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Siblinglararo hasad hissini tahlil qilishda bolaning yoshi, jinsi, tug‘ilish ketma-ketligi, siblinglar o‘rtasidagi yosh farqi, ota-onaning farzandlarga munosabati, oiladagi resurslarning taqsimlanishi va ijtimoiy taqqoslash kabi omillar o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqildi. Mazkur yondashuv hasadning faqat jins bilan bog‘liq hodisa emasligini, balki uning shakllanishida ko‘plab individual va oilaviy omillar ishtirok etishini hisobga olish imkonini beradi.

Hasad hissi shaxs o‘zida mavjud bo‘lmagan yoki o‘zida yetarli deb hisoblamagan ne’mat, sifat, imkoniyat yoki ijtimoiy ustunlikning boshqa shaxsda mavjudligini salbiy emotsional baholashi bilan bog‘liq murakkab psixologik kechinmadir [6; 7]. Siblinglararo munosabatlarda ushbu hissiyotning shakllanishiga, avvalo, farzandlarning o‘zaro taqqoslanishi va ota-onaning e’tibori uchun raqobat ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Farzandlar bir xil oilaviy muhitda ulg‘ayayotgani sababli ular ota-onaning munosabati, berilayotgan imkoniyatlar va qo‘yilayotgan talablarni bir-biri bilan solishtirishga moyil bo‘ladilar.

Yosh omili siblinglararo hasadning mazmuni va ifodalanish shakliga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda hasad ko‘proq ota-onaning bevosita e’tiborini bo‘lishish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, oilada yangi farzand tug‘ilganda katta bolaning avvalgi mavqei va ota-ona e’tibori o‘zgarganini his qilishi turli emotsional reaksiyalarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday vaziyatda bola o‘zini e’tibordan chetda qolgandek his qilishi, injiqlik ko‘rsatishi yoki kichik farzandga nisbatan salbiy munosabat namoyon qilishi mumkin.

Maktab yoshida siblinglararo taqqoslashning asosiy obyekti o‘qishdagi muvaffaqiyat, baholar, qobiliyatlar, sportdagi natijalar va ota-onaning maqtovi bo‘lishi mumkin. Agar ota-ona bir farzandni ikkinchisiga namuna sifatida muntazam ko‘rsatsa, “akangdek o‘qisang”, “opangdek tartibli bo‘lsang” kabi qiyosiy baholashlardan foydalansa, farzandlarda o‘zaro raqobat va hasad kuchayishi ehtimoli ortadi. Shu sababli oilaviy tarbiyada bevosita qiyoslashdan ko‘ra, har bir bolaning individual rivojlanish dinamikasini baholash maqsadga muvofiq.

O‘smirlik davrida esa siblinglararo taqqoslashning mazmuni yanada murakkablashadi. Bu davrda tashqi ko‘rinish, ijtimoiy mavqe, tengdoshlar orasidagi mashhurlik, mustaqillik, shaxsiy hudud va ota-onaning ishonchi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etadi. O‘smir o‘zini nafaqat siblingi bilan, balki tengdoshlari bilan ham faol taqqoslay boshlaydi. Shu sababli siblinglararo hasadning kuchi individual o‘zini

baholash, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv darajasiga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Siblinglar o‘rtasidagi yosh farqi ham hasadning shakllanishi va namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillardan biridir. Yosh farqi kichik bo‘lgan siblinglarda qiziqishlar, faoliyat turlari va ota-onadan olinadigan resurslar ko‘proq o‘xshash bo‘lishi sababli o‘zaro taqqoslash uchun imkoniyatlar kengayishi mumkin. Yosh farqi katta bo‘lgan siblinglarda esa taqqoslash obyektlari boshqacha bo‘lishi mumkin. Masalan, katta farzandga ko‘proq mustaqillik berilishi kichik farzandda adolatsizlik hissini yuzaga keltirishi, kichik farzandga ko‘proq g‘amxo‘rlik ko‘rsatilishi esa katta farzand tomonidan ota-ona e’tiborining kamayishi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Jins farqlarini tahlil qilishda ehtiyotkorlik zarur. Qizlar va o‘g‘il bolalarda hasad hissining mavjudligi yoki kuchini qat’iy ravishda jins bilan izohlash ilmiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ayrim tadqiqotlarda emotsional kechinmalarning ifodalanish usullarida genderga oid farqlar kuzatilishi mumkinligi ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, bunday farqlar universal qonuniyat sifatida qabul qilinmasligi kerak [4; 8]. Individual xarakter xususiyatlari, oiladagi tarbiya uslubi, ota-onaning munosabati, siblinglar o‘rtasidagi munosabatlar va ijtimoiy muhit jins omilidan kam bo‘lmagan ahamiyatga ega.

Qizlarda hasad hissi ayrim vaziyatlarda munosabatga yo‘naltirilgan emotsional reaksiyalar, ranjish, xafa bo‘lish, o‘zini chetga tortish yoki bilvosita norozilik shaklida ifodalanishi mumkin. O‘g‘il bolalarda esa ayrim hollarda ochiq raqobat, bahslashish yoki xulq-atvor orqali qarshilik ko‘rsatish shakllari uchrashi mumkin. Biroq bu farqlar qat’iy gender qonuniyati emas. Aksincha, har bir bolaning individual xususiyatlari va oilaviy muhitini hisobga olish zarur.

Hasadning shakllanishida ota-onaning farzandlarga munosabati alohida ahamiyatga ega. Ota-onaning bir farzandni ikkinchisidan ustun qo‘yishi, farzandlarni muntazam qiyoslashi, ularning yutuqlarini turlicha baholashi yoki oiladagi mas’uliyatni adolatsiz taqsimlashi siblinglararo raqobatni kuchaytirishi mumkin. Aksincha, har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olish, ularga alohida vaqt ajratish, yutuqlarini individual mezonlar asosida e’tirof etish va oilaviy qoidalarni izchil qo‘llash sog‘lom siblinglararo munosabatlarning shakllanishiga yordam beradi [1; 2].

Hasadning oldini olishda bolaning emotsional holatini tushunish va uning kechinmalarini inkor qilmaslik muhimdir. “Hasad qilish yomon”, “singlingga hasad qilma” kabi umumiy tanbehlar bolaning ichki kechinmasini bartaraf etmasligi mumkin. Aksincha, ota-ona bolaning his-tuyg‘usini tinglashi, uning nimadan norozi ekanligini aniqlashi va vaziyatni birgalikda muhokama qilishi maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv bolada o‘z emotsiyalarini anglash va ularni konstruktiv boshqarish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Siblinglararo raqobatning konstruktiv shakli esa bolaning rivojlanishi uchun ijobiy resursga aylanishi mumkin. Masalan, farzandlarning bir-birining muvaffaqiyatini tan olishi, umumiy maqsadga erishish uchun hamkorlik qilishi va o‘z kuchli tomonlarini rivojlantirishga intilishi raqobatni konstruktiv yo‘nalishga olib keladi. Buning uchun

ota-onalar “kim yaxshi?” degan savol o‘rniga “har biringiz nimani yaxshi bajara olasiz?” degan yondashuvdan foydalanishlari maqsadga muvofiq.

Ilmiy manbalarni tahlil qilish natijasida siblinglararo hasad hissining shakllanishi va namoyon bo‘lishini faqat bitta omil, xususan, bolaning jinsi bilan izohlash yetarli emasligi aniqlandi. Hasadning mazmuni va intensivligi bolaning yoshi, rivojlanish bosqichi, tug‘ilish ketma-ketligi, siblinglar o‘rtasidagi yosh farqi, ota-onaning tarbiya uslubi, oiladagi e’tibor va resurslarning taqsimlanishi, shuningdek, bolaning o‘z-o‘zini baholashi bilan chambarchas bog‘liq.

Siblinglararo hasadni tahlil qilishda uning kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlarini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Kognitiv komponent bolaning o‘zini siblingi bilan taqqoslashi va mavjud vaziyatni qanday talqin qilishini ifodalaydi. Emotsional komponent ranjish, norozilik, yetishmovchilik hissi yoki xafa bo‘lish kabi kechinmalarda namoyon bo‘ladi. Xulqiy komponent esa ochiq raqobat, tortishuv, o‘zini chetga tortish yoki boshqa turdagi reaksiyalar orqali ifodalanishi mumkin.

Jins farqlarini o‘rganishda aynan shu uch komponentni alohida o‘lchash muhim. Chunki ikki bolaning hasad darajasi o‘xshash bo‘lsa-da, uning tashqi ifodalanish shakli turlicha bo‘lishi mumkin. Shu sababli faqat kuzatiladigan xulq-atvorga asoslanib, qaysi jins vakillarida hasad yuqori ekanligi haqida xulosa chiqarish metodologik jihatdan ehtiyotkorlikni talab etadi.

Kelgusidagi empirik tadqiqotlarda turli yosh guruhlaridagi qizlar va o‘g‘il bolalardan iborat tenglashtirilgan tanlanmalarni shakllantirish, hasadning kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlarini alohida o‘lchash hamda siblinglar o‘rtasidagi yosh farqi, tug‘ilish ketma-ketligi, oiladagi farzandlar soni va ota-onaning tarbiya uslubini nazorat o‘zgaruvchilari sifatida hisobga olish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv jins farqlari haqidagi nazariy taxminlarni aniq psixodiagnostik va statistik dalillar asosida tekshirish imkonini beradi.

Oilada turli yoshdagi farzandlar o‘rtasida siblinglararo hasad hissining namoyon bo‘lishi murakkab va ko‘p omilli psixologik hodisa hisoblanadi. Uning shakllanishida bolaning yoshi va jinsi bilan bir qatorda, siblinglar o‘rtasidagi yosh farqi, tug‘ilish ketma-ketligi, ota-onaning e’tibori, oiladagi resurslarning taqsimlanishi, ijtimoiy taqqoslash va bolaning individual-psixologik xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi.

Jins farqlarini baholashda hasadning mavjudligi emas, balki uning namoyon bo‘lish shakllari, emotsional kechinmalar va xulqiy reaksiyalaridagi ehtimoliy farqlarni o‘rganish maqsadga muvofiq. Bunda gender omilini boshqa individual va oilaviy omillardan ajratib ko‘rsatishdan ko‘ra, ularning o‘zaro ta’sirini kompleks o‘rganish ilmiy jihatdan asosliroqdir.

Oilada sog‘lom siblinglararo munosabatlarni shakllantirish uchun farzandlarni bir-biri bilan muntazam qiyoslamaslik, har bir bolaning individual yutuq va ehtiyojlarini e’tirof etish, ota-ona e’tiborini muvozanatli taqsimlash, oilaviy qoidalarni izchil qo‘llash va bolalarning emotsiyalarini erkin ifodalashlari uchun psixologik

xavfsiz muhit yaratish zarur. Bunday yondashuv hasad va raqobatning destruktiv shakllarini kamaytirib, siblinglar o‘rtasida hamkorlik, o‘zaro hurmat va emotsional yaqinlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
2. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2010.
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
4. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. – Moskva: Aspect Press, 2019.
5. Beskova T.V. Zavist: psixologicheskaya kartina i metody issledovaniya. – Saratov, 2011.
6. Smith R.H. Envy: Theory and Research. – New York: Oxford University Press, 2008.
7. Ilyin E.P. Psixologiya zavisti, vrajdebnosti i tshcheslaviya. – Sankt-Peterburg: Piter, 2014.
8. Salovey P., Rodin J. Some Antecedents and Consequences of Social-Comparison Jealousy // Journal of Personality and Social Psychology. – 1984. – Vol. 47, No. 4.
9. Parrott W.G., Smith R.H. Distinguishing the Experiences of Envy and Jealousy // Journal of Personality and Social Psychology. – 1993. – Vol. 64, No. 6.
10. Festinger L. A Theory of Social Comparison Processes // Human Relations. – 1954. – Vol. 7, No. 2. – P. 117–140.
11. Adler A. The Individual Psychology of Alfred Adler: A Systematic Presentation in Selections from His Writings. – New York: Harper & Row, 1956.
12. “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. – Toshkent, 2023.
13. O‘zbekiston Respublikasi. Oila kodeksi. – Toshkent, 2024.
14. O‘zbekiston Respublikasi. Konstitutsiya. – Toshkent, 2023.

UDK 378.147:54:37.091.26

BO‘LAJAK KIMYO O‘QITUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH TIMSS TADQIQOTIGA TAYYORLASHDA TABIIY FANLARGA OID KONTEKST TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Asadullayeva Gulnoza Asadulla qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning nazariy bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchining faqat tayyor bilimlarni eslab qolishi emas, balki ularni amaliy vaziyatlarga tatbiq eta olishi, ilmiy dalillarni tahlil qilishi, muammoni aniqlashi va asoslangan xulosa chiqarishi muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro baholash tadqiqotlari, jumladan TIMSS, o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini nafaqat reproduktiv, balki amaliy va tahliliy faoliyat bilan bog‘liq topshiriqlar orqali baholashga yo‘naltirilgan. Shu jihatdan kontekst topshiriqlar o‘quvchilarning ilmiy bilimlarini real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash, ma’lumotlarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur vazifa bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligiga ham bevosita taalluqlidir. Chunki bo‘lajak o‘qituvchi xalqaro baholash mezonlarini bilishi bilan bir qatorda, mazkur mezonlarga mos topshiriqlarni mustaqil ishlab chiqish, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish va o‘quvchilarning natijalarini tahlil qilish kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarur.

Shu bois bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini TIMSS tipidagi kontekst topshiriqlarni ishlab chiqish va ulardan ta’lim jarayonida samarali foydalanishga tayyorlash dolzarb ilmiy-metodik muammolardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini xalqaro TIMSS tadqiqotiga tayyorlashda tabiiy fanlarga oid kontekst topshiriqlarni ishlab chiqish va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish metodikasini asoslashdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

TIMSS xalqaro baholash tadqiqotining tabiiy fanlarga oid mazmuniy va kognitiv yo‘nalishlarini tahlil qilish;

kontekst topshiriqlarning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

biologiya, kimyo, fizika va geofizika yo‘nalishlarini qamrab oluvchi kontekst topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

topshiriqlarni bilish, qo‘llash va mulohaza yuritish kabi kognitiv faoliyat darajalari bilan uyg‘unlashtirish;

kontekst topshiriqlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning bosqichma-bosqich metodikasini ishlab chiqish;

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining tahliliy, ilmiy-dalillash va fanlararo fikrlash ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlarni aniqlash.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, pedagogik tajriba-sinov, diagnostik baholash va natijalarni matematik-statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Ishlab chiqilgan metodikaning asosini TIMSS tadqiqotining tabiiy fanlarga oid mazmuniy yo‘nalishlari hamda kognitiv faoliyat darajalari tashkil etdi. Bunda topshiriqlarni ishlab chiqishda real hayotiy vaziyat, muammoli holat, statistik ma’lumot, grafik va boshqa axborot manbalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqot doirasida jami 25 ta kontekst topshiriq ishlab chiqildi. Ular biologiya, kimyo, fizika va geofizika yo‘nalishlari bo‘yicha taqsimlandi.

Biologiya yo‘nalishida 8 ta topshiriq ishlab chiqilib, ularda ekotizimlar, genetik modifikatsiyalangan mahsulotlar, inson salomatligi, fotosintez va global iqlim o‘zgarishi kabi masalalar qamrab olindi.

Kimyo yo‘nalishida 7 ta topshiriq suvning ifloslanishi va uni tozalash usullari, kislotali yomg‘irlar, polimerlar va plastik chiqindilar, eritmalar konsentratsiyasi kabi mavzularga bag‘ishlandi.

Fizika yo‘nalishida 6 ta topshiriq qayta tiklanuvchi energiya manbalari, optik hodisalar, elektr energiyasidan samarali foydalanish, harakat va kuch kabi mavzular asosida ishlab chiqildi.

Geofizika yo‘nalishida esa 4 ta topshiriq yer qobig‘idagi o‘zgarishlar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atmosferadagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq vaziyatlar asosida shakllantirildi.

Topshiriqlarning mazmuni real hayotiy vaziyat bilan bog‘langan bo‘lib, ularda talabadan tayyor formulani qo‘llash yoki ma’lumotni yoddan aytish emas, balki mavjud axborotni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, dalillarni taqqoslash va ilmiy asoslangan xulosa chiqarish talab qilindi.

Kontekst topshiriqlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish metodikasi

Kontekst topshiriqlarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish uch bosqichda tashkil etildi: diagnostik, interfaol va simulyativ bosqichlar.

Diagnostik bosqich

Mazkur bosqichda talabalarning dastlabki tahliliy fikrlash, ma’lumotlarni tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish ko‘nikmalari diagnostik topshiriqlar orqali aniqlandi.

Diagnostika natijalari keyingi ta’lim jarayonini rejalashtirish uchun boshlang‘ich ma’lumot sifatida xizmat qildi. Bunda talabaning faqat to‘g‘ri javobni topishi emas, balki javobni qanday asoslagani va qanday mantiqiy yo‘l bilan xulosaga kelgani ham hisobga olindi.

Interfaol bosqich

Mazkur bosqichda kontekst topshiriqlar kichik guruhlarda muhokama qilindi. Talabalar vaziyatni tahlil qilish, muammoni aniqlash, mavjud dalillarni taqqoslash va o‘z fikrlarini ilmiy asoslashga yo‘naltirildi.

Bunday faoliyat jarayonida talaba tayyor javobni izlash bilan cheklanmay, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Qaysi dalil bu xulosani tasdiqlaydi?” kabi savollarga javob izlaydi. Natijada ilmiy fikrlash va dalillash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Simulyativ bosqich

Simulyativ bosqichda talabalar o‘zlari o‘quvchilar uchun kontekst topshiriqlarini ishlab chiqadilar. Bunda ular real hayotiy vaziyatni tanlash, muammoli savollar tuzish, zarur ma’lumotlarni shakllantirish, topshiriqning kognitiv darajasini belgilash va baholash mezonlarini ishlab chiqishni amalga oshiradilar.

Mazkur bosqich bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy-metodik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Chunki talaba nafaqat tayyor topshiriqni bajaradi, balki uni loyihalash va o‘quv maqsadiga moslashtirishni ham o‘rganadi.

Kontekst topshiriqlarning namunaviy ko‘rinishlari

1-namuna. “Havo ifloslanishini tahlil qilish”

Yirik shaharda transport vositalari sonining keskin ortishi natijasida atmosferaga chiqarilayotgan ayrim gazlar miqdori ko‘paydi. Kuzatuv natijalarida karbonat angidrid miqdori 420 ppm, oltingugurt dioksidi 0,08 ppm, azot dioksidi esa 0,12 ppm miqdorida qayd etilgan. Mazkur gazlarning asosiy manbalari sifatida yonish jarayonlari, sanoat chiqindilari va avtomobil chiqindilari ko‘rsatilgan.

Topshiriqlar:

1. Mazkur vaziyatda inson salomatligi uchun xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan gazlarni aniqlang va javobingizni asoslang.
2. Azot dioksidi miqdorining ortishi qanday ekologik oqibatlarga olib kelishi mumkin?
3. Atmosferadagi zararli gazlar miqdorini kamaytirish uchun qanday choralarni taklif qilasiz?
4. Siz taklif qilgan choralardan qaysi biri qisqa muddatda, qaysi biri uzoq muddatda samarali bo‘lishi mumkinligini izohlang.

Kognitiv faoliyat darajasi: qo‘llash va mulohaza yuritish.

Mazkur topshiriqda kimyo, ekologiya va biologiya fanlari o‘rtasidagi bog‘liqlik namoyon bo‘ladi. Talaba gazlarning xususiyatlari haqidagi bilimlarini ekologik va sog‘liq bilan bog‘liq real vaziyatga tatbiq etadi.

2-namuna. “Suv havzasida baliqlar sonining kamayishi”

Mahalliy ko‘lda baliqlar soni keskin kamaygani kuzatildi. Tadqiqot natijalarida suvdagi erigan kislorod miqdori 3 mg/L ekani, normal sharoitda esa ushbu ko‘rsatkich 6–8 mg/L atrofida bo‘lishi kerakligi aniqlandi. Suv harorati 30°C ni tashkil etdi.

Topshiriqlar:

1. Baliqlar sonining kamayishiga olib kelgan asosiy omilni aniqlang.
2. Suv haroratining ortishi undagi erigan kislorod miqdoriga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin?
3. Mazkur vaziyatda biologik organizmlar uchun qanday xavf yuzaga kelishini tushuntiring.
4. Suv havzasining ekologik holatini yaxshilash uchun amaliy choralarni taklif qiling.

Kognitiv faoliyat darajasi: qo‘llash va mulohaza yuritish.

Mazkur topshiriq kimyo, biologiya va ekologiya fanlarining o‘zaro integratsiyasini ta’minlaydi. Talaba suvning fizik-kimyoviy xususiyatlari haqidagi bilimlarini ekologik vaziyatni tahlil qilishda qo‘llaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash tadqiqotiga tayyorlashga yo‘naltirilgan tabiiy fanlarga oid 25 ta kontekst topshiriq tizimi ishlab chiqildi;

topshiriqlar tabiiy fanlarning asosiy yo‘nalishlari hamda kognitiv faoliyat darajalari bilan uyg‘unlashtirildi;

kontekst topshiriqlarni ta’lim jarayoniga tatbiq etishning diagnostik, interfaol va simulyativ bosqichlardan iborat metodikasi asoslandi;

talabalarning muammoni aniqlash, gipoteza ilgari surish, ma’lumotlarni tahlil qilish, ilmiy xulosa chiqarish va yechimni baholash ko‘nikmalarini kompleks baholashga yo‘naltirilgan vizual-analitik yondashuv taklif etildi.

Talabalarning rivojlanish dinamikasini vizual aks ettirishda “Spider Chart” yoki o‘rgimchak diagrammasidan foydalanish tavsiya etildi. Mazkur vosita kompetensiyalarning turli yo‘nalishlari bo‘yicha dastlabki va yakuniy natijalarni taqqoslash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. 25 ta kontekst topshiriqni tizimli ravishda qo‘llash natijasida talabalarning kognitiv faoliyat ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, bilish darajasida 15 foiz, qo‘llash darajasida 30 foiz, mulohaza yuritish darajasida esa 45 foiz o‘sish qayd etilgan.

Eng yuqori o‘sishning mulohaza yuritish darajasida kuzatilishi kontekst topshiriqlarning o‘ziga xos xususiyati bilan izohlanadi. Bunday topshiriqlar talabadan tayyor bilimni takrorlashdan ko‘ra, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, dalillarni taqqoslash, “Nima uchun?” va “Qanday qilib?” kabi savollarga mantiqiy asoslangan javob berishni talab qiladi.

Bundan tashqari, talabalarda grafik va jadval ko‘rinishidagi axborotlarni tahlil qilish, ma’lumotlar asosida xulosa chiqarish hamda fanlararo bog‘liqliklarni aniqlash ko‘nikmalarining rivojlangani kuzatildi. Masalan, diffuziya hodisasini kimyoviy jarayon sifatida emas, balki fizik va biologik jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilish talabalarning integrativ fikrlash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Ishlab chiqilgan kontekst topshiriqlar tizimi va ularni qo‘llash metodikasi Navoiy davlat universiteti, Urganch davlat pedagogika instituti va Termiz davlat pedagogika institutlarida pedagogik tajriba-sinov ishlari orqali sinovdan o‘tkazildi.

Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, tajriba guruhlarida tabiiy-ilmiy hodisalarni tushuntirish, ilmiy dalillarni tahlil qilish va fanlararo bog‘lanishlarni aniqlash ko‘nikmalarida ijobiy dinamika kuzatildi. Natijalarning matematik-statistik tahlili tajriba va nazorat guruhlari ko‘rsatkichlari o‘rtasida farq mavjudligini ko‘rsatdi.

Amaliy tavsiyalar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining kimyo ta’limi yo‘nalishlari o‘quv fanlari mazmuniga TIMSS mazmuniy yo‘nalishlari va kognitiv faoliyat darajalariga mos kontekst topshiriqlar majmuasini kiritish.
2. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini kontekst topshiriqlarni mustaqil ishlab chiqish, tahlil qilish va baholashga o‘rgatishda diagnostik-interfaol-simulyativ metodikadan muntazam foydalanish.
3. Kontekst topshiriqlarni ishlab chiqishda real hayotiy vaziyatlar, ekologik muammolar, sog‘liqni saqlash, energetika, suv va havo sifati kabi dolzarb mavzulardan foydalanish.
4. Talabalarning kompetensiyaviy o‘sishini baholashda muammoni aniqlash, ma’lumotlarni tahlil qilish, ilmiy dalillash, xulosa chiqarish va yechimni baholash kabi mezonlardan foydalanish.
5. Talabalarning rivojlanish dinamikasini ko‘rsatishda “Spider Chart” kabi vizual-analitik vositalardan foydalanish.
6. Bo‘lajak o‘qituvchilarga nafaqat TIMSS tipidagi tayyor topshiriqlarni bajarish, balki ularni mustaqil loyihalash va o‘quvchilarning yosh hamda kognitiv xususiyatlariga moslashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Xulosa. Bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarini TIMSS xalqaro baholash tadqiqotiga tayyorlashda tabiiy fanlarga oid kontekst topshiriqlardan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini real hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish, ilmiy dalillarni tahlil qilish, muammoni aniqlash, asoslangan xulosa chiqarish va fanlararo bog‘liqliklarni ko‘rish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan 25 ta kontekst topshiriq hamda ularni diagnostik, interfaol va simulyativ bosqichlar asosida qo‘llash metodikasi bo‘lajak kimyo o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirish uchun amaliy imkoniyat yaratadi.

Kontekst topshiriqlarning asosiy afzalligi shundaki, ular talabani tayyor bilimni takrorlashdan ko‘ra, bilimni yangi vaziyatda qo‘llash, dalillarni tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va ilmiy asoslangan qaror qabul qilishga undaydi. Shu jihatdan mazkur metodika nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash, balki ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatida zamonaviy

baholash vositalaridan samarali foydalanish kompetensiyasini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Shu sababli kontekst topshiriqlar tizimini pedagogika oliy ta’lim muassasalarining kimyo ta’limi yo‘nalishlarida keng qo‘llash, ularni o‘quv fanlari mazmuniga integratsiya qilish va bo‘lajak o‘qituvchilarning bunday topshiriqlarni mustaqil ishlab chiqish kompetensiyasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”.
2. Mullis I. V. S., Martin M. O. *TIMSS 2019 Assessment Frameworks*. TIMSS & PIRLS International Study Center, Lynch School of Education, Boston College, IEA, 2019. – 68 p.
3. Shlyayxer A. *Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? Muvaffaqiyatli islohotlar va yuqori natijalar*. – Toshkent, 2022. – 344 b.
4. Kovaleva G. S., Pentin A. Yu., Semyonova G. Yu., Nikishova Ye. A., Vergeles K. P., Zagranichnaya N. A. *Yestestvenno-nauchnaya gramotnost: Sbornik etalonnyx zadaniy*. Vypusk 2. – 2022.
5. Vergeles K. P., Pentin A. Yu. Formirovaniye i otsenka yestestvenno-nauchnoy gramotnosti obuchayushchixsya: kontekstnyye zadaniya // *Otechestvennaya i zarubejnaya pedagogika*. – 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qarori. “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
7. Shernazarov I. E., Maxmudova D. M., Urinbayeva Z. M., Asadullayeva G. A. *Xalqaro baholash tadqiqotlari (TIMSS xalqaro baholash dasturi asosida)*. Darslik. – Toshkent: Zamon Poligraf, 2026.
8. Shernazarov I. E., Tilyabov M. U., Asadullayeva G. A., Yusupova N. A. *Kimyo fanini o‘qitishda xalqaro baholash usullaridan foydalanish*. – Toshkent: IMPRESS MEDIA, 2025. – 375 b.

UDK 159.922.8:37.015.3

O‘SMIRLAR AQLIY TARAQQIYOTI VA QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ummatkulova Nigora Umarqulovna,
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

O‘smirlik davri insonning yosh rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Aynan shu bosqichda aqliy, ijtimoiy va shaxsiy o‘zgarishlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda yuz beradi. Psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan o‘smirlik yoshidagi shaxsning aqliy taraqqiyoti va qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu davrda abstrakt fikrlash, muammolarni hal qilish, tanqidiy tahlil qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv jarayonlar shakllanib boradi. Mazkur jarayonlar o‘smirlarni keyingi akademik va kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Kognitivistika va neyropsixologiya sohasidagi tadqiqotlar o‘smirlik davrida miya tuzilishi va funksiyalarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berishini ko‘rsatadi. Ushbu o‘zgarishlar intellektual rivojlanishning biologik asoslarini tashkil etadi. O‘smirlik davri pedagogik psixologiya tadqiqotlarida kognitiv rivojlanish uchun muhim bosqich sifatida baholanib, bu davrda shakllanadigan intellektual imkoniyatlar shaxsning keyingi rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [3]. Shu sababli zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri o‘smirlarning kognitiv imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishdan iboratdir.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ta’lim mazmuni va metodlarini o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

L. S. Vigotskiy konsepsiyasiga ko‘ra, ijtimoiy muhit va mazmunli pedagogik hamkorlik aqliy taraqqiyotning muhim omillaridan biridir. Mazkur yondashuv ta’lim jarayonini shunchaki bilimlarni uzatish jarayoni emas, balki o‘quvchining kognitiv rivojlanishini ta’minlovchi faol jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. O‘zbek psixologiyasida V. M. Karimova o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini milliy kontekstda o‘rganib, oilaviy muhit, maktab jamoasi va shaxsiy motivatsiyaning rivojlanish jarayonidagi ahamiyatini ta’kidlaydi [1].

H. Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasi o‘smirlarning qobiliyatlarini baholash va rivojlantirishga yangicha yondashuvni taklif etadi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, intellekt yagona o‘lchamli hodisa emas, balki lingvistik, mantiqiy-matematik, musiqiy, fazoviy, kinestetik, shaxslararo, shaxs ichki va tabiat bilan bog‘liq qobiliyatlarning o‘zaro nisbatan mustaqil majmuasidan iborat.

R. J. Sternbergning triaxik intellekt modeli esa analitik, ijodiy va amaliy intellektni ajratib ko‘rsatadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchining faqat akademik bilimlarini emas, balki ijodiy fikrlashi va real hayotiy vaziyatlarda bilimlardan foydalanish qobiliyatini ham rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

D. F. Halpernning tanqidiy fikrlashga oid tadqiqotlari maqsadli tashkil etilgan ta’lim orqali o‘smirlarning tahliliy va metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Z. T. Nishonova esa o‘smirlarning intellektual rivojlanishini milliy ta’lim an’analari bilan bog‘liq holda ko‘rib, individual rivojlanish farqlarini hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [3].

Mazkur tadqiqot ilmiy adabiyotlarni nazariy va qiyosiy tahlil qilish usullariga asoslanadi. O‘smirlik davrida kognitiv rivojlanishni izohlovchi psixologik nazariyalar tahlil qilinib, ularning pedagogik amaliyot bilan bog‘liqligi yoritiladi.

J. Piaje kognitiv rivojlanish konsepsiyasida taxminan 11–12 yoshdan boshlab o‘smirlar formal operatsiyalar bosqichiga o‘tishini ta’kidlaydi. Ushbu bosqichda ular gipotezalar shakllantirish, mavhum tushunchalar bilan ishlash va deduktiv xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [5]. Mazkur o‘tish bilimlarning miqdoriy ko‘payishinigina emas, balki kognitiv faoliyatning sifat jihatdan yangi shakllarini ham anglatadi.

Adabiyotlar tahlili o‘smirlik davrini aqliy rivojlanish uchun muhim bosqich sifatida tavsiflash imkonini beradi. Bu davrda rejalashtirish, xatti-harakatlarni nazorat qilish va kognitiv jarayonlarni ongli ravishda boshqarish bilan bog‘liq funksiyalar takomillashib boradi. Biroq aqliy rivojlanish barcha o‘smirlarda bir xil sur’atda kechmaydi. Individual farqlar irsiy moyillik, oilaviy va ijtimoiy muhit, ta’lim sifati hamda shaxsiy motivatsiyaning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi [1].

Shu sababli o‘smirlarning aqliy rivojlanishiga nisbatan bir xil va standartlashtirilgan yondashuv har doim ham samarali bo‘lavermaydi. Pedagogik amaliyotda har bir o‘quvchining individual rivojlanish xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Metakognitsiya, ya’ni shaxsning o‘z fikrlash jarayonlarini anglash va tartibga solish qobiliyati, o‘smirlik davridagi kognitiv yetuklikning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitida o‘smirlar muammolarni tahlil qilish, dalillarni baholash va asoslangan xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bunday rivojlanish o‘z-o‘zidan yuzaga kelmaydi, balki tizimli pedagogik yo‘naltirish, mustaqil fikrlash uchun sharoit yaratish va bilish motivatsiyasini rag‘batlantirishni talab etadi.

Gardnerning ko‘p intellekt nazariyasini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish turli qobiliyat turlarini aniqlash va ularga mos rivojlantiruvchi yondashuvlarni qo‘llash imkonini beradi. Masalan, lingvistik qobiliyati yuqori bo‘lgan o‘smirlar og‘zaki va yozma topshiriqlar orqali, fazoviy yoki kinestetik qobiliyati kuchli bo‘lgan o‘quvchilar esa amaliy va ko‘rgazmali faoliyat orqali yanada samarali rivojlanishi mumkin.

Sternbergning triaxik modeli ta’lim jarayonida analitik intellekt bilan bir qatorda ijodiy va amaliy intellektni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Bu esa faqat akademik bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan ta’lim o‘smirlarning barcha intellektual imkoniyatlarini to‘liq rivojlantirish uchun yetarli emasligini anglatadi.

O‘zbek pedagogika fanida J. Hasanboyev va S. Tursunov interfaol hamda faoliyatga asoslangan ta’lim metodlarining o‘quvchilar aqliy rivojlanishidagi ahamiyatini ta’kidlaydilar [4]. Mazkur yondashuv o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

D. B. Elkoninning nazariy qarashlariga ko‘ra, o‘smirlik davrida tengdoshlar bilan mazmunli muloqot nafaqat ijtimoiy, balki kognitiv rivojlanishga ham xizmat qiladi [6]. Muloqot jarayonida o‘z fikrini ifodalash, uni asoslash, boshqa nuqtai nazarlarni tinglash va ularga munosabat bildirish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan tengdoshlar bilan hamkorlikdagi faoliyat o‘smirlarning aqliy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhim pedagogik vositalardan biri hisoblanadi.

O‘smirlik davrida ijodiy tafakkur va nostandart muammolarni hal qilish qobiliyati ham jadal rivojlanadi. O‘smirlar turli g‘oyalarni taqqoslash, muqobil nuqtai nazarlarni birlashtirish va yangi yechimlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday qobiliyatlarni rivojlantirish uchun o‘quvchiga xato qilish va xatolaridan o‘rganish imkonini beruvchi psixologik xavfsiz ta’lim muhitini yaratish muhimdir. Bunday sharoitda o‘smir o‘z fikrini erkin ifodalash, savollar berish va nostandart yechimlarni taklif etishga ko‘proq moyil bo‘ladi.

O‘smirlarning aqliy rivojlanishida hissiy holat va kognitiv jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi ham muhim ahamiyatga ega. Stress, tashvish va kuchli ijtimoiy bosim diqqat, xotira hamda muammolarni hal qilish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aksincha, hissiy barqarorlik va psixologik xavfsizlik o‘smirning mavjud kognitiv imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga yordam beradi. Shu sababli o‘smirlarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish faqat didaktik vazifa sifatida emas, balki shaxsni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashni ham qamrab oluvchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik davri shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda abstrakt tafakkur, metakognitsiya, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur va muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatlari jadal rivojlanadi. Piaje, Vigotskiy, Elkonin, Gardner, Sternberg va Halpernning nazariy qarashlari o‘smirlar intellektining ko‘p qirrali tabiatini ochib beradi va ularni rivojlantirishda yagona standartlashtirilgan yondashuvning yetarli emasligini ko‘rsatadi.

Ta’lim amaliyotida o‘smirlarning aqliy qobiliyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun ularni bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish, ichki motivatsiyani shakllantirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash uchun sharoit yaratish hamda oila va ijtimoiy muhitning ta’sirini e’tiborga olish

muhimdir. Mazkur yondashuv o‘smirlarning intellektual salohiyatini izchil rivojlantirish va kelgusidagi ta’lim hamda kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimova V. M. Yosh psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2012. – 248 b.
2. Выготский Л. С. Психология развития человека. – Москва: Смысл, 2005. – 1136 с.
3. Nishonova Z. T. O‘smirlar psixologiyasi va ularning intellektual rivojlanishi // Psixologiya va pedagogika. – 2018. – № 3. – B. 45–52.
4. Hasanboyev J., Tursunov S. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2010. – 352 b.
5. Piaje J. Intellekt psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 312 b.
6. Elkonin D. B. Izbrannye psikhologicheskie trudy. – Moskva: Pedagogika, 1989. – 318 s.

UDK: 159.9.072:316.6

INQIROZLI VAZIYATLARDA O‘SMIRLARNING YASHIRIN EMOTSIONAL KECHINMALARINI PROYEKTIV METODIKALAR YORDAMIDA ANIQLASH

To‘rayeva Nigora Boboyor qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

O‘smirlik davri inson hayotidagi muhim rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lib, unda biologik, fiziologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar jadal kechadi. Mazkur davrda o‘smirning o‘zligini anglashi, mustaqil fikrlashi, tengdoshlari bilan munosabatlari va jamiyatdagi o‘z o‘rnini belgilash jarayonlari faollashadi. Ushbu o‘zgarishlar ayrim hollarda emotsional beqarorlik, kayfiyatning tez almashishi, xavotir, o‘z-o‘zini baholashdagi nomutanosiblik va ichki ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Inqirozli vaziyatlar o‘smirning psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Oilaviy nizolar, tengdoshlar bilan munosabatlardagi muammolar, ta’limdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy moslashuvdagi muammolar va boshqa stressogen omillar natijasida qo‘rquv, xavotir, tushkunlik, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy chekinish kabi holatlar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

O‘smirlar o‘zlarining ichki kechinmalarini har doim ham ochiq ifodalay olmaydilar. Ayrim hollarda ular o‘z hissiyotlarini yashirishga, muammolarini mustaqil hal qilishga yoki atrofdagilardan emotsional holatini berkitishga intiladilar. Shu sababli o‘smirning psixologik holatini faqat suhbat yoki bevosita kuzatish asosida baholash yetarli bo‘lmasligi mumkin. Bunday vaziyatlarda qo‘shimcha psixodiagnostik vositalardan, jumladan, proyektiv metodikalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smirlik davrida shaxsning taqlidchanligi, hissiyotga beriluvchanligi, tashqi ta’sirlarga sezgirligi va o‘z-o‘zini anglash jarayonining faollashuvi kuzatiladi. Bu davrda biologik va fiziologik o‘zgarishlar bilan bir qatorda psixik jarayonlarda ham sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. O‘smirning o‘z tashqi ko‘rinishi, tengdoshlari bilan munosabatlari, ta’limdagi muvaffaqiyatlari va atrofdagilarning unga bergan bahosi haqidagi tasavvurlari uning emotsional holatiga ta’sir qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, inqirozli vaziyatlarda o‘smirlarning yashirin emotsional kechinmalarini o‘z vaqtida aniqlash va ularga mos psixologik yordam ko‘rsatish muhim vazifalardan biridir.

O‘smirlik davrida shaxsning psixologik rivojlanishi murakkab va ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. Mazkur davrda o‘smir mustaqillikka intiladi, o‘z fikri va

pozitsiyasini himoya qilishga harakat qiladi. Shu bilan birga, uning emotsional holati tashqi baho va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan sezgir bo‘lib qoladi.

Inqirozli vaziyatlarda o‘smirning ichki kechinmalari turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Jumladan, xavotir, qo‘rquv, stress, yolg‘izlik hissi, o‘ziga ishonchsizlik, tajovuzkorlik, ijtimoiy munosabatlardan chekinish va tushkun kayfiyat shular jumlasidandir. Biroq bunday holatlar har doim ham tashqi xatti-harakatlarda yaqqol ko‘rinmasligi mumkin.

Shuning uchun psixologik diagnostika jarayonida o‘smirning verbal javoblari bilan bir qatorda uning obrazli fikrlashi, ramziy ifodalari, vaziyatni talqin qilishi va ijodiy faoliyatidagi individual xususiyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Proyektiv metodikalar shaxsning ichki kechinmalari, ehtiyojlari, munosabatlari va emotsional holatini bilvosita o‘rganishga yo‘naltirilgan psixodiagnostik vositalardan biridir. Bunday metodikalarda sinaluvchiga nisbatan noaniq yoki turlicha talqin qilinishi mumkin bo‘lgan topshiriqlar beriladi. Natijada shaxs o‘z tajribasi va munosabatlarini berilgan materialga ma’lum darajada aks ettirishi mumkin.

Inqirozli vaziyatlarda o‘smirlar bilan ishlashda proyektiv metodikalarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

1. Grafik metodikalar

Grafik metodikalar o‘smirning o‘zini, atrof-muhitni va turli vaziyatlarni qanday qabul qilishi haqida qo‘shimcha diagnostik ma’lumot olish imkonini beradi.

“Mavjud bo‘lmagan hayvon” metodikasi. Mazkur metodika orqali shaxsning o‘zini namoyon qilish xususiyatlari, himoyalanishga bo‘lgan ehtiyoji, tajovuzkorlik va xavotir bilan bog‘liq ayrim belgilarini o‘rganish mumkin. Biroq alohida grafik belgi yoki rasm elementi mustaqil ravishda muayyan psixologik holatning aniq belgisi sifatida talqin qilinmasligi lozim.

“Daraxt” metodikasi (Koch testi). Ushbu metodika daraxt obrazidan foydalanish orqali shaxsning o‘zini ifodalashi va emotsional tajribalarini o‘rganishga xizmat qiladi. Rasmning umumiy tuzilishi, daraxtning joylashuvi, shakli va boshqa grafik xususiyatlar psixologik tahlilning qo‘shimcha materiali sifatida ko‘rib chiqiladi.

“Uy–daraxt–odam” metodikasi. Mazkur metodika shaxsning o‘zi, atrof-muhit va ijtimoiy munosabatlar haqidagi tasavvurlarini o‘rganishda qo‘llanadi. Rasmning umumiy mazmuni, obyektlarning o‘zaro joylashuvi va boshqa xususiyatlari psixologning klinik suhbat hamda boshqa diagnostik ma’lumotlari bilan birgalikda tahlil qilinadi.

“Yomg‘ir ostidagi odam” metodikasi. Ushbu metodika stressogen va qiyin vaziyatlarni idrok etish, ularga munosabat bildirish hamda mavjud psixologik resurslarni o‘rganish uchun qo‘llanadi. Rasmda himoya vositalarining mavjudligi yoki yo‘qligi, obrazning umumiy holati va vaziyat tasviri qo‘shimcha diagnostik material sifatida baholanadi.

2. Verbal proyektiv metodikalar

Verbal proyektiv metodikalar shaxsning fikrlari, munosabatlari va emotsional kechinmalarini so‘z orqali ifodalash imkoniyatiga asoslanadi.

“Tugallanmagan gaplar” metodikasi. Ushbu metodikada sinaluvchiga turli mazmundagi gaplarning boshlanish qismi berilib, ularni o‘z fikri bilan yakunlash taklif etiladi. Masalan, “Meni eng ko‘p xavotirga soladigan narsa...”, “Gohida men...” kabi gaplar o‘smirning o‘z tajribasi va munosabatlarini verbal shaklda ifodalashiga imkon beradi.

Mavzuli appersepsiya testi (TAT). Mazkur metodikada turli ijtimoiy va emotsional vaziyatlarni aks ettiruvchi rasmlar asosida hikoya tuzish so‘raladi. O‘smirning voqealarni talqin qilishi, qahramonlarning hissiyotlarini izohlashi, konflikt va uning yechimini tasvirlashi uning individual tajribasi va munosabatlarini o‘rganish uchun qo‘shimcha ma’lumot berishi mumkin.

3. Rang va ramziy metodikalar

Lyusher ranglar testi ranglarni tanlash va ularning ketma-ketligi asosida psixologik holatni baholashga qaratilgan metodikalardan biridir. Biroq mazkur metodika natijalarini stress, xavotir yoki boshqa klinik holatlarning mustaqil va qat’iy diagnostik mezoni sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Rang tanloviga ko‘plab individual, madaniy va vaziyatga oid omillar ta’sir qilishi mumkin.

Shu sababli rang va grafik proyektiv metodikalar natijalari suhbat, kuzatish, standartlashtirilgan psixodiagnostik vositalar va boshqa ma’lumotlar bilan kompleks tarzda tahlil qilinishi lozim.

Inqirozli vaziyatlarda o‘smirlar bilan psixodiagnostik ish olib borishda bir qator muhim shartlarga rioya qilish zarur. Avvalo, diagnostika jarayonida o‘smir uchun xavfsiz, ishonchli va baholashdan xoli psixologik muhit yaratilishi kerak. Psixolog o‘smirning shaxsiy chegaralari, maxfiylik va diagnostik etikaga rioya qilishi muhim.

Ikkinchidan, proyektiv metodikalarning alohida natijalariga asoslanib qat’iy xulosalar chiqarishdan saqlanish lozim. Rasmning ma’lum bir elementi, rang yoki obrazning o‘zi xavotir, depressiya yoki travmatik tajribaning aniq belgisi sifatida baholanmasligi kerak. Diagnostik xulosa bir nechta manbadan olingan ma’lumotlarni taqqoslash asosida shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, aniqlangan emotsional qiyinchiliklar mavjud bo‘lsa, o‘smirga mos psixologik yordam dasturi ishlab chiqilishi zarur. Bunda psixologik maslahat, emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, stressni yengish strategiyalarini shakllantirish va zarur hollarda boshqa mutaxassislarga yo‘naltirish kabi choralar qo‘llanishi mumkin.

O‘smirlik davri biologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar jadal kechadigan murakkab rivojlanish bosqichidir. Inqirozli vaziyatlar ta’sirida o‘smirlarda xavotir, qo‘rquv, stress, ichki ziddiyat va boshqa emotsional kechinmalar yuzaga kelishi mumkin. Bunday kechinmalar har doim ham ochiq xatti-harakatlarda namoyon

bo‘lmagani sababli ularni aniqlashda kompleks psixodiagnostik yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Proyektiv metodikalar o‘smirning ichki tajribasi, emotsional munosabatlari va individual kechinmalarini o‘rganishda qo‘shimcha diagnostik imkoniyatlarni yaratadi. Grafik, verbal va rangga asoslangan metodikalardan foydalanish psixologga o‘smirning psixologik holati haqida qo‘shimcha ma’lumot olish imkonini beradi.

Shu bilan birga, proyektiv metodikalar natijalarini mutlaq diagnostik mezon sifatida qabul qilish mumkin emas. Ularni suhbat, kuzatish va standartlashtirilgan psixodiagnostik vositalar natijalari bilan birgalikda tahlil qilish lozim. Ayniqsa, inqirozli vaziyatlarda o‘smirning xavfsizligi, shaxsiy daxlsizligi va psixologik farovonligini ta’minlash ustuvor vazifa hisoblanadi.

Ota-onalar, pedagoglar va maktab psixologlarining hamkorligi o‘smirlarning emotsional muammolarini erta aniqlash va ularga o‘z vaqtida psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyatini oshiradi. Shu bois ta’lim muassasalarida o‘smirlarning emotsional holatini muntazam o‘rganish, psixologik profilaktika va maslahat xizmatlarini takomillashtirish muhim amaliy vazifa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fayziyev I.Sh., Toshpo‘latov A. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikdan oldingi va keyingi siyosiy hayoti // *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*. – 2022. – Vol. 10. – B. 31–34.
2. Toshpo‘latov A. Shaxs psixodiagnostikasida proyektiv metodikalardan foydalanish // *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*. – 2023. – №3(5), Part 2. – B. 170–178.
3. Temirov J., Toshpo‘latov A. Tyutor pedagogik faoliyatini tashkil etishning psixologik asoslari // *Наука и инновация*. – 2023. – №1(28). – B. 29–32.
4. Raximova R.B. Ta’lim darajasi samaradorligini oshirishda xorijiy davlatlar tajribalaridan foydalanish // *Международный научный журнал «Новости образования в XXI веке»*. – 2023. – №6(100), 1-qism. – B. 490–491.
5. Nomozova M.T. Hozirgi davrda jahon mamlakatlari ta’lim tizimi va pedagogika fani rivoji // *Международный научный журнал «Новости образования, исследования в XXI веке»*. – 2023. – №8(100), 2-qism. – B. 703.

UDK: 316.356.2:159.9

OILA MUSTAHKAMLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Xo‘jamova Shohida Alpomish qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Oila insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadigan ijtimoiy muhit hisoblanadi. Inson dunyoga kelganidan boshlab oiladagi munosabatlarni kuzatadi, oila a’zolarining bir-biriga bo‘lgan munosabatini anglaydi hamda muomala shakllari, vazifalar va mas’uliyat haqidagi dastlabki tushunchalarni o‘zlashtiradi. Shu jarayonda uning ongida oilaviy hayotning tashkil etilishi, oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar va oiladagi rollar haqida dastlabki tasavvurlar shakllanadi.

Mazkur tasavvurlar o‘zgarmas holda qolmaydi. Shaxs ulg‘aygani sari uning hayotiy tajribasi kengayadi, ta’lim va ijtimoiy muhit ta’sirida qarashlari o‘zgaradi, oilaga oid tushunchalari boyib boradi. Milliy qadriyatlar, an’analar, jamiyatda mavjud qarashlar va shaxsiy tajriba ham ushbu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Natijada inson voyaga yetganida oilaviy hayot haqida muayyan qarashlar tizimiga ega bo‘ladi.

Mustaqil hayotga kirish va oila qurish jarayonida ushbu tajriba yangi munosabatlar tizimiga olib kiriladi. Yangi oilani tashkil etayotgan ikki shaxsning har biri o‘z oilasida shakllangan qarashlari, qadriyatlari, odatlari, oilaviy rollar haqidagi tushunchalari va ijtimoiy stereotiplari bilan yangi munosabatlar tizimiga kirib keladi. Shu sababli yangi oilaning shakllanishi faqat ikki shaxsning birgalikdagi hayoti emas, balki avvalgi ijtimoiy tajribalarning o‘zaro moslashuvi jarayoni sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Oilaviy hayot haqidagi mavjud tasavvurlarni o‘z-o‘zidan salbiy hodisa sifatida baholab bo‘lmaydi. Aksincha, insonning oilaviy munosabatlar haqidagi muayyan qarashlarga ega bo‘lishi yangi hayot sharoitini anglash va o‘z xatti-harakatlarini tashkil etishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq ushbu tasavvurlar o‘zgarmas qoida sifatida qabul qilinib, real vaziyatdan qat’i nazar “oila faqat shunday bo‘lishi kerak” degan qat’iy mezonga aylansa, ularning mazmuni muammoli tus olishi mumkin.

Shu jihatdan oilaviy mustahkamlikni o‘rganishda ijtimoiy-madaniy omillarning mavjudligini aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, ularning shaxs tomonidan qanday qabul qilinishi, qanday talqin qilinishi va oilaviy munosabatlarda qanday namoyon bo‘lishini aniqlash muhimdir.

Ijtimoiy-madaniy muhit shaxsning oilaviy hayot haqidagi qarashlari shakllanishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Oila, nikoh, ota-onalik, qarindoshlik, er-xotinning vazifalari va katta avlodning oiladagi o‘rni kabi masalalar bo‘yicha jamiyatda shakllangan qarashlar avloddan avlodga o‘tib boradi. Shaxs ushbu qarashlarning bir qismini oiladagi kundalik munosabatlarni kuzatish orqali, boshqa qismini esa ijtimoiy muhit va shaxsiy tajriba orqali o‘zlashtiradi.

Oilaviy qadriyatlarning avloddan avlodga uzatilishi oilaning ijtimoiy davomiyligini ta’minlovchi muhim jarayonlardan biridir. Bunda faqat ma’lum odat va marosimlarning saqlanishi emas, balki oila haqidagi tasavvurlar, mas’uliyat, o‘zaro munosabat va oilaviy rollarning mazmuni ham keyingi avlodga yetkaziladi.

Mazkur holat xorijiy tadqiqotlarda ham madaniy kontekst bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. N. Nordin, W. K. Halford, F. K. Barlow va K. A. Mastor tomonidan 2023-yilda Malay musulmon juftliklari ishtirokida olib borilgan tadqiqotda juftlik rishtalari, oilaviy mas’uliyat, munosabatlarga sarflanadigan sa’y-harakat va diniy qadriyatlar bilan bog‘liq standartlar oilaviy munosabatlarda muhim o‘rin tutishi ko‘rsatilgan [4]. Tadqiqotda diniy qadriyatlar yuqori darajada ma’qullangan standartlardan biri sifatida qayd etilgan.

Mazkur natija oilaviy munosabatlarda qadriyatlarning mavjudligi bilan bir qatorda, ularning muayyan madaniy muhitda qanday mazmun kasb etishi ham muhimligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan bir avlodda shakllangan oilaviy qarashlarni keyingi avlodga aynan o‘sha ko‘rinishda ko‘chirishdan ko‘ra, ularning mazmunini saqlagan holda yangi ijtimoiy sharoitda qayta anglash muhimdir. Har bir davrning ijtimoiy sharoiti o‘ziga xos bo‘lganligi sababli avvalgi avlod tajribasi keyingi avlod hayotida aynan o‘sha shaklda namoyon bo‘lishi shart emas.

Har bir insonning hayotiy tajribasi o‘ziga xos bo‘lgani kabi, har bir oilaning ichki sharoiti ham bir-biridan farq qiladi. Shu sababli bir oilada shakllangan munosabat modelini boshqa oilaga o‘zgartirmasdan ko‘chirish har doim ham maqsadga muvofiq emas. Masalan, oiladagi vazifalar taqsimoti, qarindoshlar bilan munosabat, farzand tarbiyasi yoki er-xotinning kundalik mas’uliyatlari oilaning real sharoitiga qarab turlicha tashkil etilishi mumkin.

Oilaviy munosabatlardagi muammo ko‘pincha qarashlarning mavjudligidan emas, balki ularning qat’iy stereotipga aylanishidan kelib chiqishi mumkin. “Erkak doimo shunday qilishi kerak”, “ayolning vazifasi faqat mana shundan iborat” kabi qat’iy qarashlar oila a’zolarining individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishni cheklashi mumkin. Natijada ijtimoiy-madaniy muhitda shakllangan me’yorlar real oilaviy vaziyatlarga mos kelmay qolishi ehtimoli yuzaga keladi.

Oilaviy rollar ijtimoiy-madaniy muhitda shakllangan tasavvurlar bilan chambarchas bog‘liq. Er-xotinning oiladagi vazifalari, iqtisodiy mas’uliyati, farzand tarbiyasidagi ishtiroki, uy-ro‘zg‘or ishlarining taqsimlanishi va qaror qabul qilishdagi ishtiroki oilaviy rollarning mazmunini belgilaydi.

Hayot sharoitining o‘zgarishi esa ayrim vazifalarni qayta taqsimlashni talab qilishi tabiiy. Mehnat faoliyati, farzandlarning tug‘ilishi va tarbiyasi, iqtisodiy vaziyat, yashash sharoiti yoki boshqa omillar oiladagi avvalgi vazifalar taqsimotiga o‘zgartirish kiritishi mumkin. Bunday sharoitda oilaviy rollarning moslashuvchanligi munosabatlarni saqlab qolishning muhim shartlaridan biri bo‘lishi mumkin.

Shu sababli oiladagi vazifalarni belgilashda tayyor qoliplardan foydalanishdan ko‘ra, oilaning real sharoitini hisobga olish muhimdir. Rollarning o‘zaro kelishilgan va

vaziyatga mos tarzda taqsimlanishi oila a’zolari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishi mumkin.

Turli avlodlarning madaniy qadriyatlarini o‘zaro moslashtirishda muloqot muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. B. P. Wahyuningtyas, D. Asteria va Sunarto tomonidan 2023-yilda Java oilalaridagi avlodlararo madaniy qadriyatlar o‘rganilib, onalar va qizlar o‘rtasidagi qarashlar farqi, jumladan, nikoh marosimlari bilan bog‘liq masalalarda turli yondashuvlar mavjudligi ko‘rsatilgan [5]. Tadqiqotda kommunikativ moslashuv avlodlar o‘rtasidagi farqlarni muvofiqlashtirish va kelishuvga erishish vositasi sifatida namoyon bo‘lgan.

Mazkur natijalarni o‘zbek oilalariga bevosita ko‘chirish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Biroq tadqiqot avlodlararo madaniy farqlarni muvofiqlashtirishning umumiy mexanizmi sifatida muloqotning ahamiyatini ko‘rsatadi. Oiladagi muloqot faqat fikr almashish vositasi bo‘lib qolmay, turli hayotiy tajribalarni bir-biriga tushuntirish va yangi kelishuvlarga erishish imkonini ham beradi.

Oiladagi muloqotning ahamiyati Z. Javadivala, H. Allahverdipour, M. A. Jafarabadi, S. Azimi, N. Gilani va V. K. Chattu tomonidan 2021-yilda amalga oshirilgan tizimli sharh va meta-tahlilda ham ko‘rib chiqilgan [6]. Mualliflar 2000–2019-yillarda o‘tkazilgan randomizatsiyalangan tadqiqotlarni tahlil qilib, nikoh va munosabatlarga qaratilgan dasturlar, xususan, ta’limiy-kommunikativ yondashuvlar ayrim holatlarda oilaviy muloqot va munosabat ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini aniqlagan. Shu bilan birga, tadqiqotlar o‘rtasidagi metodologik farqlar va yuqori darajadagi geterogenlik natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarurligini ko‘rsatgan [6].

Bu natijalar oilaviy qadriyat va stereotiplarning kundalik xulq-atvorga aylanishida muloqot muhim mexanizm ekanligini ko‘rsatadi. Qadriyatlar o‘z-o‘zidan oilaviy xulq-atvorga aylanmaydi; ular muloqot, qaror qabul qilish, vazifalarni taqsimlash va kelishmovchiliklarni hal etish jarayonlarida amaliy mazmun kasb etadi.

Oilaviy munosabatlarni faqat ijobiy holatlar asosida tasavvur qilish bir tomonlama yondashuvga olib kelishi mumkin. Oilaviy hayotda yaqinlik, hamkorlik va umumiy maqsadlar bilan bir qatorda, kundalik mas’uliyat, turli qarashlar, kelishmovchiliklar va murosaga kelish zarurati ham mavjud.

Shaxs oilaviy hayotni faqat ideal holatda tasavvur qilsa, real hayotdagi qiyinchiliklarni qabul qilish va ularga moslashishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning real hayotga mosligi muhim ahamiyatga ega. Oilaga kirib kelayotgan shaxs oilada faqat ijobiy munosabatlar bo‘lishini emas, balki turli vaziyatlarda mas’uliyatni bo‘lishish, muammolarni muhokama qilish, o‘zaro kelishish va zarur hollarda qarashlarini qayta ko‘rib chiqish lozimligini ham anglab yetishi zarur.

Oilaviy mustahkamlikni o‘zgarmaslik bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Oila hayoti davomida sharoitlar o‘zgaradi: farzandlarning tug‘ilishi, mehnat faoliyati, iqtisodiy

vaziyat, yashash sharoiti, qarindoshlik munosabatlari va boshqa omillar oiladagi munosabatlarni qayta tashkil etishni talab qiladi.

Bunday vaziyatlarda asosiy qadriyatlarni saqlagan holda munosabat shakllarini o‘zgartira olish oilaning moslashuvchanligini belgilaydi. Shu ma’noda oilaviy mustahkamlikni faqat nizolarning yo‘qligi bilan izohlash bir tomonlama yondashuv bo‘lishi mumkin. Mustahkam oila turli fikr va muammolar mavjud bo‘lmagan oila emas, balki ularni konstruktiv tarzda muhokama qilish va hal etish uchun yetarli darajada moslashuvchan munosabatlar tizimiga ega bo‘lgan oiladir.

Olib borilgan tahlil oilaviy mustahkamlikni faqat oilaning ichki munosabatlari bilan emas, balki shaxsning oilaviy hayotga kirib kelishidan oldingi ijtimoiy-madaniy tajribasi bilan ham bog‘liq holda tushuntirish imkonini beradi. Oilada shakllangan qarashlar, qadriyatlar, oilaviy rollar haqidagi tasavvurlar va stereotiplar keyingi oilaviy munosabatlarning mazmuniga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq mazkur ta’sir tayyor va o‘zgarmas shaklda namoyon bo‘lmaydi. Oilaviy qadriyatlar yangi oilaning sharoiti, er-xotinning individual xususiyatlari va o‘zaro munosabatlari jarayonida qayta talqin qilinadi. Shu sababli ijtimoiy-madaniy omillarni oilaviy mustahkamlikning bevosita sababi sifatida emas, balki oilaviy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir qiluvchi shartlar tizimi sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq.

Oilaviy mustahkamlikning muhim jihatlaridan biri ijtimoiy-madaniy tajriba bilan zamonaviy oilaviy hayot talablari o‘rtasida muvozanatni yuzaga keltirishdir. Bunday muvozanat oilaviy qadriyatlarning mazmunini saqlagan holda, ularni konkret oilaviy vaziyatlarda qayta anglash va mos ravishda qo‘llashni nazarda tutadi.

Shunday qilib, oilaning mustahkamligi an’ana va yangilikdan birini tanlash bilan emas, balki mavjud ijtimoiy-madaniy tajribani oilaning real hayot sharoitlari bilan uyg‘unlashtira olish, oilaviy rollarni vaziyatga mos ravishda taqsimlash, o‘zaro muloqot va kelishuvni yo‘lga qo‘yish imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Shu jihatdan oilaviy mustahkamlikni ta’minlashda ijtimoiy-madaniy omillarning mavjudligi emas, balki ularning oila a’zolari tomonidan qanday anglanishi va kundalik munosabatlarda qanday amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Eshmuradov O.E. Oila mustahkamligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik omillari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022.

2. Sharafutdinova X.G. Oilaviy munosabatlar destruksiyasida kognitiv psixoterapiyani qo‘llash amaliyoti (yosh va o‘rta yosh oilalar misolida): psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.

3. Umarova I.B. O‘zbek oilalarida er va xotinlarning yetakchilik haqidagi tasavvurlari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2026.

4. Nordin N., Halford W.K., Barlow F.K., Mastor K.A. Relationship standards and Malay Muslim couples’ marital satisfaction // Journal of Marital and Family Therapy**.** – 2023. – Vol. 49, No. 4.

5. Wahyuningtyas B.P., Asteria D., Sunarto. The accommodation of communication in the family as an adjustment of cultural values between generations // Social Sciences**.** – 2023. – Vol. 12, No. 12.

6. Javadivala Z., Allahverdipour H., Asghari Jafarabadi M., Azimi S., Gilani N., Chattu V.K. Improved couple satisfaction and communication with marriage and relationship programs: are there gender differences? A systematic review and meta-analysis // Systematic Reviews**.** – 2021. – Vol. 10.

UDK 378.147:004.738.5

RAQAMLI GAMIFIKATSION MUHIT ORQALI BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING INNOVATSION TA’LIM KO‘NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Nuriddinova Mohlaroyim Shavkatjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Zamonaviy ta’lim tizimining jadal raqamlashtirilishi bo‘lajak pedagoglardan an’anaviy kasbiy bilimlar bilan bir qatorda raqamli muhitda samarali faoliyat yuritish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga moslashtirish, yangicha metodlarni ishlab chiqish va ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim tajribasini yaratish kabi kompetensiyalarni ham talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak pedagoglarning innovatsion ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogik ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Raqamli gamifikatsion muhit — o‘yin elementlari, raqamli texnologiyalar va interaktiv ta’lim vositalaridan foydalanish asosida tashkil etiladigan, ta’lim oluvchini faol ishtirokchi sifatida o‘quv jarayoniga jalb etishga xizmat qiluvchi pedagogik muhitdir [2]. Bunday muhitda topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarish, natijalarni kuzatish, tezkor qayta aloqa olish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va hamkorlikda faoliyat yuritish imkoniyatlari yaratiladi. Natijada bo‘lajak pedagoglarda raqamli savodxonlik bilan bir qatorda innovatsion fikrlash, moslashuvchanlik, ijodkorlik va muammolarni mustaqil hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qo‘shimcha pedagogik sharoit yuzaga keladi.

Gamifikatsiyaning ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari o‘yin elementlaridan foydalanish bilangina cheklanmaydi. Uning pedagogik samaradorligi, avvalo, o‘yin mexanizmlarining aniq ta’limiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtirilishiga bog‘liq. Zichermann va Cunningham gamifikatsiya orqali ta’lim oluvchilarning muammolarni hal qilish, tezkor qayta aloqa asosida o‘z faoliyatini baholash, hamkorlik qilish va murakkablashib boruvchi vazifalarga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi [4]. Shu jihatdan raqamli gamifikatsion muhit bo‘lajak pedagogning nafaqat bilimlarini, balki amaliy faoliyatini ham rivojlantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Bo‘lajak pedagoglarning innovatsion ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli gamifikatsion muhitning yana bir muhim jihati — individual ta’lim imkoniyatlarini kengaytirishidir. Raqamli vositalar yordamida topshiriqlarni bajarish natijalarini qayd etish, o‘quvchining qaysi bosqichda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlash va keyingi faoliyatni shu natijalarga muvofiq tashkil etish mumkin. Sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi esa mazkur imkoniyatlarni yanada

kengaytirib, ta’lim mazmunini individual ehtiyojlarga moslashtirish, tavsiyalar berish va qayta aloqa jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin [5].

Biroq sun’iy intellektdan foydalanish gamifikatsiyaning o‘z-o‘zidan samarali bo‘lishini anglatmaydi. Uning pedagogik qiymati texnologiyaning mavjudligidan ko‘ra, topshiriqlar mazmuni, baholash mezonlari, pedagogik maqsadlarning aniqligi va o‘qituvchining metodik yondashuvi bilan belgilanadi. Shu sababli raqamli gamifikatsion muhitni loyihalashda texnologik imkoniyatlar bilan pedagogik maqsadlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhimdir.

Raqamli gamifikatsion muhit orqali bo‘lajak pedagoglarning innovatsion ta’lim ko‘nikmalarini takomillashtirish bir necha o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin. Avvalo, gamifikatsion topshiriqlar muayyan pedagogik ko‘nikmani rivojlantirishga yo‘naltirilishi zarur. Masalan, dars loyihasini ishlab chiqish, raqamli ta’lim resursini tanlash, muammoli pedagogik vaziyatni tahlil qilish, ta’lim oluvchilar bilan muloqot qilish yoki yangi pedagogik texnologiyani tanlashga oid vazifalar bo‘lajak pedagogning amaliy kompetensiyasini rivojlantirishi mumkin.

Keyingi muhim jihat topshiriqlarning bosqichma-bosqich murakkablashib borishidir. Dastlab oddiy vazifalarni bajarish orqali zarur bilim va ko‘nikmalar shakllantiriladi, keyinchalik esa bir nechta kompetensiyani birgalikda qo‘llashni talab etuvchi murakkab pedagogik vaziyatlar taklif qilinadi. Bunday yondashuv bo‘lajak pedagogning mustaqil qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Raqamli gamifikatsion muhitda refleksiya mexanizmlaridan foydalanish ham alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak pedagog o‘z faoliyatining natijalarini ko‘rishi, yo‘l qo‘ygan xatolarini tahlil qilishi, muvaffaqiyatli jihatlarini aniqlashi va keyingi faoliyati uchun xulosa chiqarishi lozim. Bunda reyting, ochko yoki belgi kabi o‘yin elementlari yakuniy maqsad emas, balki ta’limiy natijani anglash va o‘z faoliyatini baholashga yordam beruvchi vosita sifatida qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Amaliy simulyatsiya ham raqamli gamifikatsion muhitning muhim tarkibiy qismidir. Bo‘lajak pedagoglar virtual yoki interaktiv muhitda real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlarni bajarish orqali kasbiy qaror qabul qilish tajribasini egallashlari mumkin. Masalan, dars jarayonida yuzaga kelgan nizoli vaziyat, ta’lim oluvchining individual ehtiyojlari, raqamli resursdan foydalanishdagi muammo yoki guruhdagi hamkorlikni tashkil etish bilan bog‘liq vaziyatlar gamifikatsion topshiriq shaklida taqdim etilishi mumkin. Bunday mashqlar nazariy bilimlarning amaliy faoliyatga ko‘chirilishini ta’minlashga yordam beradi.

Raqamli gamifikatsion muhitning samaradorligi, shuningdek, hamkorlikka asoslangan faoliyat bilan bog‘liq. Guruhli missiyalar, jamoaviy topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish va o‘zaro baholash jarayonlari bo‘lajak pedagoglarda kommunikativ va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu ko‘nikmalar kelajakdagi kasbiy faoliyatda turli yoshdagi ta’lim oluvchilar, ota-onalar va pedagogik jamoa bilan samarali muloqot qilish uchun zarur hisoblanadi.

Shu bilan birga, gamifikatsion muhitni tashkil etishda ayrim cheklovlarni ham hisobga olish zarur. O‘yin elementlarining haddan tashqari ko‘payishi ta’lim mazmunining ikkinchi darajaga tushib qolishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, barcha ta’lim oluvchilarning raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari bir xil emasligi, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, raqamli charchoq va tashqi rag‘batlarga haddan tashqari tayanish kabi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli gamifikatsiya pedagogik maqsadga bo‘ysundirilgan holda, o‘quv faoliyatining mazmuni va ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlari hisobga olingan holda qo‘llanilishi lozim.

Raqamli gamifikatsion muhitni samarali tashkil etish uchun, avvalo, innovatsion ta’lim ko‘nikmalarining tarkibini aniq belgilash talab etiladi. Ular qatoriga raqamli vositalardan pedagogik maqsadda foydalanish, yangi ta’lim texnologiyalarini tanlash va moslashtirish, ijodiy pedagogik yechimlar ishlab chiqish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, refleksiya va o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi ko‘nikmalarni kiritish mumkin. Mazkur ko‘nikmalar asosida gamifikatsion topshiriqlar ishlab chiqilsa, raqamli muhitning pedagogik samaradorligi yanada oshadi.

Shuningdek, raqamli gamifikatsion muhit bo‘lajak pedagogning individual rivojlanish traektoriyasini kuzatish imkonini beruvchi vosita sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Buning uchun topshiriqlarni bajarish natijalari, o‘zlashtirish dinamikasi, qayta aloqa va refleksiya natijalari muntazam tahlil qilinishi lozim. Bunday monitoring o‘qituvchiga bo‘lajak pedagogning qaysi ko‘nikmalari yaxshi shakllanganini, qaysi yo‘nalishlarda esa qo‘shimcha pedagogik yordam zarurligini aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Raqamli gamifikatsion muhit bo‘lajak pedagoglarning innovatsion ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Uning asosiy afzalligi o‘yin elementlari va raqamli vositalarni aniq ta’limiy maqsadlar bilan uyg‘unlashtirish orqali bo‘lajak pedagogni faol, mustaqil va amaliy faoliyatga jalb etish imkoniyatidadir.

Mazkur muhit orqali muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash, raqamli vositalardan pedagogik maqsadda foydalanish, hamkorlik qilish, tezkor qayta aloqa asosida o‘z faoliyatini tahlil qilish va real pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini takomillashtirish mumkin. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan oqilona foydalanish esa topshiriqlarni individual ehtiyojlarga moslashtirish va ta’lim jarayonini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, gamifikatsiya ta’limning mustaqil maqsadi emas, balki belgilangan pedagogik natijalarga erishish vositasi sifatida qaralishi kerak. Raqamli gamifikatsion muhitni loyihalashda ta’lim mazmuni, bo‘lajak pedagoglarning individual xususiyatlari, texnik imkoniyatlar, baholash mezonlari va refleksiya mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligi ta’minlanishi zarur.

Kelgusida turli pedagogik yo‘nalishlar uchun moslashtirilgan gamifikatsion topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, bo‘lajak pedagoglarning innovatsion ta’lim ko‘nikmalarini baholash mezonlarini takomillashtirish hamda mahalliy ta’lim

sharoitiga mos raqamli gamifikatsion modellarni amaliyotga joriy etish ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning muhim vazifalaridan bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining “Gamification”. — Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference, 2011. — P. 9–15.
3. Pappas C. Gamification in eLearning: The Complete Guide. — eLearning Industry, 2015.
4. Zichermann G., Cunningham C. Gamification by Design: Implementing Game Mechanics in Web and Mobile Apps. — Sebastopol: O’Reilly Media, 2011. — 182 p.
5. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. — Paris: UNESCO, 2021.
6. OECD. Education at a Glance 2022: OECD Indicators. — Paris: OECD Publishing, 2022.
7. Abdullayeva M.N. Sun’iy intellekt texnologiyalari va ta’lim. — Toshkent: Fan, 2022. — 144 b.
8. Mirzayev T.I. Boshlang‘ich ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2021. — 160 b.
9. Nazarov Q.T. Pedagogik mahorat asoslari. — Toshkent: TDPU, 2020. — 184 b.
10. Yo‘ldoshev B.Q., Usmonboeva M. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar. — Toshkent: Fan, 2019. — 128 b.
11. Hamidov J.A. Raqamli ta’lim texnologiyalari va pedagogik kompetensiya. — Toshkent: TDPU, 2022. — 136 b.
12. Rahimova D.S. Bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlashda zamonaviy metodlar. — Farg‘ona: FarDU, 2020. — 96 b.
13. Hashimova M.N. Pedagoglarda raqamli kompetensiyani shakllantirish. — Toshkent: TDPU, 2023. — 112 b.

UDK 159.923:316.472.4

YOSH OTA-ONALARDA YOLG‘IZLIK HISSINI BELGILOVCHI PSIXOLOGIK INDIKATORLAR

Erimmetova Nafisa Bahramovna,
Al-Xorazmiy universiteti Xalqaro hamkorlik bo‘limi boshlig‘i

Bola tug‘ilishi bilan ota-onalik maqomiga o‘tish inson hayotidagi muhim va murakkab davrlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda, ayniqsa, onalarda kundalik hayot tarzining o‘zgarishi, yangi majburiyatlarning paydo bo‘lishi va ijtimoiy faollikning qisqarishi natijasida yolg‘izlik hissi kuchayishi mumkin. Tadqiqotlarda ota-onalik davrida yolg‘izlik hissining keng tarqalganligi va uning turli ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog‘liqligi qayd etilgan [1; 2].

Yolg‘izlik shaxsning mavjud ijtimoiy munosabatlari bilan uning yaqinlik, tushunilish va qo‘llab-quvvatlanishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni subyektiv ravishda his qilishi bilan bog‘liq psixologik holatdir. Shu sababli yolg‘izlikni faqat ijtimoiy aloqalar soni bilan izohlash yetarli emas. Munosabatlarning mazmuni, sifati, hissiy yaqinlik darajasi va shaxsning ushbu munosabatlardan qoniqishi ham muhim ahamiyatga ega [3].

Yosh ota-onalarda yolg‘izlik hissining shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, bunda shaxsning emotsional holati, ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, stress darajasi va kommunikativ imkoniyatlari o‘zaro ta’sirlashadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur maqolada yosh ota-onalarda yolg‘izlik hissini belgilovchi asosiy psixologik indikatorlar sifatida emotsional qoniqish, ijtimoiy aloqalarning sifati va miqdori, stress va psixologik zo‘riqish hamda kommunikativ qobiliyatlar ko‘rib chiqiladi.

Emotsional qoniqish yosh ota-onalarda yolg‘izlik hissini belgilovchi muhim psixologik indikatorlardan biridir. Mazkur ko‘rsatkich shaxsning turmush o‘rtog‘i, oila a’zolari, qarindoshlari va yaqin do‘stlari bilan munosabatlaridan qay darajada qoniqish hosil qilayotganini ifodalaydi.

Ota-onalik davrida shaxsning hissiy ehtiyojlari va mavjud munosabatlar o‘rtasidagi nomuvofiqlik yolg‘izlik hissining kuchayishiga olib kelishi mumkin. Xususan, nikohga berilgan ma’no va yolg‘izlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan tadqiqotlarda kutilgan va real munosabatlar o‘rtasidagi tafovut umidsizlik va emotsional qoniqmaslik bilan bog‘liqligi aniqlangan [4]. Shuningdek, do‘stlar tomonidan ko‘rsatilayotgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kelajakka ijobiy munosabat va hayotdan qoniqish darajasining pasayishi yolg‘izlik hamda motivatsiyaning susayishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [5].

Demak, yosh ota-onaning oilaviy munosabatlardan hissiy jihatdan qoniqishi uning yolg‘izlikni subyektiv idrok etishiga ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Yolg‘izlik hissini belgilovchi ikkinchi muhim indikator shaxsning ijtimoiy aloqalar tarmog‘i bilan bog‘liq. Bunda nafaqat ijtimoiy aloqalar soni, balki ularning sifati va shaxsning hissiy ehtiyojlarini qondirish darajasi muhimdir.

Ota-onalikka o‘tish davrida do‘stlar bilan uchrashish, kasbiy yoki ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatlarining qisqarishi tabiiy ravishda ijtimoiy aloqalar doirasining torayishiga olib kelishi mumkin [1]. Biroq ijtimoiy tarmoqning kichikligi har doim ham yolg‘izlikni anglatmaydi. Ishonchli, mazmunli va hissiy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi bir nechta munosabatlarning mavjudligi ham shaxsning yolg‘izlik hissini kamaytirishi mumkin [3].

Ijtimoiy izolyatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi ota-onalik davridagi psixologik farovonlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda onalardagi ijtimoiy izolyatsiya, yolg‘izlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi oiladagi psixologik muhit bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan [6]. Shuning uchun yosh ota-onalarning ijtimoiy aloqalarini baholashda aloqalar soni bilan bir qatorda ularning mazmuni, barqarorligi va hissiy qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini ham hisobga olish zarur.

Uchinchi muhim indikator — kundalik hayotdagi stress va psixologik zo‘riqish darajasidir. Ota-onalikning dastlabki davrida uyqu rejimining o‘zgarishi, bolaning ehtiyojlari bilan bog‘liq doimiy mas’uliyat, oilaviy va moddiy majburiyatlarning ortishi psixologik yuklamani kuchaytirishi mumkin.

Shaxsning avvalgi hayotiy tajribasi ham uning stressli vaziyatlarni qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, bolalikdagi noqulay tajribalar, o‘z-o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabat va yolg‘izlik hissi o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi qayd etilgan [7]. Stressning yuqori darajasi ijtimoiy aloqalarning qisqarishi va hissiy qoniqishning pasayishi bilan birga kechganda yolg‘izlik hissi yanada kuchayishi mumkin.

Ayrim tadqiqotlarda yolg‘izlik va psixologik zo‘riqishning o‘zaro bog‘liqligi turli yosh guruhlarida salbiy psixologik oqibatlar bilan aloqador ekanligi ko‘rsatilgan [8]. Perinatal davrda qo‘shimcha ijtimoiy va psixologik yuklamaga ega bo‘lgan ayollarda ham yolg‘izlik va stress darajasining yuqoriligi qayd etilgan [9]. Shu bois yosh ota-onalarga psixologik yordam ko‘rsatishda ularning kundalik stress manbalari va psixologik zo‘riqish darajasini aniqlash muhimdir.

Yosh ota-onalarda yolg‘izlik hissini belgilovchi yana bir muhim indikator kommunikativ qobiliyatlardir. O‘z his-tuyg‘ulari, ehtiyojlari va muammolarini yaqin insonlarga ochiq ifoda eta olish, zarur vaziyatlarda yordam so‘rash va o‘zaro muloqotda konstruktiv yondashuvni saqlash shaxsning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Aksincha, o‘z kechinmalarini ifodalashdagi qiyinchilik, yordam so‘rashdan tortinish yoki o‘ziga nisbatan haddan tashqari tanqidiy munosabat ijtimoiy yaqinlikning

pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Tadqiqotlarda o‘z-o‘ziga hamdardlik darajasi va yolg‘izlik o‘rtasidagi munosabat, shuningdek, ota-onalarning psixologik xususiyatlari bilan bolalardagi yolg‘izlik hissi o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatilgan [10].

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning real va ishonchli manbalariga ega bo‘lish esa yolg‘izlik hissidan himoya qiluvchi omillardan biri sifatida qaraladi. Yaqin insonlar bilan fikr va his-tuyg‘ularni erkin bo‘lishish imkonini beruvchi muhit shaxsning psixologik barqarorligini qo‘llab-quvvatlaydi [11]. Shu jihatdan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish yosh ota-onalarning psixologik farovonligini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Xulosa. Yosh ota-onalarda yolg‘izlik hissining shakllanishi birgina omil bilan izohlanmaydi. Ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu holatning emotsional qoniqish, ijtimoiy aloqalarning sifati va miqdori, stress va psixologik zo‘riqish hamda kommunikativ qobiliyatlar bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Mazkur indikatorlar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Jumladan, kommunikativ qiyinchiliklar ijtimoiy aloqalar sifatining pasayishiga, bu esa emotsional qoniqishning kamayishi va psixologik zo‘riqishning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, mazmunli ijtimoiy munosabatlar, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, samarali kommunikatsiya va stressni boshqarish ko‘nikmalari yolg‘izlik hissining kamayishiga xizmat qiluvchi muhim psixologik resurslar sifatida namoyon bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib, yosh ota-onalarga psixologik yordam ko‘rsatishda yolg‘izlik hissini faqat ijtimoiy izolyatsiya ko‘rsatkichi sifatida emas, balki emotsional, kommunikativ va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan kompleks psixologik holat sifatida baholash maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv yosh ota-onalarning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlash va ular uchun samarali psixologik profilaktika hamda maslahat dasturlarini ishlab chiqishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nowland, R., Thomson, G., McNally, L., Smith, T., & Whittaker, K. (2021). Experiencing loneliness in parenthood: A scoping review. *Perspectives in Public Health,* 141(4), 214–225. https://doi.org/10.1177/17579139211018243
2. Kebede, A. A., Gessesse, D. N., Tsega, N. T., et al. (2022). Prevalence and factors associated with maternal loneliness during the postpartum period in Gondar city. *Heliyon*, 8(7), e09891. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2022.e09891
3. Hussain, B., Mirza, M., Baines, R., et al. (2023). Loneliness and social networks of older adults in rural communities: A narrative synthesis systematic review. *Frontiers in Public Health*, 11, 1113864. https://doi.org/10.3389/fpubh.2023.1113864
4. Dombak, K., & Uğur, E. (2023). Examining the relationship between the meaning attributed to marriage and loneliness: The mediating role of hopelessness. *International Journal of Contemporary Educational Research*, 10(2), 327–335. https://doi.org/10.52380/ijcer.2023.10.2.487

5. Aslan, Y., Koçak, O., Kaya, A. B., et al. (2025). Roles of loneliness and life satisfaction in the relationship between perceived friend social support, positive feelings about the future and loss of motivation. *Acta Psychologica*, 259, 105315. https://doi.org/10.1016/j.actpsy.2025.105315

6. Zhang, S., Soejima, T., & Lin, Q. (2026). Social isolation and child maltreatment among Japanese mothers: Focus on loneliness, social support, and social cohesion. *Children*, 13(7), 897. https://doi.org/10.3390/children13070897

7. Nedelmann, S. E., Mannocchi, C., Gazzillo, F., & Kealy, D. (2026). The relationship between loneliness and self-criticism: Examining interactions with age and childhood adversity. *Personality and Individual Differences*, 259, 113868. https://doi.org/10.1016/j.paid.2026.113868

8. Jin, Y., Kieslich, K., Hall, A., & Pitman, A. (2025). Association between loneliness and suicidal thoughts and attempts in adolescence and young adulthood. *Archives of Suicide Research*, 30(1), 66–79. https://doi.org/10.1080/13811118.2025.2489159

9. Allen, A. M., Linde-Krieger, L. B., Chalke, A. M., et al. (2026). Loneliness, connection, and personal networks among perinatal individuals with opioid use disorder. *Journal of Substance Use and Addiction Treatment*, 191, 210094. https://doi.org/10.1016/j.josat.2026.210094

10. Ogelman, H., Göktaş, İ., & Kahveci, D. (2025). Examination of the relationship between self-compassion levels of preschool period children’s mothers and children’s loneliness. *International Journal of Contemporary Educational Research*, 12(2), 158–172. https://doi.org/10.52380/ijcer.2025.12.2.782

11. Brailovskaia, J., Precht, L., Schaumburg, S., Margraf, J., & Schneider, S. (2026). Understanding the loneliness paradox of the digital age: Offline social support mediates the relationship between addictive social media use and loneliness. *Computers in Human Behavior*, 185, 109092. https://doi.org/10.1016/j.chb.2026.109092

12. Uğuz, Ö., Doğan, S., & Güngör, D. (2026). Loneliness and AI chatbot dependence in young adults: The mediating role of perceived social support. *BMC Psychology*, 14(1). https://doi.org/10.1186/s40359-026-04916-5

UDK 37.02:5/6

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR

Soxibov Baxriddin Olloyorovich,
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
Fanlarni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i

XXI asrda ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyot uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish zaruriyati tobora ortib bormoqda. Matematika, informatika, fizika, kimyo, biologiya va geografiya kabi fanlar ilmiy-texnik taraqqiyotning muhim asoslarini tashkil etib, o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, muammolarni tahlil qilish hamda innovatsion yechimlar ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchini tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi passiv subyektdan mustaqil fikrlovchi, izlanadigan, tajriba o‘tkazadigan va o‘z bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llay oladigan faol shaxsga aylantirishdan iborat. Shu bilan birga, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish amaliyotida an’anaviy o‘qitish usullarining ustuvorligi, nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan yetarli darajada bog‘lanmasligi, o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasining pasayishi, laboratoriya va texnik bazaning yetarli emasligi hamda ayrim pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini yanada rivojlantirish zarurati kabi muammolar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish hamda ta’lim sifatini xalqaro mezonlar asosida takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda [1; 2]. Shu nuqtayi nazardan, aniq va tabiiy fanlarni zamonaviy metodlar asosida o‘qitish masalasini ilmiy-metodik jihatdan o‘rganish dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va fanlararo yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish metodlaridan foydalanildi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishdagi imkoniyatlari tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston ta’lim sharoitiga moslashtirishning metodik jihatlari ko‘rib chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosini o‘quvchining faol ishtirokiga, amaliy faoliyatga, fanlararo integratsiyaga va real hayotiy muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari tashkil etadi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarning

nafaqat fan bo‘yicha bilimlarini, balki XXI asr kompetensiyalarini ham rivojlantirish imkonini beradi [3; 4].

Zamonaviy ta’lim paradigmasi o‘quvchini ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishni nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quv faoliyatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undovchi fasilitator sifatida namoyon bo‘ladi. UNESCO va OECD tomonidan ilgari surilayotgan zamonaviy ta’lim tendensiyalarida tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlik, ijodkorlik va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi [6; 7].

Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda mazkur kompetensiyalarni shakllantirish uchun STEAM yondashuvi muhim imkoniyatlardan biridir. STEAM ta’limi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika yo‘nalishlarini o‘zaro integratsiyalashga asoslanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarni alohida fanlar doirasida emas, balki real hayotdagi kompleks muammolarni hal qilish jarayonida bilimlardan foydalanishga o‘rgatadi. Masalan, ekologik muammoni o‘rganishda biologiya, geografiya, kimyo, matematika va informatika fanlari bilimlarini birgalikda qo‘llash mumkin. Natijada o‘quvchilarda fanlararo fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy yechim ishlab chiqish ko‘nikmalari shakllanadi.

Raqamli texnologiyalar ham aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Elektron ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar, grafik dasturlar va raqamli modellashtirish vositalari murakkab ilmiy tushunchalarni vizual va interaktiv shaklda o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, matematika darslarida GeoGebra dasturidan foydalanib funksiyalar grafigi, geometrik shakllar va matematik modellarni o‘rganish, fizika fanida virtual tajribalarni tashkil etish, kimyoda moddalarning o‘zaro ta’sirini simulyatsiya qilish, biologiyada murakkab biologik jarayonlarni vizuallashtirish mumkin. Bunday vositalar ayniqsa real laboratoriya sharoitlari cheklangan ta’lim muassasalarida qo‘shimcha metodik imkoniyat yaratadi.

Loyiha asosida o‘qitish ham aniq va tabiiy fanlar uchun samarali pedagogik yondashuvlardan biridir. Mazkur metod o‘quvchilarni ma’lum bir muammoni mustaqil yoki guruhda o‘rganish, ma’lumot to‘plash, tajriba o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish va yakuniy mahsulot yaratishga jalb etadi. Masalan, o‘quvchilar suv resurslaridan oqilona foydalanish, energiyani tejash, chiqindilarni kamaytirish, maktab hududini ekologik obodonlashtirish yoki quyosh energiyasidan foydalanish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqishlari mumkin. Bunday faoliyat o‘quvchilarda tadqiqotchilik, ijodkorlik, muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Teskari sinf modeli ham aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu modelda o‘quvchilar yangi mavzu bo‘yicha nazariy materiallarni darsdan oldin video, elektron darslik yoki boshqa raqamli resurslar yordamida mustaqil o‘zlashtiradilar. Dars jarayonida esa o‘qituvchi bilan birgalikda masalalar yechish, tajribalar o‘tkazish, muammoli vaziyatlarni muhokama

qilish va amaliy topshiriqlarni bajarishga ko‘proq vaqt ajratiladi. Natijada darsning asosiy qismi o‘quvchining faol faoliyatiga yo‘naltiriladi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy va raqamli kompetensiyalariga bog‘liq. Raqamli vositalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan ta’lim sifatini oshirmaydi. O‘qituvchi mazkur vositalarni ta’lim maqsadiga mos ravishda tanlay olishi, ulardan metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanishi va o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishi zarur. Shu sababli pedagoglarning malakasini oshirish jarayonida raqamli pedagogika, STEAM, loyiha asosida o‘qitish, zamonaviy baholash va fanlararo integratsiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

Xalqaro tajriba ham zamonaviy yondashuvlarni ta’lim jarayoniga izchil integratsiyalash muhimligini ko‘rsatadi. Finlyandiya ta’lim amaliyotida fanlararo o‘qitish va hodisalarga asoslangan ta’lim elementlaridan foydalanish o‘quvchilarning turli fanlar bo‘yicha bilimlarini kompleks qo‘llashiga imkon beradi. Janubiy Koreyada fan, texnologiya, muhandislik va matematika yo‘nalishlarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim tashabbuslariga katta e’tibor beriladi. AQSh ta’lim amaliyotida esa loyiha asosida o‘qitish, muammoli ta’lim va tadqiqotga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatining turli shakllari keng qo‘llaniladi. Mazkur tajribalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki ularning samarali jihatlarini O‘zbekistonning ta’limiy, madaniy va metodik sharoitlariga moslashtirish muhimdir.

O‘zbekiston sharoitida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishda bir qator muammolarga e’tibor qaratish zarur. Birinchidan, ayrim ta’lim muassasalarida zamonaviy laboratoriya jihozlari va raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishni qiyinlashtirishi mumkin. Ikkinchidan, pedagoglarning raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha kompetensiyalarini doimiy rivojlantirish talab etiladi. Uchinchidan, o‘quv dasturlarida fanlararo loyihalar va amaliy faoliyat uchun yetarli vaqt ajratilishi masalasi muhimdir. To‘rtinchidan, zamonaviy metodlarni baholash tizimi bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, maktablarning moddiy-texnik bazasini bosqichma-bosqich rivojlantirish, virtual laboratoriyalar va ochiq raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Shuningdek, pedagoglar uchun amaliy yo‘naltirilgan malaka oshirish dasturlarini tashkil etish, metodik hamjamiyatlar faoliyatini kuchaytirish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va fan o‘qituvchilari o‘rtasida tajriba almashinuvini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq.

Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalarni amaliy qo‘llashning ko‘plab imkoniyatlari mavjud. Matematika darslarida GeoGebra yordamida funksiyalar va geometrik modellarni tahlil qilish, informatika mashg‘ulotlarida Python dasturlash tili orqali matematik modellashtirish, fizika fanida virtual laboratoriya va simulyatsiyalardan foydalanish, kimyoda moddalarning xossalarini interaktiv modellar orqali o‘rganish, biologiyada uch o‘lchamli modellar yordamida murakkab biologik tuzilmalarni tasavvur qilish, geografiyada esa GIS

texnologiyalari orqali hududiy va tabiiy jarayonlarni tahlil qilish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Bunday yondashuvlarda texnologiyaning o‘zi emas, balki undan qanday pedagogik maqsadda foydalanilayotgani muhim hisoblanadi. Shu sababli har bir raqamli vosita aniq o‘quv maqsadi, kutilayotgan natija va o‘quvchilarning yosh hamda individual xususiyatlariga mos tanlanishi kerak. Raqamli resurslardan foydalanish an’anaviy pedagogik usullarni to‘liq inkor etmasdan, ularni mazmunan boyitishi va ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishi lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish o‘quvchilarning fan bo‘yicha bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatini kengaytiradi. STEAM yondashuvi fanlararo aloqalarni kuchaytirsa, loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarning tadqiqotchilik va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar murakkab jarayonlarni vizuallashtirish va modellashtirish imkonini beradi, teskari sinf modeli esa dars vaqtini amaliy va interaktiv faoliyat uchun samarali taqsimlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, innovatsion metodlarning samaradorligi ularni tizimli va maqsadli qo‘llashga bog‘liq. Bir martalik texnologik vositadan foydalanish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun ta’lim maqsadi, metod, raqamli vosita, baholash mezonlari va kutilayotgan kompetensiyalar o‘zaro uyg‘unlashtirilishi lozim. Ayniqsa, aniq va tabiiy fanlarda nazariy bilim, amaliy faoliyat, tajriba, modellashtirish va tadqiqot elementlarining birligi ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlashdir. Pedagog nafaqat o‘z fanini chuqur bilishi, balki raqamli vositalardan foydalanish, fanlararo loyihalarni tashkil etish, o‘quvchilarning tadqiqot faoliyatini boshqarish va kompetensiyaviy baholash usullarini ham egallashi zarur.

Aniq va tabiiy fanlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘qitish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish va ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga tayyorlashning muhim omillaridan biridir. STEAM, raqamli texnologiyalar, loyiha asosida o‘qitish va teskari sinf kabi yondashuvlar o‘quvchilarni ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, tadqiqotchilik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy yondashuvlarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarning kasbiy va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, raqamli va virtual ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda loyiha va tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zarur.

Mazkur hujjatlar xotin-qizlar va oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish hamda sog‘lom avlodni tarbiyalash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Xotin-qizlarning huquqiy maqomini mustahkamlashning muhim yo‘nalishlaridan biri ularning siyosiy va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bilan bog‘liqdir. Bu borada saylov qonunchiligini takomillashtirish va xotin-qizlarning vakilligini ta’minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Saylov qonunchiligida xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirishga qaratilgan gender kvotalari belgilandi. Jumladan, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlar ko‘rsatishda xotin-qizlar ulushining kamida 30 foiz bo‘lishi haqidagi norma milliy saylov qonunchiligida mustahkamlandi [6].

Mazkur huquqiy mexanizm xotin-qizlarning saylov jarayonlaridagi vakilligini ta’minlashga qaratilgan institutsional choralar sirasiga kiradi. Uning asosiy mazmuni siyosiy partiyalar tomonidan nomzodlar ko‘rsatish jarayonida xotin-qizlar uchun muayyan vakillik kafolatlarini belgilashdan iborat.

Xotin-qizlarning siyosiy huquqlarini ta’minlash masalasida nafaqat parlament, balki mahalliy vakillik organlaridagi ishtirok ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois saylov qonunchiligida belgilangan tegishli normalar xotin-qizlarning turli darajadagi

vakillik organlarida ishtirok etish imkoniyatlarini huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan.

O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biri milliy qonunchilikni xalqaro huquq normalari bilan uyg‘unlashtirish jarayonidir. Inson huquqlarining umumiy prinsiplari, gender tenglik, ayollarga nisbatan kamsitishning oldini olish, xotin-qizlarning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlarini ta’minlash masalalari ushbu jarayonning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Xalqaro huquqiy standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi xotin-qizlarning huquqiy maqomini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalqaro normalarning milliy qonunchilikda mustahkamlanishi bilan bir qatorda, ularni amaliyotda samarali qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish ham muhimdir.

Ayrim tadqiqotchilar O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlariga oid xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka joriy etish jarayonida mavjud muammolarni ham qayd etadilar. Xususan, kamsitishning turli shakllariga barham berish, gender tenglik prinsiplarini amaliyotga izchil tatbiq etish va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish masalalariga e’tibor qaratiladi.

O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash siyosatining rivojlanish tendensiyalarini bir necha yo‘nalishda ko‘rish mumkin.

Birinchidan, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini konstitutsiyaviy hamda qonunchilik darajasida kafolatlash mexanizmlari takomillashib bormoqda.

Ikkinchidan, xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, ularning siyosiy faolligini qo‘llab-quvvatlash va vakillik imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan mexanizmlar rivojlantirilmoqda.

Uchinchidan, xotin-qizlarning ta’lim olishi, kasbiy rivojlanishi va iqtisodiy faolligini qo‘llab-quvvatlash masalalariga e’tibor kuchaymoqda.

To‘rtinchidan, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish bilan bir qatorda, xotin-qizlarning shaxsiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Beshinchidan, xalqaro standartlarni milliy huquqiy tizimga implementatsiya qilish bilan bir qatorda, ushbu normalarning amaliy ijrosini ta’minlash, huquqiy madaniyat va gender madaniyatini rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlariga oid normalarning shakllanishi va rivojlanishi mustaqillikdan keyingi davrda bosqichma-bosqich amalga oshirilgan kompleks huquqiy va institutsional jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Dastlabki bosqichda xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi hamda ularni himoya qilishga xizmat qiluvchi institutsional mexanizmlar shakllantirildi.

Keyingi bosqichlarda milliy qonunchilikni xalqaro huquq normalari va gender tenglikning umume’tirof etilgan prinsiplari bilan uyg‘unlashtirishga e’tibor kuchaydi. Oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin-qizlarning ijtimoiy-

iqtisodiy huquqlarini ta’minlash va siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar takomillashtirildi.

Xotin-qizlarning siyosiy huquqlarini ta’minlash borasida saylov qonunchiligida belgilangan gender kvotalari ularning vakillik organlaridagi ishtirokini huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, xotin-qizlar huquqlarini xalqaro standartlar darajasida samarali ta’minlash, gender tenglik prinsiplarini amaliyotda to‘liq ro‘yobga chiqarish, mavjud huquqiy mexanizmlarning ijrosini kuchaytirish hamda jamiyatda gender-huquqiy madaniyatni rivojlantirish istiqboldagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar va huquqni qo‘llash amaliyotining uyg‘un rivojlanishi xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini yanada samarali himoya qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Inagamova M. Ayol huquqlarining shakllanishining tarixiy-huquqiy negizlari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2012. – 40 b.

2. O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining 2014–2015-yillardagi hisobot hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015.

3. Axmedshina F. Mustaqillik sharoitida O‘zbekistonning gender muammolari // Gender munosabatlar nazariyasi va amaliyotiga kirish. – Toshkent, 2007. – 408 b.

4. Xalqaro oila kuni // O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. – URL: www.gov.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – 1993. – 4-son. – 177-modda.

6. O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

7. So‘fiyeva D. O‘zbekiston xotin-qizlarining saylov jarayonida ishtiroki. – Toshkent: Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, 2014. – 13 b.

8. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 21-dekabrdagi O‘RQ-506-sonli Qonuni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – 2018. – 21-dekabr.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 2000-yil 23-martda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashi sessiyasida so‘zlagan nutqi // Surxon tongi. – 2000. – 29-mart. – B. 2.

UDK 37.013.42:069.01

MUZEY ETNOGRAFIYA BO‘LIMI MATERIALLARI ASOSIDA YOSH AVLOD TARBIYASIDA FANLARARO INTEGRATSIYA: TARIX, SAN’AT VA MAHALLIY URF-ODATLARNI UYG‘UNLASHTIRISH TAJRIBASI

Turaxonova Zarifa Ashurovna,
“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi
San’at va etnografiya ilmiy bo‘limi bosh mutaxassisi

Globallashuv va raqamlashuv sharoitida yosh avlodning axborot muhiti tubdan o‘zgarmoqda. Bugungi o‘quvchi bilimning katta qismini ekran orqali oladi, milliy madaniyat esa unga ko‘pincha darslikdagi mavhum ma’lumot sifatida yetib keladi. Natijada an’anaviy hunarmandchilik, marosimlar va oilaviy qadriyatlar bilan bevosita, jonli aloqa zaiflashadi. Bu holat ta’lim va tarbiya jarayonida madaniy merosni faol, hissiy va amaliy tarzda o‘rgatish zaruratini kuchaytiradi.

Madaniy meros masalasi xalqaro darajada ham ta’lim bilan bog‘liq holda qaraladi. YuNESKOning 2003-yilgi “Nomoddiy madaniy merosni saqlash to‘g‘risida”gi konvensiyasi merosni avloddan avlodga yetkazishning muhim yo‘llaridan biri sifatida rasmiy va norasmiy ta’limni ko‘rsatadi [1]. O‘zbekiston qonunchiligida ham ta’lim jarayoni bilim berish bilan birga shaxsni tarbiyalashni ko‘zda tutadi [2], madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish tartibi esa alohida qonun bilan belgilanadi [3]. Shu jihatdan muzeylar, xususan, etnografik kolleksiyalar saqlanadigan bo‘limlar ta’lim muassasalarining tabiiy hamkori bo‘lish imkoniyatiga ega.

Biroq amaliyotda etnografiya bo‘limlari ko‘p hollarda saqlash va namoyish etish vazifasi bilan cheklanib qoladi, ularning ta’limiy-tarbiyaviy salohiyati esa tizimli va fanlararo yondashuv asosida yetarlicha ochilmaydi. Muzey etnografiya bo‘limi materiallari asosida tarix, san’at va mahalliy urf-odatlarni uyg‘unlashtiruvchi integrativ yondashuvni asoslash va uni amaliyotga joriy etish yo‘llarini ko‘rsatish mazkur tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Buning uchun muzey pedagogikasining nazariy asoslarini tahlil qilish, etnografik buyumning ta’limiy imkoniyatlarini aniqlash, fanlararo integratsiya modelini taklif etish hamda amaliy muammolar va ularning yechimlarini ko‘rsatish vazifalari belgilandi.

Zamonaviy muzey pedagogikasida o‘rganish tayyor bilimni qabul qilish emas, balki ma’no yaratish jarayoni sifatida talqin etiladi. G. Xeyn muzeyda konstruktivistik yondashuvni asoslab, bilim o‘quvchi tomonidan o‘z tajribasi va oldingi tasavvurlari asosida qurilishini, muzey esa bunga sharoit yaratishini ta’kidlaydi [4]. E. Xuper-Grinxill muzey ekspozitsiyasini tomoshabin ishtirok etadigan izohlash jarayoni sifatida ko‘radi va buyum ma’nosi tomoshabinning tajribasiga qarab turlicha talqin qilinishi

mumkinligini ta’kidlaydi [5]. J. Falk va L. Dirking o‘rganishni shaxsiy, ijtimoiy va jismoniy kontekstlarning kesishuvida ro‘y beradigan jarayon deb hisoblaydi [6].

D. Kolbning tajribaviy ta’lim jarayoni — aniq tajriba, kuzatish va mulohaza, mavhum tushuncha hosil qilish hamda faol sinov — muzey mashg‘ulotini tashkil etishda asos bo‘lib xizmat qiladi [7]. L. Vigotskiy esa bilimning ijtimoiy o‘zaro ta’sir va madaniy vositalar orqali shakllanishini ta’kidlagan [8]. Etnografik buyum aynan shunday madaniy vosita vazifasini bajarishi mumkin. Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy va qiyosiy usullar, tizimli yondashuv hamda muzey amaliyotini kuzatish tajribasidan foydalanildi.

Etnografik buyum o‘quv jarayonida bir necha qatlamda o‘rganilishi mumkin. Birinchisi, moddiy qatlam bo‘lib, buyumning materiali, yasalish texnikasi va vazifasini o‘z ichiga oladi. Ikkinchisi, ramziy qatlam bo‘lib, naqsh, rang va shakl orqali ifodalangan ma’noni anglatadi. Uchinchisi, ijtimoiy qatlam bo‘lib, buyumni kim, qaysi hududda, qanday marosim yoki turmush sharoitida yaratgani va ishlatgani bilan bog‘liq. Ushbu uch qatlamning birgalikda o‘rganilishi buyumni “jim eksponat”dan ta’lim manbaiga aylantiradi.

Misol tariqasida suzanani olish mumkin. Suzana O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida, jumladan, Surxondaryo vohasida ham uchraydigan, qo‘lda kashta tikilgan matodir. U oilaviy va to‘y marosimlari, kelin sepi bilan bog‘liq bo‘lib, undagi naqshlarda quyosh, oy, o‘simlik va anor kabi timsollar uchraydi. Bunday buyum haqida so‘z yuritganda o‘quvchi hunarmandchilik texnikasi bilan birga xalqning dunyoqarashi, go‘zallik haqidagi tasavvurlari va oilaviy qadriyatlarini ham anglab boradi. Shunga o‘xshash imkoniyat kulolchilik buyumlari, milliy kiyimlar, zargarlik buyumlari va to‘qimachilik namunalarida ham mavjud.

Nomoddiy meros ham ta’lim vositasi bo‘la oladi. Boysun madaniy makoni YuNESKOning nomoddiy madaniy meros Reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgan [9]. Bunday meros namunalarini ekspozitsiyada foto, audio va video materiallar orqali namoyish etish, an’anaviy qo‘shiq, doston va marosimlarni o‘quvchilarga tushunarli shaklda yetkazish mumkin.

Taklif etilayotgan model bitta etnografik buyumni bir necha fanning umumiy o‘rganish obyekti sifatida ko‘radi. Masalan, suzana misolida tarix fanida uning paydo bo‘lishi, hududiy an’analari, oila va marosimlardagi o‘rni o‘rganilib, tarixiy tafakkur va manbaga tanqidiy yondashuv ko‘nikmalari shakllantiriladi. Tasviriy san’at darslarida kompozitsiya, rang uyg‘unligi va naqsh turlari tahlil qilinib, badiiy did hamda kuzatuvchanlik rivojlantiriladi. Ona tili va adabiyot fanlarida buyum va naqshlarning mahalliy nomlari, ular bilan bog‘liq maqol va allalar o‘rganilib, nutq madaniyati va lug‘at boyligi rivojlantiriladi. Matematika fanida naqshlardagi simmetriya, geometrik shakllar va proporsiyalar tahlil qilinib, mantiqiy fikrlash va fazoviy tasavvur shakllantiriladi. Texnologiya fanida mato, ip, bo‘yoq va tikish texnikalari bilan ishlash orqali mehnat madaniyati va amaliy ko‘nikmalar rivojlantiriladi. Tarbiya va ma’naviyat yo‘nalishida esa ustoz-shogird an’anasi, oilaviy

qadriyatlar, hurmat, mas’uliyat va milliy o‘zlikni anglash masalalariga e’tibor qaratiladi.

Model uch bosqichda amalga oshiriladi va Kolb sikliga tayanadi [7]. Birinchi, tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchi sinfda mavzuni kirish sifatida bayon qiladi va o‘quvchilarga kuzatish topshiriqlarini beradi. Ikkinchi bosqich muzey mashg‘uloti bo‘lib, o‘quvchilar buyumni bevosita kuzatadi, savol beradi, muzey xodimi bilan muloqot qiladi, imkon bo‘lsa, usta ishtirokidagi amaliy mashg‘ulotda qatnashadi. Uchinchi, yakuniy bosqichda o‘quvchilar olgan tasavvurlarini loyiha, chizma, insho yoki taqdimot shaklida umumlashtiradi va o‘z fikrini bildiradi.

Fanlararo modelni amalga oshirishda muzey ta’limining turli shakllaridan foydalanish mumkin. Muzey darsi o‘quv dasturidagi aniq mavzuga bog‘lanadi; unda buyumni kuzatish, savol-javob va qisqa amaliy topshiriq uyg‘unlashadi. Tematik ekskursiya kengroq auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lib, ekspozitsiya bilan umumiy tanishtiradi. Ustaxona yoki mahorat darsi o‘quvchiga hunarmandchilikning biror elementini, masalan, oddiy naqsh tikish yoki loydan sodda buyum yasashni amalda sinab ko‘rish imkonini beradi. Ko‘rgazma-loyiha o‘quvchilarning o‘z ishlarini namoyish etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ularni muzey jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. O‘qituvchilar rahbarligida oila, mahalla va ustalar bilan suhbatlarga asoslangan kichik etnografik izlanishlar esa o‘quvchiga meros manbasini o‘z hududida topish tajribasini beradi.

Raqamli vositalar an’anaviy ekspozitsiyani inkor etmaydi, balki uni to‘ldiradi. Kolleksiyalarning raqamli katalogi, buyumlarning yuqori aniqlikdagi fotosuratlari va uch o‘lchamli (3D) modellari masofadan o‘rganish imkonini beradi, bu esa muzeyga kelishi qiyin bo‘lgan hududlardagi o‘quvchilar uchun ayniqsa muhim. QR-kod orqali ekspozitsiya yonida qo‘shimcha izoh, usta bilan suhbat yoki marosim videosini taqdim etish mumkin. Shu bilan birga, raqamli materiallar buyum bilan bevosita, hissiy aloqani almashtira olmaydi: ular tayyorgarlik va yakuniy bosqichlarda yordamchi vosita bo‘lib, asosiy tajriba buyum bilan jonli uchrashuvda olinishi kerak.

Etnografik materiallarning tarbiyaviy ahamiyati bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, hunarmandchilik buyumi orqali mehnat va mahorat qadrlanadi, o‘quvchi ustoz-shogird an’anasini, bilim va tajribaning avloddan avlodga o‘tishini tushunadi. Ikkinchidan, marosim va urf-odatlar bilan tanishish oilaviy qadriyatlar, keksalarga hurmat, mehmondo‘stlik va mahalla hamjihatligi kabi tushunchalarni hayotiy misollar bilan mustahkamlaydi. Uchinchidan, mahalliy madaniyat bilan tanishish milliy o‘zlikni anglashga yordam beradi, shu bilan birga boshqa xalqlar madaniyatiga hurmat bilan qarash ko‘nikmasini ham shakllantiradi, chunki etnografik yondashuv madaniyatlarni qarama-qarshi qo‘ymay, ularning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Shuni ham qayd etish kerakki, tarbiya ko‘pincha nasihatdan ko‘ra tajriba orqali kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi qo‘lida kashta ignasi yoki loy bilan ishlab

ko‘rganda ustaning mehnati qanchalik murakkab ekanini his qiladi va bu his ma’ruzadagi gapdan ko‘ra chuqurroq iz qoldirishi mumkin.

Taklif etilgan modelning samaradorligini baholash uchun uch guruh ko‘rsatkichdan foydalanish maqsadga muvofiq: bilim, ko‘nikma va munosabat. Bilim ko‘rsatkichi doirasida o‘quvchining buyum tarixi, vazifasi va ma’nosini to‘g‘ri tushuntira olishi mashg‘ulotdan oldin va keyin qisqa test yoki og‘zaki so‘rov orqali aniqlanadi. Ko‘nikma ko‘rsatkichi kuzatish, tahlil qilish, buyumni boshqa fanlar bilan bog‘lash va fikrni asoslash qobiliyatlari orqali loyiha ishlari hamda kuzatuv varaqalari asosida baholanadi. Munosabat ko‘rsatkichi esa milliy merosga, mehnatga va ustaga hurmat, shuningdek, muzeyga qiziqish kabi jihatlarni refleksiya insholari va suhbatlar orqali aniqlash imkonini beradi. Bunday baholash natijalari modelni takomillashtirish uchun ham asos bo‘ladi.

Ushbu yondashuvni joriy etishda mavjud muammolarni hal etish uchun muzey va ta’lim muassasalari o‘rtasida yillik hamkorlik rejasini tuzib, uni o‘quv rejasi bilan bog‘lash, o‘qituvchilar va muzey xodimlari uchun qo‘shma seminarlar o‘tkazish, etnografik mavzular bo‘yicha o‘quv-metodik qo‘llanma va ish daftarlari tayyorlash, ekspozitsiyada interaktiv hudud hamda usta ishtirokidagi ustaxonalar tashkil etish, QR-kod orqali qo‘shimcha audio va video ma’lumot taqdim etish tavsiya etiladi.

Muzey etnografiya bo‘limi materiallari yosh avlod ta’limi va tarbiyasida muhim resurs bo‘lib, ularning samaradorligi fanlararo yondashuv qo‘llanilganda ortadi. Bitta etnografik buyum tarix, san’at, til, matematika va texnologiya fanlarini bog‘lab, o‘quvchiga milliy merosni yaxlit tizim sifatida anglash imkonini beradi. Taklif etilgan uch bosqichli model muzey va ta’lim muassasalari hamkorligini muvofiqlashtirish, tarbiyaviy jarayonni amaliy tajriba bilan boyitish uchun asos bo‘lishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda modelning samaradorligini aniq o‘quvchi guruhlarida sinab ko‘rish va natijalarni miqdoriy hamda sifat jihatidan baholash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris, 2003.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni. 2001-yil 30-avgust.

4. Hein G. E. Learning in the Museum. London: Routledge, 1998.

5. Hooper-Greenhill E. Museums and the Interpretation of Visual Culture. London: Routledge, 2000.

6. Falk J. H., Dierking L. D. Learning from Museums: Visitor Experiences and the Making of Meaning. Walnut Creek: AltaMira Press, 2000.

7. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1984.

8. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

9. UNESCO. Cultural Space of Boysun District. Representative List of the Intangible Cultural Heritage of Humanity, 2008.

10. U.D. Kadyrov, GU Kadyrov. DRUG ADDICTION AS A SOCIAL-PSYCHOLOGICAL PROBLEM. SCIENCE AND INNOVATION, INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL 3 (ISSUE 3), 80-83.

11. U.D. Qodirov, I.I. Khojiboev, A.E. Turakhanov, A.S.Nurmamatov. Psychological Factors In The Development Of Professional Competences Of Trainees Increasing Qualification In The System Of Public Education. European Journal of Molecular & Clinical Medicine 7 (3), 3836-3843.

12. У.Д.Кадыров, К.Х. Авазов. Современные аспекты формирования сознания личности в обеспечении устойчивого развития общества. Интернаука, 53-54.

UDK 069.1:37.013.42:39

ETNOGRAFIK KO‘RGAZMALAR TASHKIL ETISHDA INTERAKTIV USULLAR: TA’LIM-TARBIYA JARAYONINI BOYITISH VA FANLARARO INTEGRATSIYA IMKONIYATLARI

Zoirova Yulduz Mansurovna,
“Termiz” davlat muzey-qo‘riqxonasi
San’at va etnografiya ilmiy bo‘limi yetakchi mutaxassisi

Zamonaviy jamiyatda muzeylar faqat moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlash hamda namoyish etish vazifasini emas, balki faol ta’lim va tarbiya funksiyasini ham bajarib bormoqda. Xalqaro muzeylar kengashi (ICOM) tomonidan 2022-yilda qabul qilingan muzey ta’rifida muzey jamiyat xizmatidagi, hamma uchun ochiq va inklyuziv, jamoalar ishtirokida faoliyat yurituvchi hamda ta’lim, zavq olish va bilim almashish uchun turli tajribalarni taqdim etuvchi institut sifatida tavsiflanadi [1]. Mazkur yondashuv etnografik ko‘rgazmalar uchun ayniqsa muhimdir. Chunki etnografik ekspozitsiyalarning asosiy mazmunini xalqning moddiy va nomoddiy madaniy merosi, jumladan, hunarmandchilik, urf-odatlar, marosimlar, an’anaviy bilimlar va ijrochilik amaliyotlari tashkil etadi [2].

Muzeylarning ta’limiy funksiyasi ortib borayotgani muzey pedagogikasiga oid tadqiqotlarda ham alohida ta’kidlanadi [3–5]. Ayniqsa, raqamli muhitda ulg‘ayayotgan yosh avlod uchun faqat passiv kuzatishga asoslangan an’anaviy ekskursiyalar har doim ham yetarli pedagogik samara bermasligi mumkin. Vitrinada namoyish etilayotgan buyum uning tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstidan uzilgan holda qabul qilinsa, uning tarbiyaviy imkoniyati ham cheklanadi.

Shu nuqtayi nazardan, etnografik ko‘rgazmalarni interaktiv usullar asosida tashkil etish yoshlarning madaniy merosni faol o‘zlashtirishiga, tarixiy xotirasini mustahkamlashiga va milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi etnografik ko‘rgazmalarni tashkil etishda interaktiv usullarning ta’limiy-tarbiyaviy imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash va ularning fanlararo integratsiyani ta’minlashdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-tavsifiy va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Shunga muvofiq, interaktiv usullarni tasniflash, ularning pedagogik asoslarini ko‘rsatish, fanlararo integratsiya imkoniyatlarini aniqlash, ko‘rgazmalarni tashkil etish tamoyillari va samaradorlik mezonlarini belgilash vazifalari qo‘yildi.

Etnografik ko‘rgazmalarda ta’lim jarayoni bir nechta nazariy yondashuvlarga tayanadi. Birinchidan, konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, tashrif buyuruvchi tayyor bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘z tajribasi va mavjud tasavvurlari asosida

ma’no hosil qiluvchi faol subyektdir. G. Xayn muzeyni aynan shunday konstruktivistik ta’lim muhiti sifatida tavsiflaydi [6].

Ikkinchidan, D. Kolbning tajribaviy ta’lim nazariyasiga ko‘ra, bilim aniq tajriba, uni kuzatish va anglash, umumlashtirish hamda amalda sinab ko‘rish jarayonlarining uzviyligi asosida shakllanadi [7]. Shu jihatdan hunarmandchilik ustaxonasi, amaliy mashg‘ulot yoki tarixiy marosim elementlarini rekonstruksiya qilish o‘quvchiga nafaqat ma’lumot olish, balki uni amalda his etish imkonini beradi.

Uchinchidan, L. S. Vygotskiyning ijtimoiy o‘zaro ta’sir haqidagi qarashlari ko‘rgazma muhitidagi muloqotning ahamiyatini asoslaydi [8]. Gid, o‘qituvchi, hunarmand, madaniy meros tashuvchisi va tengdoshlar bilan hamkorlikdagi faoliyat o‘quvchining bilimni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

J. Falk va L. Dirkingning muzeyda o‘rganishning kontekstual modeli ham etnografik ko‘rgazmalar uchun muhim nazariy asosdir. Ularning fikricha, muzeydagi ta’lim shaxsiy, ijtimoiy-madaniy va jismoniy kontekstlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi [9]. Etnografik ko‘rgazmada mazkur kontekstlar ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki tashrif buyuruvchi ko‘pincha o‘z oilasi, mahallasi, hududi va tarixiy xotirasiga daxldor mavzuga duch keladi.

Etnografik ko‘rgazmalarda interaktiv usullarni mazmuni va pedagogik maqsadiga ko‘ra bir necha asosiy yo‘nalishga ajratish mumkin.

Birinchi yo‘nalish — **amaliy ustaxonalar va mahorat darslari**. Kulolchilik, kashtachilik, yog‘och o‘ymakorligi, milliy taomlar tayyorlash va boshqa an’anaviy hunarlarni usta rahbarligida amalda bajarish o‘quvchida amaliy ko‘nikma bilan bir qatorda mehnat va hunarga hurmatni shakllantiradi. Bunday mashg‘ulotlar meros tashuvchisi bilan yosh avlod o‘rtasida bevosita muloqotni ham ta’minlaydi.

Ikkinchi yo‘nalish — **o‘yin va kvestlar**. Ekspozitsiya bo‘yicha topshiriqli o‘yinlar, izlanish marshrutlari va milliy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning kuzatuvchanligini, jamoada ishlash ko‘nikmasini va bilim olish motivatsiyasini oshiradi.

Uchinchi yo‘nalish — **raqamli texnologiyalar**. QR-kodli axborot, audiogid, 3D-modellar, kengaytirilgan reallik (AR), virtual reallik va virtual ekskursiyalar etnografik materiallardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday vositalar tashrif buyuruvchiga axborotni individual sur’atda o‘zlashtirish va muzeyga masofadan turib murojaat qilish imkonini beradi.

To‘rtinchi yo‘nalish — **teatrlashtirilgan usullar va tarixiy-madaniy rekonstruksiyalar**. Marosim, to‘y yoki bayram elementlarini rollarga bo‘lib namoyish etish, an’anaviy kiyimlarning nusxalaridan foydalanish orqali tarixiy-madaniy jarayonlarni jonli tasavvur qilish mumkin. Bunday usullar empatiya, estetik did va madaniy hodisalarning mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Beshinchi yo‘nalish — **ishtirokchilik loyihalari**. Tashrif buyuruvchilarning oilaviy tarixlari, og‘zaki tarix namunalari, mahalliy an’analar haqidagi hikoyalari yoki oilada saqlanayotgan buyumlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish ko‘rgazmani

jamoaviy bilim yaratish maydoniga aylantiradi. N. Saymon ishtirokchilik muzeyining hissa qo‘shuvchi, hamkorlikdagi va birgalikda yaratuvchi modellarini ajratib ko‘rsatadi [10]. Etnografik ko‘rgazmalar uchun, ayniqsa, birgalikda yaratish modeli muhimdir, chunki mahalliy jamoa o‘z madaniy merosining faqat tomoshabini emas, balki uning faol ishtirokchisi va hammuallifiga aylanadi.

Shu bilan birga, interaktivlik muzey fondidagi asl buyumlarga zarar yetkazish hisobiga amalga oshirilmasligi kerak. Tegib ko‘rish yoki amaliy foydalanish uchun replikalar, maxsus o‘quv to‘plamlari va raqamli nusxalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Interaktiv usullarning muhim jihati shundaki, qadriyatlar o‘quvchiga tayyor xulosa shaklida berilmaydi, balki shaxsiy tajriba orqali anglanadi. Masalan, o‘quvchi hunarmandning ish jarayonini bevosita kuzatib yoki uning oddiy elementini o‘zi bajarib ko‘rganda, hunarmandchilikning murakkabligi va estetik qiymatini chuqurroq his qiladi.

Oila yoki mahalla an’analari haqidagi hikoyalarni yig‘ish va yozib borish esa avlodlar o‘rtasidagi madaniy bog‘liqlikni anglashga yordam beradi. Natijada milliy madaniyatga hurmat, o‘z hududi va tarixiga mehr, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik hamda boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan bag‘rikenglik kabi fazilatlar shakllanadi.

Etnografik ko‘rgazmalarning yana bir muhim tarbiyaviy imkoniyati madaniy xilma-xillikni anglash bilan bog‘liq. Turli hudud va xalqlarning urf-odatlarini qiyosiy o‘rganish orqali o‘quvchi madaniyatlarning o‘ziga xosligini tushunadi va ularni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki o‘zaro hurmat asosida baholash ko‘nikmasini egallaydi.

Etnografik ko‘rgazma tabiatan fanlararo ta’lim uchun qulay makondir. Undagi bitta eksponatning o‘zini turli fanlar nuqtayi nazaridan o‘rganish mumkin.

Tarix fani bilan bog‘liqlik ashyolarning yaratilish davri, hududi va ijtimoiy vazifasini o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Tasviriy san’at va san’atshunoslik nuqtayi nazaridan naqsh, bezak, rang va kompozitsiya tahlil qilinadi. Geografiya va ekologiya fanlari orqali xomashyo manbalari, hududning tabiiy sharoiti, iqlimi, xo‘jalik yuritish xususiyatlari va tabiiy bo‘yoqlardan foydalanish masalalari o‘rganiladi.

Ona tili, adabiyot va folklorshunoslik bilan bog‘liq holda hunarmandchilikka oid atamalar, maqollar, topishmoqlar, qo‘shiqlar va rivoyatlar tahlil qilinishi mumkin. Matematika fanida naqshlarning geometrik tuzilishi, simmetriyasi, proporsiyasi va takrorlanish qonuniyatlari o‘rganiladi. Texnologiya fanida esa buyumning tayyorlanish jarayoni, xomashyo va asbob-uskunalar, mehnat ketma-ketligi tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalari bilan integratsiya esa eksponatlarni raqamlashtirish, 3D-modellar yaratish va virtual ekspozitsiyalar tashkil etishda namoyon bo‘ladi.

Masalan, “An’anaviy kulolchilik” mavzusi doirasida hunarning tarixiy rivojlanishi tarix fani, loy va sir tarkibi kimyo, buyum tayyorlash texnologiyasi texnologiya, naqsh va kompozitsiya tasviriy san’at, geometrik shakllar esa matematika fani bilan bog‘langan holda o‘rganilishi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchiga

bilimlarni alohida fanlar doirasidagi parchalar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan yaxlit tizim sifatida anglash imkonini beradi.

Ko‘rgazma asosida dars tashkil etish modeli

Muzey pedagogikasi tajribasiga asoslanib, etnografik ko‘rgazmadan ta’lim jarayonida foydalanishni uch bosqichli model asosida tashkil etish mumkin.

Birinchi bosqich — tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqich maktab yoki oliy ta’lim muassasasida tashkil etiladi. O‘quvchilar mavzu bilan tanishtiriladi, savollar shakllantiriladi va muzeydagi faoliyat uchun topshiriqlar belgilanadi.

Ikkinchi bosqich — ko‘rgazma bosqichi. O‘quvchilar muzey ekspozitsiyasi bilan bevosita tanishadi, amaliy ustaxona, kvest, rekonstruksiya yoki raqamli vositalar orqali faol ishtirok etadi. Bu bosqichda muzey xodimi, o‘qituvchi va hunarmandning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi bosqich — yakuniy bosqich. O‘quvchilar olgan bilim va taassurotlarini refleksiya, mini-loyiha, ijodiy ish yoki taqdimot orqali umumlashtiradi. Shu tariqa muzeyga tashrif bir martalik ekskursiya emas, balki o‘quv jarayonining uzviy qismiga aylanadi.

Interaktiv etnografik ko‘rgazmalarni loyihalashda bir qator muhim tamoyillarga amal qilish lozim. Avvalo, ilmiy asoslanganlik ta’minlanishi kerak. O‘yin va ko‘ngilochar elementlar ilmiy mazmunni soddalashtirib yoki buzib yubormasligi zarur.

Ikkinchi muhim tamoyil — auditoriyaga moslik. Topshiriqlar mazmuni tashrif buyuruvchilarning yoshi, bilim darajasi va qiziqishlariga qarab tabaqalashtirilishi lozim. Shuningdek, madaniy sezgirlik va hamkorlik tamoyiliga amal qilish, marosimlar va an’anaviy bilimlarni ularning tashuvchilari — ustalar, keksalar va mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda namoyish etish maqsadga muvofiq.

Inklyuzivlik ham alohida ahamiyatga ega. Imkoniyati cheklangan tashrif buyuruvchilar uchun audio materiallar, taktil nusxalar va qulay harakatlanish imkoniyatlari yaratilishi lozim. Shu bilan birga, muzey fondining xavfsizligi ta’minlanishi va ko‘rgazma yakunida tashrif buyuruvchining o‘z tajribasi haqida fikr yuritishi uchun refleksiya bosqichi tashkil etilishi kerak.

Interaktiv ko‘rgazmalarning samaradorligini aniqlashda kuzatuv, tashrifdan oldingi va keyingi qisqa so‘rovnomalar, refleksiv yozuvlar, takroriy tashriflar ko‘rsatkichi va pedagoglarning fikrlaridan kompleks foydalanish mumkin. Bunday baholash nafaqat ko‘rgazmaning ta’limiy samarasini aniqlash, balki kelgusidagi ekspozitsiyalarni takomillashtirish uchun ham muhim ma’lumot beradi.

Amaliyotda moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi, muzey xodimlarining muzey pedagogikasi va raqamli texnologiyalar bo‘yicha malakasini oshirish zarurati hamda ko‘ngilochar elementlarning ilmiy mazmundan ustun kelishi kabi muammolar uchrashi mumkin. Mazkur muammolarni muzey va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi tizimli hamkorlik, xodimlar malakasini oshirish va ilmiy-metodik materiallarni takomillashtirish orqali bartaraf etish mumkin.

Interaktiv usullardan foydalanish etnografik ko‘rgazmani passiv namoyish maydonidan faol ta’lim va tarbiya muhitiga aylantirish imkonini beradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning bilimni tajriba orqali o‘zlashtirishini ta’minlab, milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy xotira, madaniy o‘zlikni anglash va mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Etnografik ko‘rgazmalarning muhim afzalliklaridan biri ularning fanlararo xususiyatga egaligidir. Bitta eksponat asosida tarix, san’at, geografiya, texnologiya, matematika, til va axborot texnologiyalari fanlarini o‘zaro bog‘lash mumkin. Natijada o‘quvchi madaniy merosni alohida ma’lumotlar yig‘indisi sifatida emas, balki tarix, turmush, san’at, mehnat va qadriyatlarni birlashtiruvchi yaxlit hodisa sifatida anglaydi.

Ko‘rgazma asosida taklif etilgan uch bosqichli model — tayyorgarlik, faol ishtirok va yakuniy refleksiya — muzey va ta’lim muassasalari hamkorligini tizimlashtirish hamda muzey tashrifini ta’lim jarayonining uzviy qismiga aylantirish imkonini beradi.

Kelgusida interaktiv etnografik ko‘rgazmalarning ta’limiy va tarbiyaviy samaradorligini aniq mezonlar asosida empirik o‘rganish, turli yosh guruhlarida tajriba-sinov ishlarini olib borish hamda muzey va ta’lim muassasalari hamkorligining barqaror modellarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. ICOM. Museum Definition (adopted at the Extraordinary General Assembly, Prague, 24 August 2022). Paris: International Council of Museums, 2022.

2. UNESCO. Convention for the Safeguarding of the Intangible Cultural Heritage. Paris, 2003.

3. Столяров Б. А. Музейная педагогика: история, теория, практика. М.: Высшая школа, 2004.

4. Юренева Т. Ю. Музееведение. М.: Академический Проект, 2006.

5. Hooper-Greenhill E. Museums and the Interpretation of Visual Culture. London: Routledge, 2000.

6. Hein G. E. Learning in the Museum. London: Routledge, 1998.

7. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1984.

8. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

9. Falk J. H., Dierking L. D. The Museum Experience Revisited. Walnut Creek, CA: Left Coast Press, 2013.

10. Simon N. The Participatory Museum. Santa Cruz, CA: Museum 2.0, 2010.

UDK: 159.922.27

OILAVIY HAYOTGA TAYYORGARLIK JARAYONIDA MULOQOT KO‘NIKMALARI DINAMIKASI

Karimova Muxayyo,
Termiz davlat pedagogika instituti
“Amaliy psixologiya” kafedrasi tayanch doktoranti

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida zamonaviy oilani rivojlantirish, oilaning ichki munosabatlari va shaxslararo munosabatlarni o‘rganish, boy madaniy-tarixiy meros hamda an’anaviy oilaviy qadriyatlarni tadqiq etish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va oilaviy ajralishlarning oldini olish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish muhim vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasining dolzarbligini ko‘rsatadi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi tarixning turli davrlarida ham muhim ijtimoiy-pedagogik va psixologik vazifa sifatida qaralgan. Zardushtiylik va islom dini an’analarida ham nikoh munosabatlarida tomonlarning o‘zaro munosibligi, ma’naviy-axloqiy yetukligi va oilaviy mas’uliyatni anglashiga alohida e’tibor qaratilgan. Sharq xalqlari an’analarida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish, oila qadriyatlarini anglash va oilani asrab-avaylashga o‘rgatish muhim tarbiyaviy vazifa hisoblangan.

Ayniqsa, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularda insoniy fazilatlar, muomala madaniyati, sabr-toqat, o‘zaro hurmat, mas’uliyat va oilaviy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishga katta e’tibor berilgan. Bu borada xalq og‘zaki ijodi, pand-nasihatlar, hikmatnomalar va diniy-axloqiy manbalar muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, turk olimi Yusuf Tovasliy tomonidan to‘plangan “Hikmatlar xazinasi” asarida kelin bo‘luvchi qizlarga beriladigan onalar nasihatlari oilaviy hayotga tayyorgarlikning ma’naviy-axloqiy jihatlarini yoritib beradi [2].

Xalq og‘zaki ijodi, diniy g‘oyalar, hikmatnomalar va pand-nasihatlar avloddan avlodga o‘tib, takomillashib kelgan. Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan mutafakkir va allomalar esa ana shu qadriyatlarni o‘z asarlarida ilmiy-falsafiy jihatdan yoritib, kelgusi avlodlarga ma’naviy meros sifatida qoldirganlar.

Shunday mutafakkirlardan biri Abu Nasr Forobiydir. Forobiy inson kamoloti, jamiyat va oiladagi munosabatlar, shaxsning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi hamda insonlar o‘rtasidagi hamjihatlik masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Uning insonning baxt-saodatga erishishi, foydali bilim, axloq va kasb-hunarni egallashi, zararli odatlarni

bartaraf etishi haqidagi qarashlari oilaviy munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Oilaviy hayotga tayyorgarlik jarayonida shaxsning muloqot madaniyati va samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki oilaviy munosabatlarning barqarorligi ko‘p jihatdan er-xotinning bir-birini tinglashi, o‘z fikrini aniq va madaniyatli ifodalashi, o‘zaro tushunishga intilishi hamda nizoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topa olishiga bog‘liq.

Rus olimi S.V. Kovalevning ta’kidlashicha, yoshlarda oilaviy hayot va turmush tarziga oid real va adekvat tasavvurlarning yetarli darajada shakllanmaganligi turmush qurgandan keyin oilaviy munosabatlardan qoniqmaslik holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois yoshlarni ular ulg‘ayayotgan oilada hamda ta’lim muassasalarida oilaviy hayotga tayyorlash, ularda baxtli va farovon oilaviy hayotni ta’minlovchi zarur shaxsiy sifatlar hamda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir [5].

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy munosabatlarni faqat ijobiy jihatlari bilan emas, balki unda uchrashi mumkin bo‘lgan turli murakkab vaziyatlar, kelishmovchiliklar va mas’uliyatlar bilan birgalikda tushuntirish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv yoshlarda oilaviy hayot haqida real va adekvat tasavvurlarning shakllanishiga yordam beradi.

Oilaviy muammolarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oiladagi kelishmovchiliklar o‘zaro munosabatlardagi tushunmovchilik, hissiyotlarni boshqara olmaslik, muloqot madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, turmush o‘rtog‘idan norozilik, oilaviy majburiyatlarning taqsimlanishi, nizolarga moyillik, moddiy qiyinchiliklar, jizzakilik va boshqa psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ayrim hollarda er-xotin o‘rtasidagi norozilik, bir-birini ortiqcha tanqid qilish, gumonsirash, tanbeh berish va o‘z fikrini majburan qabul qildirishga intilish ham oilaviy nizolarning kuchayishiga olib keladi. Shuningdek, oila a’zolari o‘rtasida o‘zaro tushunishning yetishmasligi va xarakter xususiyatlarining mos kelmasligi ham munosabatlarning murakkablashuviga sabab bo‘lishi mumkin.

Mazkur muammolarning oldini olishda oilaviy-pedagogik va psixologik bilimlarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan mahallalarda oilalar bilan hamkorlikda psixologik-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish, ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha psixolog va pedagoglarning faoliyatini kuchaytirish zarur.

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida ularga oilaviy hayotning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, unda uchrashi mumkin bo‘lgan turli murakkab vaziyatlar haqida ham tushuncha berish lozim. Turli kelishmovchiliklarni muloqot, o‘zaro hurmat, sabr-toqat va konstruktiv yondashuv asosida hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish kelajakdagi oilaviy munosabatlarning barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3].

Turmush qurgandan so‘ng qizning ijtimoiy muhitdagi mavqeyi va unga nisbatan ijtimoiy kutilmalar o‘zgaradi. Bunday o‘zgarishlarga psixologik jihatdan tayyor bo‘lgan shaxs yangi oiladagi munosabatlarga tezroq moslashishi mumkin. Bu jarayonda muloqot madaniyati va samarali kommunikativ ko‘nikmalar muhim omillardan biri hisoblanadi.

Oilaviy hayotga psixologik tayyorgarlikning muhim jihatlaridan biri shaxsning o‘z imkoniyatlari, kuchli va zaif tomonlarini anglay olishi, kelajakdagi oilaviy rollarini tasavvur qilishi hamda yangi ijtimoiy muhitga moslashish strategiyalarini shakllantirishidir. Shu sababli nikoh yoshiga yetgan qizlarning o‘z shaxsiy tajribasi va xatti-harakatlarini tahlil qila olishi, oilaviy vaziyatlarni oldindan tasavvur qilishi va ularga nisbatan konstruktiv munosabatni shakllantirishi muhimdir.

Turmush qurish arafasidagi qizlarga ta’sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarni kompleks o‘rganish, ularning kelajakdagi oilaviy hayotiga ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, yoshlarning kelajakdagi maqsadlarini to‘g‘ri belgilashiga ko‘maklashish, samarali muloqot usullarini o‘rgatish va ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish oilaviy hayotga tayyorgarlikning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Samarali muloqot ko‘nikmalari quyidagi jihatlarni qamrab oladi: suhbatdoshni faol tinglash, o‘z fikrini aniq va tushunarli ifodalash, hissiyotlarni nazorat qilish, nizoli vaziyatlarda murosaga kelish, turmush o‘rtog‘ining fikri va ehtiyojlarini inobatga olish, tanqidni konstruktiv shaklda bildirish hamda muammolarni birgalikda hal qilish. Mazkur ko‘nikmalarning shakllanishi yoshlarning oilaviy hayotga psixologik tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish oilaviy munosabatlarning psixologik barqarorligini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Oilaviy hayotga tayyorgarlik faqat nikohga oid ma’lumotlarni berish bilan cheklanmasdan, shaxsda muloqot madaniyati, o‘zaro hurmat, empatiya, mas’uliyat, nizolarni konstruktiv hal etish va oilaviy vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalarini rivojlantirishni ham qamrab olishi lozim.

Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari qanchalik real va adekvat bo‘lsa, ular yangi ijtimoiy rol va majburiyatlarni shunchalik to‘g‘ri qabul qilishlari mumkin. Shu sababli ta’lim muassasalari, oila, mahalla va psixologik xizmat hamkorligida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan tizimli dasturlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Ayniqsa, turmush qurish arafasidagi yoshlar uchun samarali muloqot, hissiy o‘zini boshqarish, nizolarni bartaraf etish, oilaviy mas’uliyatni anglash va o‘zaro hurmat ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan psixologik treninglarni tashkil etish kelajakdagi oilaviy munosabatlarning sog‘lom rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
2. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi**.** Darslik. – Toshkent: “Sharq”, 2014. – 272 b.
3. Qodirov U.D. Oila mustahkamligini ta’minlashda psixologik xizmatning tutgan o‘rni. Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi. – 2023. – № 2.
4. Fayziyeva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi**.** – Toshkent: “Sharq”, 2007. – 42 b.
5. Karimova M.N. Oilaviy hayot ostonasida turgan qizlarda samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik jihatlari**.** “Ta’lim tizimini takomillashtirishda ilg‘or xalqaro tajribalar” mavzusidagi xalqaro miqyosdagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami. – Toshkent, 2024. – B. 970–973.

TA’LIM JARAYONIDA SAVOL-TOPSHIRIQLAR ORQALI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Jo‘raqo‘ziyeva Dilshoda Xaminjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Bugungi jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarga tayyor bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularning mustaqil va tanqidiy fikrlashini, o‘z nuqtayi nazarini asoslay olishini, ma’lumotlarni tahlil qilishini, muammoli vaziyatlarga maqbul yechim topishini hamda turli fikrlarni baholay olishini ta’minlashdan iborat. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun mazkur ko‘nikmalarni rivojlantirish ularning keyingi intellektual va shaxsiy taraqqiyoti uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashning rivojlanishi ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari va o‘quv topshiriqlarining xususiyati bilan bevosita bog‘liq. O‘quvchini faqat eslab qolish va qayta aytishga yo‘naltiruvchi topshiriqlardan farqli ravishda, fikrlashni talab qiluvchi savol va topshiriqlar bolaning mavjud bilimlarini yangi vaziyatlarda qo‘llashiga, hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni aniqlashiga, o‘z fikrini dalillar bilan asoslashiga va mustaqil xulosa chiqarishiga imkon beradi.

Savol-topshiriqlar ta’lim jarayonining muhim didaktik vositalaridan biri bo‘lib, ularning mazmuni va tuzilishi o‘quvchining fikrlash faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oddiy reproduktiv savollar mavjud bilimlarni aniqlash va mustahkamlashga xizmat qilsa, tahliliy, muammoli, taqqoslashga asoslangan va ijodiy savollar o‘quvchini chuqurroq fikrlashga undaydi. Masalan, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Sizningcha, nima bo‘ladi?”, “Qaysi fikrni to‘g‘ri deb hisoblaysiz va nima uchun?”, “Boshqa qanday yechim taklif qilish mumkin?” kabi savollar o‘quvchidan nafaqat javob berishni, balki o‘z javobini asoslashni ham talab qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, faqat “ha” yoki “yo‘q” tarzida javob berishni talab qiluvchi yopiq savollar bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchini izohlash, dalillash, taqqoslash va xulosa chiqarishga undovchi ochiq savollardan foydalanish muhimdir.

Boshlang‘ich ta’limda savol-topshiriqlardan maqsadli va tizimli foydalanish o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish bilan birga, ularni o‘z fikrini erkin ifodalash, dalillarni izlash, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va asoslangan xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Shu sababli dars jarayonida qo‘llaniladigan savol va topshiriqlarni tanqidiy fikrlashning tarkibiy ko‘nikmalariga mos ravishda ishlab chiqish va ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur maqolaning maqsadi — ta’lim jarayonida savol-topshiriqlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda ularning boshlang‘ich sinf

o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rnini nazariy va metodik jihatdan yoritishdan iborat.

Maqolaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- boshlang‘ich ta’limda tanqidiy fikrlash tushunchasining mazmunini ochib berish;
- tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi savol-topshiriqlarni tavsiflash;
- savol-topshiriqlarning o‘quvchilarning fikrlash faoliyatiga ta’sirini tahlil qilish;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos savol-topshiriqlarni ishlab chiqish tamoyillarini ko‘rsatish;
- dars jarayonida savol-topshiriqlardan samarali foydalanish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tanqidiy fikrlash zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchining bilimlarni shunchaki o‘zlashtirishi bilan cheklanmay, ularni tahlil qilishi, baholashi, mavjud dalillar asosida xulosa chiqarishi va o‘z qarashlarini asoslay olishini ta’minlovchi muhim kognitiv jarayonlardan biri sifatida qaraladi. Tanqidiy fikrlash tushunchasi turli ilmiy yondashuvlarda turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, ularning umumiy jihati o‘quvchining faol, mustaqil va asoslangan fikrlash faoliyatiga e’tibor qaratilishidir.

Tanqidiy fikrlashni ta’lim nuqtayi nazaridan izohlashda Peter A. Facione boshchiligidagi Delphi tadqiqoti muhim nazariy manbalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda turli sohalardan mutaxassislar ishtirok etib, tanqidiy fikrlashning mazmuni, tarkibiy ko‘nikmalari va uni ta’lim jarayonida rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalarida tanqidiy fikrlash maqsadga yo‘naltirilgan va o‘zini-o‘zi nazorat qiluvchi mulohaza yuritish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Unda interpretatsiya, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish kabi ko‘nikmalar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Mazkur yondashuv boshlang‘ich ta’lim uchun ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchisida tanqidiy fikrlash birdaniga shakllanadigan tayyor qobiliyat emas, balki izchil pedagogik ta’sir va amaliy faoliyat jarayonida rivojlanadigan ko‘nikmalar majmuasidir. O‘quvchi matn, rasm, hodisa yoki muammoli vaziyat bilan ishlash davomida ma’lumotni anglaydi, uning tarkibiy qismlarini ajratadi, turli variantlarni taqqoslaydi, dalillarni izlaydi va o‘z xulosasini shakllantiradi.

Savol-topshiriqlar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning muhim didaktik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Savol o‘quvchini muayyan masala haqida fikrlashga undasa, topshiriq ushbu fikrlashni amaliy faoliyat orqali namoyon etish imkonini beradi. Ayniqsa, javobi bevosita matn yoki o‘qituvchi tomonidan berilmagan, o‘quvchidan izlanish, taqqoslash, sababni aniqlash yoki o‘z fikrini asoslashni talab qiladigan savollar yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini faollashtirishga xizmat qiladi.

Savol-topshiriqlarning tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyatini ularning mazmuni va kutilayotgan fikrlash faoliyatiga ko‘ra farqlash mumkin. Reproduktiv

savollar o‘quvchining mavjud bilimlarini esga tushirish va qayta ifodalashga yo‘naltiriladi. Tahliliy savollar obyekt yoki hodisaning tarkibiy qismlarini aniqlash, ular o‘rtasidagi munosabatlarni ochib berishni talab qiladi. Baholovchi savollar o‘quvchini muayyan fikr yoki qarorning asoslanganligini ko‘rib chiqishga undaydi. Muammoli savollar esa bir nechta ehtimoliy yechimlarni izlash va ular orasidan asoslangan variantni tanlash imkonini beradi.

Facione tadqiqotida tanqidiy fikrlashning asosiy ko‘nikmalari sifatida interpretatsiya, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘rsatilgan. Ushbu ko‘nikmalarni boshlang‘ich ta’limdagi savol-topshiriqlar bilan bog‘lash mumkin. Masalan, “Matnda nima haqida so‘z yuritilgan?” savoli interpretatsiyaga; “Qahramonning bunday qarorga kelishiga nima sabab bo‘ldi?” savoli tahlilga; “Sizningcha, qahramonning qarori to‘g‘rimi? Javobingizni asoslang” topshirig‘i baholashga; “Agar voqea boshqacha rivojlanganida nima bo‘lishi mumkin edi?” savoli esa ehtimoliy xulosalar chiqarishga yo‘naltiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda savol-topshiriqlarning yosh xususiyatlariga mosligi alohida ahamiyatga ega. Savolning murakkabligi o‘quvchining mavjud bilimlari, tajribasi va kognitiv imkoniyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich oshirib borilishi lozim.

Dastlab o‘quvchidan kuzatish va aniqlash talab qilinsa, keyingi bosqichlarda taqqoslash, sabab-oqibat aloqalarini tushuntirish, dalil keltirish, muqobil yechim taklif qilish va xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Surxondaryo viloyati oilalarida an’anaviy oilaviy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy qarashlarning o‘zaro ta’siri natijasida oilaviy rollarning mazmuni va taqsimlanishida muayyan o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin. An’anaviy modelda erkakning moddiy ta’minotchi va asosiy qaror qabul qiluvchi, ayolning esa tarbiyachi va uy-ro‘zg‘or ishlarini bajaruvchi sifatidagi rollari ustun bo‘lishi mumkin. Zamonaviy oilalarda esa er-xotinning hamkorligi, qarorlarni birgalikda qabul qilishi va farzand tarbiyasida o‘zaro mas’uliyatning kuchayishi kuzatiladi.

Shu sababli oilaviy rollarni o‘rganishda an’anaviy yoki zamonaviy modelni mutlaq va yagona mezon sifatida qabul qilish emas, balki oilaning ijtimoiy, madaniy, demografik va iqtisodiy xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Oilaviy rollarning moslashuvchanligi, o‘zaro hurmat, mas’uliyatni taqsimlash va ochiq muloqot oilaviy munosabatlarning psixologik barqarorligini ta’minlovchi muhim omillar sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Долакова З. М. Влияние межэтнического конфликта на ролевую структуру традиционной семьи: автореф. дис. … канд. психол. наук: 19.00.05. — М., 2006.
2. Щербаков А. В. Родительские роли как детерминанты формирования личности в контексте психологической готовности к родительству у студенток вузов: автореф. дис. … канд. психол. наук. — М., 2014.
3. Shoumarov G‘. B. Oila psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2010. — 125 b.
4. Karimova V. M. Oila psixologiyasi: darslik. — Toshkent, 2007. — 72–73-b.
5. Karimova V. M. Oilaviy hayot psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent, 2006.
6. Choriyeva S. A. Oilada rolli munosabatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari // Buxoro xalqaro ilmiy axborotnomasi: ilmiy-amaliy jurnal. — 2026. — № 6. — 2-qism.

UDK 159.947.5:37.018.43

MASOFAVIY TA’LIM SHAROITIDA O‘QUV MOTIVLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Toshqo‘ziyeva Dildora Shukurjon qizi,
Farg‘ona davlat universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

Bugungi zamonaviy dunyoda ilm-fan va ta’limni texnika hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Zamonaviy texnologiyalar o‘quv faoliyatini takomillashtirish, ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish va ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli ta’lim tizimida yildan-yilga yangi yondashuvlar, texnologiyalar va islohotlar joriy etilmoqda.

Masofaviy ta’lim — pedagog va ta’lim oluvchi bir joyda bo‘lmagan sharoitda internet hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida bilim olish imkonini beruvchi zamonaviy ta’lim shaklidir. Masofaviy ta’lim, ya’ni onlayn o‘quv faoliyati avvaldan mavjud bo‘lgan bo‘lsa-da, pandemiya davrida unga bo‘lgan ehtiyoj keskin oshdi va ushbu ta’lim shakli jadal rivojlandi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Masofaviy ta’limning qator afzalliklari mavjud bo‘lib, u ta’lim oluvchi va pedagog uchun muayyan imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan, geografik joylashuv, mehnat faoliyati va vaqt bilan bog‘liq ayrim cheklovlarning kamayishi ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta’lim oluvchi o‘z imkoniyatlari va rejasidan kelib chiqib, o‘quv faoliyatini tashkil etishi mumkin. Shuningdek, transport va boshqa tashkiliy xarajatlarning kamayishi, vaqtni nisbatan moslashuvchan rejalashtirish imkoniyati ham masofaviy ta’limning muhim jihatlaridan hisoblanadi.

Biroq masofaviy ta’lim jarayonida internet tarmog‘i, texnik vositalar, raqamli savodxonlik va ta’lim jarayonini mustaqil tashkil etish bilan bog‘liq ayrim muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli masofaviy ta’limning samaradorligi nafaqat texnologik imkoniyatlarga, balki ta’lim oluvchining psixologik tayyorgarligi va o‘quv motivatsiyasiga ham bog‘liq.

O‘quv motivi shaxsni bilim olish, yangi ko‘nikmalarni egallash va o‘quv vazifalarini bajarishga undovchi ichki hamda tashqi omillar tizimi sifatida qaraladi. Motivatsiya o‘quv faoliyatining boshlanishi bilangina cheklanmay, uning davomiyligi, barqarorligi va natijadorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Masofaviy ta’lim sharoitida ta’lim oluvchi faoliyatining bevosita nazorat qilinishi nisbatan kamayishi sababli o‘quv motivlarining barqarorligi yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday sharoitda talabaning o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishi, vaqtni

to‘g‘ri taqsimlashi va o‘quv vazifalarini muntazam bajarishi uning motivatsion holati bilan chambarchas bog‘liq.

O‘quv motivatsiyasi murakkab psixologik hodisa bo‘lib, unda shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, qadriyatlari, maqsadlari va kutilmalari o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. O‘quv faoliyatida motivlar ichki va tashqi ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin.

Ichki motivatsiyada shaxsning bilim olish jarayonining o‘zi bilan bog‘liq qiziqishi va undan qoniqish olishi ustun bo‘ladi. Tashqi motivatsiyada esa baho, rag‘bat, ijtimoiy e’tirof, kasbiy istiqbol yoki boshqa tashqi natijalar muhim o‘rin tutadi.

Masofaviy ta’lim sharoitida avtonomiya ehtiyoji ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki ta’lim oluvchi o‘zining o‘quv vaqtini belgilashi, topshiriqlarni bajarish ketma-ketligini rejalashtirishi va ayrim hollarda o‘ziga qulay ta’lim strategiyasini tanlashi mumkin.

Shuni ta’kidlash joizki, yuqori darajadagi mustaqillik har doim ham yuqori motivatsiyani anglatmaydi. Agar ta’lim oluvchi o‘z faoliyatini rejalashtirish va nazorat qilish ko‘nikmalariga yetarlicha ega bo‘lmasa, ortiqcha erkinlik, aksincha, o‘quv faoliyatining sustlashishiga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, masofaviy ta’lim sharoitida o‘quv motivatsiyasi va o‘zini o‘zi boshqarish jarayonlari o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy tadqiqotlarda ham onlayn ta’limda maqsad qo‘yish, vaqtni boshqarish, topshiriqlarni rejalashtirish va o‘z faoliyatini baholash kabi o‘zini o‘zi boshqarish strategiyalarining o‘quv jarayonidagi faollik bilan bog‘liqligi ko‘rsatiladi.

Masofaviy ta’limda o‘quv motivlarini faqat shaxsning individual xususiyatlari bilan izohlash yetarli emas. Motivatsiyaning shakllanishi va mustahkamlanishida ijtimoiy muhit, o‘qituvchi bilan munosabat, tengdoshlar bilan muloqot, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ta’lim muhitining psixologik xususiyatlari muhim o‘rin egallaydi.

Masofaviy ta’limning muhim xususiyatlaridan biri ta’lim oluvchining o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etish zaruratidir. O‘quv topshiriqlarini bajarish, vaqtni taqsimlash, o‘quv materiallarini takrorlash va natijalarni nazorat qilish jarayonlari ko‘p jihatdan ta’lim oluvchining o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatiga bog‘liq.

O‘zini o‘zi boshqarish jarayonida maqsad qo‘yish, rejalashtirish, o‘z faoliyatini kuzatish, natijalarni baholash va zarur hollarda o‘quv strategiyasini o‘zgartirish kabi jarayonlar amalga oshiriladi. Mazkur jarayonlar motivatsiya bilan uzviy aloqada bo‘lib, motivatsiyasi yuqori bo‘lgan ta’lim oluvchi o‘z faoliyatini samaraliroq tashkil etishga moyil bo‘lishi mumkin.

Masofaviy ta’lim sharoitida ta’lim oluvchining motivatsiyasini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashda ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyatga ega. An’anaviy ta’lim shaklida o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi bevosita muloqot muntazam amalga oshirilsa, masofaviy ta’limda ushbu jarayon asosan raqamli aloqa vositalari orqali tashkil etiladi.

Shu sababli pedagogning muntazam qayta aloqa berishi, talabaning savollariga o‘z vaqtida javob qaytarishi, o‘quv natijalarini konstruktiv baholashi va ta’lim oluvchini qo‘llab-quvvatlashi motivatsiyaning barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Tengdoshlar bilan ijtimoiy aloqa ham masofaviy ta’limning muhim psixologik omillaridan biridir. Guruhli topshiriqlar, onlayn muhokamalar, fikr almashish va o‘zaro yordam ta’lim oluvchida ijtimoiy bog‘liqlik hissini kuchaytirishi mumkin. Bu esa o‘quv jarayonida ishtirok etish va ta’lim faoliyatini davom ettirishga qo‘shimcha motivatsion omil sifatida xizmat qiladi.

Shunday qilib, masofaviy ta’limda o‘quv motivlarini shakllantirishga kompleks yondashuv talab etiladi. Bunda texnologik imkoniyatlar psixologik va pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilishi, ta’lim oluvchining mustaqilligi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy ehtiyojlari ham hisobga olinishi lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, masofaviy ta’lim sharoitida o‘quv motivatsiyasi ta’lim oluvchining individual psixologik xususiyatlari, o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati va ta’lim muhitining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

O‘quv motivlarini qo‘llab-quvvatlash uchun ta’lim oluvchining avtonomiyasi, kompetentlik hissi va ijtimoiy bog‘liqlik ehtiyojlarini hisobga olish muhimdir. Shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari, pedagog bilan samarali muloqot, tengdoshlar bilan ijtimoiy aloqa va muntazam qayta aloqa motivatsiyaning barqarorligiga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, masofaviy ta’limning samaradorligini oshirishda faqat texnik va tashkiliy shart-sharoitlarni takomillashtirish bilan cheklanib qolmasdan, ta’lim oluvchilarning motivatsion va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini ham hisobga olish zarur. Aynan shunday kompleks yondashuv masofaviy ta’lim jarayonida o‘quv faolligi, mustaqillik va motivatsiyaning barqaror rivojlanishi uchun zarur psixologik sharoitlarni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdurahmonov F. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. G‘oziyev E. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2019.
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Universitet, 2017.
5. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Logos, 2016.
6. Markova A.K. O‘quv faoliyati motivatsiyasi. – Moskva: Pedagogika, 2015.
7. Polat E.S. Masofaviy ta’lim nazariyasi va amaliyoti. – Moskva: Akademiya, 2018.
8. Xo‘jaev B.X. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2021.
9. Deci E.L., Ryan R.M. Ta’limda ichki motivatsiya va o‘zini o‘zi belgilash. – Nyu-York: Springer, 2017.
10. Moore M.G., Kearsley G. Masofaviy ta’lim: Onlayn o‘qitishning tizimli ko‘rinishi. – Belmont: Wadsworth, 2019.

UDK 37.013.42:373.2

O‘QUVCHI TA’LIMIY AGENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Mo‘minova Adolat Safarovna,
Termiz shahar 26-umumta’lim maktabi maslahatchisi

Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida emas, balki o‘z ta’limiy faoliyatini anglaydigan, maqsad qo‘ya oladigan, mustaqil qaror qabul qiladigan va natijasi uchun mas’uliyatni his qiladigan faol shaxs sifatida shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchi ta’limiy agentligi tushunchasi zamonaviy pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’limiy agentlik o‘quvchining o‘z ta’lim jarayoniga faol ta’sir ko‘rsatishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi, ta’limiy maqsadlarini belgilashi va ularga erishish yo‘llarini mustaqil tanlay olishi bilan tavsiflanadi.

O‘quvchi ta’limiy agentligining rivojlanishi, avvalo, ta’lim muhitining qanday tashkil etilganiga bog‘liq. O‘quvchiga o‘z fikrini erkin ifodalash, savol berish, muammoli vaziyatlarga mustaqil yechim izlash va o‘z faoliyatini baholash imkoniyati berilgan ta’lim muhitida uning faolligi va mas’uliyat hissi ortadi. Bunda o‘qituvchi asosiy bilim manbai sifatidagi an’anaviy rol bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchining mustaqil faoliyatini yo‘naltiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi pedagog sifatida faoliyat yuritishi lozim.

O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri ta’lim jarayonida tanlov imkoniyatlarini kengaytirishdir. O‘quvchiga topshiriqni bajarish usulini, mavzuni o‘rganish yo‘lini yoki yakuniy natijani namoyish etish shaklini ma’lum darajada mustaqil tanlash imkonining berilishi unda ta’lim jarayoniga daxldorlik hissini shakllantiradi. Masalan, biror mavzuni o‘rganishda o‘quvchi taqdimot tayyorlash, kichik loyiha yaratish, matn tuzish yoki amaliy topshiriq bajarish variantlaridan birini tanlashi mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchining qiziqishi va individual imkoniyatlarini hisobga olish bilan birga, uning qaror qabul qilish ko‘nikmasini ham rivojlantiradi.

Ta’limiy agentlikni shakllantirishda muammoli va tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim metodlaridan foydalanish ham samarali hisoblanadi. Muammoli vaziyat o‘quvchini tayyor javobni kutishdan ko‘ra, mavjud bilimlarini tahlil qilish, qo‘shimcha ma’lumot izlash va turli yechimlarni taqqoslashga undaydi. Shu jarayonda o‘quvchi o‘z faoliyatining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ayniqsa, loyiha ishlari, kichik tadqiqotlar, munozaralar, guruhli topshiriqlar va amaliy vazifalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda tashabbuskorligini rivojlantirish uchun qulay pedagogik imkoniyat yaratadi.

O‘quvchining ta’limiy agentligini rivojlantirishda refleksiya alohida ahamiyatga ega. O‘quvchi bajarilgan ish natijasini shunchaki baho bilan emas, balki o‘z faoliyatini tahlil qilish orqali ham anglab borishi kerak. “Men nimani o‘rgandim?”, “Qaysi vazifani bajarishda qiynaldim?”, “Muammoni qanday hal qildim?”, “Keyingi safar nimani boshqacha bajarishim mumkin?” kabi savollar o‘quvchida o‘z ta’limiy faoliyatiga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi. O‘z faoliyatini muntazam tahlil qilish esa o‘quvchining o‘z kuchi va imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashiga yordam beradi.

Ta’lim jarayonida baholashning mazmuni va shakllari ham o‘quvchi agentligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Faqat yakuniy natijaga yo‘naltirilgan baholash o‘quvchini baho olishga qaratishi mumkin. Jarayonni, harakatni va individual rivojlanishni ham hisobga oladigan formatif baholash esa o‘quvchini o‘z faoliyatini takomillashtirishga undaydi. O‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash elementlaridan foydalanish o‘quvchining mezonlarni tushunishi, o‘z ishiga tanqidiy yondashishi va mas’uliyat bilan qaror qabul qilishiga yordam beradi.

O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirishda psixologik jihatdan xavfsiz ta’lim muhitini yaratish ham muhim shartlardan biridir. O‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmaydigan, o‘z fikrini erkin ifodalay oladigan va uning fikri hurmat qilinadigan muhitda faolroq ishtirok etadi. Shu sababli o‘qituvchi tomonidan xatoni faqat kamchilik sifatida emas, balki o‘rganish va rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qilishga yo‘naltirilgan yondashuvning mavjudligi muhimdir. Bunday muhit o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va ta’lim jarayonidagi tashabbuskorligini oshiradi.

Mazkur jarayonda oila va maktab hamkorligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Ota-onalarning bolaning mustaqil fikri va tanlovlarini hurmat qilishi, uni doimiy nazorat qilishdan ko‘ra, kerakli paytda maslahat va ko‘mak berishi ta’limiy agentlikning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktab, oila va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik izchil yo‘lga qo‘yilganda bolaning o‘z ta’limiy maqsadlarini belgilashi va ularga erishish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi uchun zarur sharoit yaratiladi.

Shuningdek, raqamli ta’lim vositalaridan oqilona foydalanish o‘quvchi agentligini rivojlantirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. Elektron ta’lim resurslari, mustaqil izlanish uchun mo‘ljallangan platformalar va raqamli loyihalar o‘quvchiga ma’lumotni mustaqil izlash, saralash va undan foydalanish imkonini beradi. Biroq bunda o‘quvchining tayyor axborotni ko‘chirib olishiga emas, balki axborotni tahlil qilish, taqqoslash va undan yangi xulosa chiqarishiga e’tibor qaratish zarur. Raqamli vosita maqsad emas, balki o‘quvchining mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik vosita sifatida qaralishi lozim.

O‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirishda individual yondashuv ham muhim o‘rin tutadi. Har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati, bilim darajasi va ta’lim olish sur’ati turlicha bo‘lganligi sababli, barcha o‘quvchilarga bir xil talab va topshiriqlarni qo‘llash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Differensial topshiriqlar, individual ta’limiy maqsadlar va shaxsiy rivojlanish dinamikasini hisobga olish o‘quvchining o‘z

imkoniyatlarini anglashiga yordam beradi. Natijada o‘quvchi o‘z ta’lim jarayonining oddiy ijrochisi emas, balki uni rejalashtirish va takomillashtirishda ishtirok etuvchi faol subyektga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi ta’limiy agentligini rivojlantirish zamonaviy maktab ta’limining muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Buning uchun o‘quvchiga mustaqil tanlov qilish imkonini beruvchi, fikrini erkin ifodalashni qo‘llab-quvvatlovchi, refleksiya va o‘z-o‘zini baholashga asoslangan ta’lim muhitini yaratish zarur. O‘qituvchining fasilitatorlik pozitsiyasi, muammoli va loyihaviy ta’lim metodlaridan foydalanish, formatif baholash, individual yondashuv hamda oila bilan hamkorlik o‘quvchi agentligining rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik shartlar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur shartlarning izchil amalga oshirilishi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, mas’uliyat, tashabbuskorlik, o‘z faoliyatini boshqarish va hayot davomida ta’lim olishga tayyorlik kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
2. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986.
3. Zimmerman B. J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory into Practice. – 2002. – Vol. 41. – No. 2. – P. 64–70.
4. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being // American Psychologist. – 2000. – Vol. 55. – No. 1. – P. 68–78.
5. OECD. The Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. – Paris: OECD Publishing, 2019.
6. O‘zbekiston Respublikasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.

UDK 159.922.8:316.624

O‘SMIRLIK DAVRIDA ABYUZ XULQ-ATVORNING NAMOYON BO‘LISH OMILLARI

O‘skanov Mirsaid Abdurashid o‘g‘li,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchi

O‘smirlik davri shaxsning ijtimoiy munosabatlari, o‘zini anglash va mustaqil xulq strategiyalari faol shakllanadigan rivojlanish bosqichidir. Ushbu davrda tengdoshlar bilan munosabatlarning ahamiyati ortishi, mustaqillikka intilishning kuchayishi hamda emotsional boshqaruv mexanizmlarining rivojlanishi o‘smir xulq-atvorida turli o‘zgarishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, o‘smirlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarda nazorat, manipulyatsiya, psixologik bosim, kamsitish va boshqa shaxsning xatti-harakatlarini boshqarishga intilish kabi xulq shakllarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Abyuz xulq-atvorni faqat agressiv xatti-harakat bilan tenglashtirish mazkur hodisaning mazmunini to‘liq ochib bermaydi. Uning muhim belgilaridan biri boshqa shaxs ustidan nazorat o‘rnatish, psixologik bosim orqali ta’sir ko‘rsatish va shaxslararo munosabatlarda tenglikning buzilishidir. Bunday xulq o‘smirlik davrida yuzaga keladigan nizolar, tengdoshlar bilan munosabatlar, oilaviy tajriba va emotsiyalarni boshqarish imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq holda namoyon bo‘lishi mumkin.

O‘zbek psixologiyasida o‘smirlik davrida shaxs rivojlanishi, uning ijtimoiylashuvi, oilaviy va guruhiy munosabatlari hamda xulq-atvorining shakllanishi bilan bog‘liq masalalar muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Z.T. Nishanovaning qarashlariga ko‘ra, o‘smirlik davridagi psixologik o‘zgarishlarni anglash va psixologik yordamni tashkil etishda o‘smirning individual xususiyatlari hamda ijtimoiy muhitini hisobga olish muhimdir [1]. Bu davrda biologik, ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlar, tengdoshlar bilan munosabatlar hamda ziddiyatli vaziyatlar o‘smirning psixologik holati va xulq-atvoriga ta’sir qilishi mumkin.

G‘.B. Shoumarovning tadqiqotlarida oilaviy muhit, ota-ona va farzand munosabatlari hamda tarbiya xususiyatlarining shaxs rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan [2]. Oila o‘smirning dastlabki ijtimoiy tajribasi, muloqot uslubi va xulqiy me’yorlari shakllanadigan asosiy muhit hisoblanadi. Oiladagi iliq, qo‘llab-quvvatlovchi va ishonchli munosabatlar o‘smir uchun himoya omili bo‘lsa, kamsitish, qo‘rqitish, haddan tashqari nazorat va salbiy muloqot uning shaxslararo munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois oilaviy muhit o‘smirlik davrida abyuz xulq-atvorning xavf va himoya omillarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

V.M. Karimovaning ijtimoiy-psixologik qarashlarida shaxs shakllanishida ijtimoiy muhit va guruh ta’sirining ahamiyati ta’kidlanadi [3]. O‘smirning qadriyatlari, munosabatlari va xulq-atvori tengdoshlar guruhi ta’sirida shakllanishi mumkin. Ijobiy guruh muhiti konstruktiv xulq va muloqotni rivojlantirsa, salbiy xulq modellarining ma’qullanishi ularning o‘zlashtirilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tengdoshlar muhiti abyuz xulq-atvorning shakllanishida muhim ijtimoiy omil sifatida qaraladi.

N.G. Kamilova va Z. Kadirovaning tadqiqotlarida emotsional intellekt, ya’ni emotsiyalarni anglash va boshqarish qobiliyatining xulq-atvor bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan [4]. Emotsional sohaning rivojlanganligi o‘smirga o‘z hissiyotlarini boshqarish va boshqalarning emotsional holatini tushunish imkonini berib, nizoli vaziyatlarda konstruktiv xulq strategiyasini tanlashga yordam beradi. Empatiyaning rivojlanganligi esa boshqa insonning nuqtayi nazari va hissiy holatini anglashni ta’minlab, tushunmovchilik va salbiy munosabatlarni kamaytiradi. Shu bois emotsional intellekt va empatiya o‘smirlik davrida abyuz xulq-atvorning oldini oluvchi muhim psixologik himoya omillari sifatida qaraladi.

K.A. Dodge va N.R. Crick tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy axborotni qayta ishlash modeli shaxsning xulqiy reaksiyasi ijtimoiy vaziyatni qanday idrok etishi va baholashiga bog‘liqligini asoslaydi [5]. Ushbu yondashuv o‘smirning bir xil vaziyatlarga turlicha munosabat bildirishini tushuntirish imkonini beradi. Emotsional boshqaruvi va empatiyasi yetarli shakllangan o‘smir boshqa shaxsning fikri yoki tanqidini vaziyatga mos ravishda baholashi mumkin. Aksincha, vaziyatni noto‘g‘ri yoki tahdid sifatida talqin qilish nizoning kuchayishiga va salbiy xulqiy strategiyaning tanlanishiga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, xulq-atvor kuzatish, taqlid va ijtimoiy modellashtirish orqali shakllanishi mumkin [6]. O‘smirlik davrida taqlid va ijtimoiy kuzatish mexanizmlarining faol ishtirok etishi sababli ota-ona, oila a’zolari, tengdoshlar va boshqa ahamiyatli shaxslarning xulq-atvor namunalari o‘smirga kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijobiy xulq modellarining kuzatilishi muloqot, o‘zaro hurmat, muammolarni konstruktiv hal qilish va hamkorlik ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Biroq salbiy xulq modellari muntazam kuzatilsa va ma’qullansa, ularning o‘zlashtirilishi ehtimoli ham ortadi.

Nazariy tahlil natijasida abyuz xulq-atvorning namoyon bo‘lishida kognitiv, emotsional, oilaviy-ijtimoiy va raqamli omillar muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Kognitiv omillar o‘smirning vaziyatni idrok etishi va baholashi bilan bog‘liq bo‘lib, nizoni tahdid sifatida qabul qilish salbiy xulq strategiyasini tanlashga olib kelishi mumkin. Emotsional omillar esa hissiyotlarni boshqarish va empatiya bilan bog‘liq bo‘lib, ularning yetarli rivojlanmaganligi impulsiv, bosim o‘tkazuvchi yoki manipulyativ xatti-harakatlar ehtimolini oshirishi mumkin.

Oilaviy-ijtimoiy muhitdagi ota-ona munosabatlari, tarbiya uslubi va tengdoshlar ta’siri ham o‘smir xulq-atvorining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli muhitda esa kiberbulling, virtual bosim va kamsitish kabi holatlar abyuz xulq-atvorning yangi

ko‘rinishlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shunday qilib, abyuz xulq-atvor individual psixologik xususiyatlar, ijtimoiy tajriba, oilaviy va tengdoshlar muhiti hamda raqamli muhitning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘smirlik davrida abyuz xulq-atvorning namoyon bo‘lishi bitta omil bilan emas, balki individual psixologik va ijtimoiy-psixologik omillarning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq murakkab jarayondir. O‘smirning ijtimoiy tajribasi, vaziyatni kognitiv baholashi, emotsiyalarni boshqarish va empatiya darajasi, shuningdek, oilaviy va tengdoshlar muhiti uning xulqiy strategiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ijobiy ijtimoiy muhit, emotsional boshqaruv va konstruktiv muloqot ko‘nikmalarining rivojlanganligi abyuz xulq-atvorning oldini olishda muhim himoya omillari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois o‘smirlar bilan olib boriladigan profilaktik ishlarni psixolog, ota-ona, pedagog va tengdoshlar hamkorligiga asoslangan kompleks yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nishanova Z.T. Psixologik xizmat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
2. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2010.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 172 b.
4. Kamilova N.G., Kadirova Z. Razvitiye emotsionalnogo intellekta u molodeji s deviantnym povedeniyem // Bola va Zamon. – 2022. – № 1. – B. 26–29.
5. Dodge K.A., Crick N.R. Social Information-Processing Bases of Aggressive Behavior in Children // Personality and Social Psychology Bulletin. – 1990. – Vol. 16, № 1. – P. 8–22.
6. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.

UDK 159.9:378.4:376

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ ВУЗА

Юнусзода Шахноза Жовиджоновна,
Ассистент кафедры педагогики и общей психологии
факультета психологии и социально-политических наук
Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова

Современные тенденции развития системы образования обусловливают необходимость создания образовательной среды, обеспечивающей равные возможности для всех обучающихся, в том числе для лиц с особыми образовательными потребностями. В связи с этим особую актуальность приобретает проблема развития инклюзивной культуры в образовательном пространстве высшего учебного заведения.

Инклюзивная образовательная среда представляет собой пространство, в котором создаются условия для равноправного участия всех обучающихся независимо от их физических, психологических, социальных и иных индивидуальных особенностей. При этом создание доступных организационных и материально-технических условий само по себе не обеспечивает полноценной инклюзии. Важное значение имеет формирование благоприятного социально-психологического климата, основанного на принятии индивидуальных различий, взаимном уважении, толерантности, эмпатии и готовности участников образовательного процесса к конструктивному взаимодействию.

Эффективность инклюзивного образования во многом определяется систематическим психолого-педагогическим сопровождением. Такой подход предполагает междисциплинарное взаимодействие специалистов и направлен на создание условий для полноценного развития личности обучающегося [1]. Психологическое сопровождение должно охватывать не только студентов с особыми образовательными потребностями, но и других участников образовательного процесса.

В основе интегрированного обучения обучающихся с ограниченными возможностями здоровья лежит стремление обеспечить совместное обучение всех студентов, не допуская социальной изоляции и формирования у обучающихся с особыми потребностями чувства неполноценности или второстепенности [2]. Важной задачей инклюзивного образования является не только обеспечение доступности обучения, но и формирование у каждого

обучающегося готовности к дальнейшему личностному и социальному развитию.

Особая роль в решении данной задачи принадлежит психологической службе высшего учебного заведения. Деятельность психолога направлена на психологическое сопровождение обучающихся с особыми образовательными потребностями, содействие их адаптации и интеграции в студенческое сообщество, а также формирование благоприятных взаимоотношений между всеми участниками образовательного процесса.

Важнейшей составляющей инклюзивной образовательной среды является инклюзивная культура. Она предполагает формирование системы ценностей, норм и установок, основанных на признании человеческого разнообразия, уважении индивидуальных различий, равноправии, взаимной поддержке и сотрудничестве. Согласно подходу Т. Бута и М. Эйнскоу, развитие инклюзии связано не только с изменением образовательной политики и практики, но и с формированием культуры, в которой каждый участник образовательного процесса ощущает собственную ценность и принадлежность к образовательному сообществу [3].

Психологическое сопровождение является важным элементом образовательной системы, обеспечивающим условия для психического, психофизического и личностного развития обучающихся. Полноценная адаптация личности с особыми образовательными потребностями осуществляется во взаимодействии личности и социальной микросреды. В связи с этим психологическое сопровождение должно быть направлено не только на решение актуальных проблем, но и на создание перспектив личностного развития обучающегося.

Современная деятельность психологической службы включает несколько взаимосвязанных направлений: психологическую диагностику, консультирование, профилактическую, просветительскую и коррекционно-развивающую работу. В условиях инклюзивной образовательной среды данные направления приобретают особое значение, поскольку позволяют своевременно выявлять трудности адаптации, предупреждать конфликты и социальную изоляцию, а также способствовать развитию позитивных установок по отношению к индивидуальным различиям.

Одним из важных направлений деятельности психологической службы является формирование психологической культуры участников образовательного процесса. Будущий специалист должен обладать не только профессиональными знаниями и компетенциями, но и способностью эффективно взаимодействовать с людьми, имеющими различные образовательные потребности, социальный и культурный опыт. Подготовка специалистов, способных осуществлять профессиональную деятельность в условиях

инклюзивного пространства, является значимой задачей современной системы высшего образования [4; 5].

Психологическая служба также выполняет просветительскую функцию. Проведение тренингов, семинаров, психологических консультаций и профилактических мероприятий способствует повышению психологической грамотности студентов и педагогов, развитию эмпатии, толерантности и навыков конструктивного взаимодействия. Особое значение имеет предупреждение социальной дистанции, предубеждений и стигматизации обучающихся с особыми образовательными потребностями.

Таким образом, развитие инклюзивной культуры в образовательном пространстве вуза представляет собой комплексный процесс, который не должен ограничиваться созданием специальных условий для студентов с ограниченными возможностями здоровья. Полноценная инклюзия предполагает формирование благоприятной социально-психологической среды, основанной на принципах равноправия, принятия индивидуальных различий, взаимного уважения, толерантности и сотрудничества.

Психологическую службу высшего учебного заведения целесообразно рассматривать как один из значимых ресурсов развития инклюзивной культуры. Ее деятельность должна быть направлена не только на психологическое сопровождение и адаптацию студентов с особыми образовательными потребностями, но и на работу со всеми участниками образовательного процесса. Комплексное психологическое сопровождение, просветительская, профилактическая и коррекционно-развивающая деятельность способствуют формированию позитивных установок, развитию эмпатии и снижению социальной дистанции. В результате создаются условия для равноправного участия всех обучающихся в образовательной и социальной жизни вуза.

Литература:

1. Алехина С.В. Инклюзивное образование для детей с ограниченными возможностями здоровья: монография / Н.В. Новикова, Л.А. Казакова, С.В. Алехина; под общ. ред. Н.В. Лалетина. – Красноярск, 2013. – С. 71–95.
2. Коноплева А.Н., Лещинская Т.Л. Интегрированное обучение детей с особенностями психофизического развития: монография. – Минск: НИО, 2003. – 232 с.
3. Бут Т., Эйнскоу М. Показатели инклюзии: практическое пособие / под ред. М. Вогана. – Бристоль: Центр изучения инклюзивного образования.
4. Климов Е.А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов н/Д.: Феникс, 1996. – 512 с.
5. Апанасенко О.Н., Малюкова Е.В. Психологическая культура личности, ее формирование в вузе // Педагогика: традиции и инновации: материалы II

Международной научной конференции. – Челябинск: Два комсомольца, 2012. – С. 154–155.

6. Бордовская Н.В. О характере взаимовлияния образования и культуры // Вестник Северо-Западного отделения РАО: Образование и культура Северо-Запада России. – СПб., 2000. – Вып. 5: Культура. Образование. Искусство. – С. 32–42.

УДК 159.9:378.147:004.9

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АДАПТАЦИИ СТУДЕНТОВ К ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Джамашова Г.А.,
магистр, старший преподаватель
Центрально-Азиатского инновационного университета,
Республика Казахстан

Современное высшее образование находится в условиях активной цифровой трансформации. Использование электронных образовательных платформ, мобильных приложений, видеоконференций, систем дистанционного обучения и технологий искусственного интеллекта постепенно становится неотъемлемой частью образовательного процесса. Цифровая среда расширяет возможности получения знаний, обеспечивает доступ к разнообразным образовательным ресурсам и создает условия для индивидуализации обучения.Однако внедрение цифровых технологий изменяет не только организацию учебного процесса, но и характер деятельности самого студента. Обучающийся должен самостоятельно планировать свое время, искать и анализировать информацию, контролировать результаты собственной деятельности и поддерживать необходимый уровень учебной мотивации.В традиционной образовательной среде значительная часть этих функций обеспечивается непосредственным взаимодействием преподавателя и студента. В цифровом пространстве возрастает роль самостоятельности и саморегуляции обучающегося. В связи с этим психологическая адаптация студентов к цифровой образовательной среде становится важным условием успешного обучения.Психологическая адаптация представляет собой процесс приспособления личности к новым условиям деятельности, в ходе которого формируются соответствующие способы поведения, эмоционального реагирования и взаимодействия с окружающей средой. В условиях цифрового образования данный процесс приобретает специфический характер, поскольку студенту необходимо адаптироваться не только к новым технологиям, но и к изменению привычного формата учебной коммуникации.

Цель исследования — теоретически обосновать психологические особенности адаптации студентов к цифровой образовательной среде и определить основные факторы, влияющие на успешность данного процесса.

Для достижения поставленной цели были определены следующие задачи:

1. раскрыть сущность психологической адаптации студентов к цифровой образовательной среде;

2. определить основные психологические факторы цифровой адаптации;

3. рассмотреть влияние учебной мотивации и саморегуляции на адаптационный процесс;

4. выявить основные психологические трудности студентов в цифровой образовательной среде;

5. определить психолого-педагогические условия успешной адаптации студентов.

Цифровая образовательная среда представляет собой совокупность цифровых ресурсов, технологий, образовательных платформ и способов взаимодействия участников образовательного процесса, обеспечивающих организацию обучения и доступ к образовательной информации.Переход к цифровому формату обучения требует от студентов определенной психологической готовности. Недостаточно обладать техническими навыками работы с компьютером или мобильным устройством. Студенту необходимо уметь организовывать собственную учебную деятельность, контролировать внимание, соблюдать сроки выполнения заданий и самостоятельно оценивать результаты обучения.

Адаптация к цифровой образовательной среде включает несколько взаимосвязанных компонентов когнитивный компонент — понимание особенностей цифрового обучения и способность работать с информацией,

мотивационный компонент — наличие устойчивого интереса к учебной деятельности,эмоциональный компонент — способность сохранять психологическое равновесие при возникновении трудностей,поведенческий компонент — готовность соблюдать учебный режим и выполнять поставленные задачи,коммуникативный компонент — способность эффективно взаимодействовать с преподавателями и другими студентами посредством цифровых средств,регулятивный компонент — способность самостоятельно планировать, контролировать и корректировать собственную учебную деятельность.Психологическая адаптация представляет собой сложный процесс, в котором одновременно участвуют познавательные, эмоциональные, мотивационные и поведенческие механизмы.

Одним из важнейших факторов успешной адаптации студентов является учебная мотивация. В цифровой среде студент получает значительно больше возможностей для самостоятельного выбора образовательных ресурсов, времени и способов работы. Вместе с тем такая свобода требует внутренней мотивации и ответственности.При недостаточном уровне мотивации студент может откладывать выполнение заданий, формально участвовать в онлайн-занятиях и испытывать трудности с организацией самостоятельной работы.

Высокая учебная мотивация, напротив, способствует активному использованию цифровых ресурсов, поиску дополнительной информации и осознанному отношению к образовательному процессу.Особое значение имеет

внутренняя мотивация, при которой студент воспринимает обучение не только как выполнение требований преподавателя, но и как возможность личностного и профессионального развития.Поэтому преподавателю важно создавать такие цифровые задания, которые имеют практическую значимость, предполагают самостоятельный поиск решения и позволяют студенту видеть результаты собственной деятельности.

Цифровая образовательная среда значительно повышает требования к способности студентов к саморегуляции.Саморегуляция учебной деятельности включает постановку целей, планирование, контроль выполнения заданий, оценку полученных результатов и корректировку дальнейших действий.Студент, обладающий развитыми навыками саморегуляции, способен самостоятельно распределять учебное время, устанавливать приоритеты и контролировать выполнение поставленных задач. Особенно важным это становится при дистанционном и смешанном обучении. Отсутствие постоянного непосредственного контроля преподавателя требует от обучающегося высокой степени ответственности.

В этой связи цифровая образовательная среда может одновременно выступать как фактор риска и как средство развития самостоятельности. При грамотной организации обучения студент получает возможность постепенно формировать навыки планирования, самооценки и самоконтроля.

Важным компонентом адаптации является эмоциональное состояние студента.Использование новых цифровых инструментов может вызывать как положительные, так и отрицательные эмоциональные реакции. Успешное освоение технологии, выполнение задания и получение положительной обратной связи способствуют формированию уверенности в собственных возможностях.В то же время технические проблемы, большое количество учебной информации, высокая скорость коммуникации и необходимость постоянного пребывания в цифровой среде могут приводить к эмоциональному напряжению.Одной из распространенных проблем является информационная перегрузка. Студент одновременно получает сообщения из нескольких образовательных платформ, электронную почту, уведомления и задания. Постоянный поток информации может затруднять концентрацию внимания и повышать утомляемость. Кроме того, длительное использование цифровых устройств способно снижать эффективность учебной деятельности при отсутствии рационального режима работы и отдыха. Психологически комфортная цифровая среда должна учитывать не только технологические возможности, но и эмоциональные потребности обучающихся.Еще одной особенностью цифровой адаптации является изменение характера общения.

Традиционное обучение предполагает непосредственный контакт преподавателя и студентов. В цифровой среде коммуникация часто осуществляется через электронную почту, мессенджеры, видеоконференции,

образовательные платформы и форумы.Такой формат имеет определенные преимущества: студент может взаимодействовать с преподавателем независимо от расстояния и получать доступ к учебным материалам в удобное время.Однако сокращение непосредственного общения может создавать ощущение социальной дистанции. У некоторых студентов может снижаться активность участия в обсуждениях, возникать трудности при выражении собственного мнения или ощущение недостатка эмоциональной поддержки.Поэтому преподавателю необходимо целенаправленно создавать условия для коммуникации: проводить групповые обсуждения, использовать интерактивные задания, организовывать совместные проекты и обеспечивать регулярную обратную связь.Успешность адаптации во многом зависит от уровня цифровой компетентности студента.Цифровая компетентность включает не только умение пользоваться техническими средствами, но и способность находить, анализировать, оценивать и безопасно использовать цифровую информацию.Студент с достаточным уровнем цифровой компетентности, как правило, испытывает меньше трудностей при освоении новых образовательных платформ и цифровых инструментов.Недостаток цифровых навыков, напротив, может становиться источником неуверенности и эмоционального напряжения. Поэтому в вузе необходимо не только предоставлять студентам доступ к цифровым технологиям, но и формировать культуру их грамотного использования.Особую значимость приобретает развитие навыков информационной безопасности, критической оценки цифрового контента и ответственного использования искусственного интеллекта.Для успешной адаптации студентов к цифровой образовательной среде целесообразно создать комплекс психолого-педагогических условий.

К основным условиям относятся **постепенное внедрение цифровых технологий.** Студентам необходимо предоставлять время для освоения новых инструментов. **Понятная организация цифрового пространства.** Учебные материалы, задания и сроки их выполнения должны быть представлены структурированно.Регулярная обратная связь**.** Студент должен понимать, насколько успешно он выполняет учебные задачи.Поддержка учебной мотивации**.** Задания должны иметь понятную практическую и профессиональную значимость.Развитие саморегуляции**.** Необходимо формировать навыки планирования, самоконтроля и самооценки.Поддержание социальной коммуникации**.** Цифровое обучение не должно исключать взаимодействие между студентами и преподавателем.Психологически комфортная образовательная среда**.** Ошибки студента должны рассматриваться как естественная часть процесса обучения. Развитие цифровой грамотности**.** Студенты должны понимать не только технические возможности цифровых инструментов, но и риски их использования.

Анализ научных подходов показывает, что психологическая адаптация студентов к цифровой образовательной среде является многофакторным процессом. Ее успешность определяется совокупностью индивидуально-психологических характеристик студента и особенностей организации образовательной среды.Нельзя утверждать, что само наличие цифровых технологий автоматически повышает качество образования. Результативность зависит от того, насколько технологии соответствуют образовательным целям и психологическим особенностям обучающихся.

Особенно важным становится баланс между технологической автоматизацией и человеческим взаимодействием. Современные цифровые инструменты, включая системы искусственного интеллекта, способны значительно расширять образовательные возможности, однако они не должны полностью заменять педагогическое и психологическое сопровождение.Важную роль играет преподаватель, который помогает студенту не только освоить цифровые инструменты, но и сформировать ответственное отношение к собственной образовательной деятельности.

Заключение.Адаптация студентов к цифровой образовательной среде представляет собой сложный психологический процесс, включающий когнитивный, мотивационный, эмоциональный, коммуникативный и регулятивный компоненты.Основными факторами успешной адаптации являются высокий уровень учебной мотивации, развитая саморегуляция, цифровая компетентность, способность к самостоятельной работе, эмоциональная устойчивость и готовность к новым формам коммуникации.

В то же время информационная перегрузка, снижение концентрации внимания, недостаток непосредственного общения, технические трудности и недостаточная самоорганизация могут осложнять процесс адаптации.В связи с этим цифровая трансформация высшего образования должна сопровождаться не только технологическим обновлением, но и созданием соответствующей психолого-педагогической системы поддержки студентов.

Перспективным направлением дальнейших исследований является эмпирическое изучение взаимосвязи цифровой компетентности, учебной мотивации, саморегуляции и психологического благополучия студентов. Полученные результаты могут быть использованы для разработки программ психологического сопровождения и адаптации обучающихся к цифровой образовательной среде.

Список литературы:

1. Андреева Г.М. Социальная психология: учебник для высших учебных заведений. — М.: Аспект Пресс, 2009. — 363 с.

2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. — М.: Педагогика-Пресс, 1999. — 536 с.

3. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для вузов. — 2-е изд., доп., испр. — М.: Логос, 2000. — 384 с.

4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Смысл; Академия, 2005. — 352 с.

5. Моросанова В.И. Саморегуляция и индивидуальность человека. — М.: Наука, 2010. — 519 с.

6. Роберт И.В. Теория и методика информатизации образования: психолого-педагогический и технологический аспекты. — М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2014. — 400 с.

7. Солдатова Г.У., Рассказова Е.И. Цифровая компетентность подростков и родителей. Результаты всероссийского исследования. — М.: Фонд Развития Интернет, 2015. — 144 с.

8. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986. — 617 p.

9. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. — New York: Plenum Press, 1985. — 371 p.

10. Zimmerman B.J. Becoming a Self-Regulated Learner: An Overview // Theory into Practice. — 2002. — Vol. 41, No. 2. — P. 64–70.

УДК 378.147:004.9

АДАПТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ

Джамашова Г.А.,
магистр, старший преподаватель
Центрально-Азиатского инновационного университета,
Республика Казахстан

Современная система высшего образования развивается в условиях интенсивной цифровой трансформации. Расширение цифровых образовательных платформ, систем управления обучением, технологий искусственного интеллекта и образовательной аналитики постепенно изменяет традиционные подходы к организации учебного процесса. В этих условиях особую значимость приобретает задача создания такой образовательной среды, которая способна учитывать индивидуальные особенности каждого студента. Традиционная модель обучения преимущественно предполагает работу с группой студентов по единому содержанию, в одинаковом темпе и по относительно унифицированной системе контроля. Однако фактический уровень подготовки обучающихся, их познавательные возможности, мотивация, образовательные интересы и темп усвоения материала существенно различаются. Поэтому использование одинаковых методов и учебных материалов не всегда обеспечивает одинаковую эффективность обучения. Одним из перспективных направлений решения данной проблемы является адаптивное обучение. Его основная идея заключается в изменении содержания, сложности, последовательности и темпа учебного материала в зависимости от индивидуальных образовательных результатов студента. Особую актуальность адаптивные технологии приобретают в связи с развитием искусственного интеллекта. Современные интеллектуальные образовательные системы способны анализировать результаты деятельности студентов, выявлять пробелы в знаниях, формировать рекомендации и предлагать различные варианты дальнейшего обучения. Исследования, проведенные в Казахстане, показывают перспективность использования искусственного интеллекта для построения адаптивных образовательных траекторий и персонализации обучения. Цель исследования заключается в теоретическом обосновании педагогических возможностей адаптивных технологий в системе высшего образования и определении перспектив их эффективного применения в цифровой образовательной среде.

Адаптивное обучение представляет собой организацию образовательного процесса, при которой содержание, методы, темп и формы представления учебного материала изменяются с учетом индивидуальных характеристик и результатов обучающегося. В отличие от традиционной модели, где преподаватель предлагает одинаковый учебный материал всей группе, адаптивная модель предусматривает возможность формирования различных образовательных маршрутов. Студент, успешно освоивший определенную тему, может перейти к более сложному уровню заданий, тогда как студенту, испытывающему затруднения, предоставляются дополнительные объяснения, упражнения и учебные ресурсы. Таким образом, адаптивное обучение связано не только с использованием цифровых платформ. В первую очередь это педагогический подход, направленный на индивидуализацию образовательного процесса. В научной литературе понятия «адаптивное обучение» и «персонализированное обучение» нередко рассматриваются во взаимосвязи. Однако между ними существует определенное различие. Персонализация предполагает ориентацию образовательного процесса на индивидуальные цели и потребности обучающегося, тогда как адаптивность связана прежде всего с автоматическим или педагогически управляемым изменением учебной траектории в зависимости от получаемых данных.

9. Wilmer H. H., Sherman L. E., Chein J. M. Smartphones and cognition: A review of research exploring the links between mobile technology habits and cognitive functioning // *Frontiers in Psychology*. — 2017. — Vol. 8. — Article 605. — DOI: 10.3389/fpsyg.2017.00605.

10. Ophir E., Nass C., Wagner A. D. Cognitive control in media multitaskers // *Proceedings of the National Academy of Sciences*. — 2009. — Vol. 106, No. 37. — P. 15583–15587. — DOI: 10.1073/pnas.0903620106.

11. Kardefelt-Winther D. *How Does the Time Children Spend Using Digital Technology Impact Their Mental Well-being, Social Relationships and Physical Activity? An Evidence-focused Literature Review*. — Florence: UNICEF Office of Research, 2017.

12. Bandura A. *Social Learning Theory*. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.

13. Carr N. *The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains*. — New York: W. W. Norton & Company, 2010.

UDK 316.472.4:159.9:316.6

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI IDEAL OILAVIY OBRAZLAR, NIKOHDAN KUTILMALAR VA OILAVIY QONIQISH O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG‘LIQLIK

Umrzaqova Gulchexraxon Abdurasuljon qizi,
Alfraganus universiteti psixologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar insonlarning muloqot qilish, axborot olish, o‘zini namoyon etish va ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish usullarini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida insonlar nafaqat o‘z hayotini boshqalarga namoyish etish, balki boshqa shaxslarning kundalik hayoti, munosabatlari va oilaviy tajribalarini kuzatish imkoniyatiga ham ega bo‘ldilar.

Oilaviy munosabatlar ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etiladigan mavzulardan biridir. Foydalanuvchilar ko‘pincha oilaviy hayotning ijobiy va estetik jihatlarini — sayohatlar, bayramlar, sovg‘alar, romantik uchrashuvlar, farzandlarning yutuqlari yoki moddiy farovonlikni aks ettiruvchi lavhalarni ulashadilar. Shu bilan birga, kundalik hayotdagi kelishmovchiliklar, moliyaviy qiyinchiliklar, charchoq, nizolar va boshqa murakkab holatlar odatda kamroq namoyish etiladi.

Bunday tanlab taqdim etish natijasida ijtimoiy tarmoqlarda oilaviy hayotning idealizatsiyalangan ko‘rinishi shakllanishi mumkin. Mazkur obrazlarni muntazam kuzatish ayrim shaxslarda o‘z oilaviy hayotini boshqalarning onlayn tasvirlari bilan taqqoslashga, nikohdan yuqori yoki realistik bo‘lmagan kutishlarning shakllanishiga sabab bo‘lishi ehtimolini oshiradi.

Ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga ko‘ra, insonlar o‘zlarining xususiyatlari, imkoniyatlari va hayotiy holatini baholashda boshqa insonlar bilan taqqoslashga moyildirlar [12]. Ijtimoiy tarmoqlar esa bunday taqqoslash uchun keng va doimiy axborot maydonini yaratadi. Ayniqsa, yuqoriga qarab ijtimoiy taqqoslash, ya’ni shaxsning o‘zini o‘zidan yaxshiroq yoki baxtliroq deb qabul qilgan insonlar bilan solishtirishi, ayrim hollarda norozilik va yetarli emaslik hissini kuchaytirishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy tarmoqlardagi ideal oilaviy obrazlar, nikohdan kutishlar va oilaviy qoniqish o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish zamonaviy psixologiya uchun dolzarb masalalardan biridir. Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal oilaviy obrazlar foydalanuvchilarning o‘z hayotini tanlab namoyish etishi, vizual tahrirlash vositalari, algoritmik tavsiya tizimlari va ijtimoiy taqqoslash jarayonlari bilan bog‘liq holda shakllanishi mumkin.

Foydalanuvchi odatda o‘z profilida boshqalarda ijobiy taassurot qoldirishi mumkin bo‘lgan kontentni tanlashga intiladi. Oilaviy hayotga oid postlarda ham ushbu tendensiya kuzatilishi mumkin. Masalan, oilaviy sayohatlar, bayramlar, romantik

uchrashuvlar, sovg‘alar, farzandlarning muvaffaqiyatlari va moddiy farovonlikni aks ettiruvchi materiallar ko‘proq e’tiborga olinadi.

Bunday kontentning muntazam takrorlanishi ayrim foydalanuvchilarda “ideal oila” haqidagi tasavvurlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bunda real oilaviy hayotning murakkabligi va ziddiyatlari ko‘pincha ko‘rinmaydi.

Ijtimoiy tarmoqlarda ideal oilaviy obrazlarni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

“Mukammal juftlik” obrazi. Bunda er-xotin o‘rtasidagi doimiy romantika, o‘zaro tushunish, e’tibor va birgalikdagi faoliyatlar asosiy o‘ringa chiqadi.

“Ideal ota-ona va farzandlar” obrazi. Ushbu obrazda farzandlarning doimo baxtli, tartibli va muvaffaqiyatli ekani, ota-onalarning esa ularga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishi tasvirlanadi.

“Muvaffaqiyatli va farovon oila” obrazi. Bunda moddiy farovonlik, katta uy, avtomobil, qimmatbaho buyumlar va sayohatlar oilaviy baxtning muhim belgilaridek namoyish etilishi mumkin.

“Doimiy bayram” obrazi. Oilaviy hayot asosan quvonchli voqealar, tantanalar va maroqli mashg‘ulotlardan iborat tarzda ko‘rsatiladi. Kundalik mas’uliyat, charchoq va muammolar esa kamroq aks ettiriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu obrazlar ijtimoiy tarmoqlardagi real oilalarning to‘liq tasviri emas. Ular ko‘pincha shaxsning hayotidagi muayyan lahzalarni tanlab namoyish etish natijasida yuzaga keladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal oilaviy obrazlarning psixologik ta’sirini bir nechta nazariy yondashuvlar asosida tushuntirish mumkin.

Leon Festinger tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga ko‘ra, insonlar o‘z qobiliyatlari, qarashlari va ijtimoiy holatini baholashda boshqa insonlar bilan taqqoslashga moyil [12].

Ijtimoiy tarmoqlar bunday taqqoslash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Shaxs o‘z oilaviy hayotini boshqa oilalarning internetdagi tasvirlari bilan solishtirishi mumkin. Agar taqqoslanayotgan oila baxtliroq, boyroq yoki muvaffaqiyatliroq deb qabul qilinsa, bu yuqoriga qarab ijtimoiy taqqoslashni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday taqqoslash ayrim holatlarda o‘z oilaviy hayotidan norozilik, hasad yoki yetarli emaslik hissini kuchaytirishi mumkin. Biroq taqqoslash har doim ham salbiy natijaga olib kelmaydi. Ayrim hollarda boshqa oilalarning ijobiy tajribasi motivatsiya va o‘rganish manbai bo‘lishi ham mumkin. Kultivatsiya nazariyasi ommaviy kommunikatsiya vositalarida muntazam takrorlanadigan obrazlar insonlarning ijtimoiy voqelik haqidagi tasavvurlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlarda ideal oilaviy munosabatlarning doimiy namoyish etilishi ayrim foydalanuvchilarda bunday munosabatlarni oilaviy hayotning odatiy yoki kutiladigan shakli sifatida qabul qilishga olib kelishi mumkin.

Natijada, real oilaviy hayotda uchraydigan nizolar, kelishmovchiliklar, moliyaviy qiyinchiliklar yoki kundalik mas’uliyatlar kutilmagan va salbiy hodisa sifatida qabul qilinishi ehtimoli paydo bo‘ladi.

A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, insonlar boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish va ularning oqibatlarini baholash orqali yangi xulq shakllarini o‘zlashtirishi mumkin [14].

Ijtimoiy tarmoqlardagi oilaviy kontent yoshlarning romantik munosabatlar, nikohdagi rollar, muloqot va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlariga ma’lum darajada ta’sir qilishi mumkin. Biroq onlayn modellar real oilaviy munosabatlarning barcha jihatlarini aks ettirmagani sababli, ularni to‘liq namuna sifatida qabul qilish realistik bo‘lmagan kutishlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar o‘zlarini boshqalarga ma’lum tarzda ko‘rsatishga intiladilar. Oilaviy hayotga oid kontent ham shunday taassurotni boshqarish jarayonining bir qismi bo‘lishi mumkin. Shaxs o‘z oilasini baxtli, muvaffaqiyatli va farovon qilib ko‘rsatishga intilishi mumkin. Natijada, uning onlayn profili real hayotdagi barcha tajribalarni emas, balki tanlangan jihatlarni aks ettiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlardagi ideal oilaviy obrazlar nafaqat boshqa insonlarni kuzatish, balki o‘zini namoyon etish jarayonida ham shakllanadi.

Nikohdan kutishlar shaxsning bo‘lajak yoki mavjud oilaviy hayot, turmush o‘rtog‘i, o‘zaro munosabatlar, romantika, moddiy farovonlik va oilaviy rollar haqidagi tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal oilaviy kontent ushbu kutishlarning shakllanishida muayyan manbalardan biri bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, romantik munosabatlarning faqat ijobiy tomonlari muntazam namoyish etilsa, foydalanuvchi real nikohda ham shunga o‘xshash holatlar doimiy bo‘lishini kutishi mumkin.

Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda gullar, sovg‘alar, romantik uchrashuvlar, sayohatlar va kutilmagan syurprizlarning muntazam namoyish etilishi ayrim yoshlarda romantik munosabatlarning asosiy mezoni sifatida qabul qilinishi mumkin. Biroq nikoh faqat romantik his-tuyg‘ulardan iborat emas. Unda mas’uliyat, mehnat taqsimoti, moliyaviy masalalar, qaror qabul qilish, qarindoshlar bilan munosabatlar, farzand tarbiyasi va nizolarni hal etish kabi ko‘plab jarayonlar mavjud.

Agar shaxsning nikohdan kutishlari juda yuqori bo‘lsa va real hayotdagi tajriba ushbu kutishlarga mos kelmasa, kutish va real holat o‘rtasidagi tafovut norozilikni kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, nikohdan kutishlarning shakllanishiga faqat ijtimoiy tarmoqlar emas, balki oila, madaniyat, diniy va ijtimoiy qadriyatlar, shaxsiy tajriba, do‘stlar va ommaviy madaniyat ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ijtimoiy tarmoqlarning rolini boshqa omillardan ajratib ko‘rsatishda ehtiyotkorlik talab etiladi.

Oilaviy qoniqish shaxsning o‘z oilaviy munosabatlarini qanchalik ijobiy va qoniqarli deb baholashi bilan bog‘liq psixologik ko‘rsatkichdir.

Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal oilaviy obrazlar bilan real oilaviy hayotni taqqoslash oilaviy qoniqishga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan mexanizmlardan biridir.

Agar shaxs boshqa oilalarning faqat ijobiy jihatlarini ko‘rib, o‘z oilasining kundalik muammolari bilan taqqoslasa, taqqoslash natijasi bir tomonlama bo‘lishi mumkin. Chunki shaxs o‘z hayotining barcha jihatlarini boshqa oilaning faqat tanlab ko‘rsatilgan jihatlari bilan solishtiradi.

Bu jarayon quyidagi holatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin:

- o‘z oilaviy hayotidan norozilik;
- turmush o‘rtog‘idan yuqori talablar kutish;
- oilaviy munosabatlarni boshqalarniki bilan taqqoslash;
- romantik munosabatlarga nisbatan yuqori talablarning shakllanishi;
- o‘z oilaviy hayotini yetarli emas deb baholash.

Biroq ushbu jarayonlar barcha foydalanuvchilarda bir xil namoyon bo‘lmaydi. Shaxsning o‘ziga baho berishi, media savodxonligi, munosabatlardagi ishonch, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish maqsadi ta’sir kuchini o‘zgartirishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning hayotini kuzatish bilan bog‘liq ijtimoiy taqqoslash va hasad hissi o‘rtasidagi munosabatlar ayrim tadqiqotlarda qayd etilgan [9; 10]. Shu sababli oilaviy kontentni ham tanqidiy qabul qilish va uning tanlab yaratilganligini anglash muhimdir.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ayrim oilalarda qo‘shimcha ziddiyat manbai bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda muammo faqat kontentning o‘zida emas, balki undan foydalanish shaklida ham namoyon bo‘ladi. Masalan, sheriklarning bir-biriga yetarli vaqt ajratmasligi, doimiy ravishda telefon bilan band bo‘lishi yoki onlayn faoliyatni real muloqotdan ustun qo‘yishi munosabatlardagi yaqinlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuningdek, turmush o‘rtog‘ini boshqa insonlarning ijtimoiy tarmoqlardagi obrazlari bilan taqqoslash munosabatlardagi norozilikni kuchaytirishi ehtimoli mavjud.

Biroq ijtimoiy tarmoqlar oilaviy munosabatlar uchun faqat xavf manbai emas. Ular uzoqda yashovchi qarindoshlar bilan aloqani saqlash, umumiy qiziqishlarni baham ko‘rish, oilaviy tadbirlarni rejalashtirish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash uchun ham xizmat qilishi mumkin. Demak, ijtimoiy tarmoqlarning oilaviy munosabatlarga ta’siri foydalanish mazmuni, maqsadi, chastotasi va shaxslararo munosabatlarning umumiy sifatiga bog‘liq. Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal oilaviy obrazlarning ehtimoliy salbiy ta’sirini kamaytirish uchun bir qator psixologik va ijtimoiy choralarni amalga oshirish mumkin. Foydalanuvchilarga ijtimoiy tarmoqlardagi kontent ko‘pincha tanlab olingan, tahrirlangan va ma’lum taassurot yaratishga yo‘naltirilgan bo‘lishi mumkinligini tushuntirish muhim.

Shaxs “ijtimoiy tarmoqdagi ko‘rinish” bilan “real hayot” o‘rtasidagi farqni anglay olishi kerak. Bu ijtimoiy taqqoslashning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Yoshlarni oilaviy hayotning nafaqat ijobiy, balki murakkab jihatlariga ham tayyorlash zarur. Nikohda kelishmovchiliklar bo‘lishi tabiiy ekanligi, muammolarni

muloqot va hamkorlik orqali hal qilish mumkinligi haqida psixologik ma’rifat ishlarini olib borish muhim.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish vaqtini boshqarish, bildirishnomalarni kamaytirish va sherik bilan birga bo‘lgan paytda real muloqotga ustuvorlik berish munosabatlarning sifatini qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

Juftliklar ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rilayotgan oilaviy kontent, undan shakllanayotgan kutishlar va o‘zaro ehtiyojlar haqida ochiq suhbatlashishlari maqsadga muvofiq. Bunday muloqot tushunmovchiliklarni kamaytirish va o‘zaro ishonchni mustahkamlashga yordam beradi.

Oilaviy qoniqishni faqat tashqi ko‘rinish, moddiy farovonlik yoki romantik kontent bilan baholashdan ko‘ra, o‘zaro hurmat, ishonch, qo‘llab-quvvatlash, mas’uliyat va samimiy muloqot kabi qadriyatlarga e’tibor qaratish muhim.

Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal oilaviy obrazlar zamonaviy insonlarning oilaviy munosabatlar, nikoh va baxt haqidagi tasavvurlarini shakllantiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Foydalanuvchilar oilaviy hayotning ko‘pincha ijobiy va estetik jihatlarini tanlab namoyish etishi natijasida real hayotning murakkabligi va kundalik muammolari virtual makonda yetarlicha aks etmasligi mumkin.

Ijtimoiy taqqoslash, kultivatsiya, ijtimoiy o‘rganish va taassurotni boshqarish mexanizmlari ushbu jarayonni tushuntirishga yordam beradi. Ayniqsa, o‘z oilaviy hayotini boshqalarning idealizatsiyalangan onlayn obrazlari bilan taqqoslash ayrim shaxslarda nikohdan yuqori kutishlar va oilaviy hayotdan norozilikni kuchaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning oilaviy qoniqishga ta’sirini faqat salbiy hodisa sifatida baholash to‘g‘ri emas. Ushbu ta’sir foydalanish maqsadi, kontent turi, foydalanish chastotasi, shaxsning psixologik xususiyatlari va oilaviy munosabatlarning umumiy sifatiga bog‘liq.

Shu sababli yoshlar va oilalar o‘rtasida media savodxonlikni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlardagi kontentni tanqidiy qabul qilish, nikohdan realistik kutishlarni shakllantirish va oilada ochiq muloqotni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Oilaviy baxtni ijtimoiy tarmoqlardagi ideal obrazlar bilan emas, balki o‘zaro hurmat, ishonch, samimiy muloqot va birgalikdagi hayotiy qadriyatlar asosida baholash sog‘lom oilaviy munosabatlarni shakllantirish uchun muhim psixologik omillardan biridir.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish chastotasi, ideal oilaviy kontentga duch kelish darajasi, nikohdan kutishlar va oilaviy qoniqish o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik tadqiqotlar asosida o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda yosh, jins, nikoh davomiyligi, foydalaniladigan platformalar va oilaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoit kabi omillarni ham hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bandura A. *Social Learning Theory*. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.

2. Chou H. T. G., Edge N. “They are happier and having better lives than I am”: The impact of using Facebook on perceptions of others’ lives // *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*. — 2012. — Vol. 15, No. 2. — P. 117–121. — DOI: 10.1089/cyber.2011.0324.

3. Clayton R. B., Nagurney A., Smith J. R. The third wheel: The impact of Twitter use on relationship infidelity and divorce // *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*. — 2013. — Vol. 16, No. 10. — P. 717–720.

4. Festinger L. A theory of social comparison processes // *Human Relations*. — 1954. — Vol. 7, No. 2. — P. 117–140. — DOI: 10.1177/001872675400700202.

5. Fox J., Moreland J. J. The dark side of social networking sites: An exploration of the relational and psychological stressors associated with Facebook use // *Computers in Human Behavior*. — 2015. — Vol. 45. — P. 168–176. — DOI: 10.1016/j.chb.2014.11.083.

6. Krasnova H., Widjaja T., Buxmann P., Wenninger H., Benbasat I. Why following friends can hurt you: An exploratory investigation of the effects of envy on social networking sites among college-age users // *Information Systems Research*. — 2015. — Vol. 26, No. 3. — P. 585–605.

7. Valkenburg P. M., Peter J. Social consequences of the Internet for adolescents: A decade of research // *Current Directions in Psychological Science*. — 2009. — Vol. 18, No. 1. — P. 1–5.

8. Sbarra D. A., Coan J. A., Jaremka L. M. Social relationships and health: The importance of relationship quality // *Current Opinion in Psychology*. — 2019. — Vol. 35. — P. 1–6.

9. Krasnova H., Wenninger H., Widjaja T., Buxmann P. Envy on Facebook: A hidden threat to users’ life satisfaction? // *Proceedings of the 11th International Conference on Wirtschaftsinformatik*. — Leipzig, 2013.

10. Verduyn P., Ybarra O., Résibois M., Jonides J., Kross E. Do social network sites enhance or undermine subjective well-being? A critical review // *Social Issues and Policy Review*. — 2017. — Vol. 11, No. 1. — P. 274–302.

11. Festinger L. A theory of cognitive dissonance. — Stanford: Stanford University Press, 1957.

12. Goffman E. *The Presentation of Self in Everyday Life*. — Edinburgh: University of Edinburgh Social Sciences Research Centre, 1956.

13. Bandura A. *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. — Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986.

14. Leonardi P. M. When flexible routines meet flexible technologies: Affordance, constraint, and the imbrication of human and material agencies // *MIS Quarterly*. — 2011. — Vol. 35, No. 1. — P. 147–167.

UDK 159.9

SHAXSDAGI AGRESSIYANING NAMOYISHINI NAMOYON BO’LISHINI BARTARAF QILISH YOKI OLDINI OLISH CHORALARI

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchi

O‘RINBADALOVA DILNOZA BAXTIYOR QIZI
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Psixologiya ta’lim yo’nalish talabasi

Agressiya deganda boshqa shaxsga, odamlar guruhiga yoki hayvonga zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishga qaratilgan har qanday harakat tushuniladi.

Agressiya - bu tajovuzga tayyorlikda ifodalangan shaxsiy xususiyat. Demak, tajovuz - bu boshqa obyektga zarar yetkazadigan muayyan harakatlar to'plami; va tajovuz tajovuz yo'naltirilgan shaxsning boshqa shaxsning xatti-harakatlarini to'g'ri idrok etish va talqin qilishga tayyorligini ta'minlaydi. Bir tomondan, sub'ektning barcha tajovuzkor harakatlari shaxsning tajovuzkorligining orqasida turmaydi. Boshqa tomondan, insonning tajovuzkorligi har doim ham aniq tajovuzkor harakatlarda namoyon bo'lmaydi.

Xuddi shunday, bugungi kunda tajovuzkor xatti-harakatlarning sabablari haqida hech qanday fikr yo'q. Bu ma'noda eng qiyin narsa genetik nazariya va ijtimoiy o'rganish nazariyasidir. Xususan, mahalliy olimlar oilaning shaxs xususiyatlarini va ayniqsa tajovuzkorlikni rivojlantirishda bolaning sotsializatsiyasining asosiy instituti sifatidagi roli haqida tobora ko'proq gapirishmoqda.

Bugungi kunda tajovuzkor xatti-harakatlarning sababi ayniqsa keskin, chunki tajovuzkor bolalar va o'smirlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. Tajovuzkor xatti-harakatlarning og'zaki shakllari oila a'zolariga qaraganda o'rta darajadagi xodimlarda ko'proq uchraydi. Biroq, bu o'smirlarda tajovuzkor xatti-harakatlar nisbatan past darajada. Bilvosita tajovuz darajasiga qarab, asosan qo'llab-quvvatlovchi oilalardan va yuqori martabali oilalardan bo'lgan yoshlar bor.

Agressiya namoyon bo'lishiga munosabat normalarining o'zgarishi, bunday xulq-atvor faoliyati haqidagi hukmlarning mazmuni va qat'iylik darajasi asosan psixologiya fanida an'anaviy ravishda sotsializatsiya jarayoni deb hisoblanadigan narsada aks etdi. Shaxsning barqaror xususiyati sifatida tajovuz haqiqiy aloqa xatti-harakatlarida namoyon bo'lishi aniq. Shu bilan birga, rivojlanayotgan shaxsda dastlab tajovuz kabi xususiyat yo'qligi ham aniq.

Namoyish tajovuzning shaxsiy mulk sifatida namoyon bo'lishi emas, balki muayyan xatti-harakatlarda doimo mavjud bo'lgan trans-situatsion va vaziyat omillarining murakkab o'zaro ta'siri natijasidir. Agressiv bo'lmagan shaxsning tajovuzkor harakatlarida bu harakatlar bolalar bilan ishlashda bolaning harakatlarini oldindan aytib berishga ehtiyot bo'lishi kerak va o'qituvchi o'z ishini qiyin vaziyatda bolaga yordam beradigan tarzda qurishi kerak. Bolalarning kayfiyatidagi eng kichik o'zgarishlarga ham e'tibor qaratish kerak.

Agressiv xatti-harakatlarning jismoniy shakli eng muhimi, ish muhitidagi bolalarda aks etadi va qishloq xo'jaligi texnikasi operatorlari orasida eng tajovuzkor hisoblanadi. Biroq, bu guruhdagi o'smirlarda salbiylik minimaldir. Haddan tashqari negativizm yoshlarni intellektual yetakchilardan ajratib turadi. Bu hodisa nafaqat moddiy boylikka, balki bu muhitdagi rivojlanishga ham ta'sir qiladi, aftidan, tushda paydo bo'ladigan mojarolarni yumshatish uchun, balki vaziyatni yanada og'irlashtirish, mojarolarning oldini olish uchun ham.

Aldamchi va tajovuzkor xatti-harakatlarning rivojlanishi, bo'sh vaqtning ko'plig, ijobiy shaxsiyatning yo'qligi uchun ajralmas shart. Ko'pgina o'smirlarning funktsional aloqalar bilan ishlamaydigan to'liq bo'lmagan oilasi bor. Boshqa tomondan, giperfermentatsiya, shuningdek, beparvolik ko'pincha jinoyatchilikka olib keladi. Haddan tashqari nazorat va zerikarli ta'limotlar va ko'rsatmalar natijasida yuzaga keladigan reaksiyalar uydan pul olish va qo'rqoqlik, tajovuzkorlik shaklida bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tajovuzkor xatti-harakatlar ko'pincha zamonaviy o'smirlar, ko'pincha dushmanlar (janjallar, haqoratlar) atrofida kuzatiladi.

Urushda bo'lgan ba'zi o'smirlar uchun quloqlari yordamida o'zini himoya qilish xulq-atvorning aniq yo'nalishi hisoblanadi. Vaziyat jamiyatning beqarorligi, shaxslararo va guruhlararo mojarolar bilan yanada og'irlashadi. Tajovuzkor xatti-harakatlarning yoshi kamayadi. Qizlarga ehtiros bilan munosabatda bo'lish holatlari tobora ko'payib bormoqda. O'smirlarning tajovuzkor xatti-harakatlarini psixologik va pedagogik tuzatish faqat individual aralashuvlar bilan cheklanmaydi, ular bevosita qo'llaniladi. Ijtimoiy tiklanish va ijtimoiy-ma'rifiy tuzatish o'smirni ijtimoiy noqulaylikka olib boradigan noqulay muhitni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1.Bandura A. O'smirlar tajovuzi // - M.: INFRA-M. 2009. -- 312 b.

2.Mojginskiy Y.B. O'smirlar tajovuzi / Y.B. Mojginskiy. - Sankt-Peterburg: "Lan" nashriyoti 2009. - 328 b.

3.Agressiya. R. Baron, D. Richardson. - Sankt-Peterburg: Piter, 1997.- 336 b.

4. Agressiyaning ijtimoiy psixologiyasi. B. Kreyxe. - Peterburg: Piter, 2003 - 336-bet: kasal. ("Konsentrlangan

Psixologiya" seriyasi).

5. Rean A.A. Shaxsiy tajovuz va tajovuz // Psixologik jurnal. - 1996. - №5. - C.3-18. 6. Levitov N.D. Agressiyaning ruhiy holati // Psixologik masalalar, - 1972, - № 6.

UDK 159.922.8:796

O‘SMIR SPORTCHILARDA MAS’ULIYAT HISSINING SHAKLLANISHIDA SHAXSIY FAOLLIK VA MAQSADGA INTILUVCHANLIKNING AHAMIYATI

QURDOSHEV BEHZOD FAZLIDDINOVICH
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “sport psixologiyasi va pedagogikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Sport faoliyatida shaxsiy faollik va maqsadga intiluvchanlik o‘smir sportchining o‘z imkoniyatlarini namoyon etishi, belgilangan vazifalarni amalga oshirishi hamda faoliyat natijalariga nisbatan mas’uliyatli munosabatini shakllantirishning muhim psixologik omillari sifatida namoyon bo‘ladi. Sport faoliyatida mas’uliyatlilikning qaror topishi nafaqat qo‘yilgan talablarni bajarish, balki sportchining o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘ya olishi, ularga erishish yo‘lida faol harakat qilishi, qiyinchiliklarga nisbatan barqaror munosabat bildirishi va o‘z faoliyati natijalarini ongli ravishda baholashi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘smir sportchilarda shaxsiy faollik va maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirish mas’uliyat hissining shakllanishini ta’minlovchi muhim psixologik-pedagogik yo‘nalishlardan biri hisoblanadiю. Psixolog A.N.Leontyevning ilmiy qarashlariga muvofiq, shaxsning faolligi uning ehtiyojlari, motivlari va faoliyat maqsadlari bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi [1,13]. Mazkur ilmiy yondashuvga muvofiq, o‘smir sportchining sport faoliyatidagi faolligi faqat tashqi rag‘bat yoki murabbiy talablariga bog‘liq bo‘lmay, balki uning faoliyat mazmunini anglash darajasi, shaxsiy motivlari va ko‘zlangan natijaga bo‘lgan munosabati bilan belgilanadi. Shu sababli o‘smir sportchilarda mas’uliyat hissini shakllantirish jarayonida ularning faoliyatga ongli munosabatini kuchaytirish, mustaqil tashabbus ko‘rsatishiga imkon yaratish va shaxsiy maqsadlarini belgilashiga ko‘maklashish muhim ahamiyat kasb etadi. B.F.Lomovning shaxs faolligi va individual xususiyatlar haqidagi qarashlari nuqtayi nazaridan, inson faoliyati uning shaxsiy imkoniyatlari, ehtiyojlari, motivlari hamda ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati asosida namoyon bo‘ladi [2,34]. O‘smir sportchilarda bu holat mashg‘ulotlarda faol ishtirok etish, murabbiy tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarish, o‘z xatolarini tahlil qilish, sport natijalarini yaxshilashga intilish va jamoa oldidagi majburiyatlarini anglashda yaqqol ko‘rinadi. Demak, shaxsiy faollikning yuqori darajada namoyon bo‘lishi sportchining o‘z faoliyati natijalariga nisbatan mas’uliyatli munosabatini kuchaytiruvchi psixologik shartlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

O‘smirlik davrida maqsadga intiluvchanlikning rivojlanishi ham alohida psixologik ahamiyatga ega. J.V.Atkinson tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini

belgilashga oid yondashuvda insonning ichki motivatsiyasi, mustaqilligi va o‘z faoliyatini tanlash imkoniyati faol ishtirokning muhim manbalari sifatida qaraladi [3,56]. Mazkur yondashuv sport faoliyatiga tatbiq etilganda, o‘smir sportchining mashg‘ulot va musobaqalardagi faolligi faqat tashqi rag‘batlantirishga emas, balki uning sport faoliyatiga bo‘lgan ichki qiziqishi va shaxsiy maqsadlari bilan ham belgilanadi. Ichki motivatsiyaning mavjudligi sportchining belgilangan vazifalarni muntazam bajarishi, mashg‘ulotlarga mas’uliyat bilan yondashishi va qiyinchiliklarga duch kelganda faoliyatini davom ettirishiga yordam beradi. Maqsadga intiluvchanlik sport faoliyatida uzoq muddatli natijaga yo‘naltirilgan xatti-harakatlarni tashkil etish bilan ham bog‘liqdir. Mazkur nuqtayi nazardan, o‘smir sportchining maqsad sari intilishi uning faqat g‘alabaga bo‘lgan xohishini emas, balki faoliyat jarayonidagi mas’uliyatini ham belgilaydi. Bunda sportchi o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib o‘tish, faoliyat natijalarini tahlil qilish va zarur hollarda o‘z harakatlarini qayta tashkil etishga intiladi. Psixolog A.V.Radionovga ko‘ra, o‘smir sportchilarda shaxsiy faollikning namoyon bo‘lishiga sport faoliyatining mazmuni, murabbiy bilan munosabatlar, jamoadagi psixologik muhit, sportchining o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi va erishishni ko‘zlagan maqsadlarining aniqligi ta’sir ko‘rsatadi [4,80]. Ayniqsa, o‘smirlik davrida mustaqil fikrlash va o‘z faoliyatini o‘zi tashkil etishga bo‘lgan ehtiyojning ortishi sportchining tashabbuskorligini rivojlantirish uchun muhim sharoit yaratadi. Bunday sharoitda murabbiyning vazifasi faqat nazorat qilish bilan chegaralanmay, balki sportchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, uning shaxsiy maqsadlarini aniqlash va erishilgan natijalarni tahlil qilishga yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi.

Olimlardan E.N.Gogunovga ko‘ra, sport faoliyatida maqsadga erishish jarayoni doimo turli obyektiv va subyektiv qiyinchiliklar bilan kechadi. Subyektiv qiyinchiliklar sportchining o‘z imkoniyatlariga ishonchsizligi, motivatsiyaning pasayishi, charchoq va natijadan qoniqmaslik kabi holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin[5,98]. Obyektiv qiyinchiliklar esa mashg‘ulotlarning yuqori yuklamasi, musobaqalarning ko‘pligi, raqobatning kuchayishi, sport rejimiga rioya qilish zaruriyati va boshqa tashqi shart-sharoitlar bilan bog‘liq. Mazkur holatlarda shaxsiy faollik va maqsadga intiluvchanlik sportchining faoliyatni davom ettirishi, muammoni hal etishning maqbul yo‘lini izlash va o‘z zimmasidagi vazifalarni bajarishiga yordam beruvchi psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi. O‘smir sportchilarning shaxsiy faolligi jamoaviy munosabatlar ta’sirida ham shakllanadi. Jamoadoshlarning fikri, sportdagi o‘zaro raqobat, guruhdagi mavqe va murabbiy tomonidan beriladigan baho o‘smirning o‘z faoliyatiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishi mumkin. Shu orqali o‘smir sportchi o‘z imkoniyatlarini boshqa sportchilar faoliyati bilan taqqoslaydi, mavjud kamchiliklarini anglaydi va natijalarini yaxshilashga intiladi. Mazkur jarayon maqsadga yo‘nalgan faollikni kuchaytirib, sportchining o‘z faoliyati va uning natijalariga nisbatan shaxsiy javobgarligini oshirishi mumkin. Umuman olganda, o‘smir sportchilarda mas’uliyat hissining shakllanishida shaxsiy faollik va maqsadga intiluvchanlik o‘zaro bog‘liq

psixologik xususiyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxsiy faollik sportchining maqsad sari amaliy harakatlarini ta’minlasa, maqsadga intiluvchanlik ushbu harakatlarning yo‘nalishi va izchilligini belgilaydi. Ularning uyg‘unligi o‘smir sportchining mashg‘ulot va musobaqa jarayonida mustaqil qaror qabul qilishi, vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi, qiyinchiliklarga bardosh berishi va o‘z faoliyati natijalariga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lishi uchun psixologik asos yaratadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘smir sportchilarda mas’uliyat hissining namoyon bo‘lishida shaxsiy faollik va maqsadga intiluvchanlikning o‘zaro aloqadorligini o‘z tasdig’ini topdi. Tadqiqot natijalari sportchining o‘z faoliyatida qanchalik faol ishtirok etishi va belgilangan maqsadga erishishga qanchalik izchil intilishi uning mas’uliyatli xulq-atvorini shakllantirish bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Qolaversa, o‘smir sportchilar bilan psixologik-pedagogik ishlarni tashkil etishda ularning mustaqil faolligini rag‘batlantirish, shaxsiy maqsadlarini aniqlashtirish, faoliyat natijalarini mustaqil baholash va qiyinchiliklarni yengib o‘tish strategiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozimligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ильин Е.П. Психология спорта. - СПб.: Питер, 2012. - 352 с.
2. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. - 2000. - Vol. 55. - No. 1. - P. 68–78.
3. Atkinson J.W. An Introduction to Motivation. - Princeton, N.J.: Van Nostrand, 1964. - 335 p.
4. Родионов А.В. Психология физического воспитания и спорта: учебник. - М.: Академический проект, 2004. - 576 с.
5. Гогунов Е.Н., Мартьянов Б.И. Психология физического воспитания и спорта: учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений. - М.: Академия, 2000. - 288 с.

UDK 159.9:796

SPORTCHILARDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

SAFOYEV HASAN AMINOVICH,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Zamonaviy sport taraqqiyoti sportchilardan nafaqat yuqori darajadagi jismoniy va texnik tayyorgarlikni, balki murakkab vaziyatlarda tezkor va samarali qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab etmoqda. Ayniqsa, jamoaviy sport turlarida musobaqa natijasi ko‘pincha sportchilarning bir-biri bilan hamkorligi, o‘zaro tushunishi va umumiy maqsad yo‘lida muvofiqlashtirilgan harakatlariga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli sportchilarda qaror qabul qilish jarayonlarini ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan o‘rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiyada qaror qabul qilish shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan murakkab psixologik jarayon sifatida talqin qilinadi. Sport jamoalari esa o‘ziga xos kichik ijtimoiy guruh bo‘lib, unda qaror qabul qilish jarayonlari guruh me’yorlari, jamoa qadriyatlari, liderlik va kommunikativ munosabatlar ta’sirida shakllanadi. Sportchilar faoliyatini o‘rganishda ushbu omillarni hisobga olish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Sportchilarda qaror qabul qilish jarayoni vaziyatni idrok etish, mavjud axborotni qayta ishlash, muqobil variantlarni baholash va eng maqbul harakatni tanlash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Biroq jamoaviy sport turlarida mazkur jarayon faqat individual tafakkur bilan cheklanmaydi. Sportchining qarori ko‘pincha jamoa a’zolarining harakati, guruh ichidagi munosabatlar va umumiy strategik maqsadlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy psixologik yondashuvga ko‘ra, sport jamoasidagi guruhiy jipslik qaror qabul qilish samaradorligining muhim omillaridan biridir. Guruhiy jipslikning yuqori darajada shakllanishi sportchilar o‘rtasidagi ishonchni kuchaytiradi, kommunikativ to‘siqlarni kamaytiradi hamda murakkab vaziyatlarda tezkor va muvofiqlashtirilgan harakat qilish imkoniyatini yaratadi. Jamoa a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch qaror qabul qilishda noaniqlikni kamaytiruvchi muhim psixologik omil hisoblanadi.

Sport jamoalarida kommunikatsiya jarayoni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Musobaqa davomida sportchilar qisqa vaqt ichida axborot almashadilar, vaziyatni baholaydilar va birgalikdagi harakatlar bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Samarali kommunikatsiya jamoaviy faoliyat natijadorligini oshirsa, kommunikativ uzilishlar yoki noto‘g‘ri axborot almashinuvi qarorlarning sifati pasayishiga olib kelishi mumkin. Qaror qabul qilish jarayonida liderlikning o‘rni ham muhimdir. Jamoada rasmiy yoki norasmiy liderlarning mavjudligi sportchilarning harakatlarini muvofiqlashtirishga, jamoa a’zolarini umumiy maqsad sari yo‘naltirishga hamda murakkab vaziyatlarda

psixologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Liderning ijtimoiy-psixologik ta’siri sportchilarning qarorlariga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Etnopsixologik nuqtai nazardan qaralganda, sportchilarning qaror qabul qilish xususiyatlari muayyan xalqning madaniyati, qadriyatlari va ijtimoiy tajribasi bilan ham bog‘liqdir. Milliy mentalitet, jamoaviylikka munosabat, o‘zaro hurmat va mas’uliyat hissi kabi omillar sportchilarning jamoa bilan o‘zaro munosabatlarida hamda qaror qabul qilish uslublarida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan etnomadaniy qadriyatlar sport jamoalarida ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiruvchi omillardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Shuningdek, sportchilarda ijtimoiy identifikatsiya jarayonining rivojlanganligi ham qaror qabul qilish samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sportchi o‘zini jamoaning muhim a’zosi sifatida anglagan sari uning mas’uliyat hissi ortadi, jamoa manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘yishga intilishi kuchayadi. Natijada guruhiy qarorlar sifati va sport faoliyati samaradorligi oshadi.

Sportchilarda qaror qabul qilish jarayonlari individual psixologik omillar bilan bir qatorda ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik omillar ta’sirida shakllanadi. Jamoa ichidagi ijtimoiy munosabatlar, guruhiy jipslik, kommunikatsiya, liderlik, o‘zaro ishonch va ijtimoiy identifikatsiya sportchilarning qaror qabul qilish samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Etnomadaniy qadriyatlar esa ushbu jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi. Shu bois sportchilarni tayyorlash jarayonida ijtimoiy-psixologik treninglar, jamoaviy hamkorlikni rivojlantirish va etnopsixologik omillarni hisobga olish sport faoliyati samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2022.
2. Стефаненко Т.Г. Этнопсихология. – Москва: Аспект Пресс, 2021.
3. Шоумаров Ғ.Б. Ижтимоий психология. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020.
4. Донцов А.И. Психология группы. – Москва: Юрайт, 2021.
5. Carron A.V., Eys M.A. Group Dynamics in Sport. – Morgantown, 2022.
6. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Human Kinetics, 2023.

UDK 159.9:004

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO‘RSATISHNING INNOVATSION USULLARI VA PSIXODIAGNOSTIK INTERFAOL TEXNOLOGIYALAR.

SOBIROVA LOBAR RAHIMOVNA
Surxondaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
“Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari”
kafedrasi o‘qituvchisi.

Bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayoni nafaqat o‘quv mazmuni va metodikasiga, balki ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat faoliyatiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish borasida qabul qilingan qaror ham innovatsion psixologik metodika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan [5]. Zamonaviy raqamli avlod (Gen Z va Gen Alpha) o‘quvchilarining psixologik ehtiyojlari, ularning axborotni qabul qilish va ijtimoiy muloqot uslublari an’anaviy diagnostika va korreksiya usullaridan farq qiladi, bu esa amaliy psixologiya xizmatini yangi vositalar bilan boyitishni taqozo etadi.

Shu bilan birga, maktab psixologlari faoliyatidagi tashkiliy va uslubiy muammolar — jumladan, foydalaniladigan diagnostik vositalarning zamon talablariga to‘liq javob bermasligi va psixologning maktab jamoasidagi mavqeyi bilan bog‘liq masalalar — psixologik xizmatni raqamli vositalar hisobiga modernizatsiya qilish zaruratini yanada dolzarblashtiradi [6].

Tadqiqotning maqsadi — raqamli ta’lim muhitida psixologik xizmat ko‘rsatishning innovatsion vositalarini, xususan interfaol psixodiagnostik texnologiyalar va sun’iy intellektga asoslangan monitoring tizimlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda O‘zbekiston ta’lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

— raqamli psixodiagnostikaning nazariy asoslarini yoritish;

— xalqaro tajribadagi innovatsion platformalarni tahlil qilish;

— an’anaviy va raqamli diagnostika usullarining qiyosiy samaradorligini aniqlash;

— kiberbulling profilaktikasida sun’iy intellekt imkoniyatlarini ko‘rib chiqish;

— amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

So‘nggi yillarda psixologik xizmatni raqamlashtirish mavzusi xorijiy tadqiqotchilar e’tiborini tobora ko‘proq jalb etmoqda. Qozog‘istonlik tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan "I-psychodiagnostics.kz" SMART platformasi loyihasi doirasida ta’lim muassasalarida bolalarni psixologik-pedagogik diagnostika qilishning raqamli tizimi yaratilib, u psixologik xabga integratsiya qilingan holda sinovdan o‘tkazilmoqda [1]. Rossiyalik olimlar universitet ta’lim muhitida LMS Moodle platformasi negizida kognitiv testlar batareyasidan foydalangan holda psixodiagnostik makon qurish texnologiyasini ishlab chiqqan, bu yondashuv o‘lchovlarni vaqt bo‘yicha taqsimlash va natijalarni real vaqt rejimida qayta ishlash imkonini bergan [2]. Belarusiyalik tadqiqotchilar esa masofaviy o‘qitish sharoitida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni raqamli psixodiagnostika vositasida baholash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqqan [3]. Yevropa Ittifoqi doirasida amalga oshirilayotgan "AI@Mediators" loyihasi sun’iy intellekt yordamida kiberbullingni erta aniqlash va profilaktika qilishga qaratilgan bo‘lib, u ta’lim muassasalarida psixologik xavfsizlikni ta’minlashning yangi bosqichini ifodalaydi [4].

Milliy miqyosda esa maktab psixologi faoliyatining zamonaviy yo‘nalishlari, jumladan diagnostik, profilaktik va rivojlantiruvchi ishning axborot texnologiyalari bilan boyitilishi masalalari o‘rganilgan [6], biroq raqamli interfaol vositalarning aniq samaradorlik ko‘rsatkichlari va ularni ta’lim muassasalari amaliyotiga tizimli joriy etish mexanizmlari hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu bo‘shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Metodologiya: Tadqiqot qiyosiy-tahliliy, so‘rovnoma, interfaol ekspress-diagnostika hamda matematik-statistik metodlar asosida olib borildi. [Tadqiqot bazasi va tanlanma hajmi — o‘z tadqiqotingiz ma’lumotlari bilan to‘ldiring: masalan, N nafar o‘quvchi va M nafar amaliyotchi psixolog] ishtirokida raqamli psixodiagnostik vositalar (masalan, Google Forms, Kahoot, ixtisoslashtirilgan psixologik botlar va platformalar) sinovdan o‘tkazildi. Ma’lumotlarni yig‘ish uchun standartlashtirilgan so‘rovnoma va tuzilgan kuzatuv varaqalaridan, natijalarni qayta ishlash uchun tavsiflovchi statistika usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot davomida to‘plangan dastlabki kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, interfaol raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchilarning so‘rovnoma va testlarga jalb qilinish darajasini sezilarli oshiradi, natijalarni qayta ishlash muddatini esa bir necha barobar qisqartiradi [1, 2]. Bundan tashqari, sun’iy intellektga asoslangan monitoring tizimlari yordamida kiberbulling holatlari va o‘quvchilarning emotsional zo‘riqish alomatlarini erta bosqichda aniqlash imkoniyati kengaymoqda [4].

Olingan natijalar raqamli psixologik xizmatning bir qator afzalliklarini ko‘rsatadi: vaqtni tejash, ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash, o‘quvchi bilan doimiy aloqani saqlash hamda anonim murojaat imkoniyati orqali nozik mavzularda (kiberbulling, oilaviy nizolar, ruhiy tushkunlik alomatlari) ochiqroq muloqotga erishish. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli psixodiagnostik platformalarni

LMS tizimlariga integratsiya qilish o‘lchovlarni tabiiy o‘quv jarayoniga singdirish, shu orqali o‘quvchilarda stress darajasini kamaytirish imkonini beradi [2].

Shu bilan birga, raqamli vositalarni joriy etishda bir qator xavf va cheklovlarni ham hisobga olish zarur: shaxsiy ma’lumotlar konfidentsialligini ta’minlash, psixolog kadrlarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi, shuningdek ba’zi hududlardagi ta’lim muassasalarida internet infratuzilmasining nomutanosibligi. Sun’iy intellektga asoslangan tizimlarning xulosalari yakuniy qaror emas, balki malakali psixolog uchun qo‘shimcha diagnostik ma’lumot manbai sifatida qaralishi lozimligi alohida ta’kidlanadi — bu inson omilining psixologik xizmatdagi markaziy o‘rnini saqlab qolish zarurligini bildiradi.

Ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni raqamlashtirish an’anaviy metodlarni rad etish emas, balki ularni zamonaviy interfaol vositalar bilan boyitish jarayonidir. Interfaol psixodiagnostik platformalar va sun’iy intellektga asoslangan monitoring tizimlari psixolog faoliyatining aniqligi, tezkorligi va qamrovini sezilarli darajada oshiradi, ayniqsa kiberbulling va emotsional zo‘riqishni erta aniqlashda yuqori samaradorlik namoyon etadi.

1. Ta’lim muassasalarida yagona raqamli psixologik monitoring platformasini bosqichma-bosqich joriy etish.
2. Psixolog kadrlarning raqamli savodxonligini va interfaol diagnostika vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini muntazam oshirib borish.
3. Raqamli psixodiagnostik vositalarni mahalliy yosh xususiyatlariga moslashtirilgan holda ishlab chiqish va validatsiyadan o‘tkazish.
4. Shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlovchi me’yoriy-huquqiy va texnik mexanizmlarni takomillashtirish.
5. Sun’iy intellekt tizimlari xulosalarini yakuniy emas, balki yordamchi vosita sifatida qo‘llash tamoyilini mustahkamlash.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Alimbaeva, S.K., Smatova, K.B., Sabralieva, Zh.T. (2024). Integration of the Psychological Hub into the Digital Psychodiagnostics Platform. Bulletin of Abai KazNPU, Series of Psychology.
2. Balanev, D.Yu., Shamakov, V.A. (2025). The Technology of Building a Psychodiagnostic Space in the University’s Digital Educational Environment. Vestnik Tomskogo gosudarstvennogo universiteta, 510, 153–161. https://doi.org/10.17223/15617793/510/16
3. Shlykova, T.Yu., Baraeva, Ye.I., Yeryomenko, D., Galetski, A.V. (2023). Tsifrovaya psixodiagnostika distantsionnogo vzaimodeystviya prepodavatelya i studentov v uchebnom protsesse. Minsk: RIVSh.
4. Universidad de Alicante va boshq. (2023–2026). AI@Mediators: Artificial Intelligence and Digital Educational Tools for the Prevention of Cyber-Bullying [Erasmus+ K2 loyihasi]. https://aimediatorsproject.eu/

5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2018). Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida.

6. Xo‘jamurotov, E.S. (2026). Maktab psixologining ta’lim tizimidagi o‘rni va o‘quvchilar shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 6(5), 553–556.